

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-2/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Собитов Ўлмасбой Тожахмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнора Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/2 (111), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 143 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Bazarova G.G. Ish topish borasidagi mashaqqatlar va yoshlarning chet elga ketishining asosiy sabablari	5
Chorshanbayev U. Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda onlayn xizmatlarning roli	9
G'aniyev M.X., Mirzayeva N.S. Ekologik tadbirkorlik faoliyati va ekologik muhitni barqarorlashtirish muammolari	13
Ibadullayev E.B. Mintaqa iqtisodiyotida tashqi savdning tutgan o'rni	16
Jabborova Z. The role and significance of tourism in socio-economic development	21
Kushbakova S. Qayta tiklanuvchi energiyaning xorijiy mamlakatlarda rivojlanishi dinamikasi	26
Makhmudova N.D. Development of the system of auditing personnel management in the organization	29
Masharipov X. Mintaqada turizm xizmatlari eksportini asosiy yo'nalishlari	32
Matkarimov I.B. Agrobiokimyo xizmatini rivojlantirishning Yevropa Ittifoqi tajribalari va ularni mamlakatimiz agrobiokimyo xizmatlari sohasida qo'llash	36
Matyakubov U.R., Karimova Sh.O', Saidova R.Sh. Ekologik inqirozli hududlarda mehmonxona industriyasining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi o'rni	40
Maxmudov J.E., Saidjonov D.S. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tishning nazariy asoslari	46
Sanginova I.N. Surxondaryo mahallalarida xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor va ularning natijalari	48
Sapayeva F.N. Xizmatlar va servis bozorini rivojlantirishda marketing strategiyasining xususiyatlari	52
Shoyev A.X. O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'limni ijtimoiy marketing tamoyillari asosida rivojlantirish: muammo va echimlar	55
Tajibayev K.Q. Xalqaro standartlar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish kichik biznes sub'ektlari raqobatbardoshligini ta'minlovchi omil sifatida	61
Tursunov A.M. Keyns nazariyasi va uning xxi asrda dolzarbligi	66
Xusanov U. N. Telekommunikatsiya korxonalarini faoliyatining xorij tajribasi	70
Ботирова Р.А., Сирожиддинов И.Қ. Тадбиркорликни солиқ тизими орқали рағбатлантириш ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлашнинг долзарб йўналиши сифатида иқтисодиёт тараққиётининг асоси	74
Джаббарова З. Инновацион жараёнлар ва олий таълим тизимида илмий тадқиқотлари самарадорлигини ошириш омиллари	76
Жураев И.И. Сирдарё вилоятининг иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари	81
Зарипов Х. З. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларидаги инсон капиталини баҳолаш	84
Казаков О.С., Узоқов Л.Ф. Меҳнат ресурсларини бошқариш ва самарадорлик	91
Камалов А.С. Комбинированные методы индикативного управления экономикой транспортных систем	94
Мирзаев О.Д. Саноат корхоналарини трансформациялашнинг назарий жиҳатлари ва ёндашувлари	98
Мирхамидова Д.Н. Эффективное развитие и функционирование инновационных механизмов в условиях глобализации	103
Орипова Г.Н. Трансформация розничной и оптовой торговли в цифровой сфере в Республики Узбекистан	107

Умурзакова М.Н. Соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришда тиббий суғуртани ташкил этиш	112
Усманова С.С. Совершенствование процессов локализации в фармацевтике	116
Файзиев О.Р., Халиков С.А. Ўзбекистоннинг сайёҳлик салоҳияти ва уни ривожлантириш имкониятлари	121
Хасанов С.Х. Иқтисодий хавфсизликнинг институционал асосларини такомиллаштиришнинг хориж давлатлар тажрибаси	124
Эрназаров Н.Э. Солиқ имтиёзларини самарали ишлаш механизмини таъминлаш йуллари	131
Қазақов Т.Ш. Давлатнинг ҳудудий иқтисодий сиёсатида барқарор ҳудудий ривожланишнинг мазмуни ва концептуал асослари	134
АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ	
Xalikov S.R. O‘z davrining eng buyuk me‘morlaridan Oskar Ribeyro De Almeyda Niemeyer Soares Filho ijodi	140

UO'K 316.023.6

**ISH TOPISH BORASIDAGI MASHAQQATLAR VA YOSHLARNING CHET ELGA
KETISHINING ASOSIY SABABLARI***G.G.Bazarova, dots., Andijon mashinasozlik instituti, Andijon*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishsizlikning asosiy sabablari, ish izlashdagi qiyinchiliklar, yoshlarning tanlovda adashuvi va shunga o'xshash masalalar yuzasidan kelib chiqqan asosiy muammolar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Davlat imtihonlari, ishchi tajribasi, oylik maosh, ishdagi talablar, diplom ishi, davlat, vaqtni to'g'ri taqsimlash, global va asosiy muammolar, chet el mashaqqatlari, yosh avlod.

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены основные проблемы, вызванные основными причинами безработицы, трудностями в поиске работы, заблуждением молодежи в выборе и тому подобное.

Ключевые слова: Государственные экзамены, стаж работы, Зарплата, требования к работе, дипломная работа, государство, правильное распределение времени, глобальные и фундаментальные проблемы, зарубежные невзгоды, молодое поколение.

Abstract. This article will discuss the main causes of unemployment, difficulties in seeking employment, confusion of young people in the competition and the main problems arising from similar issues.

Keywords: State exams, work experience, monthly salary, requirements at work, diplomatic work, state, proper distribution of time, global and main problems, foreign hardships, the younger generation.

Mamlakatimizda har yili talabalar bitirishadi va yangilari o'qishga topshirishadi. O'qishga kirishda esa bazilari o'z bilimlari kuchliligi bilan kirishsa bazilari esa shunchaki omadliliklaridan ham o'qishga kirish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Universitetga kirish kimlargadir oson, kimlargadir esa qiyin kichadi. O'qishga qabul qilinishdan keyin esa haqiqiy o'qish jarayoni boshlanadi. Ushbu jarayonda talabalar qiyinchilik bilan o'qishadi, imtihon topshirish jarayonlarida talabalardan katta e'tibor va kuch, harakat, bilim, tirishqoqlik talab etiladi. Kirish ko'pchilikka nasib etadi desak, universitetni bitirib diplomni olish hammaga ham nasib etavermaydi. Chunki o'quv yilida kattadan-katta harakat va e'tibor talab etiladi. Huddi shu zayilda eski talabalar bitirib, yangilari kirishda, universitet esa ularni qabul qilishda davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchilar ham o'z bilim va ko'nikmalarini bergan xolda o'quvchilarga yordam berishadi. Bu yordamdan foydalana olgan talaba, darslarda e'tibor bilan o'tirgan, doimiy ravishda dars qilib brogan studentlargina imtihondan eson-omon o'tib olishadi. Buni a'lo bajarganlar, darsga o'z vaqtida kechikmay, darslarni qoldirmay kelganlar esa shunga yarasha a'lo baholarga yoo'pishadi. Aytishganlaridek, "talabalik-oltin davr"-hisoblanadi. Shuningdek, o'quv jarayonida hamma birdek mashaqqat, mehnat qilib bir oiladek harakat qilishadi va natjada esa qaysidir ma'noda bir oiladek bo'lib qolisahdi, do'stlashishadi, ko'maklashishadi. Har bir yosh o'quvchi bolaliklaridan kim bo'lishlariyu, nima qilishlarini belgilab olishlari uchun ota-onalar va ularning ustozlari o'rni ularning hayotida muhim va katta qismini egallaydi. Bolada ba'zi xolatlarda o'z qiziqishlari orqasidan ketib ushbu kasbni tanlashlari kuzatiladi. Lekin bilganimizdek, yosh avlodni istaklari o'zgaruvchan bo'ladi va ushbu jarayonda ular o'zlarini kelajakda kim bo'lishlariyu, nima ish qilishni xohlashlarini anglab olishlari anchagina qiyin bo'ladi. Bir kun shifokor bo'lishni xohlashsa, boshqa kun yurist, keying yil esa umuman bu kasblarga teskari xolatda arxitektor yoki san'at yo'nalishini tanlashlari mumkin va bu jarayonda kattalarning ularga yordam berishlari muhimdir. Endi ish topish masalasiga keladigan bo'lsak, bitirishga bitirib olib ish topishga qiynaladiganlar esa juda ko'p va bu asosiy muammolardan biri desak bo'ladi. Buni asosiy sabablari bor bularni sanab misol keltirib o'tadigan bo'lsak:

1. Universitetdagi o'quv davrda yaxshi o'qimaslik oqibatida.
2. O'quv jarayonida kerakli vahtni behuda sarflashlik oqibatida.

3. To'g'ri yo'lni tanlamalik oqibatida.

4. Ishda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni qo'shimcha tarzda o'rganmaslik oqibatida.

Shunga o'xshash ko'plab masalalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Lekin ishga kirishda avvalo, ish beruvchi ishchini qobilyati va ishga bo'lgan munosabati, tirishqoqligi hamda shunga o'xshash ishni rivojlantira olishdagi qobilyatlarini ko'rish uchun vahtinchalik sinov muddatiga ishga olishadi. Bu sinov muddatidan o'ta olganlar doimiy ishga qabul qilinadi. Lekin layoqatsizligi, e'tibrsizligi va ishga bo'lgan behurmatsizligi oqibatida deyarli ko'pchilik buni eplay olishmaydi va hayotlaridagi birinchi kelgan to'siqni o'zidan taslim bo'lishadi, ya'ni dangasalik qilishadi. Aksincha yanada harakat qilib, o'z ustida ishlab, tajribalarini oshirganlarga o'zlarida yana kuch topib va yana qayta urinib ko'rganlar nafaqat ish topishda balki, boshqa hayotiy masalalarni ham osongina yechimini topib keta olishadi. Vahtinchalik ish jarayonidan keyingi vaqtda ham ishni huddi shunday olib borish qiyinroq masala hisoblanadi. Endi asosiy va eng katta global muammolardan biri deb oylik maoshini aytadigan bo'lsak, hammaning eng birinchi talabi-ishni qandayligi, uning qiyinchiligidan ham ko'proq ish beruvchining beradigan oylik maoshi qiziqtiradi. Buni tabiiy ravishda qabul qilsak bo'ladi. Sababi hammani sharoiti har xil bo'ladi, kimgadir pul ko'proq kerak bo'ladi va ishdan ham ko'proq ungaoylik miqdori qiziqroq bo'ladi. Lekin oylik oshishidayam ishda o'z kriteriyalari bo'ladi bunga misol tariqasida aytadigan bo'lsak:

1. Birinchi o'rinda ishchining ish kuni oshib borgani sari yani ish stajiga qarab oylik belgilanishi. (Bu uchun esa ishchini sabr bilan staji oshishi kutishi kerakligi)

2. Keyingisi esa ishchining qobilyati (ishda o'zini ko'rsata olishi)

3. Ishda keltiradigan foydasi (ya'ni agar katta bir kompaniya bo'ladigan bo'lsa, bu esa aynan biznesga iqtisoslashtirilgan bo'lsa ushbu ishda yuksalish, ishchining ishga va kompaniyaga qanchalik foyda keltirishi katta va muhim ahamiyatga ega, chunki hamma ish beruvchiga ham foyda keltiradigan ishchi kuchi zarur)

4. Eng muhimlaridan yana biri ish vaqtida nojo'ya va ishga daxlsiz harakatlar qilsa(Hayfsan olish jarayoni)

5. Ishga kechikib yokida besabab shunchaki kelmasa.

Yuqorida keltirib o'tgan misollar ish jarayonida kuzatiladigan jarayonlardir. Shu bilan birga ushbu xolatlar kuzatilsa ish beruvchining ham xodimiga nisbatan fikri o'zgaradi va bunday ko'rinisdagi ishchilarni ishga olishni xohlamaydi. Shu kabi muammolar sabab o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bundan tashqari yana bir masala yosh avlodning hammasi ham o'qishga chanqoq emas va ular "bola boshidan ma'lum", - degan naqlga asosan boshidan o'qishni xohlashmaydi va boshidan o'qishga qiziqishmaydi. Ular tabiatan ishlashni ya'ni boshqa ish qilishni xohlashadi. Masalan o'ziga qiziqarli va daromadli ayniqsa hozirgi kunga mos bo'lgan biznes ya'ni tadbirkorlik izidan ketishni o'zlar ma'lum bir mahsulot yaratishni yokida chetdan olib kelib o'zlarini yashaydigan joylariga sotishni va shunga oxshash ishlarni qilishni yoqtirishadi. Axir hamma ham davlat Ishida ishlab yurishni xohlashmaydi, bu har bir insonning erkin huquqidir ya'ni har kim erkin ish tanlash, kasb tanlash huquqiga egadirlar. Bu masala borasida ota-ona yoki o'qituvchilarning maslahat berib to'g'ri yo'l ko'rsatishlari yaxshi lekin ularning mana shu ishni qilasan deya ularga boshqa ish va kasbni cheklab, shu ishga majburlashlariga ular haqli emasdir va shu bilan birga bu jinoyat ham hisoblanadi. Har bir insonning huquq va burchlari davlat tomonidan himoya qilinadi va ularning havfsizliklari ta'minlanadi. Bola ham tug'ilishi bilan o'z huquq va burchlari belgilab qo'yilgan insonlari sirasiga kiradi va davlat o'z qaramog'iga ham oladi. Yana bir toifadagi yoshlarga keladigan bo'lsak, ular asosan til(ingliz, rus, nemis, arab, fransuz kabilar) larni o'rganib chet elga ishga ketishni xohlashadi. Ko'pchiliklari ham bunga o'zlariga maqsad qo'ygan xolda erishishadi ham. Shu sababdan ham chet elga ketish masalasi asosiylardan biri hisoblanadi. Ko'pchilikning nafaqat yoshlar balki Yoshi kattalarning ham chet elda oson ish bor va oylik katta degan no'to'g'ri fikrlari bor va bu ularni qamrab olgan. Lekin hamma joyning ham toshu tarozisi bor. Chet elda oylik maosh katta bo'lgan bilan ishini oson deb bo'lmaydi. Har ishda qiyinchilik va mashaqqat bo'ladi. Har bir ishga tajriba kerak bo'ladi. Hamma uchun vaqt va ishni unumdor va samaradorligini oshirib borishi uchun shug'ullanishi kerak boladi. Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlab ularning vaqtlarini to'g'ri va kerakli taqsimlashlari yo'lida asosan e'tibor va yordam berish kerak. Masalan bandlik deganda:

Bandlik yoki aholini ish bilan ta'minlash — mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha kishilararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirkorlikni, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash (o'zicha bandlik)ni, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishni, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida kunduzgi o'qishni ham o'z ichiga oladi. To'liq va samarali bandlik tushunchalarini ham bir-biridan farqlamoq kerak. To'liq bandlik ishga muhtoj bo'lganlar va ishlashni xohlaganlarning barchasi ish bilan ta'minlangan holatni bildirib, ish kuchiga bo'lgan talab bilan ish kuchi taklifi o'rtasida muvozanat mavjudligini ifoda etadi. Samarali bandlikni esa ikki nuqtai nazardan: iqtisodiy nuqtai nazardan — inson resursidan eng oqilona foydalanish, ijtimoiy nuqtai nazardan — mehnatning inson manfaatlariga eng muvofiq kelishi jihatlaridan tavsiflash mumkin. To'liq bandlik bandlikni miqdor jihatdan, samarali bandlik esa sifat jihatdan tavsiflaydi. Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning bo'lmasligi hamisha to'liq va samarali bandlikka sharoit qoldirmaydi. Agar taklif talabdan ortib ketsa, albatta ishsizlik paydo bo'ladi, talab taklifdan va real ehtiyojlardan ortib ketgan sharoitlarda esa yashirin ishsizlik kelib chiqadi. Bandlik va ishsizlikni, ularni kerakli darajada saqlab turish maqsadlarida tartibga solishning asosiy mexanizmi bandlik xizmati ishini tashkil etish, kasbga tayyorlash va kasbga yo'naltirish hisoblanadi. O'zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida, ya'ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan ta'minlash, insonni ishli bo'lish huquqlarini ro'yobga chiqarish kafolatlari „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunida (1992-yil 13-yanvar; 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O'zbekistonda bandlik muammolari katta e'tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o'sish sur'atlari yuqori, aholi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi, aholining ko'p qismi qishloqlarda yashaydi. 1998-yil O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33, 9 % davlat sektori korxonalar va tashkilotlarida, 66, 1 % esa nodavlat sektori obyektlarida, jumladan xususiy xo'jaliklarda (2, 7 %) ish bilan band edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi tufayli nodavlat sektorida ishlovchilar soni ortib bordi. Ularning bandligi 1994 — 96 yillarda 12 % ga ortdi. Mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'lmagan qismi ishsizlarni tashkil etadi. Iqtisodiy izlanish markaziga ko'ra, hozirgi kunga kelib O'zbekistonning ish siyosati modeli o'z samarasini yo'qotib bormoqda va mamlakatning mehnat bozorida murakkab vaziyat paydo bo'lgan. Birinchidan, yaratilgan ish o'rinlari soni yetarli emas, yaratilgan ish o'rinlarining aksari bo'lsa barqaror emas. 1991-2011-yillarda aholining mehnatga layoqatli qismi ulushi 50% dan 61, 1% ga o'sdi. Shu vaqtning o'zida mehnatga layoqatli aholining ish bilan band qismi ulushi 81, 6% dan 66, 9% ga kamaydi. Bundan tashqari, ish o'rinlarning beqarorligi o'sib bormoqda: yaratilgan yangi ish o'rinlarining 30 % yo'qotilmoqda. Urbanizatsiya jarayonining tezlashayotgani sabab shahar mehnat bozorlarida keskinlik o'sib bormoqda.

Ikkinchidan, nokorporativ sohaning (individual mehnat faoliyati, uydagi mehnat va yuridik shaxs statusiga ega bo'lgan korxonalardan tashqaridagi turli faoliyatlar) keng ko'lamda tarqalganligi noustuvor o'sish xavfini oshirmoqda. Bunga sabab nokorporativ soha davlat byudjetiga tushadigan soliqlarni kamaytirmoqda, pul va valyuta almashinishidagi disbalanslar chuqurlashmoqda hamda mehnat aloqalari rasmiylashtirilmagani uchun mehnat kuchi sifati pasaymoqda. Uchinchidan, mamlakat mehnat siyosati mehnat samaradorligini sust rag'batlantirmoqda hamda mehnat resurslarini yangi o'sish nuqtalari bo'la oladigan tarmoqlarga samarasiz yo'naltirmoqda. Ilm va yuqori texnologiyali tarmoqlarda (ma'lumot xizmati, mashinasozlik, mikrobiologiya) ishlayotganlar ish bilan band aholining atigi 1, 5% ini tashkil qiladi. Hozirgi bandlik strukturasi va investitsiya siyosati sharoitida O'zbekistonda mehnat samaradorligini ikki marta oshirish uchun taxminan 15 yil kerak bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar bilan O'zbekiston orasidagi farqni kamaytirishni yanada mushkullashtiradi. Aholi bandligini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar ish bilan band bo'lgan aholining tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni yangi

ilg'or tarmoqdar va sohalarga jalb qilish bo'lib, bu esa o'z navbatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i band. Ularning ma'lum qismini bo'shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish, noqishloq xo'jaligi ish joylarini yaratish, mehnatni tashkil etishning ilg'or uslublarini qo'llash, o'smirlarni, ko'p bolalik ayollarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag'batlantiruvchi ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash kabi tadbirlar aholining ish bilan bandligini oshirishga olib keladi. Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda «Aholini ish bilan bandligi» fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozori bevosita inson faoliyati bilan, inson kapitali ishlashi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bozor iqtisodiyoti tarkibiy elementlari orasida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mehnat bozoridagi vaziyatning o'zgarishi, unda yuz berayotgan tebranishlar mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Bu o'z navbatida mehnat bozorini rivojlantirish masalasining dolzarbligini shakllantiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibini yangilash ta'sirida esa buning ahamiyati yanada ortadi. Bu yilgi hisobdagi yangiliklardan shuni misol qilib o'tish mumkinki, davlat ishlarida ishlayotgan ko'plab insonlarning oyiligi hozirda sezilarli darajada oshdi va qo'shimcha kvotalar ajratildi. Shu sababdan ham ishchilardan ishining darajasi va sifatini oshirishni talab qilishga ish beruvchilarning birdek qonuniy haqqi bor. Bu masalani yanada chuqurroq va ochiqroq ko'rib chiqiladigan bo'lsa ishchi, ish beruvchi hamda oluvchi yoki iste'molchilarning birdek huquqlari haqida batafsil ushbu masala yuzasidan qabul qilingan qonunda ochiq-oydin ko'rib chiqish mumkun. Hammaning huquqi domiy ravishda birdek va shaffof tarzda davlat tomonidan himoya qilinadi. Ish beruvchining huquqlari alohida ishchining huquqlari alohida ushbu qonunda yakdil tarzda talqin qilingan. Masalan;

Ish beruvchining; 1) Oylik maoshini o'z vaqtida ishchilarga berishi. 2) Ishchilarni kerakli va zarur buyumlar (ya'ni ish jihozlari bilan ta'minlashi); 3) Ish joyida ishga mos tarzda qulay shart-sharoitlar yaratilishi. 4) Har bir ishchi bilan qonuniy tarzda shartnoma tuzishi. 5) Har bir ishchining ish vaqtidagi holati, sog'ligiga e'tibor berishi, qo'shimcha ehtiyoj choralarini ko'rib chiqishi. Shu kabilar shular sirasiga kiradi. Endi esa ishchilarning asosiy vazifalariga yuzlanadigan bo'lsak: 1) Ishchining ishning boshlanish va tugashi belgilangan vaqtida ishda bo'lishi; 2) Topshirilgan ishlarni esa o'z vaqida aytilganidek qilishi; 3) Ishda har xil spirtli ichimliklar ichishi yokida mast holatda kelishi taqiqlangan xollarda ushbu qoidani buzmasligi; 4) Ish vaqtida nojo'ya harakatlar qilmasligi hamda ishga zid tarzda turli xil materiallardan foydalanmasligi; Kabilar shular jumlasiga kiradi. Hozirda ishsizlarga ish topib berish maqsadida turli xil "call centre" lar hamda taashkilotlar ochilgan. Ko'pchilik shu markazlarga murojaat qilib ham o'zlariga va talablariga mos, to'g'ri keladigan ishni tanlab ishlashmoqda. Bundan tashqari ishchi kuchi izlaganlar ham ushbu markazlarga e'lon qoldirishadi va ushbu e'londa o'zlarining talab va istaklarini qoldirishadi. O'z ishini ustasilar ham o'z mahsulot va ishlarini taqdim qilib e'lon berishadi. Xulosa qilib aytganda hozir imkoniyatlari keng davrda yashayapmiz va shu bilan birga ish bilan band bo'lishni xohlaganlar esa o'z izlanish va harakatlari asosida ishlashlari uchun ham imkoniyatlar bor. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash ularni to'g'ri yo'naltirish ham mamlakatimizda muhim masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga yoshlarga ham yengilliklar berilganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Aholini ish bilan bandligi". [2011-yil Q.X Abdurahmonov, N.T Shoyusupova]
2. Norma.uz sayti [Mamlakatimizdagi so'nggi ko'rsatkichlardan habardor qiladigan sayt]
3. "Yoshlarga qo'llanma". [Lex.uz sayti]
4. "Million dollarlik xatolar". [Pavel Annekov]
5. "Ishchi va ish beruvchi orasidagi nizomlar". [Lex.uz sayti]
6. "Bola huquqlari". [Qonun Lex.uz] (Ushbu sayt O'zbekiston Respublikasining asosiy hujjatlari e'lon qilinadigan asosiy sayt hisoblani)

IQTISODIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA ONLAYN XIZMATLARNING ROLI

U.Chorshanbayev, o'qituvchi, Guliston davlat universiteti, Guliston

Annotatsiya. Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning turli metodologik yondashuvlar bo'yicha qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar iqtisodchi ekspertlari tomonidan turli yo'nalishlardagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash orqali uy xo'jaliklari, oila va individning (shaxsning o'zi) o'z ixtiyoridagi moliyaviy resurslarini boshqara olishi va ularni to'g'ri yo'naltirishdagi samarali qarorlarini baholashga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda, aholining moliyaviy savodxonligi darajasining aholi turmush darajasiga ta'siri ham baholanadi. Bunda monetar ko'rsatkichlar orqali uy xo'jaliklari, oila yoki shaxsning monetar xarakteristikasi shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy savodxonlik mezonlari va ularni baholash indikatorlari, davlat dasturlari, kredit, kredit turlari, moliyaviy ta'lim, rejalashtirish, moliyaviy bilim.

Аннотация. Эксперты-экономисты ряда международных финансовых организаций проводят исследования по разным направлениям различных методологических подходов к оценке уровня финансовой грамотности населения. Эти исследования сосредоточены на оценке способности домохозяйств, семей и отдельных лиц управлять своими финансовыми ресурсами и их эффективными решениями путем оценки уровня финансовой грамотности населения. Кроме того, также оценивается влияние уровня финансовой грамотности населения на уровень жизни населения. В этом случае денежные характеристики домохозяйств, семей или отдельных лиц формируются через денежные показатели.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, критерии финансовой грамотности и показатели их оценки, государственные программы, кредит, виды кредита, финансовое образование, планирование, финансовые знания

Abstract. Economic experts of a number of international financial organizations are conducting research in various directions on various methodological approaches to assessing the level of financial literacy of the population. These studies focus on evaluating the ability of households, families and individuals to manage their financial resources and their effective decisions by assessing the level of financial literacy of the population. In addition, the impact of the level of financial literacy of the population on the standard of living of the population is also evaluated. In this case, the monetary characteristics of households, families or individuals are formed through monetary indicators.

Key words: Financial literacy, financial literacy criteria and their evaluation indicators, state programs, credit, types of credit, financial education, planning, financial knowledge

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 23 iyulida qabul qilingan "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-4400 sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aholi iqtisodiy-moliyaviy savodxonligini oshirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda aholi moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi "Iqtisodiy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari uzoq va yaqin xorijlik A.K. Sen, S. S. Artemeva, V. V. Mitroxin, E.N. Alifanova, A. Chaplinska kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan [2,3,4].

Londonlik Dr. Nirmala Lee takidlashicha Iqtisodiy savodxonlik bu- axborot yoki imkoniyatlardan ko'ra ko'proq bo'lgan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy savodxonlik bo'yicha ta'lim tadbirlari ko'p qirrali bo'lishi va faqatgina rasmiy ta'lim tizimida o'qiydigan bolalar hamda kattalar ta'limi doirasida belgilanishi kerak [5]

Amerikalik yozuvchi va biznesmen **Robert Kiyosaki** «Iqtisodiy savodxonlik moliyaviy bilimlarning samarasi bo'lib, dastlab pul topish, jamg'arish, ongli ravishda jamg'armani yuqori samaradorlikka ega investitsiyaga yo'naltirishi, daromadini oshirishi va o'z hayotining yaxshilashi bilan bog'liq deb izohlaydi[6]

Tahlil va natijalar. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki mamlakatlarda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish bo'yicha davlat dastrularini ishlab chiqishdan oldin, moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning turli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) ekspertlari tomoidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda “moliyaviy ta'lim” iqtisodiy kategoriyasiga alohida e'tibor qaratiladi.(1-rasm)



1-rasm. IHTT tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda mamlakatlar aholisining iqtisodiy-savodxonligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Masalan, ko'pchiligimiz bir oyda bir marta bo'lsa ham ommaviy axborot vositalari orqali qaysidir fuqaroning bankdan kredit qanday olish kerakligini bilmay yurganini, yoki olganlari ichida, biznesini yo'lga qo'yolmay, aksincha kasod bo'lganligi haqida xabarlarini o'qib qolamiz. Aslini olganda, fuqarolarimizning mana shunday firibgarlar “tuzog'iga” tushib qolishiga, kasod bo'lishiga biz aytayotgan iqtisodiy savodxonlik darajasining yetarli emasligi sabab bo'lgan.

Onlayn kreditni olish va so'ndirish usullari

Siz bankdan onlayn kredit olsangiz, albatta u bo'yicha oylik to'lovlarni amalga oshirishingiz zarur bo'ladi.[7,8] Kredit bo'yicha oylik to'lovlar ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: har oy bir xil summada yoki summasidan kelib chiqib bo'lingan miqdorlarda to'lovlarni amalga oshirish. Bular annuitet yoki differentsial to'lov usullari deb ataladi. Har birini alohida batafsil ko'rib chiqamiz.

Annuitet to'lov usuli bu nima?

Onlayn kreditni so'ndirishning annuitet usuli bu kreditni so'ndirishning shunday usuliki, unda siz bankka kredit bo'yicha to'lovlar grafigiga asosan har oy bir xil miqdordagi summani o'tkazib borishingiz lozim bo'ladi. Siz uzoq muddatga kredit olsangiz, birinchi oylarda to'lovlarning katta qismini foiz to'lovlari tashkil etadi. Asosiy qarz asta sekinlik bilan qisqarib boradi.[9]

Finlit.uz kredit kalkulyatori yordamida misol ko'rib chiqamiz:(1-jadval)

Deylik, siz 10 000 000 so'm miqdorida 6 oy muddatga yillik 23% asosida kredit olmoqchisiz.

Kredit bo'yicha oylik to'lov summasi 1 780 240,71 so'mni tashkil etadi.

Har oyda kreditni so'ndirish summasi va foiz to'lovlarining nisbati o'zgarib boradi. Birinchi oyda siz 191 666,67 so'm miqdorida asosiy qarzni to'laysiz. So'nggi oyda esa asosiy qarz bo'yicha to'lov 1 746 761,13 so'mni tashkil qiladi, foiz to'lovlari esa bor-yo'g'i 33 479,59 so'm bo'ladi.

Siz bankka to'laydigan umumiy kredit miqdori 10 681 444,29 so'm bo'ladi.

Agar kredit muddati uzoqroq bo'lsa, kreditni so'ndirish davomida asosiy qarz summasi va foiz to'lovlarining nisbati o'zgaradi.

Xuddi shu misolni shartlarini biroz o'zgartirgan holda ko'rib chiqamiz:

Deylik, siz 10 000 000 so'm miqdorida kredit olmoqchisiz. Ammo, 6 oyga emas, endi 2 yilga (24 oyga), 23% asosida. Ushbu shartlarda:

Oylik to'lovlar miqdori 523 733,06 so'mni tashkil etadi.

Birinchi oyda siz 332 066,39 so'm miqdorida asosiy qarz bo'yicha to'lovlarni va 191 666,67 so'm miqdorida foiz to'lovlarni amalga oshirasiz birinchi oyda umumiy to'lov miqdorining deyarli yarmini foiz to'lovlari tashkil qiladi, so'nggi oyda esa foiz bo'yicha to'lov bor-yo'g'i 9 849,44 so'mga teng bo'ladi.

Siz bankka to'laydigan umumiy kredit miqdori 12 569 593,45 so'm bo'ladi.

1-Jadval

Kreditni so'ndirishning annuitet usuli

No	To'lov	Asosiy	foiz	Balance qarzdor
1	1780240.71	1588574.05	191666.67	8411425.95
2	1780240.71	1619021.72	161219	6792404.24
3	1780240.71	1650052.97	130187.75	5142351.27
4	1780240.71	1681678.98	98561.73	3460672.29
5	1780240.71	1713911.16	66329.55	1746761.13
6	1780240.71	1746761.13	33479.59	0
	10681444.29	10000000	681444.29	

<https://finlit.uz/uz/services/calculators/> ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Onlayn kreditni so'ndirishning differentsial usuli bu nima?

Onlayn kreditni so'ndirishning differentsial usuli bu kreditni so'ndirishning shunday usuliki, unga ko'ra har oy asosiy qarz bo'yicha bir xil summa to'lab boriladi, foiz to'lovlari esa kredit qoldig'i kamayib borishi bilan birga asta-sekin kamayib boradi.

Birinchi oylarda to'lovlar miqdori eng yuqori bo'ladi va har oy kichrayib boradi. So'nggi oyda to'lov miqdori birinchi oyga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Finlit.uz kredit kalkulyatori yordamida xuddi yuqorida keltirilgan shartlar bilan misol ko'rib chiqamiz (2-jadval).

10 000 000 so'm miqdorida 6 oyga 23% asosida kredit. Kreditni so'ndirishning differentsial usulida oylik to'lovlar miqdori quyidagicha bo'ladi:

2-Jadval

Kreditni so'ndirishning differentsial usuli

No	To'lov	Asosiy	foiz	Balance qarzdor
1	1858333.33	1666666.67	191666.67	8333333.33
2	1826388.89	1666666.67	159722.22	6666666.67
3	1794444.44	1666666.67	127777.78	5000000
4	1762500	1666666.67	95833.33	3333333.33
5	1730555.56	1666666.67	63888.89	1666666.67
6	1698611.11	1666666.67	31944.44	0
	10670833.33	10000000	670833.33	

<https://finlit.uz/uz/services/calculators/> ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Har oylik to'lov summalari bir-biridan farqlanadi. Shunday qilib, birinchi oyda to'lov 1858333.33so'mni tashkil etadi undan 191666.67so'm foiz to'lovlari. So'nggi (6) oy uchun to'lov miqdori 1698611.11so'mga teng bo'ladi undan faqatgina 31944.44so'm foiz to'lovlari.

Siz bankka to'lashingiz zarur bo'lgan umumiy summa **10670833.33**so'mga teng.

Muddat uzaytirilgan taqdirda, masalan, 24 oyga, birinchi to'lov hajmi 605 707,76 so'mni tashkil etadi, shundan 189 041,10 so'm foiz to'lovlari. So'nggi oyda (24) to'lov hajmi 424 805.94 so'mga teng bo'ladi undan 8 139,27 so'm foiz to'lovlariga teng.

Kredit muddati ikki yil bo'lganda, bankka to'lanishi zarur bo'lgan summa 12 398 721,46 so'mni tashkil etadi.

Ikki to'lov usulining farqi nimada?

10 000 000 so'mlik kredit bo'yicha to'lovlarni ikki xil usulda amalga oshirishni solishtirish natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, differentsial to'lov usuli annuitetga nisbatan 6 oy va 2 yil muddat uchun mos ravishda 9 297,82 so'mga va 170 871,99 so'mga foydaliroq ekanini ko'rishimiz mumkin.

Demak, kreditni annuitet va differentsial usulda so'ndirishni taqqoslaydigan bo'lsak, shartlar bir xil bo'lganida birinchi holatda to'lovlar miqdori birmuncha ko'p bo'ladi.

Ushbu to'lov usullarining **afzalliklari(+)** va **kamchiliklari(-)**:

Kreditni so'ndirishning annuitet usuli:

+siz har oy qancha miqdorda to'lov amalga oshirishingizni aniq bilasiz. Kredit majburiyati bo'yicha o'z xarajatlaringizni bilgan holda, byudjetingizni yanada aniq rejalashtira olishingiz mumkin.

- birinchi to'lovlar tarkibida foiz to'lovlari katta qismni tashkil etadi.

Kreditni so'ndirishning differentsial usuli:

+muddatning so'nggi oylarida kredit bo'yicha to'lov miqdori kamayib boradi, chunki, asosiy qarz va foiz to'lovlari mos ravishda kamayib boradi.

- kredit bo'yicha to'lovlarning boshida katta moliyaviy bosim.

Bu bilan

- foiz stavkasi va uni hisoblash bo'yicha savollar blanki;
- inflyatsiyaga oid savollar blankiga javob topishimiz mumkin.

Bu esa o'z navbatida nisbatan mukammal bo'lmagan va xatolik yuqori bo'lgan natijaga erishishga olib keladi. Amaliyotda har doim ham aholining oylik daromadlari ularning bir oy davomidagi xarajatlarini to'liq qoplay olmaydi. Ayrim holatlarda aholi qarz olish (bank kreditlari, lombard, yaqinlardan qarz olish va boshqalar) yoki o'z jamg'armalarini ishlatish kabi holatlar uchrab turadi. Bunday vaziyatda keyingi oylardagi turmush darajasi ko'rsatkichi nisbatan pasayadi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirishda onlayn xizmatlarning ro'li muxim bo'lib, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan aholining iqtisodiy savodxonligi darajasini baholash amaliyotini inobatga olgan holatda davlatning maqsadi dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

•amaliyotda har doim ham aholining oylik daromadlari ularning bir oy davomidagi xarajatlarini to'liq qoplay olmaydi. Ayrim holatlarda aholi qarz olish (bank onlayn kreditlari, lombard, yaqinlardan qarz olish va boshqalar) yoki o'z jamg'armalarini ishlatish kabi holatlar uchrab turadi shu sababli axoli onlayn kredit olishda kancha olishi va qaytarishda, moliyalashtirish davrida turli qiyinchiliklarga duch kelmasligi bo'yicha yuqorida batafsil malumot berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" gi PQ-4400 sonli qarori, 23.07.2019y.

2. A.K. Sen, Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation . <https://www.livelib.ru/book/1006054312-poverty-and-famines-an-essay-on-entitlement-and-deprivation-amartya-sen>

3. С. С. Артемьева, В. В. Митрохин Оценка финансовой грамотности российской и зарубежной молодежи и рекомендации по ее повышению/ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ. Т. 22, № 1. 2018.С 46.

4. А. Чаплинска "Оценка финансовых знаний молодежи в Латвии" Банкаўскі веснік, ЛІСТАПАД 2019. С. 47.

5. Lee N. // Financial literacy and financial literacy education: What might be the components of an effective financial literacy curriculum? // Institute of Education University of London. 2010 - P.3;
6. Кийосаки Р.Т. Богатый папа, бедный папа / Р.Т.Кийосаки. – «Попурри», 2011. – С. 33;
7. Drucker P.F. Post – Capitalist Society. – Oxford Butterworth: Heinemann, 1993. – P. 271;
8. A.V.Vaxabov, Sh.A.Tashmatov, N.X.Xaydarov, A.V.Vaxabov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/ - Toshkent: Baktria Press.2013. 288b
9. Moliyaviy savodxonlik.Finlit/uz. <https://finlit.uz/uz/articles/credit/loan-payments-date/>

UO'K 338.33

EKOLOGIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA EKOLOGIK MUHITNI BARQARORLASHTIRISH MUAMMOLARI

M.X.G'aniyev, i.f.d.(DSc), dots., Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan
N.S.Mirzayeva, o'qituvchi, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahondagi barcha mamlakatlarda ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish, ekologik muhitni o'zgarishiga olib kelayotgan chiqindilar va chiqindilarni qayta ishlashning holati Namangan viloyati misolida o'rganilgan. Chiqindilarni qayta ishlashda ekotadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyati hududlar bo'yicha tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik muhit, ekologik muhitni barqarorlashtirish, atrof-muhit muhofazasi, chiqindi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, ekotadbirkorlik faoliyati, "Yashil iqtisodiyot", ekologik madaniyat, chiqindi turlari.

Аннотация. В данной статье на примере Наманганской области изучается развитие экологического предпринимательства во всех странах мира, ситуация с отходами и переработкой отходов, что приводит к изменению экологической среды. Особое внимание уделяется организации и популяризации экобизнеса по переработке отходов. Проанализирована деятельность мусороперерабатывающих предприятий по регионам

Ключевые слова: Экология, экологическая среда, стабилизация экологической среды, охрана окружающей среды, отходы, технологии переработки отходов, экобизнес, «Зеленая экономика», экологическая культура, виды отходов.

Abstract. In this article, the development of ecological entrepreneurship in all countries of the world, the situation of waste and waste processing, which leads to a change in the ecological environment, is studied on the example of Namangan region. Special attention is paid to the organization and promotion of eco-business activities in waste processing. The activities of waste processing enterprises were analyzed by region

Key words: Ecology, ecological environment, stabilization of ecological environment, environmental protection, waste, waste processing technologies, eco-business activities, "Green economy", ecological culture, types of waste.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muhitni yaxshilash va kelajak avlodga xavfsiz yashash muhitini qoldirish eng dolzarb muammolari biri hisoblanadi. Yer yuzida ekologik holat kundankunga global darajada yomonlashib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun turli mamlakatlar turli xil choralarni foydalanilmoqda. Ular orasida eng samarali choralardan biri atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekotadbirkorlik faoliyati turini amaliyotga tatbiq qilishdir.

Mamlakatda ekotadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatning tabiatga salbiy ta'sirini qisqartirish va "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Aksariyat mamlakatlar "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishadi. BMT va Yevropa iqtisodiyot qo'mitasi mutaxassislarining fikricha, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada "yashil investitsiyalar"ni joylashtirishni rag'batlantirish hisoblanadi[1]. Buning natijasida ekologik muhitni buzayotgan chiqindilarni tezroq qayta ishlash imkoniyati yanada ortadi. Oxirgi yillarda jahonda xom-ashyo o'rni chiqindilardan foydalanish katta tezlik bilan o'sib

bormoqda. Masalan, Yaponiyada 96 foizdan ko'proq ishlab chiqarish chiqindilari xom-ashyo o'rnida qayta qo'llaniladi. Ikkilamchi xom-ashyolarga qayta ishlov berish tajribalari Germaniya, Bolgariya va Polshada keng rivojlanib bormoqda[2]. O'zbekistonda ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha uzoq yillik tajribaga ega bo'lsada, asosiy amaliy chora-tadbirlar keyingi 7 yil davomida bajarilmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda ekologik muhitni yomonlashishi avvalo Orol dengizini qurishi bilan bevosita bog'liqdir. Orol dengizi atrofida iqlim o'zgarishi ham ro'y bermoqda va yog'inlar tarkibida tuzlar ko'paymoqda. Qishda havo harorati 5-6 gradusga past bo'lmoqda. Orol dengizining 5 mln. gektar tubining ochilib qolishi chang bo'ronlarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Uchib borgan zararli tuzlar tarkibini asosan xloridlar va sulfatlar tashkil etadi. Shamol uchirib ketgan tuzlar landshaftlar va insonlar salomatligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

O'zbekistonda ekologik muhitga chiqindilar va undan tarqayotgan badbo'y hidlar ta'siri oshib bormoqda. Har yili 7 million tonna qattiq maishiy chiqindilar paydo bo'lmoqda. Aholi jon boshiga 2 foiz-dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 2 baravar ko'p. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sohasida "Nol chiqindi" tamoyillari joriy etilmoqda. Barcha chiqindi poligonlarida chiqindilarni to'liq qayta ishlash va kuydirish bosqichma-bosqich bajariladi. Bu borada dastlab maishiy chiqindilarni turlariga qarab alohida-alohida yig'ish va olib chiqib ketish muhim ahamiyatga egadir. Chiqindilarni kuydirish natijasida olingan issiqlik yoki elektr energiyadan "Yashil tarif"dan foydalanish hamda energiyani aholi ehtiyojlariga yo'naltirish zarur. Amaliyotda buning uchun "Yashil subsidiyalar" ajratish kerak bo'ladi[3]. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining tashkil etish huquqiy asoslari yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 avgustdagi PQ-349-son "Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va shu kungi "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bu borada dasturi amal bo'lmoqda[4].

Chiqindilar quyidagi turlarga ajratiladi: 1 Ishlab chiqarish chiqindilari; 2. Iste'molga yaroqsiz chiqindilar. Ayni vaqtda sanoat korxonalaridan chiqadigan chiqindilar va axlatlarni zararsizlantirish eng katta ekologik muammo bo'lib qolmoqda. Chiqindilarni ko'mib tashlash yoki kuydirish kabi klassik usullar mavjud tarqalgan bo'lsa-da, chiqindilarni qayta ishlash va undan ikkilamchi mahsulot olish texnologiyasi keng tarqalmoqda. Bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatish ekotadbirkorlik deyiladi. Chiqindilarni qayta ishlashda ekotadbirkorlik faoliyati rivojlangan davlatlarda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ekotadbirkorlik termini "yashil tadbirkorlik" va ijtimoiy tadbirkorlik deb ham nomlanadi. Aholining ekologik bilimlarini oshib borishi jamiyatlarning ekotadbirkorlarga bo'lgan ehtiyojini ham oshiradi. Tabiat resurslarining cheklanganligi, dunyo aholisining tinimsiz ko'payishi va biologik xilma-xillikning kamayishi ekologiya haqida xavotirlar paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlarni an'anaviy tadbirkorlardan ajratib turadigan asosiy farqi bosh maqsad ko'proq foyda olish bo'libgina qolmay, bu turdagi tadbirkorlar ekologik toza, iqtisodiy rentabelli va ijtimoiy qiymat yaratadigan biznes modelini yaratishga intiladi[5].

Ekotadbirkorlarning e'tiborini atrof-muhit muhofazasiga qaratish uchun juda ko'p imkoniyatlari mavjud. Masalan, barqaror mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib beradigan korxonalarni rivojlantirish, tabiiy resurslarni mas'uliyat bilan taqsimlash, chiqindilarni yo'q qilish va kamaytirish, ularni arzon hom-ashyo sifatida qayta ishlash, yerdagi yovvoyi hayot va hayvonot olamini saqlab qolish yoki shaharchalar, kompaniyalar va hukumatlarning atrof-muhitga zararini kamaytirishga qarshi kurashish va boshqa shu kabi masalalardir. Ularning asosiy maqsadi bu ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni tadbirkorlik yo'li bilan bartaraf etish hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ekotadbirkorlik subektlari soni sohalar va tarmoqlar bo'yicha 2023-yil 1-yanvar holatiga 169tani tashkil etib[6] yil sayin ular soni ortmoqda. Ayniqsa, atmosfera havosiga sanoat korxonalaridan tashlanadigan tashlamalar miqdori hamda CO2 gaz miqdori keskin oshib ketishi, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bilan bog'liq muammolarning ko'payganligi tufayli dolzarb masalaga aylandi. Xususan, mamlakatda maishiy chiqindilarni to'plash, olib chiqib ketish va saralash xizmatlarini ko'rsatish hamda chiqindilarni qayta ishlash sohalarida ekotadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mamlakatda mavjud 169ta ekotadbirkorlarning 51tasi (30,2%) maishiy chiqindilarni to'plash va saralash xizmatlarini ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, qolgan 118 tasi (69,8%) chiqindini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan korxonalar hisoblanadi.

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini viloyatlar bo'yicha tahlil qilsak, Toshkent shahrida 39 ta (33,1 %i,) Farg'onada 17 ta (14,4%i,) Namanganda 16 ta (11,9%i) va Toshkent viloyatida 14 ta (8,5%i)ni tashkil etgan holda, Qashqadaryo, Xorazm, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida tashkil etilyotgan korxonalar juda oz. Chiqindini qayta ishlash korxonalarining qayta ishlaydigan chiqindi turlari bo'yicha mavjud 118 ta chiqindini qayta ishlash korxonalarining asosiy qismi plastmassani qayta ishlash (28%), tekstil chiqindilarini qayta ishlash (20%), metal chiqindilarni qayta ishlash (19%), rezina ham qog'oz mahsulotlarini qayta ishlash (7%) sohasiga to'g'ri keladi.

Chiqindilarni qayta ishlash Namangan viloyatida keskin muammolardan biri edi. Biroq keyingi yillarda bu borada berilgan imtiyozlar chiqindilarni qayta ishlash korxonalar sonini ortishiga imkon berdi. Natijada viloyati maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarga davlat-xususiy sherikchilikni joriy etishda va chiqindini qayta ishlovchi ekologik tadbirkorlar soni bo'yicha mamlakatimizda yetakchi viloyatlardan biriga aylandi jadval. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, viloyatda "Namangan qog'oz" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan chiqindi qog'ozlarni qayta ishlash hajmi ortib bormoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash jarayoniga xususiy sektor jalb etila boshlandi. Buning uchun Prezidentimizning 2020 yil 29 sentyabrdagi "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohani tubdan isloh qilishda muhim omil bo'ldi. Mazkur qarorga asosan chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga maxsus texnikalar 7 yil muddatga pulini bo'lib to'lash sharti bilan beriladi. Hozirda mamlakatimizda 3 mingga yaqin maxsus texnikalar mavjud. Kichik biznes vakillari uchun yana bir imkoniyat shuki, muayyan hudud to'liq tadbirkorga birlashtiriladi.

Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hamda "Namangan musaffo iqlim" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida davlat-xususiy sheriklik bitimi imzolangan.

Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Mingbuloq va Namangan tumanlarini qamrab oluvchi ikkita davlat xususiy sherikchilik asosida chiqindini qayta ishlash klaster loyihasi "Namangan musaffo iqlim" MChJ tomonidan tender asosida qo'lga kiritilgan. Bitimga ko'ra, davlat sherigi tomonidan 74 ta maxsus avtotransport vositasi 7 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan, 2 ta chiqindi joylashtirish poligoni maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash investitsiya kiritish sharti bilan, 36 ta maishiy chiqindini qabul qilish shoxobchasi va 206 ta chiqindi konteyneri 10 yil muddatga beg'araz foydalanish uchun taqdim etilgan.

Namangan viloyatidagi chiqindini qayta ishlash korxonalarini tahlili[7]

№	Korxonani nomi	Loyihaviy quvvati (tn. yil)	2022-yil davomida qayta ishlangan chiqindi miqdori (tonna)	Qayta ishlanadigan chiqindi turi	Qayta ishlash natijasida olinadigan maxsulot turi	Qayta ishlash natijasida olinadigan maxsulot hajmi (tonna)
1	"Abduraxmon Plast Invest" XK	3 750	2838	Plastmassa	Kiyim ilgich	2270,4
2	"Turob plast invest" MChJ	4 550	4015	Plastmassa	Xom ashyo	3212
3	"Maqsudbek savdo plast" MChJ	2 100	1940	Plastmassa	Xom ashyo	1540
4	"Poliyetilen sanoat" MChJ	5 760	5300	Plastmassa va politilen	Plastmassa mahsulotlar	5100
5	"Chortoq Mashinasozlik" MChJ	576	570	Metal chiqindi	Metall buyumlar	550
6	"Namangan rezina plast" ShK	8 900	7095	Avtoshina	Konveyr lenta	5676
7	"Namangan qog'oz" MChJ	66 900	52822	Qog'oz	Rulon qog'oz	42257,6

8	"Vodiy sof qog'oz" MChJ	500	480	Qog'oz	Xo'jalik qog'oz	450
9	"Nostandart" MChJ	5900	4455	Metal chiqindi	Armatura	3564
10	"Universal box" MChJ	1300	1089	Qog'oz,	Quti	871,2
11	"Plastex" MChJ	9100	7975	Politilen granulasi	Palitilen truba	6380
12	"Fayz Nam-Tekstil" MChJ	3200	2618	Paxta tolasi chiqindisi	Noto'qima mato	2094,4
13	"Zakovat sof qog'oz" MChJ	6100	20658	Qog'oz	Hojatxona qog'oz	20451,4
14	"Namplastsavdo" MChJ	4 500	3435	Polipropilen	Granula	2808
15	"BT-2001" MChJ	3100	2607	Metall chiqindi	Mebel furnitura	2085,6
16	"Fayz Baraka sof savdo" MChJ	1450	1331	Polepropilen	Qop	1064,8
Jami:		127 686	119 228			100 375

Tadbirkor Faxriddin Ibragimov esa 7 million 800 ming dollar sarmoya kiritmoqda. Ushbu mablag' hisobidan 80 ta chiqindi tashuvchi maxsus texnika, 2 saralash va 2 qayta ishlash uskunasi, 150 chiqindi konteyneri olinadi. Shuningdek, 3 chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi qurib ishga tushiriladi. Bitimni amalga oshirish natijasida aholini maishiy chiqindilarni tashish xizmati bilan 100 foiz qamrab olish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 38 foizga yetkazishga erishiladi. 796 yangi ish o'rni yaratiladi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlash uzluksiz jarayon bo'lib, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishni talab qiladi. Bu boradagi ekotadbirkorlik faoliyati davlat-xususiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yilib, klasterlar shakllanadi. Chiqindilarni qayta ishlash jarayonida:

1. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlashga yo'naltirilgan sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish;
2. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish;
3. Poligonlarga ko'mish uchun yo'naltiriladigan qattiq maishiy chiqindilar hajmini kamaytirish, sanitariya va ekologik me'yorlar talablariga muvofiq keladigan zamonaviy qattiq maishiy chiqindi poligonlarini yaratish, shuningdek, mavjud poligonlarni yopish va rekultivatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
4. Sanitariya jihatidan tozalash sohasida narxlar shakllanishini takomillashtirish va tariflarni optimallashtirish. Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish ob'ektlaridan muqobil energiya manbalari sifatida foydalanish. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash va istiqbolda chiqindisiz texnologiyalarni o'tilishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot.-T.: "ZEBO PRINT"-2021, 32-b.
2. Bo'riyev S.S., Mahkamova D.A., Sherimbetov V.X. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – T.: "NOSHIR"-2019, 157-b.
3. <https://sputniknews.uz/20220207/ozbekistonda-chiqindilarni-qayta-ishlash-qanday-ozgaradi-22588132.html>
4. <https://lex.uz/docs/4191475>
5. S.Banerjee, A.Shabam "Reimagining Social Enterprise through grassroots social innovations in India" –2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi yillik hisobotlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi yillik hisobotlari.

UO'K 339.5(4-011)

MINTAQA IQTISODIYOTIDA TASHQI SAVDONING TUTGAN O'RNI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

E.B. Ibadullayev, dots., PhD, "Ma'mun universiteti" NTM, Xiva

Annotatsiya. Quyidagi maqolada tashqi savdo aloqalarining Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsulotidagi o'rni o'rganilgan va tashqi savdo imkoniyatlari TOWS metodi yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: TOWS metodi, tashqi savdo, eksport, import, Xorazm viloyati.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль внешнеторговых отношений в валовом региональном продукте Хорезмской области, а также анализируются внешнеторговые возможности с использованием метода TOWS.

Ключевые слова: Метод TOWS, внешняя торговля, экспорт, импорт, Хорезмская область.

Abstract. The following article examines the role of foreign trade relations in the gross regional product of Khorezm region and analyzes foreign trade opportunities using the TOWS method.

Keywords: TOWS method, foreign trade, export, import, Khorezm region.

Kirish. Globollashuv davrida jahon mamlakatlarining xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarida eng katta ulushga xalqaro savdo aloqalari egalik qilmoqda. Mamlakatimizda ham so'ngi yillarda jahon bozoriga chiqish, raqobatbardosh Tovar va xizmatlarni shakllantirish, boshqa mamlakatlar bilan mustahkam xalqaro iqtisodiy aloqalarni o'rnatish bo'yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan 2022 yil davomida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida mavjud ishtirokchilar 31.5 mingtaga yetgan bo'lib bu 2021 yilga nisbatan 283 taga oshgan. Ushbu ishtirokchilardan 7.2 mingtasi eksportyorchilar hisoblansa 24.3 mingta importyorlar hisoblanadi [1].

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib, uning umumiy yer maydoni 6 300 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Mazkur mintaqa iqlimi jixatidan keskin kontinental bo'lib, qish faslining nisbatan sovuq kelishi va yoz oylarida quruq issiq hukmronlik qilishi bilan ajralib turadi. Viloyat axolisi 1 683,7ming kishidan ko'proq bo'lib, ularning aksariyati (67%) qishloq tumanlarida yashab, mehnat qiladi. Axolining milliy tarkibida o'zbeklar - 97,2%, qoraqalpoqlar - 0,09%, qozoqlar -0,75%, turkmanlar - 0,5%, ruslar - 0,4%, koreyslar - 0,2%, tatarlar - 0,3% va boshqa millat vakillari - 0,5% ni tashkil etadi [2].

Viloyatda 10 ta ma'muriy hudud mavjud bo'lib, viloyat markazi - Urganch shahrida 137,4 ming kishi istiqomat qiladi. Viloyatning yana bir yirik shaxri - Xiva tarixiy obidalarga boy turistik markaz hisoblanadi. Viloyat Turkmaniston davlati, mamlakatimiz xududlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan chegaradoshdir. Xorazmdan xalqaro axamiyatga ega magistral temir yo'llari va avtomobil yo'llarining o'tganligi ham muxim axamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Xorazm viloyat iqtisodining asosini qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish, paxtani qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati xam tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqdar jumlasiga kiradi yengil sanoatning asosini paxta tozalash zavodlari, paxta va ipak tolalarini yigiruvchi fabrikalar tashkil qiladi. Gilam to'qish viloyat sanoatining o'ziga xos jixatini belgilaydi. Viloyat iqtisodida yangi shakllanib borayotgan tarmoqlardan biri - mashinasozlik sanoati bo'lib, Xazorasp tumanining Pitnak shahrida ishga tushirilmagan inshootlar negizida "Damas" rusumli mashinalarni yig'ishga mo'ljallangan liniyaning faoliyat boshlashi viloyatda mashinasozlik sanoatini rivojlantirishda muxim omil bo'ldi. Oziq-ovqat sanoatida respublikada yagona bo'lgan Xazorasp shakar zavodi faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, non maxsulotlari, kandolat, sut va gusht maxsulotlari ishlab chiqaruvchi ko'plab tarmoqdar xam tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Keyingi yillarda viloyatda paxta xomashyosini qayta ishlash, ipak tolasiga ishlov berish va boshqa maxalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruktsiya qilish, texnik modernizatsiyalash va kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Paxta tolasini qayta ishlash siklini uzaytirish va ushbu strategik xomashyodan eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarish borasida bir qancha loyixalar amalga oshirilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini texnologik yangilash va yangi quvvatlarni ishga tushirish evaziga meva, uzum, sabzavot va poliz maxsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkoniyatlari kengaymoqda [3].

Sanoat tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi viloyat iqtisodiyotida katta o'rinni egallab turibdi. Ushbu soxada paxtachilik va g'alla yetishtirish eng asosiy

yo'nalishlar bo'lib, viloyat respublika axolisini guruch bilan ta'minlaydigan asosiy mintaqalardan biri hisoblanadi.

2017-2020 yillar davomida viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 17 foizga oshib, 21,6 trillion so'mni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,8 trillion so'mdan 9,6 trillion so'mgacha (o'sish 46 foiz) oshgan. To'qimachilik, avtomobilsozlik, elektrotexnika va oziq-ovqat sanoati, sayyohlik, xizmat ko'rsatish va issiqxonalar Xorazm viloyatining asosiy «o'sish nuqtalari» sifatida belgilangan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2016 yildagi 7,7 trln so'mdan 2020 yilda 17 trln so'mgacha o'sgan. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2016 yildagi 19,4 mingdan 2020 yilda 24,1 mingga yetgan (o'sish 25 foiz). Infratuzilmani rivojlantirish sohasida 2016-2020 yillarda 50 km gaz quvurlari va 3 304 km suv ta'minoti tarmoqlari yotqizilgan [5].

Albatta hududning ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlaridan uning tashqi savdo aloqalari, eksport va import tarkibi muhim ahamiyat kasb qiladi shu sababli ushbu bobda viloyatning tashqi savdo rivojlanish dinamikasini ham tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar–dekabr oylarida 785 528,1 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,9 % ga ko'paydi. Shu jumladan eksport hajmi 245235,8 ming AQSh dollariga (6,0 % ga ko'paygan) va import hajmi 540 292,3 ming AQSh dollariga (88,9 % ga ko'paygan). Tashqi savdo saldosini minus 295 056,4 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,3 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,4 % ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 65,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 168,9 % ni tashkil qildi [6].

1-jadval

Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi (2022 yil)

Ko'rsatkichlar	Ming AQSh dollari	2021 yilga nisbatan foizda	Jamiga nisbatan foizda
Tashqi savdo aylanmasi	785 528.1	151.9	100.0
Eksport	245 235.8	106.0	100.0
Import	540 292.3	188.9	100.0
Saldo	-295 056.4	X	X

Xorazm viloyatining eksport bo'yicha yetakchi hududlariga 2022 yil hisoblariga ko'ra Bog'ot tumani 13%, Urganch shahri 11.8% va Shovot tumani 10.8% ni tashkil qilgan bo'lsa eng past ko'rsatkichlar Qo'shko'pir 2.7%, Tuproqqal'a 3.6% va Yangibozor 5.1% ni tashkil qilgan. Viloyatning import bo'yicha jamiga nisbatan 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra Tuproqqal'a 38.1%, Urganch shahri 22.4% va Yangiariq tumani 10.2% ni tashkil qilgan.

Xorazm viloyatining tashqi savdo saldosini ya'ni eksportdan import ayirmasi so'ngi 7 yil davomida ma'nfiy saldoni tashkil qilib kelmoqda bu esa o'z navbatida viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha rejali ishlarni amalga oshirishning dolzarbligini belgilab beradi. Quyidagi jadvalda viloyatning o'tgan yillar davomida tashqi savdo hajmi va unda eksport va import ulushlari va tashqi savdo saldosini ko'rishimiz mumkin (2 jadval)

2 jadval

Xorazm viloyatining 2016-2022 yillarda tashqi savdo rivojlanish dinamikasi

Yillar	Tashqi savdo	Eksport	Import	Saldo
2016	216,6	95,5	121,1	-25.6
2017	252,9	120,2	132,7	-12.5
2018	241,7	77,5	164,2	-86.7
2019	550,6	139,7	410,9	-271.2
2020	468,4	168,7	299,7	-131
2021	140,0	49,3	90,7	-41.4
2022	785,5	245,2	540,2	-295

Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek umumiy jihatdan o'tgan yetti yil davomida tashqi savdoda eng katta o'shish 2022 yilda ro'y bergan. Boshqa hududlar singari 2020

va 2021 yillarda pandemiya sababli eksportda ham importda ham keskin kamayishlar kuzatilgan. 2022 yilda viloyatning umumiy tashqi savdosi 785.5 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib bundan 245.2 millioni eksport va 540.2 millionlik import mahsulotlari kiritilgan va umumiy hisobda 295 million dollarlik manfiy saldo yuzaga kelgan.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 69 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Hindiston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 455 005,5 ming AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 84,2 % ini tashkil qiladi. Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda [7].

Hudularning iqtisodiy tahlilini amalga oshirganda tadqiqotchilar tomonidan bir qancha amalga oshiriladigan tadqiqot usullari mavjud hisoblanadi. Bularga misol qilib SWOT va TOWS analizlari, statistik tahlil, so'rovnoma va intervyular, ekonometrik modellashtirish, sintez tahlil kabi bir qancha tadqiqot usullarini kiritishimiz mumkin. Biz tadqiqot ishimizda Xorazm viloyatining tashqi savdo faoliyatini ya'ni eksport va import qismini alohida TOWS analizini amalga oshirishni vazifalardan biri sifatida kiritib o'tdik [8].

3-jadval

Xorazm viloyati eksport salohiyatining TOWS analizi

	Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)
Ichki omillar (Internal factors)	-viloyatning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda nisbiy ustunligi; -ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligi; -turizm destinatsiyalarining joylashuvi; -to'qimachilik sohasi homashyosining o'zida yetishtirish; -qayta tiklanadigan energiya resurslarining mavjudligi; -tovar va xizmatlar brendining shakllanganligi; -soha kadrlarini yetishtiruvchi OTMlarning yetarli darajada ekanligi; -arzon ishchi kuchi; -davlatning moliyaviy ko'magi;	-geografik joylashuvi, poytaxtdan uzoqligi; -logistika xizmatlarining rivojlanmaganligi; -yo'l infratuzilmasining past darajasi; -tashqi borozda raqobatning yuqoriligi; -qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan metodlarning eskirganligi; -erkin iqtisodiy hududlarning rivojlantirish marketing strategiyalarining mavjud emasligi; -atrof-muhitga zarar bo'yicha aniq chora tadbirlarning mavjud emasligi; -tashqi savdoda importning eksportdan yuqori ekanligi; -eksport tarkibining diversifikatsiya darajasining pastligi
Tashqi omillar (External factors)	Imkoniyatlar (Opportunities) -turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi; -davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalar; -ishchi kuchining yetarli darajada ekanligi; -ishlab chiqarishda klaster tashkil qilish imkoniyati mavjud; -tirik hayvonlarni qo'shni davlatlarga eksportini yo'lga qo'yish; -Turkmaniston bilan Shovot chegarasini qayta ishga tushurish; -ishchi kuchi eksportini maqsadli dasturlar asosida amalga oshirish;	Xavflar (Threats) -qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda suv tanqisligi; -orol dengizining butkul qurib ketishi; -ROI (Return on investment) ning past darajada ekanligi; -mavsumiy talabning mavjudligi; -tannarx xarajatlarining ko'payishi muammolari; -eksport evaziga ichki bozorda narxlarning oshishi; -sanoat mahsulotlarini qayta ishlash kamligi sababli atrof-muhitga ta'sirning ortib borish; -tashqi bozor raqobat muhitining tez o'zgarishi;

Manba: Muallif ishlanmasi

TOWS matritsasiidan foydalanishda quyidagi bosqichlar ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Tanlab olingan obyekt bo'yicha SWOT tahlili o'tkaziladi. Bunda tanlab olingan obyektning **Strengths** (Kuchli taraflari), **Weaknesses** (Kuchsiz taraflari), **Threats** (Xavflar) va **Opportunities** (Imkoniyatlar) qismlari to'ldirib chiqiladi [9].

2-bosqichda olingan natijalarni ishonchliligi tahlili amalga oshiriladi.

3-bosqichda strategik variantlaringizni bog'lanadi va baholanadi bunda ichki va tashqi muhit omillarining har bir kombinatsiyasi uchun ulardan yaxshi strategik variantlarni yaratish uchun qanday foydalanishingiz mumkinligi ko'rib chiqiladi va u quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Kuchlar va imkoniyatlar (S-O) – Ushbu imkoniyatlardan foydalanish uchun kuchli tomonlaringizdan qanday foydalanishingiz mumkin?

Kuchli va tahdidlar (S-T) – haqiqiy va potentsial tahdidlardan qochish uchun kuchli tomonlaringizdan qanday foydalanishingiz mumkin?

Zaif tomonlar va imkoniyatlar (W-O) - o'zingiz boshdan kechirayotgan zaif tomonlaringizni yengish uchun imkoniyatlaringizdan qanday foydalanishingiz mumkin va zaif tomonlar va tahdidlar (W-T) - qanday qilib zaif tomonlaringizni minimallashtirish va tahdidlardan qochish mumkin? Aniqlagan variantlar sizning strategik alternativlaringiz bo'lib, ular TOWS ish varag'ining tegishli kvadrantida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu nazariy jihatlarini o'rganib chiqqandan so'ng tadqiqot ishimizda ushbu tahlilni Xorazm viloyatining tashqi savdo salohiyatini o'rganishda qo'lladik. Xorazm viloyatining tashqi savdo munosabatlarida so'nggi yillarda faqat manfiy ko'rsatkichlarni qayd qilayotganligi sababli asosan eksport salohiyatini o'rganishni maqsad qildik. Bunga yana bir asosiy sabab viloyatning boshqa hududlarga nisbatan eng kam ko'rsatkichlarni qayd qilayotganligi ammo respublikaning eksport salohiyati yuqori hudud ekanligidir [10].

TOWS strategiyalarini ishlab chiqishdan oldin viloyatning eksport salohiyatining Kuchli taraflari (Strengths), Xavflar (Threats), Imkoniyatlar (Opportunities) va Kuchsiz (Weakness) tomonlarini quyidagi jadval ko'rinishida berib o'tamiz.

Yuqorida keltirilgan strategiyalarni Xorazm viloyatining eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida quyidagicha ko'rinishda ishlab chiqdik:

Strengths-opportunities (SO) strategiyalari

-viloyatning qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda hududlarda agroturizm va qishloq turizm turlarini rivojlantirish orqali xizmatlar sohasining eksport salohiyatini oshirish;

-davlat subsidiyalaridan foydalangan holda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini rivojlantirish va eksport mahsulotlarining ekologik tozaligini ta'minlash va tannarxini kamaytirish;

-ipak va paxta mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda tekstil klasterlarini tashkil qilish;

-Shovot tumanining to'qimachilik mahsulotlarini Turkmaniston chegarasi bilan geografik joylashuvidan foydalangan holda eksport qilish;

Strengths-threats (ST) strategiyalari

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suv tejavchi texnologiyalardan foydalanish orqali kelajakda suv tanqisligi muammolarini oldini olish;

-viloyatning investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha aniq chora tadbirlar asosida ko'rgazmalar tashkil qilish orqali ROI darajasini oshirish;

-viloyatning arzon ishchi kuchidan foydalangan holda mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

-Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali tabiatga ta'sirni kamaytirish;

-davlat subsidiyalaridan foydalangan holda tashqi bozorga tannarxni pasaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish;

Weaknesses-opportunities (WO) strategiyalari

-turistik xizmatlarni rivojlantirish orqali poytaxt bilan viloyatni bog'lovchi yo'l infrastrukturasi yaxshilash;

-Shovot tumanida erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish orqali qo'shni mamlakatlarga eksport yo'nalishlarini ochish;

-tirik hayvonlar jumladan nasldor yilqichilikni rivojlantirish orqali viloyatning eksport tarkibini diversifikatsiyalash;

-viloyatda ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish orqali import o'rnini bosuvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish;

Weaknesses-threats (WT) strategiyalari

-brend darajasiga chiqqan qishloq xo'jaligi mahsulotlari jumladan guruch, baliq, go'sht va meva sabzavotlar eksportidan samarali foydalangan holda talabning mavsumiyligini yo'qotish;

-viloyatning ichki talab darajasini o'rgangan holda eksport kvotalarini belgilash va shu orqali ichki bozorda narxning o'sib ketishini oldini olish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnologik imkoniyatlarda foydalangan holda ehtimolliги yuqori bo'lgan muammolarni oldini olish.

Ushbu TOWS tahlilini amalga oshirish orqali Xorazm viloyatining tashqi savdo sohasida mavjud imkoniyatlardan foydalanish, tahdidlarni kamaytirish, kuchli taraflardan foydalanib kuchsiz taraflarini kamaytirish imkoniyatlari mavjud hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan 4 ta guruh strategiyalaridan foydalangan holda viloyatning eksport hajmini oshirib musbat tashqi savdo saldosiga erishish imkoniyati ko'payadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari: www.stat.uz
2. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari: xorazmstat.uz
3. World Investment Report-2020: Special Economic Zones. United Nations publication issued by the United Nations Conference on Trade and Development. UNCTAD/WIR/2020.
4. Муминов Н.Г. Свободные экономические зоны. Учебное пособие, Национальный Университет Узбекистана. Ташкент-2005,- 8 с.
5. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova (2014). Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'llanma. , T.: <<Voris-nashriyot>>, . -320 bet
6. Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-95 гг. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во ЕАИУП, 2004. - 260с.
7. Soliyev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Toshkent: UzMU 2003 y., 8 bet.
8. O'zbekiston Respublikasining 14.06.1991 yil № 285-XII sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirda), 11-modda
9. PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida farmoni.
10. Стратегии макрорегионов России: Методологические подходы, приоритеты и пути реализация / под ред. А.Г.Гранберга; М.: Наука, 2004. с.479.

UDC 332.12

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF TOURISM IN SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Z.Jabborova, doctoral student, Karshi State University, Karshi

Аннотация. Ушбу мақолада туризм соҳасинининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги аҳамияти, минтақада турли тармоқларнинг рақобатбардошлигини ошириши, ўз навбатида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг ўсиши ва маълум омиллар асосида ривожланиши ёритиб берилган.

Калим сўзлар: туризм, ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар, рентабеллик, туристик хизматлар, туристик имидж, истеъмол моделлари

Аннотация. В данной статье подчеркивается значение туристической сферы в социально-экономическом развитии страны, повышении конкурентоспособности различных отраслей региона и, в свою очередь, росте социально-экономического развития региона и его развитию на основе определенных факторы.

Ключевые слова: туризм, социально-экономические показатели, рентабельность, туристические услуги, имидж туриста, модели потребления

Abstract. This article highlights the importance of the tourism sector in the socio-economic development of the country, increasing the competitiveness of various sectors in the region, and in turn, the growth of the socio-economic development of the region and its development based on certain factors.

Keywords: *tourism, socio-economic indicators, profitability, tourist services, tourist image, consumption models*

Introduction. In today's process of globalization and expansion of international cultural relations, the tourism industry is one of the leading sectors in the world economy. Also, it has its place in the development of sustainable development trends in the economic life of the countries of the world.

In 2019, the tourism sector accounted for 10.3 percent of the world gross domestic product (GDP) or 8.9 trillion. USD, 29% of world services export, 10.4% of total employment or 330 mln. constitutes a workplace. [1] This calculation shows that 1 in 10 jobs in the world are contributed by tourism, according to the books. According to the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), in 2021, the tourism industry will grow by 4.6 percent, and the number of visitors will reach 2.384 million tourists. [1] The reason for such a low indicator is the suspension of travel between certain tourist countries in the first quarter of 2020 and restrictions aimed at preventing the possible spread of a geopolitical event (pandemic) among the population. It is worth noting that this indicator repeats the statistics available in the early 1950s. Export income from international tourism in 2021 is 4.5 trillion. is USD. The rate of growth is expected to continue for the foreseeable future and reach 1.8 billion international tourist arrivals annually by 2030. These numbers are impressive and very valuable.

Style and materials. This article uses general scientific principles and a number of scientific research methods, such as complex, comparative analysis, economic statistics, as well as comparative analysis and the method of eclecticism, within the framework of a systematic approach. During the research, an analysis of statistical materials of official organizations at the global and national level was carried out, expert evaluations of the employees of state bodies at the regional level, the management of tourism institutions and public organizations were used.

Several scientists have highlighted the role and importance of tourism in socio-economic development in their research. In particular, L. Yu. Prozurin emphasizes the benefits of tourism in socio-economic development. According to him, one of the advantages of tourism is the level of profitability of the industry and the rapid development of its individual regions. [2] This allows to classify it as a dynamic factor of its profitability and socio-economic development of the country. At the same time, the changing demand of consumers who are tourism subjects and the creation of new directions in accordance with the requirements, the re-realization of the existing ones, and the constant quality and quantity of the produced tourist products show that the tourism sector is an important link in the economic stability and development of the country.

Yu.N. Shedko, in his research, emphasizes that the development of tourism is appropriate to combine several features related to the stability of socio-economic development. [3] They are inter-institutional, social, economic, environmental and financial characteristics that ensure systemic profitability.

In addition, a number of scientists have highlighted in their research that the development of the tourism sector has a great role in the rise and development of the social and economic life of the country. For example, I.D. Afanasenko [4], I.T. We can say Balabanov [5].

Results. The tourism sector is one of the most dynamic points of the economy, combining service, production, tourism, cultural and recreational sectors, and it is considered a fast-growing sector of the country's economy. In many countries, tourism is one of the three leading industries, it develops rapidly and has important social and economic importance, because tourism:

- the country increases its domestic income;
- ensures population employment, creates jobs;
- develops all areas directly and indirectly related to tourism;
- develops infrastructure, cultural life and production structure of tourist centers;
- accelerates the development of the artistic and practical sphere created with the help of local crafts and manual labor;
- ensures the growth of the country's GDP;
- helps the country's budget to increase the flow of foreign exchange earnings.

The tourism sector has various functions and based on these functions, a classic tourism trinity can be created. These are composed of "tourism + accommodation + entertainment". The field of tourism includes almost all the functions of the social and economic sphere. This explains that tourism forms a complex system through a chain of small systems in the interdependence of sectors belonging to different fields. [8]. Tourism is based on two subsystems: subject of tourism and object of tourism. As a tourism subject, a participant of the event, i.e. a tourist, who seeks opportunities to satisfy his needs using unique tourist services is understood. And the offered services appear as a tourism object. Everything that can be a travel destination is understood as a tourism object. Tourism object (tourism industry) consists of three main components: tourist region or destination (address), tourist organization and tourist enterprise.

The tourism sector, like a number of other sectors, develops together with sub-sectors that are directly or indirectly related to each other. A list of these sub-sectors is given in Table 1.1.

Table 1.1

№	Sub-sectors directly or indirectly related to tourism	
1	Transportation	It is one of the largest sub-branches of the tourism sector, which is divided into three types (air, sea and land transport).
2	Deployment tools	Another large sub-network is the network related to tourist accommodations. They include hotels, boarding houses, resort towns, apartments, camps, as well as all facilities related to accommodation.
3	Foodstuffs	This network, developed in connection with hospitality, forms the basis of gastronomic tourism. It includes a restaurant, bar, cafe, cafeteria, etc.
4	Insurance (travel security)	Security measures against various unexpected events and incidents that may occur during the trip (medical assistance, medical expenses, personal privacy, etc.)
5	Entertainment tools	Additional entertainment during the trip: fair, theater, cinema and shopping, additional services.


Source: Developed by the author

The tourism sector has a leading role in the socio-economic life and development of the country. The main reasons for this are the presence of pure competition among the inter-network sectors in the existing regions and its increase, which leads to the growth of the socio-economic development of that region. As a result, the country's tourism creates economic specialization in the global economic market, helps to increase future profits, expand inter-country cultural ties, and forms a single cluster of interrelated sub-sectors and tourism. Among the modern trends that should be taken into account when choosing the driving objects of economic growth indicators in the regions, the following can be distinguished:

- creating conditions for the well-being of the population,
- striving to rationally use the country's geographical opportunities (natural and recreational resources),
- increase employment of the population and increase labor efficiency,
- achieving changes while maintaining unity of culture and values,
- to increase the coefficient of employment and dynamics of the population,
- In such conditions, tourism becomes an area that can become a source of socio-economic development of the region.

Different types of tourism are based on several factors. One of them is a territorial unit, according to which it is divided into: internal, inbound and outbound tourism. Internal tourism is characterized by the migratory flow of people within the region (country) of permanent residence for tourist purposes. There are no obstacles in the transaction using a fixed currency. It is not difficult to organize such types. Some statistics show that the share of domestic tourism is 80-90% of the world tourism dynamics. At the same time, spending on domestic tourism is 5-6 times more than other types of traffic. Inbound tourism is closely related to inbound and outbound tourism and acts as a unique

catalyst. It helps to develop new recreational resources and areas, train qualified personnel, improve tourism management structure and organizational mechanisms, and create a unified tourism space.



Pic.1. Classification of tourism types


Discussion. When classified according to sources of financing, tourism is divided into commercial and social groups. Logically, all tourism activities are focused on obtaining high profits. Travel companies form the main profit on the basis of investors' funds. It will pay dividends to the shareholders through the development of the tourist products trade and the maximum achieved income. Achieving higher profits helps to reduce the difference between product costs and the price of tourism products and to provide convenient, affordable and quality products for consumers. The products offered by tourist companies are mainly offered to middle and high income population. But according to the classification of social tourism, a tourist product has been created for the low-income group, which is opposite to commercial tourism. Since 1930, this has been done with the introduction of the law on free rest for workers and working people in the state legislation. Reimbursement of expenses by the state, the right of the population to rest is being supported on a national and international scale.

The development of tourism affects several parts of the country's social life. As an example, we can cite the humanitarian function of tourism. Its content is that the tourism sector has an impact not only on the economic sector, but also on the social and cultural life: it allows to harmonize the culture of a certain region and the daily life of peoples, the history of the development of their art, and their traditions by spreading them to other regions with the culture of the modern world. These cultural ties contribute to the development of the basis of the tourism sector, strengthen peaceful and friendly relations between nations. At the same time, it plays an important role in shaping and educating the socio-cultural outlook of the future generation. the development of tourism also helps to eliminate environmental problems, forms a harmonious relationship in this regard, affects the preservation of nature and the development of cultural potential, leads to the harmonization of relations between different countries and peoples, the structures of state government bodies, public organizations and the private business sector in the environment and encourages active participation in conservation and restoration of nature

The factors influencing the social life of the country were discussed above, but the significant impact of tourism is evident in its economic development. It is not only a travel, but also an important branch of the economy. The tourism industry operates in connection with private enterprises of various sectors. Tour operators, who are its main subjects, develop a convenient, attractive offer for the tourism consumer (consumer in the following) from products and services created based on the demand of the service market. Tourism has a great influence on the main sectors of the economy,

such as transport and accommodation, communication, agriculture, production of tourist goods, etc. In short, it acts as a catalyst for socio-economic development. The tourism industry helps to bring financial resources to the country. It brings profit to interested enterprises and various firms, but also provides tax revenues in the country's budget, increases the demand for food, various products and services, thereby stimulating the development of related industries.

In turn, various factors affect the development of the tourism industry. They are influenced by geopolitical, social, religious and political and geographic-legal factors. The economic development of tourism is characterized by statistics and official statistics of the world's leading tourism expert organizations. They show that tourism is important on a global scale and is becoming one of the leading industries and has a high coefficient in the dynamics of the international economic market. The growth indicators in certain areas indicate the geographical environment and living standards of the population in that area. They are shown in the diagram below:



Pic.2. The main factors of socio-economic development of tourism in the tourism area

1. the level of economic development of the designated area;
2. the level of the lower level of the regional financial system;
3. labor potential of the population and the possibility of resources;
4. current and economic condition of tangible and intangible objects of the infrastructure;
5. targeted organization of relations between the population and state administration in tourism;
6. social and cultural conditions;
7. political, legal and institutional factor;
8. territorial location (geographical factor);

From the economic point of view, the peculiarity of tourism is that it creates a new form of consumption demand in life. This demand represents the entire set of goods and services produced by enterprises in the tourism sector.[6] The attractiveness of tourism lies in the quick return on investment and in a short period of time. According to its main characteristics, tourism has a number of fundamental characteristics that distinguish it from other forms of economic activity. It should be taken into account that this uniqueness is directly related to the characteristics of tourism services, which are represented by their intangibility, instability of quality, impossibility of preservation and inseparability from the source.

The development of market relations in the field of tourism leads to the emergence of many travel companies in the country, which gradually fill the market of tourism services. As a result of the implemented works, the volume of produced tourism products, income of the population, budget income will increase, the problem of employment of the population will be solved, the infrastructure will be developed, and a competitive national tourism industry will be formed in the country. Thus, state support in the development of tourism helps to fully occupy its socio-economic place.

Summary. The tourism industry is developing rapidly in the reciprocal movement of global relations, where economic opportunities are created, which forces individual countries to enter into competitive relations in the struggle to attract tourists. In order to increase the potential of tourism and develop it in a given area in the current innovative systematic management, it shows the need for a combination of elements that influence its development through organic communication with other state and commercial sectors located in that area. Its purpose is to increase the positive impact, form the touristic image of the country and get high profits. Cooperation between the subjects of the tourism sector and other network participants can be carried out in several sequences. In particular, the direct implementation of services in accordance with the demand of tourists and the correct orientation of the tourism policy, taking into account the available opportunities. In the development of the country's tourism sector, it is necessary to pay special attention to the factors that have a positive and negative effect on it, to form plans and measures for the development of infrastructure at the level of state policy based on official data based on the world statistical database. In order to increase the efficiency of the tourism sector, there was a need to develop a mechanism of mutual cooperation between all participants in this sector.

In the conclusion, tourism is an important sector in the country's economy and development, and has its own characteristics. Tourism not only affects economic indicators, but also protects the life and interests of society. As one of the main sources of population income, it constitutes the micro and macro economic level. Tourism has a high importance in the country's infrastructure, explains the main factors of employment, and increases the balance of the city image, road construction and settlement means, stimulates the production of all kinds of products. It helps to show the national folk crafts and unique culture of the regions and the country. At the same time, it improves the existing opportunities for the growth of recreational tourism trends.

REFERENCES:

1. Official website of the World Travel and Tourism Council [Electronic resource]. – URL: <https://wttc.org/en-gb/Research/Economic-Impact> (accessed May 1, 2020).
2. Prozurin L.Yu. Tourism as an economic priority. Moscow, New Century Publ., 2004. 216 p.
3. Shedko Yu.N. Improving the mechanisms for managing sustainable development of the region: dis. ... Doctor of Economics Sciences: 08.00.05 [Perfection of mechanisms of management of steady development of the region: the dissertation. Dr. econ. sci. abs. diss.: 08.00.05]. Moscow, 2016. 361 p.
4. Afanasenko I.D. Tourism and economic reform // Proceedings of the Academy of Tourism. - Issue 1. St. Petersburg, 1995.
5. Balabanov I.T., Balabanov A.I. Economics of tourism. M.: Finance and Statistics, 1999. - 176 p.
6. Gasanov A. N. Factors determining the development of tourist centers in the western region of Azerbaijan: collection of reports of the International Scientific and Practical Conference. Varna, 2009. pp. 47–55.
7. Kotler, Bowen & Mackens (2006), Marketing for Hospitality and Tourism 4th Ed., Pearson Education, Inc., 2006.
8. Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Economics of tourism. – M.; Publishing center “Academy”, 2008. – 384 p.
9. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova “The importance of innovative activity in tourism.” Scholar Journal (ESJ) 4, April 2021. P 467-472.
10. Jabborova Z.A. Improvement of economic mechanisms of state support of innovation activities in tourism. //Innovation technologies scientific journals, -2023. - No. 2(50), -145-149 p.
11. Usmonova D.K. Features of the formation of the tourism product and promising directions for its development. Abstract. – Samarkand, SamISI, 2009. – 25 p.

UO’K 33

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING XORIJIY MAMLAKATLARDA RIVOJLANISHI DINAMIKASI

S.Kushbakova, tayanch doktorant, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Bugungi kunda energiya muammosini yechish iqtisodiyot va ekologiya sohasida manfaatlar to‘qnashganligini va ular bir butunlikni tashkil etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida QTEni realizatsiya qilish va rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. QTEga o‘tish esa bir qancha chora-tadbirlar va maqsadlar ko‘zda tutilishi lozim. Shuning uchun xalqaro tashkilotlar bu borada turli yechimlarni qamrab oluvchi bir qancha vazifalarni va maqsadlarni ishlab chiqishmoqda.

Kalit so'zlar: Qayta tiklanuvchi energiya, iqlim o'zgarishi, quyosh energiyasi, shamol energiyasi

Аннотация. Сегодня мы видим, что решение энергетической проблемы – это столкновение интересов в области экономики и экологии, и они образуют единое целое. Это, в свою очередь, является одним из основных факторов, ведущих к реализации и развитию возобновляемой энергетики. Для перехода к возобновляемым источникам энергии следует рассмотреть ряд мер и целей. Поэтому международные организации разрабатывают несколько задач и целей, охватывающих различные решения в этом отношении.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, изменение климата, солнечная энергия, ветряная энергия

Abstract. Today, we can see that solving the energy problem is a clash of interests in the field of economy and ecology, and they form a whole. This, in turn, is one of the main factors leading to the realization and development of renewable energy. A number of measures and goals should be considered for the transition to renewable energy. Therefore, international organizations are developing several tasks and goals covering different solutions in this regard.

Kew words: Renewable energy, climate change, solar energy, wind energy


Xalqaro Energiya Agentligi (IEA) 1993 yildan beri doimiy ravishda rivojlanib boradigan batafsil, dunyoda yetakchi modellashtirish vositalaridan foydalangan holda o'rta va uzoq muddatli energiya prognozlarini taqdim etib keladi [1]. Birinchi modellardan biri bu **Jahon Energiya Modeli** (WEM), ushbu modelga ko'ra, energiya bozorini xususiyatlarini qay tarzda qayta ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamlı simulyasiya modeli hisoblanadi. Bir qancha vaqt o'tib, **Energiya Texnologiyalari Istiqbollari** (ETP) ikkinchi model agentlik tomonidan ta'sis etilib, unga ko'ra, energiyaga oid quyidan yuqoriga qarab texnologiyalarni boyitish modeli dastabki WEM modeli bilan birgalikda foydalanish uchun ishlab chiqildi. 2021 yilda IEA tomonidan ilk bora 2050 yilgacha CO₂ ni nolga teng bo'lgan energiya tizimiga o'tish maqsadida va ushbu energiya tizimiga qanday o'tish bo'yicha dunyodagi birinchi keng qamrovli tadqiqotni ishlab chiqish uchun ikkala modelning kuchli tomonlariga tayangan holda yangi gibrıd modellashtirish yondashuvini qabul qildi [1]. Ushbu integrasiyalashgan model Global Energiya va Iqlim (GEC) nomi ostida IEA tomonidan 2022 yildan beri nashr etilib kelayotgan hisobotlarda sohalar va mintaqalar bo'yicha batafsil va uzoq muddatli ssenariylari uchun foydalanadigan asosiy vosita bo'lib kelmoqda. GEC o'z ichiga uchta ssenariyalarini qamrab olgan bo'lib ular: 2050 yilgacha nolga tenglashtirilgan chiqindilarni chiqarish (NZE), Ishlab chiqarilgan majburiyatlar (APS) va Belgilangan siyosat (STEPS) ssenariyalarini tashkil etadi.

2050 yilgacha nolga tenglashtirilgan chiqindilarni chiqarish ssenariysi (NZE) – IEAning normativ ssenariysi bo'lib, energiya sohasidan kelib chiqqan holda, 2050 yilgacha nolga tenglashtirilgan CO₂ chiqindilar maqsadiga erishish hisoblanadi. Bu ssenariy Birlashgan Millatlar Tashkilotining BRMning 2030 yilgacha arzon, qulay energiyadan foydalanish va havo sifatini sezilarli darajada yaxshilash maqsadlari bilan ham hamohang hisoblanadi. Jahon Meteorologiya Tashkiloti (WMO) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan 1988 yilda Iqlim O'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Panel (IPCC) iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fanni baholash bo'yicha xalqaro organ tashkil etilgan bo'lib [2], uning oltinchi hisobotida havo haroratining pasaytirish vazifasiga ko'ra global harorat ko'tarilishini 1,5 °C gacha cheklash mos keladi.

Ishlab chiqarilgan majburiyatlar (APS) – bu 2022 yildan 2030 yilgacha bo'lgan butun dunyo bo'ylab hukumatlar tomonidan qabul qilingan barcha iqlim majburiyatlari, shu jumladan Milliy Belgilangan Ulushlar (NDC) va uzoq muddatli aniq nolga tenglashtirilgan chiqindilar maqsadlari to'liq va o'z vaqtida bajarilishini nazarda tutadi [3].


Belgilangan siyosat ssenariysi (STEPS) - amaldagi, shuningdek, butun dunyo hukumatlari tomonidan e'lon qilingan siyosatlarni sohalar bo'yicha baholashga asoslangan joriy siyosat jamlanmasini aks ettiradi. Ushbu ssenariyda nafaqat mavjud bo'lgan siyosat va chora-tadbirlarni, balki ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarni ham hisobga olgan holda, energiya bilan bog'liq boshqa maqsadlarga erishish uchun sohalar bo'yicha ko'rib chiqishni talab qiladi.

Hozirgi kunda QTE manbalaridan foydalanish istiqbollari energetika sohasida o'zini ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. So'nggi o'n yillar davrida QTE quvvati 130% ga oshdi, qayta tiklanmaydigan energiya esa atigi 24% ga o'sdi [4].



Rasm 1. Quyosh energiyasini ishlab chiqarish, 2017-2021 (Tv)[5] (<https://ourworldindata.org/grapher/annual-change-solar?tab=chart&time=2012..latest> sayti ma'lumotlaridan grafikda berilgan davlatlar tanlab olinib muallif tomonidan shakillantirildi.)

Ushbu **Rasm 2** da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, quyosh energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy jahon birinchi o'rinni egallaydi. Ssenariyalarni amalga oshirish natijasida QTE manbalaridan umumiy ishlab chiqarish ulushi 2020 yil 79%dan 2021 yil 81%ga yetgan [6]. Iqlim o'zgarishiga va atrof-muhitga chiqindilarni qisqartirish maqsadida QTega bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. 2021 yilda yangi qurilgan shamol energiyasi (onshore) (Quruqlikda o'rnatilgan stansiya) loyiha komplekslari natijasida elektr energiyasining global o'rtacha tenglashtirilgan narxi (LCOE) 2020 yilga nisbatan 15% ga tushib, 0,033 AQSh dollar/kVt tashkil etdi, quyosh fotoelektrik loyihalari esa 13% ga pasayib 0,048 AQSH dollar/kVt, shamol energiyasi (offshore) (Suvda (dengizda) o'rnatilgan stansiya) esa 13 foizga tushib, 0,075 AQS dollar/kVt tashkil qildi.



Rasm 2. Yangi ishga tushirilgan qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish texnologiyalaridan global o'rtacha tenglashtirilgan narxi AQSh dollar/kVs, 2010-2021[6]

Manba: Renewable Power Generation: Costs in 2021, © IRENA 2022

Yuqoridagi **Rasm 2** ning ma'lumotiga ko'ra quyosh energiyasi 2010-2021 yillar oralig'ida elektr energiyaning tenglashtirilgan narxi 88%ga, shamol energiyasi (onshore) 68%, shamol energiyasi (offshore) 60% ga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

2021 yilda qayta tiklanadigan elektr energiyasining umumiy o'rnatilgan quvvati 3 064 GVt ga yetdi va taxminan 8 000 teravatt-soat (TVt) elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Moliyalashtirishning innovasion modellari, mamlakatlarda siyosiy-iqtisodiy qullab-quvvatlash, texnologiyalarning rivojlanishi, xarajatlarning kamayishi natijasida QTE manbalar orasida keng tarqalgani quyosh fotoelektrik qurilmalarini bo'lib uni o'rnatish 2010-2021 yillar mobaynida 21 barovariga o'sgan. 2021 yilning oxiriga kelib quyosh fotoelektrik qurilmalarining umumiy o'rnatilishi jahon miqyosda 843 GVtni tashkil etadi.

2021-yilda quyosh fotoelektr energiyasi 133 GVt quvvatga ega umumiy quvvatga QTEga qo'shilgan bo'lsa, shamol energiyasi quvvati 93 GVt ga o'sdi (bu o'sishning 72 GVtini quruqlikdagi (onshore) shamol energiyasiga to'g'ri keladi). Shamol (onshore) energiyasi 2021 yilda Xitoyda 29 GVt ni tashkil etgan bo'lsa (bu 2020 yilga qaraganda 40 GVt past), boshqa mamlakatlarda shamol energiyasini ishlab chiqarish oshdi, masalan, Braziliyada 4 GVt, Vetnam 2.7 GVt, Turkiya 1.8 GVt, Fransiya 1.2 GVt gacha oshgan [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Global Energy and Climate Model, International Energy Agency (IEA), 2022
2. <https://www.ipcc.ch/assessment-report/ar6/>
3. World Energy Outlook 2021, International Energy Agency, October 2021
4. World Energy Transitions, Outlook 2022, © IRENA 2022
5. <https://ourworldindata.org/grapher/annual-change-solar?tab=chart&time=2012..latest>
6. Renewable Power Generation: Costs in 2021, © IRENA 2022

UDC 338.2

DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF AUDITING PERSONNEL MANAGEMENT IN THE ORGANIZATION

N.D.Makhmudova, teacher, Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers national research university, Tashkent

Annotatsiya. Maqola kadrlar auditini tashkil etish metodologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, kadrlar auditini takomillashtirish, olingan xulosalar asosida korxonaning boshqaruv hisobini yaxshilash, korxonada samaradorligini oshirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: audit, personal auditi, kadrlar tizimi, kadrlar siyosati, kadrlar malakasi ko'rsatkichlari, ishchilar samaradorligi.

Аннотация. Статья посвящена методологии организации кадрового аудита, рассмотрены такие вопросы, как совершенствование кадрового аудита, совершенствование управленческого учета предприятия на основе полученных выводов, а также повышение эффективности деятельности предприятия.

Ключевые слова: аудит, кадровый аудит, кадровая система, кадровая политика, показатели квалификации персонала, эффективность труда.

Abstract. Article is dedicated to finding ways to solve the problem of improving the personnel audit system in modern enterprises and the analysis of current research in the field of auditing personnel management in an organization. A personnel management audit is considered as a comprehensive mechanism for assessing and monitoring performance indicators of the entire set of personnel processes of an enterprise that form the employees management system.

Keywords: employees management audit, personnel audit, personnel management system, personnel processes, performance indicators of personnel processes.

Introduction. Therefore, it can be argued that domestic personnel management systems are still at the stage of their formation. At the formation stage, high-quality and timely comprehensive diagnostics of personnel management systems are especially important. Researchers consider personnel management audit, or personnel audit, to be the most effective tool for such diagnostics [10]. To make certain decisions regarding the management of an organization, it is important that the information on the basis of which conclusions are drawn is timely and reliable. This means that at all

levels of business activity it is necessary to collect it and periodically update it, that is, conduct an audit.

Literature review. Simonin P.V. and Artyukhin D.V. pay attention to the study of the problem associated with personnel and diagnostics, while the personnel of an enterprise is understood as “a set of individuals who are in relations with it as a legal entity, regulated by an employment contract” [1]. During the human resource audit process, it is very important to study issues related to management. Simonin P.V. and Krasnozhenova G.F. interpret management as “the most effective way of purposeful influence of the subject of management on an object in order to change the initial state and bring it to a higher quality level” [8]. Within the framework of the institutional approach, Simonin P.V. and Krasnozhenova G.F. interpret personnel management as “ensuring the effective implementation of social and labor relations is not possible without the availability of information on the regulation of wage issues in collective agreements and agreements, as well as internal social factors: work style, team cohesion, professional composition of personnel, communications, rational labor standards and etc.” [8]. Institutions in modern society take the form of legal norms and traditions that have proven their effectiveness for all aspects of labor relations. Because, this is important for understand the degree of compliance of the enterprise’s personnel management system with current laws and accepted standards. An analytical tool such as an audit allows you to determine the degree of this compliance. Under the audit of the employees management system (personnel audit) Tsvetkova E.V. as written “the process of a comprehensive analysis of all elements of the company’s personnel management, the methods of interaction of all participants in this process, the procedure for setting tasks, the procedure for performing work and reporting” [9].

Methodology. The article uses methods such as analysis of published scientific literature on personnel auditing, audit procedures, data processing and comparison.

Analysis and results. The word “audit” itself, which comes from the Latin root “audieus” - “to listen”, implies the verification of mainly paper reports relating to one or another area of the company’s activities. The purpose of the audit is not only to identify possible violations, but also to prevent them, as well as to provide consultations, thanks to which it is possible to increase efficiency in the audited area. Currently, the activities of auditors have expanded significantly, including the area of personnel management. A personnel audit can be called a consulting activity that, through expert analysis, establishes the personnel potential of an organization and its effectiveness. The auditor examines documentation related to the selection, registration, relocation and dismissal of employees of the organization for compliance of the documents with the requirements of legislative acts of Uzbekistan. A personnel audit is not only a way to carry out an audit, that is, a statement of facts, but also a tool for overcoming existing problems, the ultimate goal of which is to increase the profitability of the organization. By determining the degree of accuracy of maintaining personnel documentation and studying additional factors reflected in it, the auditor can draw conclusions regarding:

- the effectiveness of the personnel policy adopted in a given organization in relation to its main goal;
- correct application of the legislative framework;
- finding reserves for improving personnel management;
- identifying negative aspects that hinder personnel efficiency, analyzing possible ways to eliminate them.

In what cases should an organization pay attention to studying the personnel situation by conducting a personnel audit? You can carry out this procedure at any time, but it will bring the greatest benefit in situations such as:

- change of leadership in the organization;
- dismissal of the head of the HR department;
- preparation for external audit by control bodies;
- formation of a database of personnel documents for archival storage;
- innovations in the legislative sphere regarding employment and dismissal;
- unexpected sudden changes in personnel, for example, lockout and etc.

Personnel audit steps

Stage 1 – preparation.	It is necessary to clearly establish the purpose of the audit and define the objectives. Key factors of the future research are determined: who will lead it, on what sample and with what methods. Management issues an order or instruction.
Stage 2 – data collection.	Information is collected by studying documents, observing personnel, conducting surveys, questionnaires, etc.
Stage 3 – interpretation of the received information.	Summary of data into a form comfortable for analysis (lists, tables, graphs, diagrams, etc.), conclusions based on the processing methods used and comparison with previous indicators or data from other organizations.
Stage 4 – final.	Formation of the audit report, results and recommendations.

Auditors use for study human resources, this:

- methods of analytical – study of statistical performance indicators and documentation;
- methods of socio-psychological – conversations, surveys, questionnaires,;
- methods of economical – comparison of financial indicators with social factors.

Based on the results of the personnel auditing the organization can come to the following conclusions:

- staffing of the organization;
- quality of personnel management in the company;
- predominant leadership style;
- internal climate in the team;
- opportunities for introducing innovations;
- needs to improve personnel qualifications;
- potential for building a career at different job levels;
- reasons for identified negative factors and ways to overcome them.

Conclusions. Analysis of indicators represents a new direction of audit activity - the formation of an audit of the labor sphere. Currently, audit is used only when examining the financial sector of an organization. Checking specific areas of labor activity - labor standards, workplace organization, labor protection, personnel management allows you to control the situation in the labor sphere at a minimum level. We propose to interpret the audit of the employees management system of organization as a periodically conducted examination in the area of employees management, which includes a set of measures to collection information, analyze, based on the data obtained, the effectiveness of using the labor potential of the enterprise in accordance with development strategy, as well as the development of an organizational program changes related to work with personnel. In my opinion, an audit is not a type of inspection, but is comprehensive, formalized method of a long time improvement of an organization's efficiency through improving employees management systems, which in its characteristics reflects the requirements of objective and professional attention to situational conditions. Definitions presented, the concept being studied is multi-component and complex, is interpreted as an independent method, which focus and practical significance and has such mandatory characteristics as complexity.

One of the main characteristics of the efficiency of the use of employees of the enterprise is labor productivity, which can be increased using economic methods and management methods. In order to increase the effectiveness of the management methods used in the personnel management system in the enterprise, it is necessary to use an effective personnel management audit system. This is what makes it possible to evaluate the effectiveness of the management methods in general and separately, distinguishing problem and growth areas. As a result of our research, we can say that the solution of the analytical problems of restructuring is provided by the use of the analytical method as an analytical apparatus for the study of economic processes. High-quality and comprehensive analysis, which is possible only when using an audit tool, will allow you to make better management

decisions. A regular audit ensures that these decisions are made on time. Thus, in modern enterprises, the personnel management audit system plays an important role in improving the control of individual personnel processes and the characteristics of the use of employee labor, as well as in increasing the quality and speed of management decisions. However, only an effective audit system can fulfill this role. Let's consider the main recommendations for improving the effectiveness of the personnel management audit system.

The analysis has shown that in order to improve the HR management audit system it is necessary to deepen professional knowledge in the field of HR management, develop analytical abilities of internal auditors, acquire skills. in the development and implementation of projects to improve HR processes at the enterprise. Also, the use of a comprehensive audit (a program including compliance audit and strategic audit criteria) helps to improve the efficiency of the audit system.

REFERENCES:

1. Artyukhina D.V., Simonin P.V. Development of a program to increase personnel productivity at the enterprise, 2016. [Electronic resource]. Access mode: https://elibrary.ru/download/elibrary_28435241_16132790.pdf
2. Dolinin A.Yu. Personnel Audit. Ryaz. state University named after S.A. Yesenina. Ryazan, 2011. 56 p.
3. Karpova E.G., Dimova K.B. Analysis of Russian experience in building a personnel management system at service enterprises // Economics and modern management: theory and practice: collection. Art. by mother LIII intl. scientific-practical conf. No. 9 (52). Novosibirsk: SibAK, 2015.
4. Krasnozhenova G.F., Simonin P.V. Human resources management: Textbook. allowance. M.: INFRA-M, 2012. 159 p.
5. Maymina E.V. Principles and methods of restructuring the activities of an organization // National interests: priorities and security. 13/2009. P. 54.
6. Matveev A.V. Personnel Audit tools // Reshetnev Readings. 2016. pp. 481-485. [Electronic resource]. Access mode: <https://cyberleninka.ru/article/n/instrumenty-kadrovogo-audita/> (date of access: 01/23/2019).
7. Nikonova T.V. Management audit: personnel. M.: Exam, 2002. 223 p.
8. Simonin P.V., Bogacheva T.V., Danilova V.A. Regulation and institutionalization of social and labor relations // Internet journal "Naukovedenie". Volume 7. No. 1, 2015. [Electronic resource]. Access mode: <http://naukovedenie.ru/PDF/97EVN115.pdf> (free access). Cap. from the screen. Language Russian, English DOI: 10.15862/97EVN115/ (date of access: 02/26/2019).
9. Tsvetkova E.V. Personnel audit in the personnel management system // Economics and modern management: theory and practice: collection of articles. Art. by mother X intl. scientific-practical conf. Part II. Novosibirsk: SibAC, 2012. URL: <https://sibac.info/conf/econom/x/26824> (access date: 02/03/2019).
10. Chesnokova A.N. Personnel audit as an effective enterprise management system // Scientific community of students: Interdisciplinary research: collection. Art. according to mat. XXXIII international stud. scientific-practical conf. No. 22 (33).

UO'K 33

MINTAQADA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINI ASOSIY YO'NALISHLARI

X. Masharipov, mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Maqolada mintaqada turizm xizmatlari eksportini asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Xorijiy sayohlar uchun Xorazm ko'ngilochar turlarini ko'paytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Butunjahon turizm tashkiloti (BTT), xalqaro turizm, dam olish va bo'sh vaqti, tashrif geografiyasi, safar maqsadlari va eksport.


Аннотация. В статье анализируются основные направления экспорта туристических услуг региона. Разработаны предложения по увеличению видов развлечений Хорезма на зарубежных пляжах.

Ключевые слова: Всемирная туристская организация (ВТО), международный туризм, отдых и досуг, география посещения туристические направления и экспорт.


Abstract. The article analyzes the main directions of export of tourism services in the region. Proposals for increasing Khorezm entertainment types for foreign beaches have been developed.

Keywords: World tourism organization (WTO), international tourism, recreation, tourism geography, travel destinations and export.

Jahon turizm sohasi yildan yilga rivojlanib borayotgan sohalar qatoriga kiradi. Har yil ko'plab odamlar turizm sohasi rivojlangan davlatlarga sayohat qilishadi. Bu albatta odamlarni chet davlatlarga sayohat qilish istaki oshishidan dalolat beradi. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma'lumotlariga ko'ra, "1950 yilda xalqaro turistlar soni 25 million, 1980 yilda 278 million, 1995 yilda 528 million va 2017 yilda 1 milliard 400 million kishini tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2030 yilga kelib 1 milliard 800 million kishiga etishi bashorat qilinmoqda"[1]. Ushbu ko'rsatkichning mamlakatimizda ham jadal o'sishi ko'zda tutilgan. Xorazm viloyatiga har yil sayyohlar tashrif byuruvchilar soni oshib bormoqda, bu albatta hukumatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qonunlar va farmonlar amalga oshirib kelinyotganidan dalolat beradi. Masalan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-son farmoni, 2017 yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni, 2018 yil 3 fevralda "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5326-son farmoni, 2018 yil 6 fevralda "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509-son qarori, 2018 yil 7 fevralda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-son qarori, 2019 yil 5 yanvarda "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4095-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan.



1-rasm. Xorazm viloyatiga xorijiy turistlarni kelishi (yillar kesimida)
(Manba: muallif ishlanmasi)




2-rasm. Xorazm viloyatiga keluvchi sayyohlarning yoshlar bo'yicha tahlili (yillar kesimida)
(Manba: muallif ishlanmasi)

Ushbu rasmda shuni tushunib olish mumkinki, 2016 yilda Xorazm viloyatiga 46000 nafar turist kelgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 420800 nafarga ya'ni 210 foiz oshiq ko'rsatkichni tashkil qilgan. Biroq 2020 yilga kelib, 23100 nafarga yetga, foizda bu ko'rsatkich 9 %ni tashkil


qilgan, bu albatta butun dunyoda pandemiya (koronavirus) ta'siridan bu ko'rsatkich past darajani tashkil qilganini bilishimiz mumkin va 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 140 %ni ya'ni 137500 nafar turist kelgan. Turistlar kelishi hududga pandemiyadan keyin oshishini bilishimiz mumkindir.

Xorazm viloyatiga 2016 yilda eng ko'p tashrif byurganlar 31 dan 55 yoshgacha bo'lgan sayyohlar 28500 nafarni va eng kam esa 55 yoshdan oshgan sayyohlar 2100 nafarni tashkil qilgan. 2019 yilga kelib sayyohatchilar soni ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib past darajani tashkil qilgan va 2021 yildan keyin ko'rsatkich biroz ko'tarilganini bilib olishimiz mumkindir. 2022 yilga kelib tashrif byuruvchilarni eng ko'pi 31 dan 55 yoshgacha bo'lgan turistlar soni 72400 nafarni va eng kam esa 0 dan 18 yoshgacha bo'lgan soyyohlar soni 11100 nafarni tashkil qilgan. Xorijiy sayyohlarning yosh ko'lamini kengaytirish uchun eng avvalo yoshlarning sonini oshirishda mintaqada kunduzgi sayrlardan keyin kechqurunlari o'zimizning milliy raqs, lazgi va o'yin kulgili dasturlar sonini oshirishimiz kerak. Hamda daryolarimizda baliq tutish, qumda tuyada sayr qilish, xalqaro miqyosdagi konverensiyalar (yoshlar o'rtasidagi) tadbirlarni sonini oshirishimiz, kerak deb o'ylaymiz. O'zbekistonning xorijiydagi elchixonalari yurtimizning diqqatga sazovar joylari to'g'risida ushbu davlatning telvediniyasida, reklama va video roliklarida chiqishlarni ko'paytirish kerak. O'zimizning 7-10 kunlik turpaketlarni arzonroq qilish kerak, mehmonxonalar, restoranlar, kafelar, choyxonalar va boshqa savdo joylarida va bu albatta kelayotgan xorijiy sayyohlar sonini keskin oshishiga olib keladi.




3-rasm. Xorazm viloyatiga keluvchi xorijiy sayyohlarning safar maqsadlari bo'yicha (yillar kesimida)
(Manba: muallif ishlanmasi)

Masalan Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlarni xam aytib o'tish mumkindir. Tashrif geografiyasi bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak (4-rasmda), 2019 yilda qo'shni davlatlarimizdan kelgan soni 370300 nafar sayyoh kelgan Xorazm viloyatiga va 2020 yilda esa 20300 nafarni tashkil qilgan. Qolgan MDX davlatlaridan 2019 yilgacha o'sishni ko'rishimiz mumkin, 2020 yilda ko'rsatkich tushish bo'lib va 2021 yildan boshlab o'sishni kuzatish mumkin. Boshqa davlat fuqarolari kelishi xam 2019 yilgacha o'sish soni oshishini bilishimiz mumkin va 2021 yilda boshlab ko'rsatkich oshishini bilishimiz mumkindir. Qolgan MDX va boshqa davlatlar fuqarolar soni oshirishimiz uchun, eng avvalo mehmonxonalar, restoranlar, chayxonalar va diqqatga sazovar joylarda tozalikka e'tiborli bo'lishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi qoshida nazorat inspeksiyasini tashkil qilib nazoratini kuchaytirish kerak. Har 3 oyda qo'mitaning hududlardagi departamentlari nazorat ostiga olish kerak.




4-rasm. Tashri geografiyasi bo'yicha taxlil (yillar kesimida)
(Manba: muallif ishlanmasi)



5-rasm. 2016-2022 yillarda Xorazm viloyatidagi eksport hajmini bajarilishi
(Manba: muallif ishlanmasi)

Qo'shni davlatlardan 2016 yilda eksport hajmi 1 mln AQSH dollar, qolgan davlatlardan 0.6 mln AQSH dollar va boshqa davlatlarda 0.2 AQSH dollarni tashkil qilgan. 2022 yilda esa bu ko'rsatkich qo'shni davlatlardan 15.4 mln AQSH dollar, qolgan davlatlardan 6.8 mln AQSH dollar va boshqa davlatlarda esa 5.3 mln AQSH dollarni tashkil qilgan[2].



6-rasm. Xorazm viloyatiga 2016-2022 yillarda ichki turistlarning kelishi (yillar kesimida)
(Manba: muallif ishlanmasi)

6-rasm. Ichki turistlarning kelishi vohaga 2016 yilda 830 ming nafarni, 2019 yilda esa 2225,8 nafarni ya'ni 124 % ni tashkil qilgan. 2020 yilda ko'rsatkich pandemiya sababli 337,5 ming nafarni ya'ni 17 % ni tashkil qilgan va 2021 yildan keyin o'sish kuzatilgan 1255 ming ya'ni 157% ni tashkil qilgan. Ichki turistlar (O'zbekiston bo'ylab sayohat qil, Manguberdi vataniga sayohat, Mo'ynoqqa sayohat dasturlari doirasida) 2022 yilda 545.5 ming rejalashtirilgan bo'lib, amalda 559.7 ming nafari ya'ni 103%ni tashkil qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNWTO Tourism Highlights 2017 Edition.
2. Xorazm viloyati turizmni rivojlantirish departamentining "Xorazm turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar va infratuzilmasi"
3. Rasmlar muallif tomonidan Xorazm viloyati turizmni rivojlantirish departamentining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

UO'K 338.43

AGROBIOKIMYO XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING YEVROPA ITTIFOQI TAJIRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZ AGROBIOKIMYO XIZMATLARI SOHASIDA QO'LLASH

I.B.Matkarimov, PhD, "Mamun universiteti" NTM, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrobiokimyo xizmatini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimiz agrobiokimyo xizmatlari sohasida qo'llashga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: intensivlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi, strategiya, agroekologiya, FAO, mexanizatsiyalash, atrof-muhit, tamoyil, IPM, sertifikat.

Аннотация. В статье представлен передовой зарубежный опыт развития агробиохимического сервиса и информация по его применению в сфере агробиохимического сервиса нашей страны.

Ключевые слова: интенсификация, продовольственная безопасность, стратегия, агроэкология, ФАО, механизация, окружающая среда, принцип, ИПМ, сертификация.

Abstract. The article presents advanced foreign experience in the development of agrobiocemical services and information on its application in the field of agrobiocemical services in our country.


Key words: intensification, food security, strategy, agroecology, FAO, mechanization, environment, principle, IPM, certification.

Jahon hamjamiyatida aholi sonini geometrik progerssiya, ammo oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini arifmetik progressiya bo'yicha oshib borishi qishloq xo'jaligini intensivlashtirish asosida mahsulot hajmini oshirish masalalari dolzarbligi yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu holat, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida sohani mexanizatsiyalash, o'g'it va pestitsidlardan foydalanishning kuchli o'sishiga asoslangan holda intensivlashtirilishiga olib keldi.

Pestitsidlardan keng miqyosda foydalanish hamda yashil inqilobning qator texnologik yutuqlari ekinlar hosildorligini keskin oshirish va mamlakatlarga oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash imkoniyatini yaratib berdi. Boshqa tomondan esa pestitsidlarning atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sirining kuchayishi ulardan foydalanishni qisqartirish masalasi qator mamlakatlar tomonidan umumiy maqsad va davlat siyosatidagi asosiy muammoga aylandi. Tadqiqotlar natijasida buning qator sabablari keltirib o'tilgan (1-rasm).

Natijada, dunyoning rivojlangan davlatlarida petitsidlardan foydalanishni me'yorlashtirish, cheklash masalalari agrar siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi. Xususan, pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish bo'yicha dastlabki siyosat 1980-yillarda Daniya mamlakatida paydo bo'lgan bo'lsa, 2000-yillardan boshlab Yevropa Ittifoqida ushbu siyosat yanada kengroq miqyosda ishlab chiqilgan. 2009-yilda Yevropa Ittifoqining 2009/128/EC direktivasida zararkunandalarga qarshi integratsion kurashish (IPM) strategiyalarini amalga oshirishni rag'batlantirdi, ammo,

kamaytirishning aniq maqsadli miqdorlari belgilanmadi. Unga ko'ra har bir a'zo davlat o'zining milliy harakatlar rejasidan kelib chiqqan holda maqsad va vositalarni belgilashi kerak edi.



1-rasm. Pestitsidlardan foydalanishning salbiy oqibatlari

Keltirib o'tilgan yo'nalishlardagi tashabbuslarga qaramasdan, pestitsidlardan foydalanish xavfini kamaytirish bo'yicha erishilgan yutuqlar kutilgan darajada bo'lmadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Yevropa Ittifoqida pestitsidlardan foydalanish keyingi o'n yillikda oshishi kuzatilgan. Mazkur siyosatning muvaffaqiyatsizligining asosiy sabablari sifatida pestitsidlardan foydalanishni nazorat qilish uchun tegishli ko'rsatkichlar mavjud emasligi hamda ularni kamaytirish uchun agrotexnik tamoyillarning kam amalga oshirilganligi ko'rsatilmoqda.

Bugungi kunda pestitsidlardan foydalanishni kamaytirishning ikkita asosiy izchil strategiyasi mavjud: zararkunandalarga qarshi integratsion kurashish va organik qishloq xo'jaligi. Zararkunandalarga qarshi integratsion kurashish pestitsidlarni kamaytirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi siyosatining asosi bo'lib, uning maqsadi "barcha mavjud o'simliklarni himoya qilish usullarini va keyinchalik zararli organizmlar populyasiyasining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tegishli choralarni birlashtirish" va "zararkunandalarga qarshi tabiiy kurash mexanizmlarini rag'batlantirish" hisoblanadi. Biroq, bu strategiya samarali bo'lmadi, chunki keyingi davrda hududda pestitsidlardan foydalanish kamaymagan balki oshgan.


Ikkinchi strategiya ya'ni, organik qishloq xo'jaligi pestitsidlardan foydalanishni qisqartirishi aniqlangan, chunki ushbu strategiya sintetik o'g'itlar yoki pestitsidlardan foydalanishni taqiqlaydi, shu bilan birga tuproq unumdorligini saqlaydi va ozuqaviy davrlarni yopadi. Organik qishloq xo'jaligi Yevropa Ittifoqida o'sib borayotgan yo'nalishlardan bo'lib, 2008-yildan 2018-yilgacha organik qishloq xo'jaligi yerlari maydoni 74 foizgan oshgan bo'lishiga qaramasdan, hali ham barcha qishloq xo'jaligi yerlarining kichik qismini, ya'ni 8 foizini qamrab oladi. Organik tizimlar hali ham an'anaviy tizimlarga qaraganda pastroq hosildorlikka ega bo'lib, sertifikatga ega organik mahsulotlar yuqori narxlarda sotilishi, shuningdek, kam xarajat sarflanishi, ba'zi mamlakatlarda agroekologik mukofotlarni joriy etilishi evaziga rivojlantirish harakat qilinmoqda.

Uchinchi strategiya tarafdolari ham mavjud bo'lib, ular pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligini yoqlashadi, bunda barcha kimyoviy pestitsidlardan foydalanish taqiqlanadi. Xuddi zararkunandalarga qarshi integratsion kurashish singari, pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tish uchun ham zararkunandalarning ta'sirini cheklaydigan va ularning tabiiy tartibga solinishini kuchaytiradigan usullar zarur bo'ladi. Biroq, pestitsidlardan butunlay voz kechish uchun tizimlarni chuqur qayta loyihalash va qiymat zanjirlarining ko'p darajalarida innovatsiyalar kiritish orqali zararkunandalarga qarshi integratsion kurashishdan uzoqroqqa borish kerak. Organik qishloq xo'jaligi bilan solishtirganda, sintetik o'g'itlarni pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligida qo'llashga ruxsat berish hosildorlikning yo'qolishini cheklashi mumkin. Shunga qaramay, azotli o'g'itlashning atrof-muhitga ta'siri tufayli, o'g'itash usullarini qayta ko'rib chiqish va hozirgi ekin ekish tizimlariga nisbatan potensial ravishda kamaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pestitsidlarsiz tizim bo'yicha tadqiqotlar fanlar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni ta'minlanishini talab qiladi. Fanlararo tadqiqotni amalga oshirishda mujmal va innovatsion tadqiqot yo'nalishlari uchrash ehtimoli yuqori, chunki turli bilim bazalarini birlashtirish, almashtirish va yangilash lozim

bo'ladi. Xususan, innovatsiyalarni joriy qilishga halaqit qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlar shuningdek, yangilikni rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy tashkilotlar o'rganishda ijtimoiy fanlarni jalb qilish ahamiyatlidir. Umuman olganda, pestitsidlarni yo'q qilish kabi murakkab muammolar yangi bilimlarga asoslangan chuqur innovatsiyalarni, shuningdek, maxsus siyosat va qiymat zanjirlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tish tadqiqotlarida chuqur va muvofiqlashtirilgan o'zgarishlarni talab qiladi.

Chunki, belgilangan maqsadga erishish bir vaqtni o'zida qator strategiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Ta'kidlanganidek mazkur strategiyalar bilim sohalari hamda yangi tadqiqot jabhalarini o'zida jamlagan fan yo'nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslangan holda pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tishda muhim bo'lgan fan yo'nalishlarini keltirib o'tmoqchimiz (2-rasm).



2-rasm. Pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tish uchun zarur fan yo'nalishlari

Keltirib o'tilgan fan yo'nalishlarini rivojlantirish va pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tish uchun qator vazifalar bajarilishi ta'minlanishi lozim. Bular:

Birinchidan, qishloq xo'jaligiga oid fanlar doirasida agroekologik tamoyillarga asoslangan holda o'simliklarni kasalliklardan davolash yondashuvidan ularni profilaktik himoya qilish yondashuviga o'tish.

Ikkinchidan biologik nazorat masalasiga e'tibor qaratish lozim, ya'ni biologik yechimlar mavjud muhit va amaliyotga moslashgan holda diversifikatsiya qilinishi va takomillashtirilishi lozim.

Uchinchidan genetikani rivojlantirish, ya'ni naslchilik bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishda ularni bioxilma-xillik hamda ekologik evolyusiya masalalariga e'tibor qaratish talab qilinmoqda.

To'rtinchidan, texnikani yangi avlodini ishlab chiqqan holda raqamli qishloq xo'jaligini rivojlantirish asosida pestitsidsiz qishloq xo'jaligi amaliyotiga o'tishni osonlashtirish, raqamli texnologiyalardan zararkunandalarga qarshi kurashni optimallashtirish va epidemiologik nazoratni yaxshilashda keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Beshinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha, pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish hamda xususiy tashabbuslar qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Fransiyada 2018-yil oktyabrda qabul qilingan "EGALIM" qonunining 83-moddasida pestitsidlarni tartibga solish masalasi alohida qarab chiqilgan bo'lib, unda inson yoki hayvonlarning sog'lig'i, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq sabablarga ko'ra ruxsat etilmagan faol moddalarni o'z ichiga olgan vositalarni ishlab chiqarish, saqlash va tashishni 2022-yil 1-yanvardan ta'qiqlash nazarda tutilgan.

Mazkur qonun qabul qilingandan keyin Bayer, Syngenta, BASF kabi yirik ishlab chiqaruvchilar hamda Fransiya urug'lik ittifoqini o'zi ichiga olgan Fransiya agrokimyoviy lobbistlar uyushmasi da'vo arizasi bilan 2019-yilda murojaat qilishdi. Ya'ni ular qonunning 83-qismiga e'tiroz bildirib, Yevropa ittifoqi tomonidan tasdiqlanmagan faol moddalarni o'z ichiga olgan ayrim ba'zi o'simliklarni himoya qilish vositalarini keltirilgan tartibda cheklash ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi

korxonalar uchun jiddiy oqibatlarni olib kelishi sababli tadbirkorlik erkinligi bo'yicha huquqlarini cheklash sifatida talqil qilishdi.

Biroq Konstitutsiyaviy kengash 2020-yil yanvarda qonunning bahsli moddalari Fransiya Konstitutsiyasiga muvofiqi haqida qaror chiqarib, belgilangan muddatda kuchga kirishini ta'kidladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki 83-moddada keltirilgan qoidalar ikki tomonlama standartlarga barham berish va pestitsidlarni global savdosini tartibga solishni rivojlantirishda muhim qadam bo'lsada, qator xalqaro tashkilotlar tomonidan tanqid qilindi.

Italiyada ogranik qishloq xo'jaligini tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga to'xtaladigan bo'lsak, Markaziy Italiya tajribasi ahamiyatlidir. Uning asosiy maqsadi suv havzalari, landshaft, biologik xilma-xillik va ijtimoiy tuzilmalarga salbiy ta'siri tufayli findik ishlab chiqarish monofakturasini bosqichma-bosqich organik shaklda tashkil qilish uchun zaruriy loyihalarni ishlab chiqish va huquqiy asosni shakllantirish hisoblanadi.

Mamlakatda ogranik findiq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkinligini asoslovchi, deyarli 10 yil ilgari tashkil qilingan va 13 munitsipalitetni qamrab olgan "Biodistribution della Via Amerina e delle Forre" kabi ekologik regionlar mavjud. Mazkur hududdagi 11 ta organik fermer xo'jaligi "Findiqlar hamjamiyati" deb nomlangan tajriba loyihani ishga tushirib, ishlab chiqarishdan tortib qayta ishlash va tijoratlashtirishgacha bo'lgan mahalliy ta'minot zanjirini ancha samarali ishlashini ko'rsatib berishdi.

Normativ – huquqiy baza nuqtai –nazaridan, bazi munitsipalitetlar qoidalarini nazorat qilish va pestitsidlarni qo'llashni kamaytirish uchun qonunosti hujjatlaridan foydalanishdi. Ushbu qoidalar natijasida kelib chiqqan muammolar sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Ya'ni hususiy mulkdorlar va ularning uyushmalari ko'pchilik holatlarda e'tirozlar bilan chiqishdi. Bundan tashqari ta'qiqlangan vositalardan tungi vaqtlarda noqonuniy foydalanish holatlari kuzatildi.

Agrobiokimyoviy vositalarni qo'llash, xizmatlarni ko'rsatish, albatta ulardan foydalanuvchilarning moddiy-iqtisodiy holatiga va sifatli yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'molchilarining o'rtacha daromad darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Agarda dunyoda ko'pgina mamlakatlarda ekinlar hosildorligi ularda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi e'tiborga olinsa, sifatli va samarali agrobiokimyoviy vositalar va xizmatlardan nisbatan qimmatligi sababli yetarli darajada foydalana olmaydilar. Shuning uchun bunday mamlakatlar qatorida O'zbekiston ham to'g'ri kelishi unchalik qimmat bo'lmaganlarini ulardan foydalanishda atrof muhitga, aholi sog'lig'iga salbiy ta'sirlari minimal bo'lishini ta'minlaydigan agrobiokimyoviy xizmatlarni qo'llash texnologiyasi va amaliyotga rioya qiladigan nazorat chora-tadbirlari bilan uyg'unlikda bo'lishi bu muammolarning bizda ham dolzarbligini ko'rsatadi.

Xorijiy tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra bugun rivojlangan davlatlarda pestitsid va gerbitsidlardan foydalanish hajmini kamaytirish, ularning inson salomatligiga ta'siri baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari boshqa sohalarga nisbatan norentabel bo'lgan va doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanib kelinayotgan qishloq xo'jaligiga ajratiladigan moliyaviy yordamlar uchun gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish ko'rsatkichi muhim mezon sifatida qabul qilinmoqda.

Fikrimizcha, xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda mamlakatda fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashda gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish darajasini muhim mezon sifatida qabul qilinsa, bu yetishtirilgan mahsulotlarning ekologik jihatdan sofligini oshirish hamda jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilgani holda mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini oshirishga hamda savdodan oldigan yutug'ini ko'paytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda pestitsidlardan foydalanishni kamaytirishning ikkita asosiy izchil strategiyasi mavjud bo'lib, bular: zararkunandalarga qarshi integratsion kurashish va organik qishloq xo'jaligidir. Yevropa ittifoqi tajribasiga ko'ra birinchi strategiya samarali bo'lmadi, chunki keyingi davrda hududda pestitsidlardan foydalanish kamaymagan balki oshganligi kuzatildi. Organik qishloq xo'jaligi sintetik o'g'itlar yoki pestitsidlardan foydalanishni taqiqlagani sababli tuproq unumdorligini saqlaydi va samarali usul sifatida qaralmoqda;

Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaliga ajratiladigan moliyaviy yordamlar uchun gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish ko'rsatkichi muhim mezon sifatida qabul qilish yetishtirilgan mahsulotlarning ekologik jihatdan sofligini oshirish hamda jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Barzman M, Dachbrodt-Saaydeh S (2011) Comparative analysis of pesticide action plans in five European countries. *Pest Manag Sci* 67:1481–1485. <https://doi.org/10.1002/ps.2283>;
2. Lee R, den Uyl R, Runhaar H (2019) Assessment of policy instruments for pesticide use reduction in Europe; learning from a systematic literature review. *Crop Prot* 126:104929. <https://doi.org/10.1016/j.cropro.2019.104929>
3. Fantke P, Friedrich R, Joliet O (2012) Health impact and damage cost assessment of pesticides in Europe. *Environ Int* 49:9–17. <https://doi.org/10.1016/j.envint.2012.08.001>;
4. Pedersen AB, Nielsen HØ (2017) Effectiveness of pesticide policies: experiences from Danish pesticide regulation 1986–2015. In: Coll M, Wajnberg E (eds) *Environmental Pest Management*. John Wiley & Sons, Ltd, Chichester, UK, pp 297–324
5. Reganold JP, Wachter JM (2016) Organic agriculture in the twenty first century. *Nat Plants* 2:1–8. <https://doi.org/10.1038/nplants.2015.221>
6. Florence Jacquet · Marie-Hélène Jeuffroy et al (2022). Pesticide-free agriculture as a new paradigm for research. *Agronomy for Sustainable Development* (2022) 42: 8 <https://doi.org/10.1007/s13593-021-00742-8>
7. <https://www.statista.com>
8. <http://www.fao.org>
9. <https://ec.europa.eu>
10. <https://www3.epa.gov>

UO'K 502.12

EKOLOGIK INQIROZLI HUDUDLARDA MEHMONXONA INDUSTRIYASINING ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI

U.R.Matyakubov, kafedra mudiri, i.f.d., Urganch davlat universiteti, Urganch

Sh.O'.Karimova, mustaqil izlanuvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

R.Sh.Saidova, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqasida kichik mehmonxonalarning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan motivatsiyasi(xarakat)i tahlil qilingan. Ekologik inqirozli hududlarda mehmonxonalarni atrof-muhitni muhofaza qilishga undash muhim ahamiyat kasb etadi. Mehmonxona menejerlari bilan suhbatlashish orqali ushbu tadqiqot ularning atrof-muhitni muhofaza qilish uchun cheklangan motivatsiyasi (xarakati)ni namoyish etadi. Tadqiqot mehmonxonalarni atrof-muhitni muhofaza qilishda turli manfaatdor tomonlarning rolini ochib berdi. Mehmonxona tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan siyosat va boshqaruv tadbirlari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, suv iste'moli, qattiq chiqindilar, mehmondo'stlik sektori, Orolbo'yi mintaqasi.

Аннотация. В данной статье анализируется мотивация (движение) малых отелей по защите окружающей среды в регионе Аральского залива. Важно поощрять отели защищать окружающую среду в районах с экологическим кризисом. Посредством интервью с менеджерами отелей это исследование демонстрирует их ограниченную мотивацию (действия) по защите окружающей среды. Исследование выявило роль различных заинтересованных сторон в охране окружающей среды отелей. Рекомендует политические и управленческие действия, необходимые отелю для содействия защите окружающей среды.

Ключевые слова: Экологическая устойчивость, энергоэффективность, водопотребление, твердые отходы, гостиничный сектор, Приаралья.

Abstract. This article analyzes the motivation (movement) of small hotels to protect the environment in the Aral Bay region. It is important to encourage hotels to protect the environment in areas with an ecological crisis. Through interviews with hotel managers, this study demonstrates their limited motivation (action) to protect the environment. The study revealed the role of various stakeholders in environmental protection of hotels. Recommends policy and management actions needed by the hotel to promote environmental protection.

Key words: Environmental sustainability, energy efficiency, water consumption, solid waste, hospitality sector, Aral Sea region.

Rivojlanayotgan va o'tish davridagi ko'plab mamlakatlar uchun xos bo'lgan, ekologik me'yorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tartibga soluvchi vositalarning yo'qligi mehmonxonalardan kamroq atrof-muhitni muhofaza qilishni talab qiladi [1]. Atrof-muhitning barqarorligi chekka hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalar uchun ahamiyatli hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bunday yo'nalishlar ko'pincha bilim va kapital oqimining cheklanganligi bilan bir qatorda tabiiy va mehnat resurslarining kamligi bilan tavsiflanadi [2]. Mehmonxonalar atrof-muhit barqarorligi, biznes majburiyatlari kabi uzoq muddatli maqsadlardan farqli o'laroq, marketing va mijozlar ehtiyojini qondirish kabi qisqa muddatli biznes maqsadlariga e'tibor qaratadilar [3].

Tadqiqotlar mehmonxonalardagi ekologik barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga munosabati o'rtasidagi bog'liqligini ko'rsatdi [4]. Ijobiy munosabat atrof-muhitni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarning kengroq qabul qilinishiga olib keladi[4]. Bu ijobiy munosabat, o'z navbatida, mehmonxona egalari mehmonxona faoliyatining tashqi tasiri va bu tashqi tasirlarning moliyaviy (yani operatsion xarajatlar) va moliyaviy bo'lmagan biznes faoliyatiga qanday tasir qilishi mumkinligi haqidagi bilimlari bilan shakllanadi [5]. Yuqori bilim va ijobiy munosabat, mehmonxonalarni atrof-muhitni saqlashga undashi mumkin [6].

Bu atrof-muhitni muhofaza qilish bilan shug'ullanish yoki shug'ullanmaslik to'g'risida qaror qabul qilishda uzoq va resurslar tanqis bo'lgan joylarda faoliyat yurituvchi mehmonxona egalari tomonidan qanday motivatsiyalar(xarakterlar) mavjud bo'lsa, o'rganish muhimligini ko'rsatadi [7]. Bunday motivatsiyalarni yaxshiroq tushunish mehmonxona biznesini ekologik barqarorlikka intilishlarida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli siyosat choralari ishlab chiqish muhim [8]. Bunday chora-tadbirlar nafaqat mehmonxonalarga, balki ular bilan ishlayotgan korxonalar ham foyda keltiradi, chunki ular xam resurslar tanqisligidan aziyat chekadi. Bunday korxonalarda mehmonxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan atrof-muhitni muhofaza qilish choralari tabiiy va mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanishga va ekologiyani kamroq ifloslanishiga olib keladi[9]. Aslini olganda, bu mehmonxona biznesining maqsadli va tashkiliy barqarorligini oshiradi va shu tariqa tashrif buyuruvchilar, soha mutaxassisleri, biznes egalari, investorlar, xodimlar va hokimiyat organlari uchun imkoniyatli vaziyatlar yaratadi [10].

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasida faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarning atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko'rishga bo'lgan motivatsiyasini o'rganadi. Orol dengizining inson tasiri ostida qurib ketishi bir vaqtlar unumdor bo'lgan hududni cho'lga aylantirdi va mahalliy ekotizimlar hamda aholi punktlari uchun ko'p qirrali salbiy oqibatlariga olib keldi. Orol dengizining qurishi 3,5 million kishiga salbiy tasir ko'rsatdi.

Shunga qaramay, Orolbo'yi hududi hozirda mashhur sayyohlik maskaniga aylangan. Mintaqa o'zining inqirozli o'tmishi va kelajagi bilan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qiladi Orol dengizini "qorong'u turizm" manzili sifatida taqdim etadi[11]. Belgilangan joy tabiiy resurslarga ega emas va turizm mahalliy aholining turmush tarzini qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta cheklangan daromad manbalaridan birini taminlaydi[12]. Mintaqa uzoqligi va resurslarning tanqisligi turizmning keng ko'lamli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, aksariyat korxonalar kichik, mustaqil operatorlar tomonidan ko'pincha mahalliy tadbirkorlar tomonidan boshqariladi[13].

Turizm O'zbekistonda eksportdan asosiy daromad keltiruvchi sohalardan biri sifatida belgilangan. 2022- yilda bu ko'rsatkich 1,6 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 0,55 milliard AQSh dollari bo'lgan 2017 yilga nisbatan uch baravar ko'pdir[14]. COVID-19dan oldingi davrda turistlar kelishining barqaror o'sishidan foydalanish uchun mamlakatning turistlarni joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur edi. Shu maqsadda O'zbekiston milliy hukumati butun mamlakat bo'ylab, jumladan, Orolbo'yida mehmonxona biznesini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni qabul qildi[15]. Bunday chora-tadbirlar turli rag'batlantirish sxemalarini o'z ichiga olgan, masalan, yangi tashkil etilgan mehmonxona korxonalari uchun muhim ahamiyat kasb qildi.

Ushbu rag'batlantirish natijasida 2022-yilda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarning umumiy soni 1088 taga yetgan, bu 2018-yilda 814 ta mehmonxona ro'yxatga olinganiga nisbatan qariyb 30 foizga ko'pdir. Biroq, aksariyat mehmonxonalar Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi sayyohlik markazlarida faoliyat yuritadi. Orolbo'yi mintaqasida (Xorazm viloyati va Qoraqlpog'iston Republikasida) faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalar soni 134 tani yoki mamlakatdagi jami mehmonxona fondining 12 foizini tashkil etadi [16]. Bu mehmonxonalar 1582 ta xona va 4168 o'ringa mo'ljallangan, bu esa Orolbo'yida joylashgan mehmonxona korxonalarining ko'pchiligi kichik hajmda ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyo mintaqasida turizmning ommaviyligi ortib borayotganiga qaramay, xalqaro ekspertizadan o'tgan jurnallarda tarqatilgan birorta ham ilmiy tadqiqot mahalliy mehmonxona korxonalarini tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar bo'yicha maqolalar chop qilinmagana. Bazi tadqiqotlarda bu mavzu O'zbekistondagi turoperatorlar [17] va Qozog'iston milliy bog'i mamuriyatlari [18] kabi turizm korxonalarini kontekstida ko'rib chiqilgan. Bugungi kunga qadar mehmonxonalar bo'yicha maqsadli tadqiqotlar o'tkazilmagan, bu esa joriy tadqiqotning zarurligini bildiradi va uning yangilik xarakterini aniqlaydi.

O'zbekistonda turizmning o'sib borayotgan ekologik tashqi tasiri tobora e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2019-yilda qabul qilingan maxsus rezolyutsiyasida ayniqsa, mamlakatning turli yo'nalishlarida **mahalliy ekotizimlarning o'ziga xosligi, uzoqligi va o'ta zaifligini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ko'rish talab qilingan** [19]. O'zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi loyihasiga kiritilgan. Bu mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari tavsiflaydi [20]. Strategiya energiyani turli iqtisodiyot tarmoqlarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish orqali tejash zarurligini takidlaydi. Strategiyada suvdan foydalanish samaradorligini oshirish muhimligi shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalari, kompaniyalarning biznes operatsiyalarida muhimligi ham muhokama qilinadi.

O'zbekiston Xususiy turizm tashkilotlari assotsiatsiyasi "Markaziy Osiyoda barqaror turizm modeli: salohiyatni oshirish, xabardorlikni oshirish va texnologiyalarni joriy etish" tashabbusi bilan chiqdi. Tashabbus O'zbekistondagi ko'plab sayyohlik va mehmondo'stlik korxonalarini tomonidan qabul qilingan energiya va suvni tejash bo'yicha noodatiy amaliyotlarning tan olinishi bilan asoslanadi. Ushbu tashabbus doirasida 40 ta mehmonxona atrof-muhitni asrash bo'yicha o'qitilib va ekologik barqarorlikka sarmoya kiritishning afzalliklari tushuntiriladi [21]. Qizig'i shundaki, ushbu tashabbusga mo'ljallangan barcha mehmonxonalar O'zbekiston poytaxti Toshkentda joylashgan. Bu O'zbekistonning uzoq va iqtisodiy va ekologik jihatdan noqulay hududlaridan biri, yani Orolbo'yi mintaqasida faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarda atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyotini qanday targ'ib qilish mumkinligini tushunishga qaratilgan ushbu tadqiqotning yana bir mantiqiy asosini beradi.

O'zbekistondagi mehmonxona xo'jaliklari, ayniqsa, Orolbo'yining chekka hududida faoliyat yuritayotgan mehmonxona xo'jaliklari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish mavzusining nisbatan yangiligini hisobga olib, malumotlar yig'ish bu borada ilmiy tadqiqotlar yo'qligidan dalolat beradi. Sifatli tadqiqotlar turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan murakkab va nozik mavzularni o'rganishda, masalan, mehmonxona mamuriyatining ekologik barqarorlik kun tartibini qabul qilish motivlarida foydali hisoblanadi. Buning sababi shundaki, sifatli tadqiqot nafaqat "qanday qilib atrof-muhitni asraysiz?", yoki "nega atrof-muhitni saqlash muhim?" degan savollarga batafsil javob olish imkoniyatini beradi. O'tgan tadqiqotlarda mehmonxona mamuriyatlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, shu jumladan energiya va suvni tejash va kamroq chiqindi ishlab chiqarish choralariga bo'lgan munosabati va qarashlarini o'rganish uchun sifatli tadqiqot usullari samarali qo'llanilgan. Shuning uchun uni joriy tadqiqot loyihasida qo'llash mos deb topildi.

Birlamchi ma'lumotlar O'zbekistonning Orolbo'yi hududida faoliyat yurituvchi mehmonxona ma'muriyatlaridan to'plangan. Tadqiqot ishtirokchilarini jalb qilish uchun avvalo O'zbekiston Xususiy turizm tashkilotlari assotsiatsiyasida ro'yxatdan o'tgan barcha hududdagi mehmonxona korxonalariga elektron xat yuborildi. Elektron pochta ushbu tadqiqotning maqsadini tushuntirish,

uning anoniligini taminlash va ishtirok etishning afzalliklarini, yani tadqiqotning O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishga (ko'proq) ko'maklashishga qaratilgan turizm siyosatini ishlab chiqishda malumot berish potentsialini ko'rsatishga xizmat qilishi tushuntirildi. Hammasi bo'lib 75 ta mehmonxona elektron pochta orqali yuborilgan so'rovlarga javob berib, loyihada ishtirok etish uchun dastlabki roziligini bildirdi. Tadqiqot haqida batafsil malumot berish va ishtirok etish roziligini tasdiqlash maqsadida ushbu mehmonxonalarga telefon orqali qo'ng'iroq qilindi. Telefon qo'ng'irog'idan so'ng 70 ta mehmonxona xo'jaligi yoki O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasida ro'yxatdan o'tgan mehmonxona xo'jaliklarining umumiy sonining 62,5 foizi ushbu tadqiqot malumotchisi sifatida loyihaga hissa qo'shishga rozi bo'ldi. Ular orasida mehmonxona korxonalarining 47 yoki 67 foizi 20 dan kam o'rinli yotoqqa ega bo'lgan. Qolgan korxonalarining har biri tomonidan taqdim etilgan yotoqlar soni 50 tadan oshmadi, yani o'rganilayotgan namuna kichik mehmonxonalar tomonidan taqdim etilgan. Namunadagi barcha mehmonxona korxonalari mustaqil ravishda mahalliy tadbirkorlarga yoki O'zbekistonning boshqa mintaqalaridan kelgan investorlarga tegishli edi.

Malumotlar mavzu bo'yicha tahlil qilindi. Braun va Clarke (2006) ko'rsatmalariga muvofiq, tadqiqot guruhi birinchi navbatda asosiy mavzular va sub-mavzularni takidlab, har bir intervyu stenogrammasini o'qib chiqdi. Tadqiqot ishtirokchilarining fikrlari va manolarining xilma-xilligini qamrab oladigan mavzular sub-mavzular ro'yxatiga kelish uchun ular muhokama qilindi. Suhbatlar Orol dengizi mintaqasidagi kichik, mustaqil mehmonxonalar tomonidan qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilish choralari inventarizatsiyasini tuzishdan boshlandi. Garchi barcha mehmonxona korxonalari atrof-muhit barqarorligiga sarmoya kiritganliklarini davo qilishgan bo'lsa-da, diqqat bilan o'rganilganda, sanoatning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilinishida jiddiy tafovutlar aniqlandi. Bazi mehmonxonalar keng ko'lamli chora-tadbirlarga sarmoya kiritgan bo'lsa-da, bazilari juda oz miqdorda qabul qildi. Mehmonxona biznesining yoshi va ekologik barqarorlikni qo'llash darajasi o'rtasidagi bog'liqlik ko'rinib turibdi, bunda yangi tashkil etilgan korxonalar ularning soni va xilma-xilligi nuqtai nazaridan atrof-muhitni muhofaza qilish choralari kengroq qo'llashni namoyish etdilar.

Suvni tejash mehmonxona oshxonalar va hammomlarida suv tejaydigan uskunalarni o'rnatishni o'z ichiga olgan eng muhim chora-tadbirlar sifatida e'tirof qilindi. Bazi mehmonxonalar o'z binolarida "kulrang" suvni qayta ishlagan, ammo bunday korxonalar soni kam edi. Orolbo'yi mehmonxonalarida suvni tejash bo'yicha chora-tadbirlarning muhimligi o'z-o'zidan tushunarli, chunki Orol dengizining qurishi manzilga suv tanqisligini keltirib chiqardi, buning natijasida mehmonxonalar suv uchun aholi bilan raqobatlashadi. Bu ko'plab mehmonxona korxonalarini suvni tejashga sarmoya kiritishga undaydi.

Suhbat tahlillari energiyani tejash ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi, lekin bu asosan energiya tejovchi lampalarni o'rnatish kabi oddiy choralarni o'z ichiga oladi. Bazi mehmonxonalar energiya tejovchi elektron va elektr jihozlari va qurilmalariga sarmoya kiritganligini takidlaganlar. Ammo, bunday investitsiyalarning katta xarajatlari tufayli bunday korxonalar soni unchalik katta emas edi. Nihoyat, mehmonxonalarining kichik bir qismi, asosan, yangi tashkil etilgan mehmonxona korxonalari, ularning binolarida quyosh panellari o'rnatilganligini qayd qilganlar. Orolbo'yi mintaqasi ko'p miqdorda quyosh radiatsiyasini oladi, bu esa uni quyosh energiyasini ishlab chiqarish uchun qulay hisoblanadi. Biroq, o'rnatish xarajatlari haddan tashqari yuqori deb ko'rsatilgan, bu ko'pchilik mehmonxona egalari atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ushbu maxsus chorani qo'llashga to'sqinlik qilgan.

Chiqindilarni boshqarish ancha e'tibordan chetda qolgan tomonlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Garchi bazi mehmonxonalar qattiq chiqindilarni keyinchalik qayta ishlash uchun o'z ish joylarida ajratganini davo qilgan bo'lsa-da, mutlaq ko'pchilik chiqindilarni joyida umuman boshqarmagan. Isrof qilingan oziq-ovqat yoki plastmassa miqdorini kamaytirishga e'tibor berilmaganligi alohida takidlab o'tish lozim.

Tanlangan mehmonxonalar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bir qator mintaqalar uchun no'anaviy choralar ko'rilgan. Misol uchun, bir nechta mehmonxona egalari chiqindi suvni ifloslantirmasligini taminlash uchun ko'proq ekologik tozalash vositalarini sotib olganlar. Oz

sonli mehmonxonalar “sog‘lomroq” menyularni taqdim etishga sarmoya kiritganlar, chunki ular nafaqat mijozlar salomatligi, balki “oziq-ovqat millari”ning qisqarishi tufayli atrof-muhit uchun ham foydali hisoblanadi. Shuningdek, bir nechta mehmonxonalar o‘z mehmonlariga velosiped ijarasini taklif qilish orqali ekologik toza mahalliy sayohatlarni targ‘ib qilishgan.

Bazi mehmonxonalar atrof-muhitni muhofaza qilishning afzalliklari haqida yetarli malumotga ega emasligi, bu esa ularning ekologik barqarorlikka yomon munosabatda bo‘lishiga olib kelgan. Tadqiqot ishtirokchilarining barchasi Orolbo‘yi mintaqasiga tasir etayotgan ekologik muammolarning mohiyatini tushungan bo‘lsalar-da, ko‘pchilik mehmonxonalar korxonalarini o‘z biznes faoliyati va atrof-muhit degradatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnata olmaganlar. Bundan tashqari, bazi mehmonxonalar atrof-muhitni boshqarish tushunchasini bilmasliklarini alohida takidlab o‘tganlar. Ushbu mehmonxonalar egalari uchun shahar chiqindilarini yig‘uvchilar yoki suv taminoti kompaniyalariga to‘langan to‘lovlar atrof-muhitni saqlash uchun yetarli deb hisoblangan.

Nihoyat, kam sonli mehmonxonalar atrof-muhitni asrashga astoydil harakat qilishgan. Bu korxonalar quyosh batareyalarini o‘rnatgan, binolarini izolyatsiya qilgan, mehmonxonalarini suvni tejaydigan zamonaviy jihozlar bilan jihozlagan. Tadqiqot ishtirokchilarining aksariyatidan farqli o‘laroq, bu mehmonxonalar egalari atrof-muhitni muhofaza qilishning nomoddiy afzalliklarini, masalan, ishbilarmonlik obro‘sin oshirish va joriy hamda istiqbolli mijozlarga jozibadorlikni oshirishni afzal bilganlar.

Hukumat, mijozlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar va investorlar kabi manfaatdor tomonlar Orolbo‘yi mintaqasidagi mehmonxonalarda ekologik barqarorlikni taminlash dasturini ilgari surishda muhim rol o‘ynadi. Masalan, mehmonxonalar atrof-muhitni boshqarish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun doimiy bank kreditlarini olish uchun ariza topshirishlari kerak bo‘lgan. Garchi bunday loyihalar rezident jamoalar va umuman boradigan joyning ekologik barqarorligi uchun foydali bo‘lishiga qaramay, foiz stavkalarida chegirmalar berilmagan. Xuddi shunday, hukumat kommunal chiqindilarni yig‘ish va oqava suvlarni tozalash xizmatlarini taqdim qilgan, buning uchun esa mehmonxonalar to‘lov qilishi kerak bo‘lgan.

Turistlarning roli ham ijobiy, ham salbiy bo‘lgan. Mehmonxonalar egalari o‘z mehmonlarining, ayniqsa xalqaro tashrif buyuruvchilarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabati tobora ortib borayotganini tan olgan, bu esa nazariy jihatdan “yashilroq” mahsulot va xizmatlarga talabning oshishiga olib kelishi mumkin. Biroq, ular ko‘pchilik sayyohlar, ayniqsa mahalliy turistlar, mehmonxonalar joy tanlashda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini hisobga olmaganliklarini tan olishgan. Mehmonxonaning boshqa xususiyatlari, masalan, uning joylashuvi, mijozlar sharhlari va taklif etilayotgan mehmonlar uchun qulayliklar sifati ko‘proq ijobiy baholangan. Shunday qilib, "yashil" korporativ imidjga ega bo‘lishning afzalliklari bazi mehmonxonalar tomonidan tan olingan, ammo ko‘pchilik investitsiyalarning past daromadligidan qo‘rqib, ushbu imidjni yaratishga investitsiya qilishga tayyor emasligini izohlaganlar.

Tadqiqot atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ekologik inqirozli hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxonalarning sabablarini yoritib berildi. Bu mehmonxonalar va aholi jamoalari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligiga qaramay, uning choralarini qo‘llash cheklanganligini ko‘rsatdi. Mehmonxonalar o‘rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish uchun siyosatni ishlab chiqish va boshqaruv choralarini ko‘lami belgilash muhimligini ko‘rsatdi.

O‘zining amaliy hissasi nuqtai nazaridan tadqiqot resurslar tanqis bo‘lgan joyda ishlaydigan kichik, mustaqil mehmonxonalarni ekologik barqarorlikka sarmoya kiritish uchun rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan siyosatni ishlab chiqish va boshqaruv choralarini ko‘rishni talab qiladi. Tadqiqot o‘rganilayotgan joyning tabiiy muhitining tez yomonlashishi va mehmonxonalar biznesining uni saqlashdagi passiv rolini hisobga olgan holda bunday aralashuvlarning dolzarbligini aniqlaydi. Milliy hukumatning roli muhim hisoblanib, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda hukumat aralashuvining bazi aniq yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi.

Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar nuqtai nazaridan, ushbu sifat, tadqiqot natijalaridan miqdoriy tasdiqlovchi tadqiqotni loyihalashda foydalanish tavsiya etiladi. Bunday tekshiruv O‘zbekistondagi barcha mehmonxonalarga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z xulosalarini

yanada ishonchli qiladi. Orol dengizi mintaqasi O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida bo'lingan. Joriy tadqiqotni Qozog'iston kontekstida takrorlash yana bir qiziqarli fikrni keltirishi mumkin. Nihoyat, ekologik vaziyat inqirozli bo'lgan mehmonxonalarda, balki turizmning boshqa sohalarida ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazish zarur bo'ladi. Bu esa nafaqat qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi, balki barqaror turizmni rag'batlantirish orqali destinatsiyani jonlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradigan boshqaruv tizimini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alonso-Almeyda, M. Robin, CF Pedroche, MSC va Astorga, PS, 2017. Mehmonxona sanoatida yashil amaliyotlarni qayta ko'rib chiqish: yetuk va rivojlanayotgan yo'nalishlar o'rtasidagi taqqoslash. *Toza ishlab chiqarish jurnali*, 140 (3-qism), 1415-1428.
2. Alves L, Silva S. va Soares, I, 2020. Insular hududlarda chiqindilarni boshqarish: Funchaldagi to'lov tizimi. *Energiya hisobotlari*, 6(8), 31-36.
3. Ataniyazova, AO, 2013. Orol dengizi inqirozining salomatlik va ekologik oqibatlarini. In: *III Jahon suv forumi Markaziy Osiyoda umumiy suv resurslari bo'yicha mintaqaviy hamkorlik*. Kioto, Yaponiya.
4. Ayuso, S., 2006. Barqaror turizm uchun ixtiyoriy ekologik vositalarni qabul qilish: ispan mehmonxonalari tajribasini tahlil qilish. *Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va atrof-muhitni boshqarish*, 13(4), 207-220.
5. Aznar JP, Sayeras JM, Galiana J. va Rocafort, A 2016. Barqarorlik majburiyati, yangi raqobatchilarning mavjudligi va mehmonxona faoliyati: Barselonadagi mehmonxona sanoati. *Barqarorlik*, 8(8), 755.
6. Becken S 2013. Operatorlarning energiyadan foydalanish haqidagi tasavvurlari va turizmni joylashtirish uchun haqiqiy tejash imkoniyatlari. *Asia Pacific Journal of Tourism Research*, 18(1-2), 72-91.
7. Berg, BL, 2009. *Ijtimoiy fanlar uchun sifatli tadqiqot usullari*. Boston, MA: Pearson Education.
8. Binggeli U, Constantin M and Pollack E 2020. *COVID-19 turizmi soni tiklanishiga sarflanadi*. McKinsey & Company, 20 oktyabr 2020 yil.
9. Bohdanowicz, P. va Martinac, I., 2007. Mehmonxonalarda resurs iste'molini aniqlash va taqqoslash - Yevropada Hilton International va Scandic misolida. *Energiya va binolar* 39(1) 82-95.
10. Braun V va Clarke V 2006. Psixologiyada tematik tahlildan foydalanish. *Psixologiyada sifatli tadqiqotlar*, 3 (2), 77-101.
11. Brislin, RW 1970. Madaniyatlararo tadqiqotlar uchun orqaga tarjima. *Madaniyatlararo psixologiya jurnali*, 1, 185-216.
12. Buffa, F Franch, M. va Rizio, D 2018a. Kichik va o'rta mehmonxona korxonalarida barqaror biznes modellari uchun atrof-muhitni boshqarish amaliyoti. *Toza ishlab chiqarish jurnali*, 194, 656-664.
13. Buffa, F. Franch, M. Martini U va Tamanini A 2018b. Atrof-muhitni boshqarish amaliyotiga asoslangan mehmonxona profillari: Alp tog'laridagi o'rganishdan olingan dalillar. *Barqarorlik*, 10(12), 4531.
14. Chaabane V, Nassour, A. va Nelles, M., 2018. Mehmonxonalar uchun qattiq chiqindilarni boshqarishning asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish: Tunis misolini tahlil qilish. *Qayta ishlash*, 3(4), 56.
15. Chan, ESW, 2011. Kichik va o'rta mehmonxonalarda atrof-muhitni boshqarish tizimlarini joriy qilish: to'siqlar. *Mehmondo'stlik va turizm tadqiqotlari jurnali*, 35(1), 3-23.
16. Chan, V, 2012. Kam uglerodli mehmonxonalarini qo'llab-quvvatlashda energiya benchmarking: Xitoyda rivojlanish, muammolar va yondashuvlar. *Mehmondo'stlikni boshqarish xalqaro jurnali*, 31 (4), 1130-1142.
17. Chan, ESW, Hon, AHY, Chan W and Okumus F 2014. Xodimlarning mehmonxonalarda yashil amaliyotlarni amalga oshirish niyatlariga nima sabab bo'ladi? Bilim, xabardorlik, tashvish va ekologik xatti-harakatlarning roli. *Mehmondo'stlikni boshqarish xalqaro jurnali*, 40, 20-28
18. Dhirasasna N, Bekken S va Sahin O 2020 yil. Kvinslend (Avstraliya) mehmonxona sektorida qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini joriy etishning omillari va to'siqlarini o'rganishga tizimli yondashuv. *Mehmondo'stlik va turizmni boshqarish jurnali*, 42, 153-172.
19. Diaz, MR va Rodriguez, TEF, 2016. Manfaatdor tomonlar nuqtai nazaridan turizm destinatsiyasining barqarorlik omillari va samaradorligini aniqlash. *Barqarorlik*, 8(9), 951.
20. Uzbek Tourism, 2022. *Tourism in Uzbekistan 2022*. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan tahliliy materiallar. Toshkent, O'zbekiston.

J.E.Maxmudov, o'qituvchi, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Samarqand
D.S.Saidjonov, talaba, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizning buxgalteriya hisobi milliy standartlarining moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tishi, xalqaro standartning afzalliklari hamda, milliy va xalqaro standart o'rtasidagi farqlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisob, xalqaro standart, buxgalteriya hisobi, aktiv, majburiyat, xususiy kapital, foyda, zarar.

Аннотация. В данной статье описан переход национального стандарта бухгалтерского учета нашей страны на международные стандарты финансового учета, преимущества международного стандарта, а также различия между национальными и международными стандартами.

Ключевые слова: Финансовый учет, международный стандарт, бухгалтерский учет, актив, обязательство, частный капитал, прибыль, убыток.

Abstract. This article describes the transition of the national accounting standard of our country to the international standards of financial accounting, the advantages of the international standard, and the differences between the national and international standards.

Keywords: Financial accounting, international standard, accounting, asset, liability, private equity, profit, loss.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotdan barcha xo'jalik sub'yektlari, mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishi orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalarini mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishga erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq barcha aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobotlarini moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida taqdim etishlari kerak. Buning zamirida mamlakatimizda yuritilayotgan yopib iqtisodiyotdan voz kechib jahon tajribasi va standartlariga tayangan ochiq va shaffof iqtisodiyot tashkil etish ko'zda tutilgan.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarni tashqi foydalanuvchilar tomonidan korxonaga yoki tashkilotga nisbatan iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga ko'maklashish maqsadida e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini o'zida jamlagan hujjatlar to'plamidir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti hisoblanib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari, shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy va nomoddiy aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ob'ektlari hisoblanadi.

Aktivlar - avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida olingan va korxonaga tomonidan nazorat qilinadigan, ularni foydalanishdan kelajakda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan resurslardir.

Majburiyatlar – bu avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida paydo bo'lgan korxonaning joriy qarzi, ushbu qarzlarni qaytarilishi natijasida korxonaning iqtisodiy nafni o'z ichiga olgan resurslarni kamayishiga olib keladi.

Xususiy kapital – bu barcha majburiyatlarni ayrgandan keyin korxonaning aktivlardagi bo'lgan ulushi.

Foyda - bu xo'jalik sub'ektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar sharoitlar natijasida kapitalning ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan kapital bundan mustasnodir.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha xo'jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, harajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

BHMS VA BHXS nomlanishi

BHMS	BHXS
1.Hisob siyosati va moliyaviy hisobot	1.Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish
2.Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar	2.Zahiralar
3.Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	7.Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
4.Tovar-moddiy zaxiralari	8.Hisob siyosatlarini, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar
5.Asosiy vositalar	10.Hisobot davridan keyingi hodisalar
6.Ijara hisobi	11.Qurilish shartnomalari
7.Nomoddiy aktivlar	12.Foyda soliqlari
8. Jamlangan moliyaviy hisobotlar	16.Asosiy vositalar
9.Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	17.Ijara
10.Davlat subsidiyalarining hisobi	18.Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad
11.Ilmiiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlab chiqarishga xarajatlar	19.Xodimlarning daromadlari
12.Moliyaviy sarmoya-larni hisobga olish	20.Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish
14.Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	21.Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari
15.Buxgalteriya balansi	23.Qarzlarni bo'yicha xarajatlar
16.Buxgalteriya balansi tuzilgandan sanadan keyingi faoliyat	24.O'zaro bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish
17.Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalar	26.Pension tizimlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobot
19.Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish	27.Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar
20.Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalash-tirilgan tartibi	28.Qaram tadbirkorlik sub'ektlaridagi va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalar
21.Xo'jalik yurituvchi subyektlarning Moliya-xo'jalik faoliyati	29.Giperinflyatsiyali iqtisodiyotlarda moliyaviy hisobot berish
22.Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi	32.Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish
23.Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish	33.Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda
24.Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi	36.Aktivlarning qadrsizlanishi
	37.Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar
	38.Nomoddiy aktivlar
	39.Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash
	40.Investitsion mulk
	41.Qishloq xo'jaligi

Jadvalda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari nomlanishi berilgan va shu jadval orqali ikkala standartni taqqoslaymiz. Biz faoliyat olib borayotgan milliy standartimizda bir nechta yo'nalishlar birlashtirilib umumlashtirib yuborilgan. Xalqaro standartda esa har bir yo'nalish uchun alohida standart ishlab chiqilgan. Albatta ikki standartda ham o'xshashliklar bor. Masalan, mos ravishda BHMS 9 va BHXS 7 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"ni har ikki standartda hisobot tuzish tartibi va pul oqimlari harakatini ko'rib chiqamiz:

Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari asosan xo'jalik sub'ektining asosiy daromad keltiruvchi faoliyatidan kelib chiqadi. Binobarin, ular asosan foyda yoki zararni shakllantiradigan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasida kelib chiqadi.

Investitsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarini alohida oshkor etish muhimdir, chunki bunday pul oqimlari kelajakdagi daromad va pul oqimlarini olish uchun mo'ljallangan resurslar uchun qancha harajatlar sarflanganini aks ettiradi.

Moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlarini alohida ko'rsatish muhimdir, chunki bu xo'jalik sub'ektini moliyalashtiradigan tomonlar kelgusi pul oqimlariga bo'lgan talablarni oldindan bilishi uchun foydalidir.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot milliy standartimizda qanday yuritilsa, xalqaro standartda ham xuddi shunday tartibda yuritiladi. Uning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlardan

keladigan asosiy pul oqimlari, hisobot topshirish tartibi va soliqlar bilan hisob-kitablari ham birdek yuritiladi.

Milliy standartimizda asosiy vositalar hisobi faqat BHMS 5 da yuritiladi. Bunda avtiavlarni balansga kirim qilish, balans qiymati, eskirish qiymati, qayta baholash, avtiavlarni ta'mirlash, avtiavlarni sotish bilan bog'liq operatsiyalar va boshqa avtiavl bilan bog'liq hisob kitob va operatsiyalar yuritiladi. Xalqaro standartda esa shu operatsiyalar sohalar bo'yicha taqsimlangan bo'ladi. Masalan avtiavlarning qadrsizlanishi BHXS 36, avtiavlarning haqqoniy ya'ni bozor qiymatini baholash MHXS 13, davlat grantlari asosida qurilgan asosiy vositalarni esa BHXS 20 da yuritiladi. Yana bir ajralib turuvchi jihati xalqaro standartda "Qishloq xo'jaligi" alohida yuritiladi. Ushbu standartda faqatgina yig'im jarayonidagi qishloq xo'jaligi hosiliga, qaysiki tadbirkorlik sub'yektining biologik avtiavlarning yig'ishtirilgan mahsulotiga nisbatan qo'llaniladi. Shu sababdan, mazkur standart yig'imdan so'ng qishloq xo'jaligi hosilini qayta ishlash jarayonini inobatga olmaydi. Quyidagi jadvalda biologik avtiav, qishloq xo'jaligi hosili va yig'imdan so'ng qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarga misollar keltirilgan:

Biologik avtiavlar	Qishloq xo'jaligi hosili	Yig'imdan so'ng qayta ishlash natijasidan olingan mahsulotlar
Chorva mollari	Sut	Pishloq
Mevali daraxtlar	Meva hosili	Mevali sharbat
O'simliklar	Bug'doy qamish	Un
Uzum daraxti	Uzum hosili	Vino

Biologik avtiav – bu tirik hayvon yoki o'simlikdir. Milliy standartimizda bu ishchi va mahsuldor hayvonlar yoki ko'p yillik o'simliklar deb yuritiladi. Biologik avtiavning sifat va miqdor darajada o'sishi, ko'payishi, ishlab chiqarish va nasl buzlishi – biologik transformatsiya deyiladi.

Shunday qilib, moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tish kelajakda bizga buxgalteriya hisobini takomillashtirish, ba'zi bir mavhum sohalarga aniqlik kiritish, xo'jalik operatsiyalari va yakuniy moliyaviy natijalarni tashqi foydalanuvchilar uchun qulay shaklda tuzishga imkon yaratadi. Shunigdek, buxgalteriya hisobini yuritishda qator yengilliklarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori
2. Norbekov D.E. Ochilov I.K. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2019. 9-b
3. International Financial Reporting Standard.com sayti
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 41. "Qishloq xo'jaligi"

UO'K 338.0

SURXONDARYO MAHALLALARIDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA ULARNING NATIJALARI

I.N.Sanginova, tayanch doktorant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo mahallalarida xotin qizlarga qanday imkoniyatlar yaratib berilganligi, xotin-qizlarga chevarlik hamda pazandalikning o'rgatilishi va buning natijasida jamiyatimizda ishbilarmon va tadbirkor ayollarning sonining ortib borayotganligi yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolada qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ishbilarmon, mehnatkash, ishlab chiqarish, ilm fan, madaniyat, jamiyat, ijtimoiy ko'mak, texnika texnologiya.

Аннотация. В данной статье описаны возможности, созданные для женщин и девушек в махалли Сурхандарьи, обучение женщин ремеслам и кулинарии, в результате чего количество деловых женщин и предпринимателей в нашем обществе увеличивается.

Ключевые слова: предприниматель, рабочий, производство, наука, культура, общество, социальная поддержка, техническая технология.

Abstract. *This article describes the opportunities created for women and girls in Surkhandarya neighborhoods, the teaching of cooking skills and the increase in the number of businesswomen in our society.*

Keywords: *businessman, worker, production, science, culture, society, social support, technical technology.*

Kirish. Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarida, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi, – deydi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi 17 millioni xotin qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rni mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi. Oxirgi olti yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Prezident tomonidan "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, va ularni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon imzolandi. Prezident Farmoni ijrosini ta'minlash va amalga oshirish maqsadida quyidagilar Surxondaryo viloyatining har bir tuman, shahar, va mahallalarda oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida hayotga tadbir etib kelinmoqda:

xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashib, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlab, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlab va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirilmoqda;

gender tenglikni ta'minlash siyosati davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlari amalga oshirilmoqda;

hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligi oshirilmoqda;

turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilanmoqda;

og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatilib, ularni "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlanmoqda;

jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhiti yaratilib, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlanmoqda;

oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyati mustahkamlanib, jamiyatda oilaviy qadriyatlarini saqlab, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilab va ularning farovonlik darajasi oshirilmoqda.

xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirib, gender tenglik kafolatlarini ta'minlab, ilmiy faoliyatga keng jalb qilinmoqda;

oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlab, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatilmoqda;

xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratib, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etilmoqda;

xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirilib, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda;

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik, og'zaki so'rov kabi usullar yordamida Surxondaryo viloyatida xotin

qizlarga berilayotgan e'tibor va ularning natijalari masalasiga oid birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan xolda atroflicha tadqiq etildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Surxondaryo viloyat kasaba uyushma tashkilotlari birlashmasi tizimidagi korxonalar, tashkilot, muassasalarda ishlayotgan xodimlar soni 2016 yilda 414799 ta bo'lib, shundan 189729 tasini xotin-qizlar tashkil qiladi. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF3434- sonli farmoni va O'zKUFKning 2012 yil 27- iyuldagi 5-4 sonli "O'ZKUFKning xotin-qizlar bilan ishlash kengashini tuzish to'g'risida"gi qarori viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi rayosatining 2012 yil 16 noyabrda №R-11/6 qarori asosida 11 nafar a'zodan iborat xotin-qizlar komissiyasi tuzilgan. Surxondaryo viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi xotin-qizlar komissiyasi tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini, jamiyat xayotidagi mavqeyini oshirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi 2016-yilga mo'ljalangan ish rejasi va ustivor yo'nalishlari belgilab oldi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar, tashkilot, muassasalarda imzolalanayotgan jamoa shartnomalarida xotin-qizlar uchun xavfsiz mehnat, dam olish sharoitlari yaratib berilishi, mehnatga munosib xaq to'lanishi, qo'shimcha imtiyozlar berilishi va ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borib, 10 ta jamoa shartnomalari, 6 ta Kelishuvlarning loyihalarini ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etib, xotin-qizlarning manfaatlariga doir takliflar berildi.

Kasaba uyushmalari tomonidan "Sog'lom ona va bola yili" dasturi mazmun mohiyatini aholi va xotin-qizlar o'rtasida keng targ'ibot qilish maqsadida ma'ruzalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Masalan: Muzrabot tuman tibbiyot birlashmasida 2 fevral kuni "Sog'lom ona va bola baxtli oila asosi, baxtli oila- farovon jamiyat asosi" mavzusida ko'rik tanlov o'tkazildi.

Halqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan viloyat kengashi xotin-qizlar komissiyasi tashabbusi bilan "Ayol borki olam munavvar" shiori ostida davra suxbati o'tkazildi. Tadbirga viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi, fuqarolik jamiyati shakllanishini motiring qilish mustaqil instituti viloyat xududiy bo'limi vakili, ishlab chiqarishning turli sohalarida, ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan hamda oilalar mustahkamligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shayotgan 110 nafar faol xotin-qizlar taklif etilib, kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Mazkur tadbir viloyat teleradiosining axborot dasturi va "Ehtirom" ko'rsatuvi orqali namoyish etildi. Ayollarni sharaflash tadbiri barcha korxonalar, tashkilot, muassasalarda davom ettirilib, tadbir doirasida 700 nafar faol xotin-qizlar rag'batlantirildi. "Sog'lom ona va bola yili" dasturi doirasida kam ta'minlangan oilalar vakillaridan 1172 nafariga 127626.8 ming so'mlik;

-Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar, shuningdek uy-joy qurilishi uchun yosh oilalardan 46 nafariga 812600.0 ming so'mlik foizsiz ssudalar;

-Farzandlari 2 yoshdan 3 yoshgacha to'lgunga qadar bo'lgan yosh onalardan 300 nafariga 84321.9 so'mlik;

-nodalat mulk shaklidagi korxonalar, tashkilotlardan mehnat qilayotgan bolalari ayollarga oylik maoshi saqlangan xolda 198 nafar ayollarga ish vaqti 35 soatdan oshmaydigan qilib belgilangan;

-201 nafar ayollarni homiladorlik va tug'ish ta'tillari kuni uzaytirilgan.

Xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sportning ommaviyligini ta'minlash maqsadida "Sog'lom oila" shiori ostida oilaviy sport musobaqalari barcha boshlang'ich tashkilotlarda o'tkazilib, viloyat bosqichida 30 ta oila ishtirok etib, respublika bosqichida faxrli 2-3-o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

Xotin-qizlarni madaniy dam olishlarini tashkil etish maqsadida kam ta'minlangan oilalardan 275 nafar xotin-qizlar Samarqand shahriga 2797 nafari viloyatimizning tarixiy qadamjolari, mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarga sayohatlar uyushtirildi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga yaratilgan imtiyozlar xaqida birlashma kengashining huquqiy maslahatxonasi va "Ishonch" telefoni orqali tushuntirish ishlari olib borilib. Jumladan 2016-yil 6 oyi davomida birlashma kengashi tomonidan 135 ta xotin-qizlarning

murojaatlari o'rganilgan. Murojaatlarning 89 tasi huquqiy himoya, 46 tasi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tashkil qiladi.

Xotin-qizlarning huquqiy bilimini oshirish maqsadida O'zbekiston iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi va viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi xotin-qizlar komissiyasi hamkorligida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida mehnat qilayotgan hamda kasanachilik bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlari himoyasini ta'minlanishi, ularga sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishi ahvoli mavzusida 2016-yil 22-aprel kuni 155 nafar xotin-qizlar ishtirokida seminar o'tkazildi.

Har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo'ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o'qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo'yicha mening stolimda adolatli raqam bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari. Ma'lumki, xotin-qizlar masalalari mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tizimida edi. Alohida qo'mita tuzilishi munosabati bilan, bu vazirlik ham Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Bu sohada ham yangi tizim yaratildi. Joylarda bu vazifa bevosita hokimlarning zimmasiga yuklatiladi, hokim o'rinbosari lavozimi qisqartiriladi. Mahalla raisi o'z hududida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faolining hamjihatlikda ishlashni ta'minlaydi. Shuningdek, Xalq qabulxonalarining vazifalari ham endi shahar va tumandan mahalla miqyosiga tushdi. 2022 yil 1-martda Prezident Shavkat Mirziyoyev selektrda so'zlagan nutqida xotin qizlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratib berish haqida so'zladi. Yangi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, 2022 yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, 2023 yilda besh yilda 8 trillion so'm mablag' ajratildi. 2022 yil o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab berildi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'landi. Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi. Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi. Har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim yaratilmoqda. Qaysi ayolga nima kerakligi, o'qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo'yicha ularning muammolariga yechim topish maqsadida har bir mahallada ma'sul shaxslarning faoliyat olib borishi O'zbekistonda ayollarga bo'lgan hurmat, muhabbatning isbotidir. [7] Bundan tashqari, jahon tajribasida birinchi marta har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ayollar masalalari bilan alohida, kompleks va manzilli ishlash maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimi joriy qilindi. [8] Ma'lumki, xotin-qizlar masalalari mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tizimida edi. Alohida qo'mita tuzilishi munosabati bilan, bu vazirlik ham Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Bu sohada ham yangi tizim yaratildi. Joylarda bu vazifa bevosita hokimlarning zimmasiga yuklatiladi, hokim o'rinbosari lavozimi qisqartiriladi. [9] Mahalla raisi o'z hududida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faolining hamjihatlikda ishlashni ta'minlaydi. Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berib borilmoqda. Bir narsani mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tishimiz joizki O'zbekistonda xotin qizlarga hayotning har bir soxasida katta imkoniyatlarning yaratilishi, jamiyatda ayollarning o'rni muhim ekanligining bir isbotidir. Bu bilan bu soxada hech qanday kamchilik qolmadi desak albatta yolg'on ma'lumot bergan bo'lamiz. Prezidentning Farmon va qarorlari ijrosi viloyat, tuman, shahar va mahallalarda to'g'ri ta'minlansa, faollar o'z vazifalarini vijdonan va odilonalik prinsipi asosida olib borib, ayollarimiz o'z huquq erkinliklaridan to'g'ri foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 01.03.2022 yildagi PF-81-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son
3. Ishqovatov V. Tolipov F. Mahalla: O'tmish va bugun. T., 2014.

4. Jalilov SH .Mahalla yangilanish davrida .T.,1995
5. Jalilov SH. Kuchli davlatda- kuchli jamiyat sari .T., 1995 .
- 6.Sultonova.L.S Qalandarova.F.A.Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish institutlarini demokratlashuvi. Buxoro 2021 yil
- 7.Sanginova .I.N. O'zbekistonda mahalla boshqaruvining ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi o'rmini (Surxondaryo viloyati misolida 1992-2022yy) o'rganishning dolzarbligi. Denov 2023 yil 19 sentyabr.
8. B.Jo'rayev.S.Tursunov. Mahalla-Mustaqil yurt tayanchi.Toshkent 2012 yil.
9. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547>

UO'K 339

XIZMATLAR VA SERVIS BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI

F.N.Sapayeva, o'qituvchi, Urganch Ranch texnologiya Universiteti, Urganch

Аннотация. Ushbu maqolada iqtisodiyotda ko'plab sohalar kabi xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishda marketing strategiyasini ishlab chiqish va shakllantirishning ba'zi xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy marketingning asosiy konseptsiyalari, jaxon xizmatlar bozorida raqobat omillari tasnifi va xizmatlar va servis sohasi uchun mos keluvchi marketing strategiyasi uslubiyatlari ishlab chiqilgan, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlanishining mexanizmini takomillashtirish yuzasidan tegishlicha xulosalar keltirilgan.

Калит со'злар: marketing strategiyasi, xizmat ko'rsatish marketingi, iste'molchilarning e'tibori, nazorat siyosati, raqobatbardoshlik, xizmat ko'rsatish, servis sohasi, inson resurslari.

Аннотация. В данной статье раскрываются некоторые особенности разработки и формирования маркетинговой стратегии в развитии сферы услуг, как и многих других областей экономики. Также разработаны основные концепции современного маркетинга, классификация факторов конкуренции на мировом рынке услуг и подходящие методологии маркетинговой стратегии сферы услуг и услуг, сделаны соответствующие выводы относительно совершенствования механизма развития рынка сфера услуг.

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, маркетинг услуг, потребительское внимание, политика борьбы, конкурентоспособность, сервис, сфера услуг, человеческие ресурсы.

Abstract. This article reveals some features of the development and formation of a marketing strategy in the development of the service sector, as well as many other areas of the economy. The basic concepts of modern marketing, the classification of competitive factors in the global services market and suitable methodologies for the marketing strategy of the services sector have also been developed, and appropriate conclusions have been drawn regarding the improvement of the mechanism for the development of the service sector market.

Keywords: competitive ability, customer perception, resistance policy, marketing strategy, and service marketing, service, service sector, human resources.

Kirish. Hozirgi vaqtda bozor munosabatlari tizimidagi biron bir korxonaga marketing xizmatlari muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi. Marketingning foydaliligi yil sayin ortib bormoqda. Bu odamlarning ehtiyojlari cheksiz, lekin korxonalarining resurslari cheklanganligi sababli sodir bo'lmoqda. Har bir tarmoqning o'ziga xos ehtiyojlari mavjud bo'lib, ularni har doim ham samarali qondirish mumkin emas. Har bir inson o'ziga xos yondashuvga ega. Shu sababli, yangi sharoitlarda didlar xilma-xilligini eng aniq aniqlay oladigan vaqamrab oladigan korxonagina muvaffaqiyatga erisha oladi. Korhonalarga uzoq muddat davomida raqobatda omon qolish imkonini beruvchi strategik xatti-harakatlarning ahamiyati so'nggi o'n yilliklarda keskin oshdi. Barcha korxonalar shiddatli raqobat sharoitida va tez o'zgaruvchan vaziyatda nafaqat korxonaning ichki holatiga e'tibor qaratishlari kerak, balki uzoq muddatli omon qolish strategiyasini ishlab chiqishlari kerak, bu ularga korxonada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu ishdagi tadqiqotning maqsadi marketing strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek ularni xizmat ko'rsatish va servis sohasida foydalanish uchun moslashtirish usullarini aniqlashdan iborat. Atrof-muhitdagi o'zgarishlarning tezlashishi, yangi talablarning paydo bo'lishi va iste'molchi hohishining o'zgarishi,

yangi kutilmagan biznes imkoniyatlarining paydo bo'lishi, axborotni yashin tezligida tarqatish imkonini beradigan axborot tarmoqlarining rivojlanishi, inson resurslarining o'zgaruvchan roli, shuningdek, bir qator boshqa sabablar muqobil variantlarni va tanlash strategiyalarini tahlil qilish ahamiyatining keskin oshishiga olib keldi. Bozorning hozirgi holati va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining o'sishi iqtisodiyotda ko'plab soha va tarmoqlarni marketing strategiyasini ishlab chiqish tamoyillariga yangicha qarashga majbur qildi. Bundan kelib chiqadiki, strategik rejalashtirishda muqobil variantlarni shakllantirish va tanlashning an'anaviy usullarini takomillashtirish va muayyan sharoitlarga moslashtirish zarur. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi, boshqa sohalar kabi, faoliyat ko'rsatish va strategik rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Xizmatlar va servis marketingining konsepsiyasi umumiy jarayon modelini qurish orqali amalga oshiriladi [1].

Xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi marketing kontsepsiyalari mahsulot bozorining tegishli tushunchalariga mos keladi, shu bilan birga xizmatlar ishlab chiqarish xususiyatlarini, ularning tabiati va sotish shartlarini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, marketing strategiyalari rivojlanish strategiyalarini batafsil bayon qiladi. Korxonalar marketing aralashmasi doirasida bir vaqtning o'zida bir nechta strategiyalarni qo'llashlari mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda mamlakatimizda marketing asoslari, marketing strategiyalari, shuningdek, xizmat ko'rsatish va servis sohalarida marketing strategiyasidan foydalanish masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar, ilmiy asarlar va adabiyotlar yaratilmoqda. Xususan, Sh.Dj. Ergashxodjaeva, M.S. Qosimova, M.A. Yusupovlarning "Marketing asoslari" darsligida marketingning rivojlanish evolyusiyasi, konsepsiyalari, funksiyalari, vazifalari va turlari yoritilgan [2]. Marketing faoliyatini rejalashtirish, talabni qondirishni tadqiq etish va prognoz qilish masalalariga katta e'tibor berilgan. J. Jalolov "Marketingni boshqarish strategiyalari" nomli adabiyotida marketingni boshqarish strategiyalarining zamonaviy konsepsiyasi, marketingni boshqarishda strategik rejalashtirish, raqobat va raqobatbardoshlikni boshqarish strategiyalari kabi masalalar yoritilgan.

Shuningdek, xizmatlar sohasini, jumladan, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy va metodologik muammolari xorijlik olimlardan Aaker D., Avanesova G.A., Ansoff I., Baksht K., Balaeva O.N., Beredin I.S., Best R., Gembl P., Djordan M., Djanster P., Doyle P., Dixit Ye., Kotler F., Keller K.L., Lavlok K., Lamben J.J., Minett S., Ouen R. va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Xizmat ko'rsatish sohasida marketing strategiyasini ishlab chiqish murakkab jarayon bo'lib, xizmatlar bozorining holati va rivojlanishini chuqur o'rganishni, shuningdek, u egallab turgan korxonaning bozordagi mavqeini baholashni talab qiladi. Muayyan strategiyani tanlash tashqi va ichki sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlariga, tashkilotning rivojlanish yo'lidagi boshqaruvning turli qarashlariga va boshqa sabablarga bog'liq [3]. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda uning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Xizmatlarni iste'mol qilishdan oldin standartlashtirish va baholash qiyin bo'lganligi sababli va ularning ba'zilar iste'mol qilinganidan keyin ham (masalan, bir qator tibbiy operatsiyalar) baholanmaydi. Xizmatni tanlashda mijozlar psixologik motivlar va ba'zi ob'ektiv mezonlar asosida boshqariladi. Shu bilan birga, iste'molchilar kutilgan va olingan natijalarni taqqoslash orqali ko'rsatilayotgan xizmat sifatini baholaydilar.

Ular ma'lumotlarning mavjudligi, xizmatlarning idrok etilgan sifati, idrok etilgan xavf, brendga ishonch yoki muqobil xizmatlarning mavjudligini hisobga oladi. Yagona universal strategik boshqaruv mavjud bo'lmaganidek, barcha korxonalar uchun birxil strategiya ham mavjud emas. Har bir korxonaga o'ziga xos tarzda turlichadir, shuning uchun har bir korxonaga uchun strategiyani ishlab chiqish va muqobil variantlarni tahlil qilish jarayoni o'ziga xosdir [4]. Chunki u korxonaning bozordagi mavqeiga, rivojlanish dinamikasiga, potentsialiga, korxonaning xatti-harakatlariga, raqobatchilar yoki u ko'rsatadigan xizmatlarning xususiyatlariga, iqtisodiyotning holati, madaniy muhit va boshqa ko'plab omillarga bog'liq.

Bozorning hozirgi holati va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarining o'sishi bizni ushbu usuldan foydalangan holda strategiyani shakllantirish shartlariga yangicha qarashga majbur qiladi. Shu

sababli, xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar uchun strategiyalarni ishlab chiqish metodologiyasini o'zgartirish taklif etiladi (rasm).

	Taqdim etilgan xizmatlar	Yangi xizmatlar
Mavjud bozor	“Spin-off” strategiyasi	Diqqatni jamlash
Yangi bozor	Xaridorga moslashish	Diversifikatsiya

1-rasm. Korxonani rivojlantirish strategiyasini tanlash jadvali.

Ushbu usullar yordamida strategiyani shakllantirish shartlari ko'rib chiqiladi. Shu sababli, xizmatlar bilanta'minlovchi korxonalar uchun strategiyalarni ishlab chiqish metodologiyasini o'zgartirish taklif etiladi.

"Spin-off strategiyasi" o'rnatilgan bozorlarda yangi xizmatlarni ishlab chiqish va sotishni o'z ichiga oladi. Bunday strategiyani amalga oshirish, birinchi navbatda, taqdim etilayotgan xizmatlarni tahlil qilish, shuningdek, xususiyatlarni aniqlash va ushbu shartlarni hisobga olgan holda bozorda joylashishni aniqlashni anglatadi. "Diqqatni jalb qilish strategiyasi" ishlab chiqilgan xizmatlarni sotish uchun yangi bozorlarni izlash bilan birga ushbu strategiya yangi bozorlarga katta sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi. Qoida tariqasida, u juda tajovuzkor xarakterga ega bo'lib, raqobatning yuqori intensivligini o'z ichiga oladi. "Diversifikatsiya strategiyasi" yangi bozorlarda yangi xizmatlarni joriy etishdan iboratdir. Bu atama ko'pincha tashkilotning joriy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hududga kengayish bilan bog'liq. Shu bilan birga, korxonalar ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirishga yoki o'z korxonalarini negizida o'z ishlab chiqarishlarini yaratishga o'z kuchlarini jamlashlari mumkin [5]. Ushbu jadvalga asoslangan oxirgi strategiya turi "mijozlarni moslashtirish" dir. Ushbu strategiya tashkilotning asosiy bozordagi faoliyatini oshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bozordagi harakatlarni mustahkamlash mijozlarning taklif etilayotgan xizmatga qiziqishini saqlab qolish va oshirish orqali amalga oshiriladi. Aniqlik uchun, keling, ma'lum bir misol yordamida taklif qilingan strategiyalardan foydalanishni ko'rib chiqaylik.

1-Jadval

Korxonani rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash

Ko'rsatkich	Joriy qiymati	Strategiyani amalga oshirgandan keyin qiymati
Bozorga o'z ta'siri	3	4
Bozor o'zgarishlariga moslashish qobiliyati	3	4
Mijozlar bilan aloqada bo'lishi	3	4
Iste'molchilar ehtiyojlariga e'tibor qaratish	4	5
Korxonani resurslarini bir xil taqsimlash	4	5
Faoliyat doirasini kengaytirish	3	5
Faoliyatni amalga oshirish jarayonida innovatsiyalar va o'z ishlanmalari	1	4

"Eko-Trans" MChJ – tashkilotlar, korxonalar va jismoniy shaxslar uchun ekologik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek, chiqindilarni utilitatsiya qilish va sotish uchun ikkilamchi xomashyoga qayta ishlash bo'yicha to'liq hajmdagi ishlarni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan ekologik tashkilotdir. Korxonani o'z faoliyatini 2009 yilda boshlagan. Hozirgi kunda korxonani o'sishni boshdan kechirmoqda: rahbariyat joriy faoliyatni rivojlantirish va yangi yo'nalishlarni yaratish bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Binobarin, korxonani yanada rivojlantirish yo'nalishi sifatida faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'z ishlab chiqarishining mavjud korxonasini yaratishni nazarda tutuvchi "versifikatsiya strategiyasi" taklif etiladi [6]. Shunday qilib, korxonani ishlab chiqarilgan xom-ashyodan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Korxonaning holatini ko'rib chiqib, biz uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashimiz, shuningdek tanlangan strategiyani amalga oshirishda rivojlanish istiqbollari tahlil qilishimiz mumkin. Jadvalda rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari va uning qiymatlarining o'zgarishi besh balli shkala bo'yicha keltirilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar va ularning dinamikasini tahlil qilib, biz tanlangan rivojlanish strategiyasini amalga oshirish tashkilotga yangi bosqichga ko'tarilish va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni yaxshilash imkonini beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Barcha ko'rsatkichlar uchun qiymatlar kamida 1 ballga oshadi. Faoliyatni amalga oshirishda o'z ishlanmalari va innovatsiyalarini joriy etish imkoniyatidagi o'zgarishlar ayniqsa sezilarlidir.

Shunday qilib, korxonaga mavjud xizmatlarni ko'rsatish bozorini kengaytirish, korxonaga bo'lgan ishonchni oshirish, shuningdek, sotilishi iste'molchining butun tashkilotga qiziqishini rag'batlantiradigan yangi xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi [7].

Xulosa va takliflar. Rahbariyat tanlagan strategiyani amalga oshirish jarayonida raqobatga qarshi kurashning samarali siyosatini shakllantirish va eng muhimi, malakali amalga oshirish, ularning xizmatlariga foydalanuvchilarning ishonchini qozonish va ularning takroriy xaridlarni amalga oshirish istagini rag'batlantirish juda muhimdir. Bu jarayonda reklamani to'g'ri tashkil etish, ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish, xizmatlar va servisni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, jamoatchilik bilan aloqalar mijozning o'zi bilan munosabatlaridan tashqari, iste'molchilar e'tiborini jalb qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Ular ommaviy fikrlarga asosan ikkita yo'nalish orqali ta'sir qiladi:

Xizmatning individualligi;

Axborotni tarqatish usuli.

Ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish va natijada potentsial mijozlarning paydo bo'lishida xizmat ko'rsatuvchi korxonaning harakatlari quyidagi texnologik zanjirga to'g'ri keladi: o'zini e'lon qilish - e'tiborni jalb qilish va ushlab turish - qiziqish uyg'otish - keskinlikni bartaraf etish va ishonchsizlik - ijobiy imidjni shakllantirish - istakni qo'zg'atish - jamiyatni undash. Korxonaga uchun kerakli harakat - bu tashkilot imidjini yaxshilash (reytingni oshirish)dir [8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tuxliev I.S. Strategik jihatdan SWOT va BCG matritsalarining xususiyatlaritashkiliy tizimlarni rejalashtirish. – T., 2014 yil
2. Yusupov M. va boshqalar. Marketing.O'quv qo'llanma. – T., 2020y
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi tog'risida”gi farmoni.
4. Fattagov A.A. va boshqalar. Marketing: boshqaruvning bozor tushunchasi. – T., 1999 yil
5. Yusupov M. va boshqalar. Marketing.O'quv qo'llanma. – T., 2020.
6. “Tracking The Evolution of the Services Marketing Literature,” Journal of Retailing, 69 (Spring)
7. Igan D. Analiz marketingovix strategiy na osnove vzaimootnosheniy. — M.: YuNITI, 2011. — 363 b.
8. Zavyalov P.S. Formula uspexa: marketing. — M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 2010. — 355 b.

UO'K: 339.138 (575:1)

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV OLIY TA'LIMNI IJTIMOYIY MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA ECHIMLAR

A.X.Shoyev, katta o'qituvchi, Guliston davlat universiteti, Guliston

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni ijtimoiy marketing tamoyillari asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, tizimdagi majud kamchiliklar, muammo va to'siqlar tahlil qilinib ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nogironlar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy marketing, oliy ta'lim, kognitiv to'siqlar, arxitekturaviy to'siqlar, ijtimoiy himoya, marketing tadqiqotlari.

Аннотация. В статье анализируются направления развития инклюзивного образования в высших учебных заведениях нашей страны на основе принципов социального маркетинга, анализируются существующие недостатки, проблемы и препятствия в системе, а также разработаны выводы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: люди с ограниченными возможностями, инклюзивное образование, социальный маркетинг, высшее образование, когнитивные барьеры, архитектурные барьеры, социальная защита, маркетинговые исследования.

Abstract. The article analyzes the directions of development of inclusive education in higher educational institutions of our country based on the principles of social marketing, analyzes existing shortcomings, problems and obstacles in the system, and develops conclusions and proposals for eliminating them.

Key words: people with disabilities, inclusive education, social marketing, higher education, cognitive barriers, architectural barriers, social protection, marketing research.

Kirish. Jahonda 2022 yilda imkoniyati cheklangan shaxslar dunyo umumiy aholisining taxminan 10 foizini tashkil qildi. Nogironlarning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladilar, nogiron bolalarning taxminan 90 foizi maktab ta'limidan bebahra, oliy ta'lim muassasalariga kiruvchi nogironligi mavjud shaxslar yanada kamroqni tashkil qiladi[1]. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konventsiyasi (CRPD 2006) nogironligi mavjud shaxslarga nisbatan tibbiy jihatdan emas, balki ijtimoiy, inson huquqlari jihatdan yondashishni qo'llab-quvvatlaydi. Konventsiyaning 24-modda 5-qismida nogironligi mavjud shaxslarning oliy ta'limotga ega bo'lishlari borasida "Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar kamsitilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, kattalar uchun ta'lim olish va butun hayotlari davomida o'qitilish imkoniyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar shu maqsadlarda nogironlar uchun oqilona moslashtirishni ta'minlaydi"[2] degan norma mustahkamlab qo'yilganligini qayd etib o'tish lozim.

Bugungi kunda ko'plab nogironlar uchun universitetda o'qish nafaqat tegishli bilimlarni egallash, balki mamlakat universitetlari taqdim etishga tayyor bo'lishi kerak bo'lgan hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga intilishi kerak.[3]

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy mezonini muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, madaniyatni o'zlashtirish, ijtimoiy tajribani rivojlantirish, yoshlarni, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarni kasbiy jihatdan o'z taqdirini o'zlari belgilay olishlarida ifodalanadi.[4] Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jarayoni borasidagi nazariy qarashlar, xorijiy va mahalliy tajribalar o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv jarayonlarning konstruktiv rivojlanishiga imkon beruvchi mexanizmlar etarli darajada ishlab chiqilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu mavzuni batafsilroq o'rganish, shuningdek, tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi kelib chiqadi.

Adabiyotlar taxlili. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida xorijlik olimlardan Armstrong E.R. [5], Oliver M.; Makkleyn-Nxlapo[6], Myuller B., Reinhardt J. [7], Kaplan R., Norton D. [8], Fokina M. [9], Friere S. [10], Debra Z. [11] ning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari MDH olimlaridan Volosovets T.V. [12], Andreeva L.V. [13], Buruk A.F. [14] kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mahalliy olimlar orasida inklyuziv oliy ta'lim, shu jumladan ijtimoiy marketingni qo'llash masalalari Q.A.Sharipov[15], Z.Dj.Adilova[16], D.Yusupov[17], O.Isoqov[18], A.A.Abduraxmanov[19], D. Turaeva[20] asarlarida ko'rib chiqilgan, ammo iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ijtimoiy marketing texnologiyalarini amalda qo'llash orqali inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirish borasida tadqiqotlarni yanada jonlantirish talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan muallif tomonidan mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni ijtimoiy marketing tamoyili asosida takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish masalasi maqsad qilib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzu va yo'nalishga taaluqli olimlarning tadqiqot ishlarida nashr etilgan ekspert baholari va hisob-kitoblari, Jahondagi halqaro tashkilotlar va O'zbekiston Respublikasining inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy xujjatlari, O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hisobot xujjatlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va tahlil etish, ekspert baholash, ekonometrik tahlil usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Inklyuziv ta'limni bevosita amaliyotda qo'llash, ayniqsa u o'zining shakllanish bosqichida bo'lsa ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga yuqori talablarni qo'yadi. Bu nogiron talabalardan intellektual va psixologik safarbarlik, bag'rikenglik, tushunish va shartli ravishdagi sog'lom talabalardan yordam berishga tayyorgarlikni talab qiladi. Oliy ta'limda inklyuziv amaliyot uzoq o'tmishga ega bo'lgan rivojlangan g'arb mamlakatlarda ham jismoniy imkoniyati

cheklangan talabalar bilan guruhlarda ishlaydigan o'qituvchilar ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning kasb-hunar ta'limi olishlari borasida teng imkoniyatlar taqdim etish - bu shunchaki, ta'lim muassasalarida qatnashish huquqini berishdan iborat emas. Inklyuziv ta'lim zarur moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning qiyinchiliklari "Inklyuziv ta'limni amalga oshirishdagi to'siqlar" kontseptsiyasida aks etadi; ta'limni amalga oshirishning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan sharoitlar "To'siqsiz muhit" kontseptsiyasida aks etadi.



1-rasm. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik). Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida tuzilgan

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kunda imkoniyatlari cheklangan shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida arzon va qulay ta'lim olishlariga bir qator to'siqlar mavjud. Bularga:

Arxitekturaviy to'siqlar – Oliy ta'lim muassasalarida mavjud infratuzilmaning aksariyat hollarda imkoniyati cheklangan shaxslarning ehtiyojlari uchun moslashmaganligi ular tomonidan ta'lim olishlari uchun jiddiy to'siq bo'lmoqda. Masalan: o'quv binolarida, kampusda, o'quv binosiga boradigan yo'llarda va hokazolarda pandus va liftlarning yo'qligi. Shuni tushunish kerakki, maxsus liftlar, panduslar, tutqichlar, o'quv xonalarida maxsus jihozlangan o'quv joylari, jihozlar va texnik vositalarning mavjud emasligi, u yoki bu ta'lim muassasasi nogironlar uchun yopiq ekanligining belgisidir. O'zbekistonda 2022-2023 o'quv yilida 191 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lsada (1-rasm), ularning hech biri nogiron va alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud talabalar uchun ko'zda tutilgan talablarga javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasida 53-maqсад sifatida "**Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish**" belgilab berilgan[21].

Nogironlar aravachasida harakatlanuvchi shaxsar uchun, turli darajadagi to'siqlar; ostona, zinalar, notekisliklar, silliq yo'lak, noto'g'ri o'rnatilgan panduslar, tutqichlarning yo'qligi, axborotlarning yuqorida joylashtirilishi, yuqori peshtaxtalar, nogironlar aravachasini burib olish joylarining yo'qligi, tor eshik va yo'laklar, zaruriyat bo'lganda to'siqlarni bartaraf qilishda tashqaridan yordam ko'rsatishning ilojisizligi va boshqa shu kabi jismoniy va axborot to'siqlari sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy to'siqlar. Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitishni nazarda tutuvchi inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirish katta moliyaviy mablag talab etadi (infratuzilmani nogironligi mavjud shaxslar ehtiyojlari uchun moslashtirish, zururiy texnik jihozlar bilan ta'minlash, bu toifadagi shaxslarni o'qitishda professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va boshqalar). Bugungi kunda aksariyat oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqillikka o'tayotgan bir paytda aynan inklyuziv ta'limni rivojlantirishga sarflanadigan moliyaviy resurslarni qanchalik safarbar etilishi jiddiy muammo bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-sonli Qonunida "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratilishi va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish kirish imtihonlari natijalari bo'yicha amalga oshirilishi" ko'zda tutilgan xolos[22]. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida nogironligi mavjud shaxslar uchun ajratilgan joylarning to'lasligiga sabab bo'lmoqda. (1-jadval).

Kognitiv to'siqlar. Bugungi kunda jamiyatimizda imkoniyati cheklangan shaxslar ta'lim olish jarayonida ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydi, degan fikr keng tarqalgan. Mamlakat qonunchiligida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining 2 foizi nogironlar uchun ajratilishi ko'zda tutilgan. Biroq, nogiron bitiruvchilar uchun test ballarining pastligi ularning yuqori sifatli kasbiy ta'lim olishlari mumkin emasligini anglatmaydi. Ular o'quv dasturini bir xil sur'atda, bir xil o'quv materialida va boshqa talabalar bilan bir xil ketma-ketlikda o'zlashtirish borasida muayyan bir qiyinchiliklarga duch keladilar, deyish o'rinli bo'lar edi.

1-jadval.


Kvota tizimi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan nogironligi mavjud talabalar soni. Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

	2019-2020	2020-2021	2021-2022
Qabul qilingan imkoniyati cheklangan talabalarining umumiy soni	2068	2799	3155
Doimiy asosda	1629	2072	2270
To'liq bo'lmagan bandlik	40	627	754
Kechki mashg'ulotlar	39	100	131
Qabul qilingan talabalarining umumiy soni	138000	174900	235900
Imkoniyati cheklangan talabalar uchun joylar soni (2 %)	2760	3498	4718
Imkoniyati cheklangan talabalar uchun mo'ljallangan talabalar o'rning to'ldirilishi (%)	74,9	80,0	66,9

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida juda kam sonli nogiron talabalar tahsil oladi, ko'plab nogiron bolalar va o'smirlar oliy o'quv yurtiga kirish g'oyasini shunchaki tasavvur qila olmaydilar. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2022 o'quv yilida 6321 nafar nogiron talaba bakalavr darajasini oldi, bu mamlakat oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan 808400 nafar talabaning atigi 0,8 foizini tashkil etadi, bu ko'rsatkich boshqa mamlakatlarga nisbatan juda past darajani tashkil qiladi[4].

Nogiron sifatida ro'yxatdan o'tgan talabalarining aksariyati (41%) jismoniy nogironlikka ega; faqat 2 foizida eshitish muammolari va atigi 1 foizida esa aqliy zaiflik bor, bu esa ushbu guruhlar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada cheklanganligini ko'rsatadi[23] (2-rasm).

Axborot to'siqlari. Nogironligi bor abituriyentlar uchun kasb tanlashdagi qiyinchiliklar, inklyuziv o'quv jarayonini ta'minlash borasidagi alohida talablar, maxsus maktablar bitiruvchilarining cheklangan ijtimoiy aloqalari hech bo'lmaganda qisman oliy kasbiy ta'limning turli tashkilotlarida talabalar uchun mavjud imkoniyatlar borasida axborotlarning mavjudligi bilan qoplanishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari kasb va o'qish joyini tanlashni osonlashtiradigan ma'lumotlarni izlab topish borasida cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Oliy ta'lim tashkilotining veb-saytida turli xil nozologiyalarni hisobga olgan holda, nogironlar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari, ta'limni qo'llab-quvvatlash turlari va shakllari, maxsus texnik va dasturiy ta'minot vositalarining mavjudligi, masofaviy o'qitish texnologiyalari, nogironlar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan maxsus bo'lim (sahifa) yaratilishi lozim.



2-rasm. 2021-2022 yillarda O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalariga nogironlik tiplari bo‘yicha qabul qilingan talabalar ulushi, %. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma‘lumotlari asosida tuzilgan

Texnik va texnologik to‘siqlar. Oliy ta‘lim muassasasida zamonaviy o‘quv jarayoni texnik va axborot ta‘lim vositalaridan foydalanish jihatidan yuqori texnologiyali jarayon sanalgani holda, u nogiron talaba uchun ham to‘siq, ham ta‘lim olish manbasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bir tomondan, aksariyat mutaxassisliklar va ta‘lim yo‘nalishlari uchun majburiy bo‘lgan texnik qurilma, jihozlardan foydalangan holda tashkil etiluvchi murakkab laboratoriya ishlari ko‘rish, eshitish va harakatlanishda nuqsoni bo‘lgan talaba uchun qiyin yoki xavfli ham bo‘lishi mumkin. Boshqa bir tomondan esa, zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari ma‘lumotni sensor funksiyalarida nuqsonlari bo‘lgan talabalar uchun qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi (ko‘zi xira ko‘ruvchilar uchun elektron lupalar va ko‘zi ojizlar uchun ovozli dasturlar; eshitish qobiliyati buzilganda qo‘l keluvchi ovoz kuchaytiruvchi uskunalar va multimedia vositalari). Yana bir jiddiy to‘siq sifatida nogironligi mavjud talabalarning oliy ta‘lim muassasalarga borib kelishlarda ular yashab turgan hududda bunday toifadagi shaxslar ehtiyojlari uchun moslashtirilgan maxsus transport vositalarning yo‘qligi hisoblandi

Ijtimoiy-psixologik to‘siqlar (“o‘zaro muloqotga kirishish”, ijtimoiy to‘siqlar). Ular tashqi, “me‘moriy” ko‘rinishga ega bo‘lmagani holda, shu bilan bir qatorda, ular moddiy va moliyaviy xarajatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas. Ularni bevosita oliy ta‘lim jarayonini tashkil etishda ham, talabalar jamoasining o‘zida ham uchratishimiz mumkin. Bunday to‘siqlarga misol sifatida o‘qituvchilarning imkoniyati cheklangan talabalar bilan boshqa talabalar bilan bo‘lgani kabi bir xil talablar asosida muloqot qilishi, akademik yutuqlarni baholashning noegiluvchan tizimi, mavjud me‘yoriy-huquqiy bazaning etarlicha emasligi va shu kabilarni keltirib o‘tish mumkin.

Kadr resurslarining etishmasligi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki mamlakatimiz aksariyat oliy ta‘lim muassasalari inklyuziv ta‘limni rivojlantirish borasida malakali mutaxassislar etishmovchiligi muammosiga duchor bo‘lishmoqda. Oliy ta‘limdagi asosiy to‘siq ham turli fanlar va turli kasblar bo‘yicha barcha maxsus ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan talabalarga dars bera oladigan o‘qituvchilarning etishmasligi hisoblanadi. O‘z navbatida maxsus ta‘lim ehtiyojlari mavjud shaxslarni o‘qitishda tor doiradagi malakali mutaxassislari yetishmayotgan oliy ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘limni samaradorligi past darajada bo‘lishi amaliyotda o‘z isbotini topgan.

Biz tadqiqotimiz davomida imkoniyati cheklangan talabalarni OTMlarga topshirishiga ta‘sir qiluvchi omillar sifatida ularga eng yaqin OTM ning masofasi, u yerga borish uchun maxsus transportning mavjudligi, ularning o‘rtacha oylik daromadi, OTMda mavjud imtiyozlar haqida xabardorligini maksimal o‘xshashlik ekonometrik usulidan foydalanib logit – binar modeli yordamida tahlil qildik. Buning uchun dastlab Sirdaryo viloyatda tasodifiy tanlama asosida tuman va shaxlardan 100 ta imkoniyati cheklangan 18 yoshdan yuqori va 31 yoshdan past bo‘lgan fuqarolardan sorovnoma o‘tkazildi.

Tahlillar natijasida quyidagi tenglamani oldik

$$Y = -15,068 + 0,363X_1 + 0,00692X_2 + 0,954X_3 - 0,0228X_4$$

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, logit binar modelimizda talabalarning OTMga topshirish ehtimolini ularning imtiyozlardan xabardorligi 36,3% ga, daromadi yuqori bo'lishi 0,6% ga, maxsus transport mavjudligi 95% ga oshiradi va masofani uzoqligi esa – 2,2% ga tushirishi aniqlandi.

Модель 1: Логит, использованы наблюдения 1-100 (n = 99)

Исключено пропущенных или неполных наблюдений: 1

Зависимая переменная: OTMgatorshirgan 60ta

Стандартные ошибки рассчитаны на основе Гессмана

	Коэффициент	Ст. ошибка	z	p-значение	
const	-15,0688	4,51947	-3,334	0,0009	***
Xabardorlik24ta	0,363062	1,49892	-0,2422	0,086	*
daromad1bolgandayuqoribols	0,00692036	0,00192386	3,597	0,0003	**
Maxsustransport42oxirgiqat	0,95402	1,98051	-1,492	0,0358	*
OTMgachamasofa	-0,0228251	0,0348121	0,6557	0,0120	*

Среднее завис. перемен	0,565657		Ст. откл. завис. перем	0,498193
R-квадрат Макфаддена	0,779901		Исправ. R-квадрат	0,706117
Лог. правдоподобие	-14,91514		Крит. Акаике	39,83028
Крит. Шварца	52,80588		Крит. Хеннана-Куинна	45,08023

Modelning to'g'irlangan determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,70$ teng bo'lib, natijaviy omilni 70% qismi berilgan omillar bilan asoslanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, Student mezonini bo'yicha P qiymatlari barcha omillar bo'yicha 95% ishonchlilikda ahamiyatlikni ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limning ijtimoiy marketingini joriy etishning amaliy jihatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Masofadan turib ko'rsatiluvchi ta'lim xizmatlari, oliy ta'lim muassasasi joylashgan hududdan geografik uzoqligidan qat'i nazar, turli hududlardan kelgan talabalar tomonidan taqdim etilishi va qabul qilinishi mumkin, shu bilan bir qatorda, moslashuvchan o'quv mashg'ulotlari jadvali o'qish va ishni birlashtirish, qo'shimcha daromad olishga imkon beradi.

2. Nazariy tavsifga ega bo'lgan ta'lim xizmatlaridan farqli o'laroq, amaliy mazmun bilan boyitilgan ta'lim xizmatlari tadbirkorlik tuzilmalarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim tashkilotlarining talabalarida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, bitirgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri mehnat faoliyatlarini boshlab ketishlariga katta turtki beradi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining manfaatdor tadbirkorlik tuzilmalari bilan talabalarni tayyorlash borasidagi hamkorligi etarlicha emas.

3. O'zbekistonda nogironlarning umumiy ta'lim tizimi jadal rivojlanib va takomillashib borayotgan bir paytda, uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinuvchi oliy ta'lim borasida nogironlar uchun zarur shart-sharoitlar etarlicha yaratilmagan, bu esa o'z navbatida, ularning kasbiy faoliyatni tanlash, kelgusida ishga joylashish, yanada to'liq va etarli darajada ijtimoiy moslashish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga salbiy ta'sir qiladi.

4. Inklyuziv ta'lim jarayoni borasidagi mavjud nazariy qarashlar favqulodda turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Biroq, ta'lim muassasasining inklyuziv jarayonining rivojlanishini konstruktiv tavsiflash mexanizmlari mavjud emas, shuningdek, oliy ta'limda nogironlarni inklyuziv ta'lim tizimining oliy ta'lim muassasalarida mutaxassisliklar va o'qitish yo'nalishlarining kengligi va xilma-xilligiga mos keladigan tayyor modellari mavjud emas.

5. Mamlakatimiz xududlaridagi Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi mavjud shaxslarning xujjat topshirishi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassalaridagi mavjud shart-sharoitlar ularning ehtiyojlariga mos kelmasligi taqdimotimiz davomida aniqlandi. Jumladan olib borilgan ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki hududlarda OTMga topshirish ehtimolini ularning imtiyozlardan xabardorligi 36,3% ga, daromadi yuqori bo'lishi 0,6% ga, maxsus transport mavjudligi 95% ga oshiradi va masofani uzoqligi esa – 2,2 % ga tushirishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.un.org/ru/rights/disabilities/background>.

2. Nogironlar huquqlari to'g'risida Konvetsiya (Nyu-york, 2006 yil 13 dekabr), Mazkur Konvetsiya O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 7 iyundagi O'RQ-695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan. <https://lex.uz/docs/5501227#5520148>
3. Шоев А.Х. “Приоритетные направления развития инклюзивного образования в высших учебных заведениях Узбекистана” Iqtisodiyot va ta'lim 2023-yil 2-son, 317 bet.
4. Abduvohidov A.A. “Inklyuziv oliy ta'lim rivoji – ijtimoiy davlatning muhim belgisi” Halq so 'zi 2023 yil 27 iyul 153 (8496)-son, 4-bet.
5. Armstrong. F. Action Research for Inclusive Education, Prentice Hall. 2004.
6. Макклейн-Нхлапо, К.В., Сивонен, Л.Х.А., Раджа, Д.С., Палуммо, С., Акул, Э. 2022. Система включения инвалидов и подотчетности. Вашингтон, округ Колумбия: Группа Всемирного банка. Доступно по адресу: <http://documents.worldbank.org/curated/en/437451528442789278/Disability-inclusion-and-accountability-framework>.
7. Muller B., Reinhardt J. Neural Networks. An introduction. - Berlin: Springer*Verlag, 1991. - 266p.
8. R.S. Kaplan and D.P.Norton, The Balanced Scorecard: Measures That Drive Performance. - Harvard Business Review, January-Februaury 1992, 7179.
9. Фокина М. С. Проблемы и перспективы инклюзивного образования в условиях цифровизации // Студенческий электронный журнал СТРИЖ. 2021. № 2–1 (37). С. 82–84.
10. Freire C. et. al. The potential of distance education for the inclusion of students in higher education G'G' Determining the Reliability of Online Assessment and Distance Learning. Handbook of Research. Hershey, PA, USA, 2020. P. 379–401.
11. Debra Z. Basil, Gonzalo Diaz-Meneses, & Michael D. Basil. (2019). Social Marketing in Action : Cases From Around the World (Vol. 1st ed. 2019). Springer.
12. Волосовец Т.В. Проблемы трудоустройства выпускников специализированных (коррекционных) образовательных учреждений и профессионального образования инвалидов/Воспитание и обучение детей с нарушениями в развитии. - 2002. - № 4. - С. 3-10
13. Андреева Л.В, Бойков Д.И, Войлокова Е.Ф.и др. Образование лиц с ограниченными возможностями в контексте программы Юнеско «Образование для всех»: опыт России./ под ред. акад. Г.А. Бордовского СПб.: Изд-во РГПУ им.А.И.Герцена.- 2007,- 81 с.
14. Бурук А.Ф. Инструменты digital-маркетинга: учеб. пособие / А. Ф. Бурук, Е. В. Убоженко. – Новосибирск : СГУГиТ, 2021. – 75 с.
15. Q.A.Sharipov “Inklyuziv ta'lim qanday shakllanadi” Halq so 'zi 2021 yil 21 oktyabr №229 (8009)-son.
16. Adilova Z.D.,Xonturaev B.A O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limga ehtiyojni aniqlash: muammo va echimlar. Axborot-tahliliy ma'lumot. – T.2019. 42 b.
17. Юсупов Д., Абдухалилов. А. 2022г. Барьеры для трудоустройства с учетом интересов инвалидов в Узбекистане: пилотное качественное исследование жизненного опыта людей с ограниченными возможностями. Дж. Междунар. Дев. Доступно по адресу: <https://doi.org/10.1002/jid.3693>.
18. Исаков О. 2021г. Доступ к правосудию лиц с ограниченными возможностями. Реализация экономических, социальных и культурных прав: взгляды на законодательство и практику в Узбекистане. Сборник бумаг. ISBN 978-92-9037-297-4.
19. Abdurakhmanov K.K., Khakimov N.K., Makhmutkhodjaeva L.S. Higher education as a significant factor of Uzbekistan's sustainable development. ESPACIOS. Vol. 40 (Number 9) Year 2019. Page 15.
20. Тураева Д. (2023). Развитие маркетинговой деятельности образовательных услуг в высших учебных заведениях Республики Узбекистан. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 264–272. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a28
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/5841077>
22. O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'RQ-641-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/5049511#5054401>
23. O'zbekiston Respublikas Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari

UO'K 339.137

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRARISH KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

K.Q.Tajibayev, katta o'qituvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes sub'ektlari tomonidan xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan muhim masalalardan biri sifatida o'rganib chiqilgan. Muammolar yuzasidan hulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xalqaro standartlar, raqobatbardoshlik, GOST, ISO, BIPM, COOMET, APMP, ILAC, IEC, global G.A.P.

Аннотация. В данной статье рассматривается один из важнейших вопросов, на который следует обратить внимание при развитии экономики страны, - повышение возможностей производства предприятиями малого бизнеса конкурентоспособной продукции на основе международных стандартов. Сделаны выводы и предложения по проблемам.

Ключевые слова: малый бизнес, международные стандарты, конкурентоспособность, ГОСТ, ISO, BIPM, COOMET, APMP, ILAC, IEC, Global G.A.P.

Abstract. This article discusses one of the most important issues that should be paid attention to in the development of the country's economy - increasing the production capabilities of small businesses of competitive products based on international standards. Conclusions and suggestions on the problems are made.

Keywords: small business, international standards, competitiveness, GOST, ISO, BIPM, COOMET, APMP, ILAC, IEC, Global G.A.P.

Kirish. Kichik biznes sub'ektlari tomonidan xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan muhim masalalardan biridir. Bu borada respublikamizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar katta samara bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonining 28-maqсадida "Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish, "Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash"[1] - ko'zda tutilishi kichik biznes sub'ektlari ishlab chiqargan mahsulotlar eksportini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kichik biznes sub'ektlari raqobatbardoshligi erkin va halol raqobat sharoitida iste'molchilar talablarini yuqori darajada qondiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish sifatida ta'riflash mumkin. Ayniqsa, mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes sub'ektlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichi, birinchi galda kichik korxonaning mahalliy bozorlarda mavqeini tavsiflovchi, shuningdek, tovar va tovar ishlab chiqaruvchining hamda korxonaning tarmoqning raqobatbardoshligini birlashtiruvchi umumiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Mahsulot sifati haqidagi ilk ma'lumotlar Aristotelga borib taqaladi. U ishlab yaratilgan mahsulotlarni "yaxshi-yomon"ga ajratib ko'rsatadi. XIX asrda yashagan Gegel falsafiy jihatdan sifatga ta'rif beradi. Uning fikricha sifat, birinchi navbatda predmetning mavjudligi bilan aniqlanadi, predmetning yo'qolishi sifatning ham yo'qolishiga olib keladi.(1-jadval)

Yapon olimi K. Isikava[2] - sifatga iste'molchilar ehtiyojini qondirishi orqali taqqoslaydi. Bunda u mahsulotning talabgorligi, GOST va halqao talablariga javob berishi kabi raqobatbardoshlikka xos xususiyatlarni ko'rsatadi.

Moddiy omillar tovarning eng muhim funksiyalarini va u bilan bog'liq o'zgarishlarni asosiy xususiyatlarni konstruktiv tamoyillari bilan izohlaydi.

Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- maqsad parametrlari;
- ergonomik parametrlar;
- atrof-muhit parametrlari;
- ishonchlilik parametrlari.

P.S. Zavyalov korxonaning raqobatbardoshligini samarali xo'jalik yuritish va uning raqobatli bozorda tovarlarni foyda bilan sotishida deb biladi. F. Kotler fikriga ko'ra, firma iste'molchilarni aniq

ehtiyojlarini qondirishning har qanday yo'llarini bilishi kerak. Aynan shu firmaning raqobatbardoshligini belgilaydi. B.Karlof ham uning fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi.

1-Jadval

SIFATNING TA'RIFLARI

Muallif	Sifat ta'rifining shakllanishi
Aristotel (er.avv.III asr.)	Predmetlar o'rtasidagi farq; «yaxshi-yomon» sifatleri bo'yicha ajratish
Gegel (XIX asr)	sifat, birinchi navbatda predmetning mavjudligi bilan aniqlanadi, predmetning yo'qolishi sifatning ham yo'qolishiga olib keladi
Xitoycha yondashuv	sifatni bildiruvchi ieroglif ikki elementdan iborat - " muvozanat "va" pul " (sifat = muvozanat + pul), shuning uchun sifat "yuqori darajali", "qimmatbaho";
Shuxart (1931 g.)	Sifat ikki asosdan iborat: ob'ektiv tabiiy tavsif va sub'ektiv - predmetning qanchalik «yaxshi»ligi;
Isikava K. (1950 g.)	- sifat – shunday hususiyatki, xaridorlarning ehtiyojlarini real qondiradi;
Djuran Dj. M. (1979 g.)	Foydalanish uchun yaroqliligi (maqsadga muvofiqligi); sub'ektiv tomoni: sifat bu istemolchini ehtiyojini qondirish darajasi (ishlab chiqaruvchi sifatli mahsulotlarini sotishdan oldin xaridorlarni ehtiyojlarini qondiradigan darajada ishlab chiqarishni o'rganish kerak);
GOST 15467-79	- mahsulot sifati – uning ehtiyojlarni qondirish uchun maqsadga muvofiq muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqliligi bo'yicha mahsulotning umumiy xususiyatlari;
Xalqaro standart ISO 8402-86	-sifat- mahsulot yoki xizmatning umumiy xususiyatlari bo'lib , ularga shartli yoki kutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini beradi;

Mahalliy bozorlarda kichik biznes korxonalar raqobatbardoshligi masalalarida umumiy konsepsiyani shakllantirish mazkur holatning barcha tomonlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ammo ko'plab mamlakatlarda orttirilgan tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalarining mahalliy va mintaqaviy bozordagi raqobatbardoshligi uning xalqaro raqobatbardoshligining asosi hisoblanadi.

Respublikamiz olimlaridan R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripovlarning “Korxonalar iqtisodiyoti” asarida standartlash, metrologiya va sertifikatlashtirishning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini quyidagicha ifodalaydilar. Respublikada xalqaro iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, savdo-sotiqning rivojlanishi, ichki va tashqi bozorga tovar chiqarishdagi raqobatning kuchayishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini yaxshilashning barcha imkoniyatlarini izlab topish va ulardan amalda foydalanish bo'yicha bir qator muhim vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Bunday sharoitda mahsulot sifatini boshqarish tizimidagi muhim vosita sifatida, uning hayotiy siklining barcha bosqichlarida standartlash metrologiya va sertifikatlashtirishning roli benihoya ortadi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, sintez, analogiya usullaridan foydalanildi. Aniqlangan tendensiyalar kichik biznes sub'ektlarining raqobatbardoshligini oshirishda halqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishning ahamiyatini yuqoriligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy iqtisodiyotda iste'molchilar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini kafolatlash talabi keskin oshib bormoqda. Mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligi masalalari ham dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Binobarin, mahalliy iste'mol bozorlarini sifati va xavfsizligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjat talablariga javob bermaydigan mahsulotlardan himoya qilish har qanday davlatning birinchi galdagi vazifasidir.

Kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy shartlaridan biri milliy standartlarni jahon talablariga moslashtirish hamda kichik korxonalar joriy qilishdir. Respublikamizda keyingi yillarda 8150 ta yangi standart qabul qilindi va bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ma'nau eskirgan 2013 ta mezon amaliyotdan olib tashlandi. Islohotlar davomida birgina 2020 yilning o'zida xalqaro talablar bilan uyg'unlashgan 6 ming 79 ta standart qabul qilindi va 3 ming 837 tasi qayta ko'rib chiqildi. Buning natijasida standartlar soni 14 ming 858 taga yetdi. Shu qatorda, kichik biznes sub'ektlariga qulaylik yaratish uchun bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ma'nau eskirgan 6 ming 81 ta standart amaliyotdan olib tashlandi va 3 ming 837 tasi qayta ko'rib chiqildi.

Mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiyotni globalashtirish va baynalmillallashtirish davrida korxonaning samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan iste'molchilarning talabini oshib borishining yagona mezon bo'lib bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday mahsulotning raqobatbardoshligi turli xil omillar va ko'rsatkichlar bilan belgilanadi, ko'pincha ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlash, bozorda raqobatning intensivligi darajasini aniqlash va tashxislash murakkab ilmiy muammoga aylanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda jahon standartlari asosida mahsulotlar ishlab chiqarish va standartlashtirishning institutsional asoslari takomillashtirib borilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada dasturulamali bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatga asosan ISO xalqaro tashkiloti standartlarini qabul qilish yanada takomillashtirildi, sinov va o'lchash laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilandi. Hozirgi kunda BIPM (xalqaro tashkilot), COOMET (Evro-osiyo tashkiloti), APMP (Tinch okeani mintaqasi tashkiloti), ILAC (Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro tashkilot)lari bilan mustahkam aloqalar yo'lga qo'yilishi kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish uchun xizmat qilmoqda. 2020 yilning aprel oyida "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun qabul qilinishi metrologiyaga oid qoidalar xalqaro talablar bilan muvofiqlashtirildi.

Mahalliy istemol bozorlarida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ISO, IEC, GOST xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari oshirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim masalalardan biridir. Mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes sub'ektlari raqobatbardoshligi erkin va halol raqobat sharoitida iste'molchilar talablarini yuqori darajada qondiruvchi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va xavfsizligi standartlar asosida belgilangan. Keyingi yillarda sohada olib borilgan islohotlar natijasida mahsulot xavfsizligi nazoratiga asoslangan texnik jihatdan tartibga solish tizimi normativ bazasini takomillashtirish imkoni yaratildi. Xalqaro norma va standartlar negizida 36 ta yangi texnik reglament ishlab chiqildi. Islohatlar davomida qariyb 2 mingga yaqin standart ixtiyoriylikka o'tkazildi va ushbu mahsulotlar turlarining sifat nazorati, ishlab chiqaruvchi va savdo tarmoqlari tomonidan xaridorlar ehtiyojidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini Yevropa va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi talablariga moslashtirish asosiy masalalardan biridir.

Mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes sub'ektlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichi, birinchi galda kichik korxonaning mahalliy bozorlarda mavqeini tavsiflovchi, shuningdek, tovar va tovar ishlab chiqaruvchining hamda korxonaning tarmoqning raqobatbardoshligini birlashtiruvchi umumiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari mahsulotlarini sertifikatlashtirish va sinovlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi milliy infratuzilma ishini yanada takomillashtirish zarur. Respublikamizda kichik biznes sub'ektlari uchun xizmat ko'rsatuvchi 51 ta xususiy sertifikatlashtirish idorasi va 268 ta sinov laboratoriyasi faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorij bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun 12 ta sinov laboratoriyasi xalqaro darajada akkreditlangan. SGS (Shveysariya), TUV (Germaniya), Control Union (Niderlandiya), RINA, DQS Quality Systems (Italiya), EuroCert (Gresiya), Astraia Management, Sert Management (Slovakiya), "Russkiy Registr" (Rossiya) kabi O'zbekiston Respublikasida vakolatxonasi mavjud bo'lgan 9 ta menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari xalqaro hamkorlik doirasida faoliyat ko'rsatmoqda. "Management Certification", "Central Asia Certification", "Cert International" kompaniyalari xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi. Menejment tizimlariga tegishli amaldagi barcha standartlar (ISO 9001, 14000, 22000, 45001, Global G.A.P., Sedex, BSCI, GOTS) O'zbekistonda qabul qilingan bo'lib, kichik biznes sub'ektlari tomonidan joriy qilindi. Natijada 10 mingta korxonada mahsulot

ishlab chiqarishning to'liq zanjiri bo'yicha jarayonlar nazoratiga asoslangan sifat menejmenti tizimlari joriy qilinishi sohada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ularning 305 tasi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi standartlariga, 229 ta fermer xo'jaligi Global G.A.P. va Organic standartiga va 63 ta korxonaga gazlama tarmog'ida qo'llaniladigan Sedex, BSCI, OekoTex-100, GOTS standartlariga muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi. Kichik biznes sub'ektlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida xalqaro tajriba hisobga olingan holda, respublikada Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkilotining 37 mamlakatidan import qilinadigan xomashyo materiallari, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun materiallar va boshqa mahsulotlarni sertifikatlashtirish bekor qilinishi hisobiga uning soddalashtirilgan tartiblari joriy qilindi.

ISO hozirgi kunda 159 mamlakat a'zo bo'lgan jahon federatsiyasidir. Har bir a'zo mamlakatlarning milliy standartlash organi ISO a'zosi hisoblanadi. ISO standartlari bozor ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda xalqaro Global G.A.P (Good Agricultural Practice) standartini joriy etishning o'rni va ahamiyati juda muxim omillardan biridir.

XX asr o'rtalarida ishlab chiqilgan NASSR (Hazard Analysis and Critical Control Point — kiritik nazorat nuqtalari va xavf xatarlar tahlili) tizimidan foydalangan holda Global GAP standarti oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligini oshirish maqsadida qo'llanma sifatida yaratildi.

Mahalliy bozorlarda faoliyat olib borayotgan har qanday kichik biznes sub'ektlari, umuman olganda har qanday tovar ishlab chiqaruvchi faoliyatini boshlagan vaqtdan boshlab va butun korxonaga faoliyati davomida o'zi uchun zarur bo'lgan korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi muammolarini o'zi hal etishiga to'g'ri keladi. Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida qatnashadi, kichik korxonaning milliy bozor va undagi iste'molchilarning talablari esa jahon bozori va xalqaro raqobatbardoshlikning faol ta'siri ostida shakllanadi.

Iqtisodiyotda faoliyat olib borayotgan kichik biznes sub'ektlarining yangi bozorlarga kirib borishi, kichik korxonaga ishlab chiqarishini kengaytirish, korxonaga texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish yoki korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko'paytirish va yangilash uchun korxonaga faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishni amalga oshirishda kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini baholash talab etiladi. Bunda kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlarni xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etadi.

Xar qanday kichik biznes korxonalarida tovarning sifati uning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Iste'mol bozoriga ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati o'z ichiga ko'plab elementlarni qamrab oladi. Bularga:

1. Mahsulot tayyorlash jarayoni va ulardan foydalanish xususiyatlari. Bu xususiyat o'z ichiga:
 - a) tovarning uzoq muddatga chidamliligi;
 - b) tovarning ishonchliligi;
 - v) fond sig'imi kabi ko'rsatkichlarni;
 - g) tovarlarning ekologik tozaligi xususiyatlari;
 - d) estetik ko'rsatkichlarini oladi.

2. Ishlab chiqarilgan tovarning sifat darajasini aniqlashda foydalaniladigan me'yorlari, sifat standartlari.

3. Korxonaga tomonidan ishlab chiqarilgan tovar siyosatini, raqobatbardoshligini aniqlash mezonlari. Bu odatda patent bilan himoyalangan. Bunday holatda bu tovarni ishlab chiqaruvchi korxonaga tovarni ishlab chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi va boshqa korxonalariga bu tovarni ishlab chiqarish uchun litsenziya beradi.

4. Tovarlarning sifatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar. Unga quyidagilar kiradi:

- a) ishlab chiqarilgan tovarlar tarkibida ayrim sifatli tovarlarning ulushi va miqdori;
- b) ilg'or tajriba natijalariga javob beruvchi va alohida xususiyatlari.

Iste'mol bozorlariga kichik biznes korxonalariga tomonidan yetkazib berilayotgan tovarlarning sifatini oshirish bu milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik biznes korxonalariga raqobatbardoshligini oshirishning asosiy masalalaridan biridir. Kichik biznes korxonalariga olidida turgan bunday vazifalarni

hal qilish ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, umumdavlat boyligini ko'paytirish hamda mahalliy iste'mol bozorlarida iste'molchilar talablarini va ehtiyojini qondirishga imkon beradi. Korxonalar tomonidan yaratilgan tovarlar sifatini oshirish har bir firma va uning bo'limlarining muhim masalalaridandir. Mahalliy iste'mol bozorlariga kichik biznes korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar jahon standartlari talablarini qondiradigan darajada ishlab chiqarilishi tovaralarni nafaqat mahalliy iste'mol bozorlarida balki jahon bozorlarida ham raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Mahalliy iste'mol bozorlariga kichik biznes korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirishda ular tomonidan ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan mashina va mexanizmlarning texnikaviy darajasini oshirish alohida o'rin tutadi. Nafaqat mintaqaviy balki milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish iqtisodiy jihatdan rivojlanishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Kichik biznes sub'ektlarini yangi zamonaviy texnikalar bilan qurollantirish tizimini takomillashtirish va bu sohada amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar kichik biznes sub'ektlarini nafaqat mahalliy iste'mol bozorlarida balki, jahon mahsulot va xizmatlar bozorida ham raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Kichik biznes oldida turgan ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari xavfsizligini ta'minlash, mamlakat tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

3. Mahsulotlar sifati va raqobatdoshligini oshirish uchun milliy standartlarni jahon talablariga moslashtirish hamda korxonalariga joriy qilish.

4. Bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ma'nan eskirgan standartlarni amaliyotdan chiqarish. Bu bilan amalda foydalanilayotgan standartlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish darajasi 50 foizdan oshirish va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishga, eksport salohiyatining oshishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Kichik biznes korxonalarining tashqi raqobat ustunliklariga standartlashtirish va sertifikatlash milliy tizimining xalqaro tizim bilan uyg'unlastirish.

6. "GSP+" tartibining taqdim etilishi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarini tashqi savdo faoliyatiga jalb qilish va shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishda rag'batlantiruvchi omil bo'lib iqtisodiyotlarimizning industrial salohiyati va raqobatbardoshligi ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-60 son 28.01.2022
2. Исикава К. Японские методы управления качеством / Сокр. пер. с англ. - М.: Экономика, 1998. - 215 с.
3. R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. "Korxonona iqtisodiyoti" - Darslik. – T.: TDIU, 2011 - 500 b. 77-bet.

UDK 330. 34. 014.2

KEYNS NAZARIYASI VA UNING XXI ASRDA DOLZARBLIGI

A.M.Tursunov, i.f.n., dots., Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada J.M. Keyns makroiqtisodiy nazariyasining asosiy qoidalari yoritilib, uning iqtisodiy tafakkur tarixidagi o'rniga baho berilgan va XXI asrda ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiyot, inqiroz, samarali talab, yalpi talab, yalpi taklif, asosiy psixologik qonun, iste'mol sarflari, jamg'arish, muvozanat.

Аннотация. В статье раскрыты основные правила макроэкономической теории Дж.М. Кейнса, оценено ее место в истории экономической мысли, раскрыто ее значение в XXI веке.

Ключевые слова: макроэкономика, кризис, платежеспособный спрос, совокупный спрос, совокупное предложение, основной психологический закон, потребительские расходы, накопление, равновесие.

Abstract. *he article reveals the basic rules of macroeconomic theory by J.M. Keynes, its place in the history of economic thought is assessed, and its significance in the XXI st century is revealed.*

Key words: *macroeconomics, crisis, effective demand, aggregate demand, aggregate supply, basic psychological law, consumer spending, accumulation, equilibrium.*

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi natijasida vujudga kelgan keskin vaziyat cheklangan resurslar sharoitida muqobil tanlov muammosini emas, balki resurslarning nisbiy ortiqchaligi (ommaviy ishsizlik, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik) muammosini keltirib chiqardi. J.M.Keyns bu ziddiyatli vaziyatdan chiqish yo'llarini "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936 y) asarida iqtisodiyotni tartibga solishning yangi nazariyasini yaratish bilan bajardi. Bu ilmiy ishini yozishni boshlaganida Keynes shunday deb yozadi: "Men klassik nazariya qoidalari umumiy emas, balki faqat alohida voqea uchun qo'llanilishi to'g'risida dalila keltiraman, chunki u ko'rib chiqadigan iqtisodiy vaziyat faqat mumkin bo'lgan muvozanatlarning chegaraviy holatidir. Qolaversa, ushbu alohida holatning belgilari biz yashayotgan iqtisodiy jamiyatning xususiyatlariga to'g'ri kelmaydi va shuning uchun ularning targ'iboti nazariyani amaliy hayotda qo'llashga urinayotganda yo'ldan ozdiradi va halokatli oqibatlariga olib keladi" [1].

J.M.Keynsning yangi g'oyasi shundan iboratki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi hech qanday holatda mukammal va o'zini-o'zi tartibga solmaydi, maksimal darajada bandlik va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi bilan ta'minlash mumkin. Olim iqtisodiyot o'zi tannazul holatidan chiqib keta olmasligini, buning uchun davlat aralashuvi hayotiy zarurat ekanligini asoslab berdi.

J.A.Keyns davlat o'zining iqtisodiy siyosati vositasida yalpi talab va yalpi taklifni bir-biriga muvofiqlashtirishi, iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarishi, keyinchalik barqarorligini ta'minlashi zarur deb hisoblagan. Bunga erishishi uchun esa davlat fiskal (byudjet) va kredit yordamida tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirish va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarur degan g'oyani ilgari surgan.

J.M.Keyns birinchi marta yalpi (jami) ko'rsatkichlar (mamlakat bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning umumiy hajmi, daromad, iste'mol sarflari, jamg'arish, investitsiyalar va h.k) o'rtasidagi bog'liqlikga asoslangan nazariyani yaratdi.

Olim klassiklardan farqli o'laroq iqtisodiyotni qisqa davrda inqroz holatida o'rganadi. Shuning uchun u o'z tadqiqotlarida ish bilan bandlik muammosiga alohida e'tibor qaratadi. Chunki inqiroz davrda ishsizlik tabiiy darajasidan oshib nihoyatda ko'payishi kuzatiladi. SHu boiz, yalpi talab harakati va ijtimoiy mahsulot miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlik keyns tadqiqotining markaziy obektini tashkil etadi. Chunki, yalpi talabning yalpi taklifdan orqada qolib ketishi - bu bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatning surunkali kasalligidir. Agar yalpi talab kamaysa, unda u ishlab chiqarishning pasayishiga va mehnatga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Buning natijasida majburiy ishsizlik vujudga keladi.

Keynsning fikriga ko'ra, daromadning ma'lum bir qismini tejashga bo'lgan shaxsning psixologik moyilligi kapital qo'yilmalar hajmining qisqarishi hisobiga daromadning ko'payishini to'xtatib turadi, bu doimiy daromadning paydo bo'lishiga bog'liq. Insonning iste'molga bo'lgan me'yorli moyilligiga kelsak, olimning fikriga ko'ra, u doimiy va shuning uchun investitsiyalarning ko'payishi va daromad darajasi o'rtasidagi barqaror aloqadorlikni ta'minlaydi.

Demak J.M.Keynsning tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy o'sishga iqtisodiy bo'lmagan omillarning ta'sirini ham inobatga oladi, masalan: davlat omilini ya'ni ishlab chiqarish vositalariga va yangi investitsiyalarga iste'mol talabini rag'batlantirish, odamlarning psixologiyasi omilini ya'ni oldindan belgilangan iqtisodiy subektlar o'rtasidagi ongli munosabatlar darajasi. Shuning bilan birga, olim ta'limoti birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurning neoklassik yo'nalishining fundamental metodologik tamoyillarining davomidir, chunki J.M.Keynsning o'zi va uning izdoshlari ham (neoliberallar ham)"sof iqtisodiyot nazariyasi "g'oyasiga amal qilishadi, jamiyatning iqtisodiy siyosatida, birinchi navbatda, iqtisodiy omillarning ustuvorligidan kelib chiqadi,ularni ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni, qoida tariqasida, me'yorli va funksional tahlil qilish usullari,iqtisodiy-matematik modellashtirish asosida belgilaydi.

Jamiyat psixologiyasi shundayki, yalpi real daromadning o'sishi bilan birga yalpi iste'mol ham oshadi, lekin daromadning o'sishi bilan bir xil darajada emas. J. M. Keynsning "asosiy psixologik qonun"ining mohiyati ana shundan iborat. Bu ta'rifda uning bir ma'noli nazariy va uslubiy nuqtayi nazari yaqqol namoyon bo'ladi. Unga ko'ra to'liq bandlik va to'liq bo'lmagan yaratilgan mahsulotni realizatsiya qilish, iqtisodiyotning nomutanosibliigi sabablarini aniqlash, shuningdek uni davlat tomonidan tartibga solish usullarini asoslash uchun «jamiyat psixologiyasi» «iqtisodiyot qonunlari»dan kam ahamiyatga ega emas. Olim iste'molning milliy daromadga bog'liqligini, ularning nisbati milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

J.M.Keynsning fikricha, yalpi talab aholining iste'mol sarflari, korxonalarining xususiy investitsiyalari va davlat sarflaridan iborat. Uning nazarida aholini iste'mol sarflari daromadlari miqdoriga bog'liq va ular keskin o'zgar olmaydi, investitsiyalar esa aksincha yalpi talabning eng o'zgaruvchan qismidir. Gap shundaki, firmalar foyda olishlariga ko'zlari etsagina pullarini ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflaydilar. Bu holat esa o'z navbatida firmalar o'z mahsulotlariga talabni oshishi va xarajatlarini qoplab foyda keltirishini kutayotganida vujudga keladi. Undan tashqari, investitsiyalarga ssuda foiz stavkasi ham ta'sir etadi. Agarda foiz stavkasi investitsiyaviy loyihalardan kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, unda loyihalarni amalga oshirishdan ko'ra, o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarni sotib olishga sarflashni maqbul ko'radilar. Biroq, J.M.Keynsning fikricha, investitsiyalar va foiz stavkasi o'rtasida bog'liqlik uncha ham kuchli emas. Bularning barchasi jamg'arish va investitsiyalar o'rtasidagi farqqa olib keladi. Agarda muvozanat holatida iqtisodiyotda investitsiyalar miqdori jamg'arishga teng bo'lsa, tanazzul davrida esa jamg'arishning barchasi ham investitsiya qilinmaydi.

Demak, J.M.Keyns daromad va bandlik darajasini "iste'mol - investitsiyalar" va "jamg'arma - investitsiyalar" mexanizimlari asosida tahlil etgan. U investitsiyalar o'z jamg'armalarini hosil qiladi degan xulosaga kelgan hamda jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi nisbatni bevosita milliy daromadning miqdoriga ta'sirini isbotlagan.

Investitsiyalarning ko'payishi va buning natijasida milliy daromad va bandlikning o'sishi maqsadga muvofiq iqtisodiy samara sifatida baholanishi mumkin. Bu samara iqtisodiy adabiyotlarda multiplikator samarasi nomini olgan. J.M.Keyns multiplikativ samarani tahlil qilish asosida etarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasini ilgari surdi. Ushbu nazariyaga muvofiq insonlarning o'z iste'molini ortirishga bo'lgan moyilligi ularning daromadlarini o'sishidan orqada qoladi. Bu hol insonlardagi katta miqdorda jamg'armalar hosil qilishga bo'lgan moyillik bilan bog'liq. Bu esa ham iste'mol, ham ishlab chiqarish iste'moli buyumlariga etarli darajada bo'lmagan talabga olib keladi.

J.M.Keyns iqtisodiyotda mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. U "samarali talab" ni shakllantirish, ya'ni kapital mablag'larni va iste'molni yuqori darajada rag'batlantirish zarur ekanligini taklif qildi. Uning fikricha, sarmoyalar orttirish bandlikning o'sishi va daromadning oshishiga olib keladi. J.M.Keyns daromad ortishi jamg'armalar shaklida emas, balki investitsiya sifatida sarflanishi uchun kredit foizi me'yorini pasaytirishni taklif qiladi. U davlat aralashuvini "samarali talab"ga, demak, to'la bandlikka erishish vositasi deb biladi va past foiz me'yorini, yuqori foyda olishni ta'minlaydi, tadbirkorlarning faolligini kuchaytiradi, ularning sarmoya olishga bo'lgan moyilligini qo'llab-quvvatlaydi va yuksalish holatini ta'minlab turadi deb hisoblaydi.

J.M.Keyns byudjet kamomadi vujudga kelishidan qo'rqmagan holda katta xarajatlar qilishni taklif etgan. Bunda u muomalaga qo'shimcha qog'oz pullarni kiritish bilan byudjet kamomadi qoplanadi deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, birinchidan, davlat kapital mablag'lari foiz me'yorini pasaytirib, yuksalish davrini uzaytiradi, ikkinchidan esa, iste'molning nisbatan barqarorligi va investitsiyalar miqdori keskin kamaygan vaziyatda, hukumat iqtisodiy tanazzul ustidan g'alaba qozonishi uchun, iqtisodiyotning xususiy sektorida iste'mol va investitsiyaviy talablarni oshirish uchun, davlat xarajatlarini oshirishi yoki davlat daromadlarini, birinchi galda soliq yukini kamaytirishi lozim. Keyns pul siyosatining imkoniyatlariga ishonmagan, chunki iqtisodiyotda pul massasini oshirish foiz stavkasining kutilayotgan pasayishiga olib kelmaydi deb hisoblagan. Gap shundaki, J.M.Keyns nazariyasiga binoan foiz stavkasi ma'lum darajada pasayganda, insonlar o'zlarining bo'sh turgan pullarini qimmatli qog'ozlarga sarflamasdan o'zlarida saqlaydilar. Chunki

ular keyinchalik foiz stavkasining oshishi, qimmatli qog'ozlar kotirovkalarining pasayib ketishidan hadiksiraydilar.

J.M. Keynes ishlab chiqarish darajasi va uni belgilovchi omillarni tadqiqot mavzusiga aylantirdi va uning doirasida markaziy o'ringa ishsizlik muammosini qo'ydi. Hozirgi kunda ishsizlik muammosi iqtisodiyot nazariyasining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa, Keynsgacha bo'lgan davrda ishsizlikka ko'proq ijtimoiy muammo - qashshoqlik sifatida qaralgan. J.M.Keyns iqtisodiyot fani jamiyat eng muhim deb biladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish va ularni shu jamiyat maqbul deb hisoblaydigan vositalarini nafaqat ko'rib chiqish huquqiga egaligi, balki majburiyatga ham ega ekanligini tan oldi.

J.M.Keyns kapitalistik tizimda yalpi talabni kamaytirish ishlab chiqarish va bandlikning avvalgi darajasiga qaytishiga imkon beruvchi ichki muvozanat mexanizmiga ega emasligi haqidagi nuqtayi nazarini bildirdi, iqtisodiy tizimning uzoq depressiya tuzog'iga tushib qolish xavfini tan oldi. SHunday qilib, u kapitalizm va laissez-faire (aralashmaslik tamoyili- iqtisodiy doktrina unga ko'ra iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy aralashuv minimal bo'lishi kerak) doktrinasini tanqidchisi edi, ammo uning tanqidi ilgari mavjud bo'lgan tanqidchilardan tubdan farq qildi.

Gap shundaki, XX-asrda kapitalizmning ko'plab tanqidchilari laissez-faire doktrinasini rad etish uchun iqtisodiy asoslar topa olmadilar. Resurslarni taqsimlash nuqtayi nazaridan erkin raqobat tizimi eng yaxshisi bo'lib tuyuldi va yalpi ishlab chiqarish va iste'molning o'sishini ta'minladi, shu bilan birga erkin bozor mexanizmining og'ir ijtimoiy oqibatlari ko'pchilik tomonidan e'tirof etildi. J.M.Keyns bu tizim resurslarni taqsimlash sohasida to'xtab qolishlarga uchraydi va eng muhim resurs - ishchi kuchidan to'liq foydalanishni ta'minlamaydi deb ko'rsatadi. SHu bilan birga, u ishsizlik muammosini demokratik tuzum doirasida hal etish vazifasini qo'ydi. Keynes bu vazifani bajarishda iqtisodiyot fani va uning vakillariga katta rolni ajratgan, ular jamiyatni boshqa bilimlarga ega qatlami bilan birgalikda tizimli inqirozni bartaraf etishda etakchi kuch sifatida harakat qiladilar deb hisoblagan.

XXI asrda iqtisodiyot nazariyasini J.M. Keynsning unga qo'shgan hissasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Eng avvalo uning yangi tadqiqot sohasi - makroiqtisodiy nazariyasi, u yoki bu shaklda bozor iqtisodiyotiga ega barcha mamlakatlar hukumatlarining makroiqtisodiy siyosatining asosi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda tub islohotlar tufayli tezlashgan iqtisodiy o'sish, asosan, Keynes yo'riqlari asosida amalga oshirildi. Bugungi kunda, Keynsning ijtimoiy – iqtisodiy hayot va iqtisodiyot faniga aqliy ta'siri kam emas. Butun jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi larzalar va beqarorlikning yangi omillari bilan to'ldirilgan zamonaviy davr tadqiqotchilar e'tiborini iqtisodiyot fanidagi inqiroz hodisalarini tushunishning tarixiy tajribasiga va ko'p jihatdan Keynsning aqliy merosiga tobora ko'proq jalb qilmoqda.

Iqtisodiy tafakkur tarixida. J.M Keynsning alohida o'rni bor. Hatto uning eng ashaddiy tanqidchilari ham usiz nafaqat iqtisodiyot fani, balki iqtisodiyotning o'zi ham boshqacha bo'lishini inkor eta olmaydilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar marjinalistik inqilob yoki neoliberalizmning tiklanishi doimo ko'plab iqtisodchi olimlarning faoliyati natijasi sifatida qabul qilingan bo'lsa, u holda Keynschilik, deyarli har doim Keynsning iqtisodiy fanni o'zgartirishdagi sa'y-harakatlari natijasi deb hisoblanadi.

J.M.Keyns nazariyasining inqilobiy tabiati tez-tez bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, ammo bugungi kunda deyarli hech kim Keynsdan uzoqlashishga intiladimi yoki unga tayanadimi, undan mustaqil bo'lish haqida gapira olmaydi.

J.M. Keynes demokratiyani zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim xususiyati deb hisoblagan, shuning uchun u oldingi davr fan va amaliyoti uchun noan'anaviy bo'lsa-da, lekin ijtimoiy muammolar bilan shug'ullanadigan demokratik jamiyat uchun maqbul bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini taklif qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кейнс Дж. М. Избранные произведения: пер. с англ. М., 1993.с. 48-49
2. Tursunov A.M. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. –T.: “Ma'rifat”, 2023-340 bet.
- 2.Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник.— М.: ИНФРА-М, 2009., с.360

TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARI FAOLIYATINING XORIJ TAJRIBASI

U. N.Xusanov, mustaqil izlanuvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijda telekommunikatsiya korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligini oshirish hamda rivojlantirish jarayonlari haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha xorij tajribalaridan kelib chiqib muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorij tajribalari, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, telekommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya korxonalarini, axborot tizimlari.

Аннотация. В данной статье говорится об использовании цифровых технологий для повышения эффективности телекоммуникационных предприятий за рубежом и процессах повышения и развития ее эффективности. Также представлены авторские подходы и предложения, основанные на зарубежном опыте существующих проблем в развитии использования цифровых технологий в повышении эффективности работы телекоммуникационных предприятий Республики Узбекистан и их устранении.

Ключевые слова: зарубежный опыт, цифровая экономика, цифровые технологии, экономика, телекоммуникации, цифровая экономика, телекоммуникационные предприятия, информационные системы.

Abstract. This article talks about the use of digital technologies to increase the efficiency of telecommunications enterprises abroad and the processes of increasing and developing its efficiency. Also, the author's approaches and proposals based on the foreign experiences of the existing problems in the development of the use of digital technologies in improving the efficiency of the telecommunications enterprises of the Republic of Uzbekistan and their elimination are presented.

Keywords: foreign experiences, digital economy, digital technologies, economics, telecommunications, digital economy, telecommunications enterprises, information systems.

Bugun jahonda telekommunikatsiya sohasida juda ham katta o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Jahon tajribasini o'rganish va ularda yaratilgan imkoniyatlardan respublikamiz amaliyotida qo'llash yo'llarini o'rganish bugungi kunda muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi global innovatsiyalarni keng joriy etish asosida ko'pgina davlatlar iqtisodiy o'sishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Milliy iqtisodiyotning ushbu sohasi ko'pgina davlatlarda endigina shakllanmoqda, lekin, rivojlangan davlatlarda esa u iqtisodiy o'sishning allaqachon lokomotivi bo'lib xizmat kilmoqda. AKT mehnat unumdorligini yuksaltirish va boshqa barcha resurslardan optimal foydalanishning asosiy omili bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotda ahamiyatli resurslarga aylanmoqda. Dunyoda «AKT mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish bilan asosan Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi industrial davlatlar shug'ullanayotgan bo'lsa, ularning iste'molchilari sifatida esa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanmoqda» [1].

AKT samaradorligi indeksi bo'yicha esa dunyoda «Shvesiya, Singapur, Finlyandiya, Shveysariya, AQSh, Daniya va Kanada mamlakatlari ilg'orlik qilishmoqda» [1]. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, AKTning samaradorlik indeksi bozor muhiti, uni tartibga solish muhiti, infratuzilma, aholi tayyorgarligi, biznesning tayyorgarligi, AKTdan aholining, biznes vakillarining va davlatning foydalanish darajalari bilan ifodalanadi.

AKT oldingi texnologiyalarga nisbatan bir qator o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ularning iqtisodiy o'sish va milliy iqtisodiyotga ta'siri sifat jihatdan boshqacha tusda bo'ladi. Avvalombor AKTni tarqatish va undan foydalanish global xarakterga ega. Bu texnologiya unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish mumkin bo'lgan barcha sohalarda qo'llaniladi, jumladan, boshqaruv sohasida ham. Boshqaruv va biznes jarayonlarida AKTdan samarali foydalanayotgan mamlakatlarning tajribasi judayam e'tiborlidir.

«Singapur davlati dunyoda birinchi bo'lib optik tolali tarmoq bilan barcha sohalarini 100 foiz ta'minladi, Shvesiya davlatida 2012 yilda barcha kompaniya va uy xo'jaliklari optik tola bilan 100 foiz qamrab olindi» [3]. Ushbu texnologik jarayonlardan o'tish ularning iqtisodiy o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.


AKTning iqtisodiy o'sishga ta'sirini bevosita va bilvosita samaradorlik asosida aniqlash mumkin. Bevosita samaradorlik ushbu soha infratuzilmasiga kilinayotgan investitsiyalar, axborot xizmatlarining keng kirib kelishi va AKT sohasidagi bandlikning yuksalishi bilan ifodalanadi. Ushbu sohaning iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri AKT mamlakatning uzoqda joylashgan hududlarigacha kirib borishi bilan bog'liqdir. AKTga kilinayotgan investitsiyalar o'z o'rnida yangi ish o'rinlarini yaratishga olib kelib, turmush sifatini ham yuksaltiradi.

AKTga kilinayotgan investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini yanada yuksaltirishning asosiy omillaridan hisoblanmoqda. AKT tarmog'i rivojlangan davlatlarda raqobatbardoshlik darajasi xam yuqori bo'lib, ular istiqbolda iqtisodiyotdagi samaradorlikni oshirmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, AKTga kiritiladigan investitsiyalar mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga xam ijobiy ta'siri ko'rsatmoqda.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AKTga investitsiyalar miqdorini 10 oshganda YaIM Buyuk Britaniyada 0,6 foizga, Avstraliyada 0,8 foizga, Yangi Zelandiyada 0,9 foizga, Malayziyada 0,14 foizga yuksalgan. Ushbu ko'rsatkich dunyo mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 0,7 foizni tashkil qilgani katta natijadir. Shuning uchun xam an'anaviy texnologiyalarga nisbatan AKTdan olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlik tezkor va katta hajmda bo'lishi mumkin.

AKT sektorining bilvosita samaradorligi mehnat unumdorligining yuksalishi, AKT potentsiali yuqori bo'lgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sishi, innovatsion klasterlar shakllanishi va axborot xizmatlari eksporti yuksalishi bilan ifodalanadi. AKT omilining iqtisodiy o'sishga ta'siri darajasi AKT bozori, mobil aloqa, keng polosali Internet va shaxsiy kompyuterdan foydalanish miqyosi va ularning davlat darajasida joriy qilinishi intensivligiga ham bog'liq.



1-rasm. AKTga investitsiyalarni 10 foizga oshirganda YaIMning o'sishi dinamikasi

Manba: Muallif hisob-kitoblari (www.itu.int - Xalkaro elektroaloqa ittifoqining rasmiy sayti va McKinsey & Company analysis kompaniyasining ma'lumotlari asosida).

Hozirgi kunda kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini keng qamrab olib, axborot maydonini kengaytirishga yordam bermoqda. Endi zamonaviy jamiyatni AKTning ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Dunyoning turli hududlarida AKT tarqalishi (foizda)

№	Hududlar	Uy xo'jaliklari-ning keng polosali internet bilan ta'minlanishi	Aholining mobil aloqa bilan ta'minlanishi	Uy xo'jaliklari-ning shaxsiy internet bilan ta'minlanish darajasi
1	Shimoliy Amerika	85	72	93
2	G'arbiy Yevropa	62	83	64
3	Sharqiy Yevropa	32	66	25
4	Lotin Amerikasi	29	66	21
5	Tinch okeani havzasi	17	48	14
6	Afrika	11	37	8

Manba: Muallif hisob-kitoblari (www.itu.int - Xalkaro elektroaloqa ittifoqining rasmiy sayti va McKinsey & Company analysis kompaniyasining ma'lumotlari asosida).

Milliy iqtisodiyotni axborotlashtirishda uy xo'jaliklarining o'rni ham muhim. Shaxsiy kompyuterlar bilan «100 uy xo'jaligidan Rossiya Federatsiyasida 64 tasi, Ukrainada 28 tasi, Armanistonda 29 tasi, O'zbekistonda 25 tasi, Ozarbayjonda 9 tasi, Qirg'izistonda 5 tasi ta'minlangan».

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo hududlari bo'yicha AKTdan foydalanish darajasi ko'rsatikchlariga ko'ra, Shimoliy Amerika davlatlarining boshqaruv va xo'jalik sub'ektlari hamda uy xo'jaliklarida ulardan foydalanish bo'yicha ancha yuqori. Ularda keng polosali Internet bilan uy xo'jaliklarining 85 foizi, mobil aloqa bilan aholining 72 foizi, uy xo'jaliklarning 93 foizi esa shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan. Tahlillarga ko'ra, G'arbiy Yevropa davlatlari xam AKTdan foydalanish buyicha ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Sharqiy Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlari bu borada erishgan ko'rsatkichlar esa deyarli bir xil darajada. Iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan Afrika davlatlari bu sohada xam rivojlangan davlatlardan bir necha barobar ortda qolgan.

Verizon Communications Inc. (Varizon Communications Inc.) - aloqa va axborot texnologiyalari xizmatlarini ko'rsatuvchi Amerika telekommunikatsiya kompaniyasi. Bu dunyodagi eng yirik telekommunikatsiya kompaniyalaridan biri.

Uy faoliyati Verizon Communications Inc. uyali aloqa, simli Internet va keng polosali tarmoqlar, shuningdek, korporativ mijozlar uchun raqamli televidenie va global ulanish xizmatlarini taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Kompaniya maishiy xizmatlar bozorida ham, korporativ mijozlar bozorida ham ishlaydi. U mobil telefonlar, planshetlar, uy interneti, raqamli televidenie, bulutli hisoblash, kiberxavfsizlik va mobil qurilmalarni boshqarish kabi keng turdagi mahsulot va xizmatlarni taklif etadi.

Verizon 1983-yilda Bell Atlantic Corporation nomi bilan tashkil etilgan. 2000 yilda kompaniya GTE korporatsiyasi bilan birlashdi va Verizon Communications Inc yangi nom oldi. Hozir u Nyu-Yorkda joylashgan va dunyoning ko'plab mamlakatlarida ishlaydi.

Verizon Communications Inc faoliyati shuningdek, yangi texnologiyalar va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga investitsiyalar kiradi. Kompaniya 5G tarmoqlarini joylashtirish, narsalar interneti (IoT) va boshqa ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Verizon Communications Inc. aloqa va axborot texnologiyalari sanoatining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etadi.

AT&T Inc. aloqa va Internet xizmatlarini taqdim etuvchi Amerika telekommunikatsiya kompaniyasi. Kompaniya mobil aloqa, statsionar aloqa, keng polosali Internetga ulanish va televidenie kabi keng turdagi xizmatlarni taklif etadi.

AT&T Inc. Operatsiyalari aloqa tarmoqlarini qurish va ularga xizmat ko'rsatish, telefonlar va boshqa qurilmalarni sotish, abonentlarga xizmatlar ko'rsatish kiradi. Kompaniya, shuningdek, Qo'shma Shtatlardagi eng yirik uyali aloqa provayderlaridan biri hisoblanadi.

Nokia korporatsiyasining faoliyati uyali aloqa va ma'lumotlar tarmoqlari uchun uskunalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Kompaniya tayanch stansiyalar, kommutatorlar va routerlar kabi simsiz tarmoqlar uchun infratuzilma yaratishga ixtisoslashgan.

Nokia shuningdek, mobil qurilmalar, jumladan, smartfonlar va klassik telefonlarni loyihalashtiradi va ishlab chiqaradi. Ilgari Nokia bozordagi eng yirik mobil qurilmalar ishlab

chiqaruvchilardan biri edi.

Nokia korporatsiyasi aloqa tarmoqlari, dasturiy ta'minot va mobil qurilmalar uchun uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Finlyandiya kompaniyasidir. «Nokia kompaniyasining asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

1. Tarmoq uskunalari: Nokia 5G, 4G/LTE va oldingi mobil tarmoqlar uchun uskunalar, shuningdek optik va IP tarmoq uskunalari o'z ichiga olgan tarmoq mahsulotlarining keng assortimentini taklif etadi.

2. Patent litsenziyasi: Nokia telekommunikatsiya sohasida eng yirik patent portfellaridan biriga ega. Kompaniya o'z patentlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarga litsenziyalaydi va litsenziyalarni sotishdan daromad oladi.

3. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish: Nokia tarmoqlar va aloqa xizmatlarini boshqarish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqadi. Bu tarmoqni boshqarish tizimlari, mobil qurilmalar dasturiy ta'minoti (operatsion tizimlar, ilovalar) va boshqa echimlarni o'z ichiga oladi.

4. Aloqa xizmatlari: Kompaniya uyali aloqa operatorlariga konsalting, tizim integratsiyasi, texnik xizmat ko'rsatish va texnik yordamni o'z ichiga olgan aloqa xizmatlarini taklif qiladi».

Telefonica SA - bosh qarorgohi Ispaniyada joylashgan xalqaro telekommunikatsiya kompaniyasi. Kompaniya aloqa xizmatlari va axborot texnologiyalari, jumladan, mobil va statsionar telefoniya, keng polosali internet, raqamli televideniye va bulutli xizmatlarni taqdim etadi. Telefonica shuningdek, dunyodagi eng yirik uyali aloqa operatorlaridan biri bo'lib, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Lotin Amerikasi kabi ko'plab mamlakatlarda mavjud. U aloqa va axborot texnologiyalari xizmatlarining keng spektrini taqdim etadi. Telefonica faoliyatiga quyidagilar kiradi:

1. Mobil aloqa: Telefonica dunyoning turli mamlakatlarida mobil aloqa xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniya uyali aloqa tarmoqlari, mobil Internet, ma'lumotlar xizmatlari va boshqa mobil xizmatlarga ulanishni taklif qiladi.

2. Ruxsat etilgan telefoniya: Mobil telefoniya tashqari Telefonica statsionar telefon aloqasi, Internetga keng polosali ulanish va raqamli televideniye kabi statsionar telefoniya xizmatlarini ham taqdim etadi.

3. Raqamli xizmatlar: Telefonica iste'molchilar va biznes mijozlar uchun raqamli xizmatlarni ishlab chiqadi va taqdim etadi. Bu raqamli televideniye, bulutli hisoblash, elektron tijorat va boshqa raqamli mahsulotlar va xizmatlar kabi turli sohalarga qaratilgan bo'lishi mumkin.

4. IT xizmatlari: Telefonica korporativ mijozlarga axborot texnologiyalari (IT) va aloqa xizmatlarini ham taklif etadi. Bu konsalting, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, tarmoq boshqaruvi va boshqa IT yechimlarni o'z ichiga oladi.

Ikkala kompaniya ham telekommunikatsiya sohasida faol bo'lib, iste'molchilar, tashuvchilar va korporativ mijozlarga turli xil mahsulot va xizmatlarni taklif qiladi.

Bundan tashqari, Nokia aloqa tarmoqlari uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqadi va konsalting va muhandislik xizmatlarini ko'rsatadi. Kompaniyaning butun dunyo bo'ylab mijozlari bor va aloqa sanoatining yetakchi o'yinchilaridan biri hisoblanadi.

SK Telecom Co., Ltd - Janubiy Koreya telekommunikatsiya kompaniyasi. Kompaniya turli aloqa xizmatlarini taklif etadi, jumladan, mobil aloqa, internet provayderi va raqamli televideniya. SK Telecom 5G kabi yangi aloqa texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishda ham yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, kompaniya kelajakdagi kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun turli startaplar va innovatsion loyihalarga faol sarmoya kiritmoqda.

Bugungi ilg'or xorij tajribasidan ma'lumki, telekommunikatsiya tizimi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barqaror ishlashi va rivojlanishini ta'minlovchi asosiy tizim hisoblanadi. Bugungi jahon aloqa tarmoqlari umumiy foydalanish tarmog'i, ajralgan holdagi tarmoq, texnologik tarmoqlar, maxsus aloqa tarmoqlari va boshqa elektromagnit tizimlari orqali ma'lumotlarni uzatuvchi tarmoqlarga ajralgan holda keng miqyosda taraqqiy etmoqda. Olimlar fikricha "Telekommunikatsiya - bu ma'lumotlarni elektr aloqa signallari yordamida simli, radio, optik yoki boshqa tarqatuvchi muhitlar orqali uzatish va qabul qilishdir. Ma'lum turdagi elektr aloqani ta'minlovchi texnik vositalar majmuasini telekommunikatsiya tizimlari deyiladi.

So'ngi yillarda axborot qonunchiligini shakllanishi izchil olib borildi, yangi qonunlar qabul

qilindi. Bugungi kunda axborot sohasida munosabatlarni muvofiqlashtirishning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonunlari xizmat qiladi;

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi global innovatsiyalarni keng joriy etish asosida ko'pgina davlatlar iqtisodiy o'sishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Milliy iqtisodiyotning ushbu sohasi ko'pgina davlatlarda endigina shakllanmoqda, lekin, rivojlangan davlatlarda esa u iqtisodiy o'sishning allaqachon lokomotivi bo'lib xizmat qilmoqda. AKT mehnat unumdorligini yuksaltirish va boshqa barcha resurslardan optimal foydalanishning asosiy omili bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotda ahamiyatli resurslarga aylanmoqda. Dunyoda AKT mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish bilan asosan Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi industrial davlatlar shug'ullanayotgan bo'lsa, ularning iste'molchilari sifatida esa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanmoqda.

AKT samaradorligi indeksi bo'yicha esa dunyoda Shvesiya, Singapur, Finlyandiya, Shveysariya, AQSh, Daniya va Kanada mamlakatlari ilg'orlik qilishmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, AKTning samaradorlik indeksi bozor muhiti, uni tartibga solish muhiti, infratuzilma, aholi tayyorgarligi, biznesning tayyorgarligi, AKTdan aholining, biznes vakillarining va davlatning foydalanish darajalari bilan ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.S.Gulyamov, R.X.Ergashev, S.N.Xamraeva Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma),- T.: 2020. -377 b.
2. Маркетинг предприятия сотовой радиотелефонной связи. Информационное пособие под редакцией А.Манина. – М.: Ассоциация-800, 1996, С. 56. Е
3. Жуковская И.Е. Совершенствование методологии использования информатсионно-коммуникационных технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc). – Ташкент. 2020, –260 с
4. Mixail Ferapontov, Generalnyy direktor kompanii Vest-Metatexnologiya.Business, N 1-2,2000 g. 32 с.
5. Karl Frapaolo, Osnovatel Delphi Consulting Group. jBusiness. N 1-2,2000 g. 46 с

УЎҚ 333.1

ТАДБИРКОРЛИКНИ СОЛИҚ ТИЗИМИ ОРҚАЛИ РАҒБАТЛАНТИРИШ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА ИҚТИСОДИЁТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИ

Р.А. Ботирова, доц., Наманган муҳандислик-қурилиш институти, Наманган
И. Қ. Сирожиддинов, доц., Наманган муҳандислик-қурилиш институти, Наманган

Аннотация. Мақолада тадбиркорликни солиқ тизими орқали рағбатлантириш борасида амалга оширилган чора-тадбирлар мазмуни ва йўналишлари илмий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, иқтисодий ривожланиш, тадбиркорликни рағбатлантириш, солиқлар, солиқ тизими, солиққа тортишнинг такомиллаштириш концепцияси.

Аннотация: В статье научно проанализированы содержание и направления реализованных мер по стимулированию предпринимательства через налоговую систему.

Ключевые слова: предпринимательство, экономическое развитие, стимулирование предпринимательства, налоги, налоговая система, концепция совершенствования налогообложения.

Abstract. The content and directions of the measures taken to encourage entrepreneurship through the tax system are scientifically analyzed in the article.

Key words: entrepreneurship, economic development, promotion of entrepreneurship, taxes, tax system, concept of improving tax collection.

Мамлакатимиз иқтисодиётини мутаносиб ривожлантириш, унинг самарали таркибий тузилмасини замонавийлаштириш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигига эришиш Ватанимиз тараққиёти ва халқ фаровонлигини таъминлашнинг муҳим шартларидан

ҳисобланади. Ушбу вазифалар эса, энг аввало, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантириш жараёнида ҳал этиб борилади.

Айниқса, глобаллашув таъсири ва оқибатлари сезилиб турган шароитларда иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш долзарб аҳамият касб этмоқда ва мамлакатимизда бу борада қатор асосий йўналишларда чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бунда хусусий сектор корхоналарини қўллаб-қувватлашда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, кооперация алоқаларини кенгайтириш, мустаҳкам ҳамкорликни йўлга қўйиш, мамлакатимизда ишлаб чиқарилган маҳсулотларга ички талабни рағбатлантириш масалалари алоҳида ўрин тутмоқда.

Иқтисодиётимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик салмоғи жадал ортиб бормоқда. Демак, мамлакатимиз иқтисодий тараққиётини мазкур секторсиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Шунинг учун “Ўзбекистон -2030” стратегиясида амалга ошириладиган муҳим тадбир – солиқ юкини енгиллаштириш, солиққа тортиш тизимини соддалаштириш ва унификация қилиш бўйича хўжалик тузилмаларини қўллаб-қувватлаш хусусий секторга ҳам тааллуқлидир.

1999 – 2008 йиллар мобайнида юридик шахслардан олинadиган фойда солиғи ставкаси 3,4 баробар, микрофирма ва кичик корхоналар учун ягона солиқ тўлови ставкаси 2,1 баробар, юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ ставкаси 1,1 баробар, ягона ижтимоий тўлов ставкаси 1,6 баробар пасайтирилган эди. Бунинг натижасида мамлакатимиздаги умумий солиқ юки ҳам йиллар давомида сезиларли равишда пасайди. Агар 2000 йилда республикаимиздаги солиқ юки 37,1 фоизни ташкил этган бўлса, 2009 йилга келиб 22,6 фоизни ташкил этди, яъни 1,6 баробардан кўпроқ қисқарди.

2017 йилдан мамлакатда тадбиркорликни рағбатлантиришда янги давр бошланди. Чунки, амалга оширилган ижобий ўзгаришларга қарамадан, амал қилиб келинадиган солиқ тизимидаги кўплаб ноаниқликлар борлиги бизнес, тадбиркорлик, инвестиция соҳалари рағбатига тўсиқ бўладиган эди. Чунинчи тадбиркор ўз корхонаси фойдаси ҳажмидан қатъи назар, товар айланмасидан 3,2 фоиз миқдорида давлат мақсадли жамғармаларига ажратма тўлаши лозим эди. Бу тўлов корхона даромадининг камида 21 фоизини қамраб олар эди ва молиявий ривожланишга тўсқинлик қилар эди, уларнинг рақобатбардош ва экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришига халал берарди.

Шунинг учун 2018 йил 29 июнда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5408-сон “Ўзбекистон Республикаси солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида” Фармони қабул қилинди. Мазкур концепция амалга оширилиши натижасида 2019 йилдан бошлаб солиқ турлари 19 тадан 15 тагача қисқарди Юридик шахслардан олинadиган фойда солиғи ставкаси 14 фоиздан 12 фоизгача, дивидендлар ва фоизлар кўринишидаги даромадлар бўйича фойда солиғи ставкаси 10 фоиздан 5 фоизгача пасайтирилди. 2019 йил 1 январдан бошлаб, ходимлар сонидан қатъи назар, товар айланмаси 1 миллиард сўмдан кўп бўлган хўжалик юритувчи субъектлар умумбелгиланган солиқ тўловига ўтди. Товар айланмаси 1 миллиард сўмдан 3 миллиард сўмгача бўлган корхоналар қўшилган қиймат солиғини ихтиёрий равишда соддалаштирилган тартибда тўлаши белгиланди.

Янги солиқ тизимида фойда солиғи 14 фоиздан 12 фоизга туширилди, тадбиркор фақат даромад олсагина фойда солиғи тўлайди. Иш ҳақидан 30 фоизгача олинadиган прогрессив даромад солиғи ўрнига ягона 12 фоизлик солиқ ставкаси жорий этилди ва 8 фоизлик ижтимоий суғурта бадали умуман бекор қилинди. Ягона ижтимоий тўлов ставкаси 25 фоиздан 12 фоизга туширилди. Шунингдек, яқка тартибдаги тадбиркорлар учун қатъий белгиланган солиқ ставкалари ҳам 30 фоизга пасайтирилди.

2022 йилда иобий ўзгаришлар давом эттирилди. 2023 йил 1 январдан бошлаб микробизнес учун айланмадан олинadиган солиқнинг амалдаги 4 фоиздан 25 фоизгача бўлган ставкалари ўрнига ягона 4 фоизли солиқ ставкаси белгиланди. Бунда олис ҳудудлардаги ва алоҳида тоифадаги тадбиркорлар учун амалдаги 1 ва 2 фоизли ставкалар сақлаб қолинди. Бу тоифадаги тадбиркорлар улар ихтиёрий равишда йилига 20 — 30 млн. сўм тўласа, бухгалтерия ҳисоби юритиш ва солиқ идораларига ҳисобот тақдим қилиш мажбуриятидан озод этилди.

Товар айланмаси 1 млрд. сўмдан ошиб, умумий солиқ тўлаш тартибига ўтган корхоналар бир йил давомида фойда солиғини 2 баробар кам тўлайди.

Тадбиркорларга молиявий енгилликлар 2023 йил 1 январдан кичикдан ўрта бизнесга ўтган корхоналар икки йил давомида фойда солиғининг фақат 50 фоизини тўлаши, мулкни суғурта қилиш харажатларининг 50 фоизи давлат ҳисобидан қоплаб берилиши, соддалаштирилган солиқ, молиявий ва статистика ҳисоботлари жорий этилиши, давлат харидларида 20 фоиз квота ўрнатилиб, ушбу харидлар доирасида уларга олдиндан 50 фоиз маблағ тўлаб берилиши кабиларда ҳам ифодаланди.

Тадбиркорлик рағбатлантирилишида 2023 йилдан бошлаб туман ва шаҳарлар мавжуд шароити, салоҳияти ва имкониятларидан келиб чиқиб, 5 та тоифага ажратилиши муҳим воқеа бўлди. Тоифага қараб, туманларнинг иқтисодий ривожланиши белгиланди. Тадбиркорларга субсидия, кредитлар ва компенсациялар тоифалардан келиб чиқиб ажратилади. Улар учун солиқ ставкалари табақалаштирилади. Бешинчи тоифага кирувчи, шароити энг оғир бўлган 20 та туман учун айланмадан олинадиган солиқ, фойда солиғи, ижтимоий солиқ ставкалари 1 фоиз миқдоридан белгиланди. Мазкур туманлардаги тадбиркорлар ер ва мол-мулк солиқлари бўйича ҳисобланган сумманинг атиги 1 фоизини тўлайди.

Тадбиркорликни рағбатлантириш чоралари изчил давом эттирилмоқда. 2023 йилнинг олти ойида 114 та лицензия ва рухсатнома бекор қилинди, 33 та фаолият тури хабардор этиш тартибига ўтказилди, тадбиркорлик субъектларига нисбатан янги турдаги жавобгарлик ва жазо чораларини жорий этишга уч йиллик мораторий ўрнатилди. Шунингдек, иш ҳақиға солиқ юки 2 баробар камайтирилди, кўшилган қиймат солиғи 20 фоиздан 12 фоизга туширилди. Солиқларнинг умумий сони 13 тадан 9 тага қисқарди, айрим солиқ ставкалари 2 баробар пасайтирилди. “Яшил” энергетикадан фойдаланаётган солиқ тўловчиларга 10 йилга қадар имтиёзлар жорий этилди.

Шундай қилиб, мамлакатимизда олиб борилаётган макроиқтисодий сиёсат доирасида иқтисодий ўсишни таъминлашда янги иш ўринларини ташкил қилиш, бандлик муаммосини ҳал этиш, аҳолининг даромадлари ва фаровонлигини оширишда тобора муҳим ўрин тутаётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантириш, рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. “Ўзбекистон – 2030” Стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5408-сон “Ўзбекистон Республикаси солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида” Фармони. 2018 йил 29 июнь.
3. Sirojiddinov, I. Q. (2021). Financial support for economic development of regions in the context of the coronavirus pandemic. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 187-190.
4. Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich. Features of accounting and financial control in small business.- International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876., Volume: 16 Issue: 04 in April 2022.
5. Sirojiddinov I., Botirova R., Xakimov A. Innovation as an important factor in the development of the agricultural sector of the region's economy Innovation as an important factor in the development of the agricultural sector of the region's economy- Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020.
6. Abdulazizovich, K. U. Improving the reflection of money and cash equivalent in the accounting balance. Dear Academicians & Research Scholars, 55.
7. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. American Journal of Economics and Business Management, 4(3), 1-8.

УЎК 001.1

ИННОВАЦИОН ЖАРАЁНЛАР ВА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМИЙ

ТАДҚИҚОТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ

З.Джаббарова, тадқиқотчи, Урганч Давлат Университети, Урганч

Аннотация. Мақолада инновацион жараёнлар ва олий таълим тизимида илмий тадқиқотлари самарадорлигини ошириш омиллари тадқиқ этилган. Урганч Давлат

Университетда амалга оширилган фундаментал, амалий ва инновацион лойиҳаларга баҳо берилган.

Калим сўзлар: Минтақа, инновация, фундаментал тадқиқотлар, амалий тадқиқотлар, интеллектуал салоҳият, трансфер марказлари, инновацион кластерлар, венчур ташкилотлар, стартап.

Аннотация. В статье рассматриваются факторы повышения эффективности инновационных процессов и научных исследований в системе высшего образования. Были оценены фундаментальные, практические и инновационные проекты, реализуемые в Ургенчском государственном университете.

Ключевые слова: Регион, инновации, фундаментальные исследования, прикладные исследования, интеллектуальный потенциал, трансфер-центры, инновационные кластеры, венчурные организации, стартап.


Abstract. The article examines the factors of increasing the efficiency of innovative processes and scientific research in the higher education system. Fundamental, practical and innovative projects implemented at Urganch State University were evaluated.

Keywords: Region, innovation, fundamental research, applied research, intellectual potential, transfer centers, innovation clusters, venture organizations, start-up.

Жаҳонда глобаллашув тенденцияларининг кескинлашуви, ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг мураккаблашуви ҳамда илм сиғимкорлиги юқори бўлган товар ва хизматлар диверсификациясининг кенгайиши инновацион жараёнларни жадаллаштириш тенденцияларини кучайтирмоқда. “Инновацион салоҳиятни ошириш бўйича жаҳонда етакчи 10 та мамлакат, яъни, Швейцария, Нидерландия, Швеция, Буюк Британия, Сингапур, АҚШ, Финляндия, Дания, Германия ва Ирландиялар йилига ЯИМга нисбатан ўртача 2,5-4,0 фоиз атрофида маблағлар ажратмоқда”[1]. Бугунги кунда жаҳон бозорида рақобатнинг тобора кучайиб бориши шароитида инновацион фаоллик даражасини оширишга таъим тизимида тадқиқотларни ривожлантириш орқали эришиш долзарб аҳамиятга эга бўлмоқда.

Жаҳонда олиб борилаётган илмий тадқиқотларда инновацион салоҳият, хусусан, илмий-техник, инновацион инфратузилма ва малакали ишчи кучи салоҳиятини ошириш ҳамда улардан самарали фойдаланиш масаласи глобал муаммо даражасида ўрганилмоқда. Жумладан, интеллектуал салоҳиятни ностандарт ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларни эътиборга олган ҳолда ошириш, инновацион инфратузилмалар фаолиятни молиявий рағбатлантириш, миллий инновацион тизимнинг самарали амал қилиш механизмларини хусусий ва давлат тузилмалари интеграциясини самарали уйғунлаштириш ҳамда инновацион салоҳиятни диверсификация қилиш орқали такомиллаштириш каби йўналишлардаги тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистонда иқтисодиёт соҳаларига инновацияларни кенг жорий қилиш, инновацион фаолият субъектлари, айниқса, университетлар, технопарклар, трансфер марказлари, инновацион кластерлар, венчур ташкилотлар, бизнес-инкубаторлар фаолиятини такомиллаштириш юзасидан кенг қамровли тадбирлар амалга оширилмоқда. Шунингдек, мамлакатда “...инновацион салоҳият ва инвестициявий жозибadorликни ошириш учун республикада венчур жамғармалари фаолиятини такомиллаштириш орқали портфель инвестициялар ҳажмини 2 баробарга ошириш”[2], “...глобал инновацион индексида Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилаш ва 2030 йилга қадар рейтингнинг ТОП-50 мамлакатлари қаторига кириш”[3] вазифалари белгилаб берилган. Бу борада миллий инновацион жараёнларни молиялаштириш механизмини такомиллаштириш, инновацион кластерларни давлат-хусусий шерикчилик асосида самарали шакллантириш, хусусий сектор ва хуудларнинг инновацион фаолиятини молиявий воситалар, оллий таълим тизими салоҳияти асосида рағбатлантириш каби йўналишлардаги тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.




1-расм. Ўзбекистон Республикасида илм-фан ва инновацияларга йўналтирилган сарф-харажатлар динамикаси (2018-2022 йиллар), млрд. сўм

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, республикада илм-фан ва инновацияларга йўналтирилган сарф-харажатлар 2017 йилдан буён сезиларли даражада ортди. Илмий ва инновацион фаолият бўйича дастур ва лойиҳаларни амалга ошириш учун давлат бюджетидан жами 1 488,3 млрд. сўм маблағ ажратилган(1-расм).

Республикада 2018-2022 йиллар мобайнида давлат бюджетидан илм-фан ва инновацияларга йўналтирилган сарф-харажатлар динамикаси ўсиш тенденциясига эга бўлди. 2018 йилда илмий ва инновацион фаолият бўйича дастур ва лойиҳаларни амалга ошириш учун давлат бюджетидан 198 млрд. сўм ажратилган бўлса, 2022 йилга келиб ушбу кўрсаткич 3 баробарга ошди, яъни 591 млрд. сўмни ташкил этди.

Инновацион маҳсулотлар, янги ишланмалар, материаллар ва технологияларни яратиш, жорий этиш, кўп миқдорда ишлаб чиқариш, тарқатиш ҳамда уларни тижоратлаштириш масалалари илмий-тадқиқот лойиҳаларини амалга ошириш натижасида ҳал қилиниши мазкур лойиҳаларни давлат буюртмаси асосида, иқтисодиётнинг реал секторларида мавжуд муаммо, ҳал қилиниши лозим бўлган илмий, амалий ва технологик ечимлар учун мақсадли ва тизимлаштирилган механизм ташкил қилиш заруриятини юзага келтирди.

Янги механизм жорий этилгандан сўнг 4 йилда танловлар доирасида 3500 дан ортиқ лойиҳа талабномаларини кўриб чиқиш натижасига кўра, 893 та лойиҳа молиялаштирилган бўлиб, шундан, умумий қиймати 1 092,2 млрд. бўлган 696 та лойиҳа амалда бажарилаётган лойиҳалардир. Ушбу лойиҳалар тематик мавзу (тармоқ эҳтиёжлари) бўйича эълон қилинган танловлар натижаларига кўра, бир мавзуга топширилган ҳар 3-4 та лойиҳадан энг яхши лойиҳаларни танлаб олиш асосида молиялаштирилган(2-расм).



2-расм. Ўзбекистон Республикасида 2018-2022 йилларда амалга оширилган лойиҳалар сони, dona

2018-2022 йилларда республикада амалга оширилаётган лойиҳалар борасида амалий лойиҳалар 500 та яъни, жами амалда бажарилаётган лойиҳаларнинг 72 фоизни ташкил этади. Ўз навбатида инновацион лойиҳалар 120 та (17 фоиз) ва фундаментал лойиҳалар 76 та (11 фоиз)ни ташкил қилди[4].


Ишлаб чиқариш тармоқларининг илмий ишланма ва инновацияларга бўлган эҳтиёжлари ҳамда мавжуд технологик муаммолари асосида Илмий-тадқиқот лойиҳаларига давлат буюртмасини шакллантириш йўлга қўйилди.

Яратилган тизим шакллантирилиши натижасида олиб борилган илмий-тадқиқот ва тажриба-синов ишларига иқтисодиёт тармоқлари томонидан ажратилган маблағ ҳажми 2019

йилдаги 57,8 млрд. сўмдан 2021 йилда 96,6 млрд. сўмга етказилиб, ўсиш даражаси 160 фоизни ташкил этди. Ушбу ишлар қаторида яратилган тажриба наъмуналари ва партияларга 2019 йилдаги 170 млн. сўмдан 197 млн. сўмга етказилди.

Инновацион лойиҳаларни амалга ошириш учун венчур молиялаштиришни тадбиқ этиш ва хўжалик субъектларининг молиявий ресурсларини жалб қилиш мақсадида республикада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 ноябрдаги ПФ-5583-сон “Тадбиркорлик ва инновациялар соҳасидаги лойиҳаларни молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонида мувофиқ венчур фондлари тузила бошланди.

Бугунги кунда республикада илмий-тадқиқот ва инновацион лойиҳаларни давлат-хусусий шерикликда молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш, халқаро молия ташкилотлари ва жамғармалари маблағларини кенг жалб қилиш ҳамда тадбиркорликка зарур кўникмаларни оширишга мамлакатда амал қилаётган олий таълим тизими, университетлар, технопарклар, инновацион марказлар ва ёшлар технопарклари салоҳиятидан самарали фойдаланиш асосида қўллаб-қувватлаш орқали эришишни талаб этмоқда. Уларни амалга оширишнинг энг самарали йўналишларидан бири бу – стартап лойиҳаларини молиялаштириш механизмининг такомиллаштириш ҳисобланади.



3-расм. Ўзбекистонда 2018-2022 йилларда мавжуд стартап лойиҳалар сони


Шу ўринда таъкидлаш жоизки, стартап лойиҳаларни молиялаштириш натижасида 150 дан ортиқ кичик ва ўрта бизнес корхоналари ташкил этилган бўлиб, ҳозирги кунда уларнинг жами ишлаб чиқариш қуввати 138,0 млрд. сўмдан ортиқ. Ушбу корхоналарда 200 дан ортиқ янги ва инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳамда хизматлар кўрсатиш йўлга қўйилган. (3-расм)

2018-2022 йилларда республикада стартап лойиҳалар сони ўсиш тенденциясига эга бўлган. 2018 йилда 22 тани ташкил қилган бўлса, 2022-йилда қарийб уч баробарга ошган, яъни 63 тага етган. Шу билан бирга 2020 йилда стартап лойиҳалар нисбатан пасайиш тенденцияси Covid-19 пандемияси даврига тўғри келади[5].

Стартап ва кичик инновацион корхоналарни ўзаро манфаатдор «пиноцитоз» (қамраб олиб, ўзлаштириш) механизми асосида инновацион кластерлар ёки йирик корхоналар ташкил этиш, мавжудларини модернизация қилиш инновацион ва юқори технологияли маҳсулотлар бозорининг кенгайишига олиб келади.

Жаҳон тажрибасига кўра кластерлаштириш етакчи давлатлар иқтисодиётининг тахминан 50 фоизни қамраб олган. АҚШда 55 фоиздан ортиқ корхоналарнинг фаолиятлари кластерлар доирасида олиб борилади. Кластерларнинг ЯИМдаги улуши эса 65 фоиздан ортади. Европа давлатларида 2 мингдан ортиқ кластерлар мавжуд бўлиб, бу кластерлар инновацион корхоналарни бирлаштириш орқали бир томондан самарадор инновацион фаолиятга эришаётган бўлса, иккинчи томондан, янги иш ўринлари ташкил қилиш билан аҳоли бандлигини 38 фоизга таъминламоқда.

Инновацион фаолият учун замонавий инфратузилмалар 2017 йил ҳолатига республика ҳудудларида илмий ишланмалар натижаларини амалиётга жорий қилиш, мавжуд илмий-техник ва инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш бўйича ягона майдонлар мавжуд бўлмаган(4-расм).



4-расм. Ўзбекистонда 2018-2022 йилларда мавжуд инновацион инфратузилмалар сони

2018-2022 йилларда республикада инновацион инфратузилмалар сони ўсиш тенденциясига эга бўлган. 2018-2019 йилларда амалдаги 1 тадан, 2020-2022 йилларда бир неча баробарга кўпайиши, яъни 6 тадан 19 тагача кузатилди[6].

Сўнгги беш йилликда иқтисодиётнинг жадал ривожланиши, илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясида, илмий-техник ишланмаларни давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларига жорий қилишда ва тижоратлаштиришда бир қатор амалий ва самарали янги механизмлар жорий қилинди. Натижада, 2018–2022 йилларда илмий ва илмий-тадқиқот муассасалари томонидан 455,1 млрд. сўм миқдорда илмий ишланмалар тижоратлаштирилди, шундан 366,8 млрд. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилди (324,8 млрд. сўмлик маҳсулот сотилган ва 88,3 млрд. сўмлик хизматлар кўрсатилган)[7].

Урганч Давлат Университетида ҳам 19.5 млрд. сўмлик 9 та фундаментал, 19 та амалий ва 10 та инновацион лойиҳалар бажарилди(1-жадвал).

1-жадвал

Урганч Давлат Университетида 2018-2023 йилларда бажарилган лойиҳалар ҳақида маълумот (млн.сум)

№	Лойиҳалар		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Фундаментал	сон	3	3	3	0	0	0
		ҳажми	754,3	1015,3	1097,7	0	0	0
2	Амалий	сон	2	2	2	2	3	8
		ҳажми	630,0	911,4	1000,3	1965,0	3027,0	11754,0
3	Инновацион	сон	1	0	0	1	2	6
		ҳажми	171,7	0	0	600,0	618,0	7748,0
4	Жами	сон	6	5	5	3	5	14
		ҳажми	1556,0	1926,7	2098,0	2565,0	3645,0	19502,0

Фикримизча, истиқболли ва жозибador лойиҳалар сонини ошириш учун фундаментал фан ва таълим интеграцион жараёнларни ривожлантириш ва фаоллаштириш, ОТМларнинг илмий муассасалар билан яқин ҳамкорлиги, инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқишда таълим тизими олимларининг ҳиссасини таъминлаш, ИТМ, тадқиқот лабораториялари ва бошқалар фаолияти самарадорлигини ошириш каби масалаларни давлат даражасида ечиш зарур.

Венчур инвестициялаш соҳасидаги мутахассислар тақчиллиги муаммосини ОТМ таълим дастурларига венчур инвестициялаш соҳасида мутахассислар тайёрлашга ихтисослашган йўналишларни киритиш эвазига ечиш мумкин. Бу йўналишлар инновацион, инженерлик ва бизнес- дисциплина кесишган жойда бўлиши керак. Улар куйидаги талабларга жавоб бериши керак:

- замонавий илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш учун мустаҳкам шароитлар яратиш ва уларни фан, таълим ва юқори технологиялар соҳаларига бириктирилиши;

- фан, таълим ва юқори технологиялар соҳасига ёшларнинг келиши ва жалб этилишини рағбатлантириш, илмий ва илмий-педагогик кадрларни янгилаш механизмини яратиш, илмий ва илмий-педагогик кадрлар ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишни илмий-методик жаҳатдан таъминлаш, фан, олий таълим, юқори технологиялар давлат сектори кадрларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва ижтимоий ҳимоя чораларини мувофиқлаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Innovation driving the energy transition. Francisco Boshell, Dolf Gielen, Roland Roesch, Arina Anisie, Alessandra Salgado, and Sean Ratka, International Renewable Energy Agency (IRENA) https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2018-chapter3.pdf

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2022. -B 19.
5. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2022. -B 34.
6. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2022. -B 34.
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2022. -B 41.

УЎҚ 33

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

И.И.Жураев, мустақил тадқиқот, ЎЗР Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, Тошкент

Аннотация. Ҳозирги кунда кўпгина иқтисодчилар, тадқиқотчилар кўпроқ ҳудуднинг иқтисодий хавфсизлигини ва уларнинг чегара қийматларини баҳолашни таҳлил қилмоқдалар. Чунки бу ҳудуднинг ривожланиши учун жуда муҳим бўлиб, мавжуд тажриба ва ўрганилаётган ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги ҳақиқий вазиятни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Биз мазкур мақолада Сирдарё вилоятининг иқтисодий хавфсизлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш бўйича тадқиқот ўтказиб барча иқтисодий кўрсаткичлар асосида таҳлил қилдик, ҳамда ўзимизнинг бир нечта тавсияларимизни келтириб ўтдик.

Калит сўзлар: иқтисодий хавфсизлик, қиймат, кўрсаткич, стандартлаштириш, баҳолаш, импорт, экспорт.

Аннотация. В настоящее время многие экономисты и исследователи все активнее анализируют экономическую безопасность региона и оценивают ее предельные значения. Поскольку это очень важно для развития региона, оно осуществляется с учетом имеющегося опыта и реальной ситуации в социально-экономическом развитии изучаемой территории. В данной статье мы провели исследование по оценке и анализу экономической безопасности Сырдарьинской области, проанализировали ее по всем экономическим показателям и дали ряд рекомендаций.

Ключевые слова: экономическая безопасность, стоимость, показатель, стандартизация, оценка, импорт, экспорт.

Abstract. Currently, many economists and researchers are increasingly analyzing the economic security of the region and assessing its maximum values. Since this is very important for the development of the region, it is carried out taking into account existing experience and the real situation in the socio-economic development of the study area. In this article, we conducted a study to assess and analyze the economic security of the Syrdarya region, analyzed it according to all economic indicators and made a number of recommendations.

Key words: economic security, cost, indicator, standardization, assessment, import, export.

Сирдарё вилоятида иқтисодий хавфсизликнинг чегара қийматларини ишлаб чиқиш учун, аввало қуйидаги умумлаштирилган кўрсаткичларни амалга ошириш лозим. Булар қуйидагиларни ташкил этади:

- худудий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиш қобилияти;
- молия тизимининг барқарорлиги;
- илмий салоҳиятни қўллаб-қувватлаш;
- муҳим маҳсулот турларини импорт қилиш.

Тадқиқотимиз жараёнида шуни гувоҳи бўлдикки, мураккаб, муаммоли вазиятларнинг олдини олиш учун энг аввало илгари белгиланган чегара ва ҳақиқий қийматларни битта кўрсаткичга бирлаштириш лозим. Асосийси, олинган қийматларни стандартлаштириш бўйича таҳлил қилмасдан таққослаш мумкин эмас, шунинг учун нормаллаштириш механизми

сифатида биз норматив қийматнинг ҳақиқийга нисбатини ҳисоблаймиз. Ҳисоблаш жараёнида зарурий тахминларни, айниқса прогнозни ҳисобга олиш, ўсиш тенденцияни ижобий деб тавсифловчи омилларни иқтисодий хавфсизлик мезонлари доирасида тўғридан-тўғри ҳисоблаб нисбат чиқариш лозимдир.

Масаланинг яна бир муҳим томони шундаки, агар биз олинган натижаларни бирлаштирсак, ҳамда барча омилларнинг умумий натижага таъсирининг эквивалентлигини ҳисобга олсак, ўртача кўрсаткичлар келиб чиқади. Биз ўз ишимизда ҳисоблаш натижасини белгиладик, энг асосийси биз келажақда уни қисқартирилган номи билан ҳудуднинг иқтисодий хавфсизлиги даражасининг ажралмас кўрсаткичи сифатида ишлатамиз, чунки у стратегик йўналишлар бўйича гуруҳланган хусусий кўрсаткичлар асосида шаклланади.

Тадқиқот ишимизда асосий ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар бўйича Сирдарё вилояти ривожланишининг диагностикасини ўтказиш бизга асосий иқтисодий комплексларни аниқлашга, шу билан бирга республиканинг иқтисодий хавфсизлигини кейинги кўрсаткичлар бўйича баҳолашга кенг имкон берди.

Саноат соҳаси ҳам етарли даражада ривожланган бўлиб, Сирдарёда ишлаб чиқариладиган тери ва теридан тайёрланган буюмларнинг умумий ҳажми республикада ишлаб чиқариладиган мазкур товарларнинг 16 фоизини ташкил этади. Шунингдек, ушбу ҳудудда республикада ишлаб чиқариладиган асосий фармацевтика ва препаратларнинг деярли 9 фоизи, кийим-кечак маҳсулотларининг 5,5 фоизи ишлаб чиқарилади. Сирдарё вилоятининг ер майдони ва аҳоли сонини ҳисобга олганда, бу юқори кўрсаткичлар ҳисобланади. Статистик маълумотларга қараганда полиз маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича республикада етакчилардан бири ҳисобланган. Бундан ташқари, ушбу вилоятда йирик ва муваффақиятли қўшма лойиҳалар амалга оширилган. Мазкур лойиҳалар асосида ишлаб чиқарилган маҳсулотлардан бири, Сирдарё керамик плиткалари мамлакатнинг деярли барча бурчакларида сотилади, улар ҳатто қўшни Қозоғистон ва Тожикистон истеъмолчиларига ҳам сифати билан донг таратган. Бу Сирдарё вилоятидаги Peng-Sheng Ўзбекистон-Хитой қўшма саноат комплексида амалга оширилаётган 30 лойиҳадан биттаси ҳисобланади. Қисқа вақт ичида бу ерда умумий майдони 220 минг квадрат метр бўлган ишлаб чиқариш иншоотлари ва ёрдамчи мажмуалар қурилди. Бундан ташқари, темир йўл линияси, газ тақсимлаш ва электр подстанцияси, оқова сувларни тозалаш тизими, маҳсулотларни синовдан ўтказиш ва сертификатлаш маркази, божхона омборлари ва бошқа инфратузилма объектлари қурилди.

Ҳозирги кунда мазкур мажмуада 1500 га яқин киши иш билан таъминланган 10 та йирик корхона мавжуд. Ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг асосий турлари – керамик плиталар, смесителлар ва сантехника маҳсулотлари, пойабзал, чарм буюмлар, уяли телефонлар ва турли хил алоқа мосламалари, уй ҳайвонлари учун озукалар ва кўплаб бошқа турдаги маҳсулотлардир.

Ҳаммамизга маълумки, Сирдарё вилоятининг энг йирик саноат корхонаси – Сирдарё иссиқлик электр станциясидир (ИЭС). Ўрнатилган қуввати 3000 МВтни ташкил қиладиган ва Марказий Осиёнинг энг йирик электр станцияси ҳисобланадиган бу “гигант”нинг қурилиши 1966 йилда бошланиб 1981 йилда яқунланган. Ушбу ИЭСда Ўзбекистонда ишлаб чиқариладиган умумий электр энергия ҳажмининг учдан бир қисми ишлаб чиқарилади.

Кичик тадбиркорлик Сирдарё вилояти иқтисодиётининг ривожланишида муҳим омиллардан биридир. Ҳар 1000 нафар аҳоли сонига нисбатан ҳисоблаганда мазкур вилоятдаги кичик тадбиркорлик субъектларининг сони республикадаги ўртача кўрсаткичга нисбатан 30 фоизга юқори. Ушбу ҳудуд иқтисодиётида кичик тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши республикадаги ўртача кўрсаткичга нисбатан 30 фоизга, жами экспорт ҳажмидаги улуши эса 40 фоизга юқори.

	Ўзбекистон/ Сирдарё				
	2018	2019	2020	2021	2022
Аҳоли сони (минг киши)	33255,5/829,9	33905,2/846,3	34558,9/860,9	35271,3/878,6	36024,9/896,6
Ишлаб чиқариладиган электр энергияси	14 518,5/ 1 791,0	22 014,7/ 2 949,5	27 375,3/ 3 573,1	30 815,5/ 4 189,5	37 653,7/ 5 053,8
Чарм ва чарм маҳсулотлари	1 647,9/268,5	1 588,8/108,0	1 616,9/95,3	2 083,9/249,8	2 220,6/238,1
Фармацевтика маҳсулотлари	1 612,4/141,3	1 945,8/243,3	2 543,5/270,9	3 903,0/221,2	3 402,0/340,3
Кийим кечак маҳсулотларини ишлаб чиқариш	7 732,2/411,0	9 165,8/463,6	10 402,4/	13 592,8/	17 264,8/

			240,1	475,5	294,0
Бажарилган ишлар:					
Бино ва иншоотлар қурилиши- млрд. Сум	37490,5/697,4	51232,5/ 1311,1	65677,5/ 1662,6	75339,7/ 1737,5	93504,8/ 2014,4
Турар-жой бинолари- ўйлар сони	79737/ 1213,0	80223/ 1822,0	61581/ 880,0	64640/ 778,0	65723/ 484,0
Мақтаб қурилиш – минг ўқув ўрни	80,4/1,1	114,1/1,3	119,3/3,4	154,3/1,9	165,4/2,7
Сув тармоқлари-км	3836,0/59,0	4879,2/164,0	5640,0/389,8	3213,2/1,8	4563,7/35,3

Биз ишимизда Сирдарё вилоятининг иқтисодий кўрсаткичлар индикаторларини ҳисоблаб, йиллар орасидаги фарқларни таҳлил қилдик, ҳамда олдинги берилган маълумотларни ҳисобга олган ҳолда, хавфнинг ўсиш даражаларини олинган натижалар билан тавсифладик. Сирдарё вилоятининг асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари ривожланишидаги ижобий тенденциялар Ўзбекистон Республикасининг ривожланиши учун муддатли қулай иқтисодий прогнозни таклиф қилади, умуман ҳудуддаги бу ҳолат республика учун ҳам қулай иқтисодий барқарорликни таъминлайди.

Сирдарё вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини ифода этган мазкур жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичини ҳисоблаш асосан динамикасини намоён қилади, ҳамда ҳудуднинг кучли ва заиф томонларини, ҳудудни ривожлантириш учун имкониятлар, таҳдидларни олдини олиш имконини беради. Ундан ташқари жадвалда кўрсатилган натижалар бўйича, ҳудуд иқтисодий ўсишнинг ижобий истиқболларига эга эканлигини гувоҳи бўлдик.

Энг аввало вилоят иқтисодий соҳасининг ўсиши ҳамда ривожланиши учун ҳудуддаги асосий кластерларнинг рақобатбардошлиги ва маҳсулдорлигини оширишда янги имкониятларни яратиш муҳим ҳисобланади. Электр энергетикаси, нефт-кимё, агросаноат, қурилиш, машинасозлик мажмуалари, тармоқ савдоси, шунингдек, ёғочни қайта ишлаш ва ёғоч маҳсулотларини ишлаб чиқариш каби соҳаларни ривожлантириш юқорида қайд этилган муаммоларни ҳал қилишда ёрдам беради.

Сирдарё вилоятининг табиий-иқлим ресурслари, иқтисодий ривожланиш учун sanoatning устуворлиги, тегишли институтларнинг ташкил этилиши ҳам туризмни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитларни яратади. Ундан ташқари ҳудуднинг потенциал имконияти, яъни инсон капитали сифатини яхшилашдир. Сирдарё вилоятидаги яхши демографик вазият мустаҳкам оила институти билан бирга инсон салоҳиятини ривожлантириш учун тегишли шарт-шароитларни яратади. Биз тадқиқот ишимизда Сирдарё вилоятининг иқтисодиёт бюджетини ривожлантиришни чеклайдиган муҳим омилларга ҳам алоҳида тўхталиб ўтдик. Булар ялпи ички маҳсулотнинг кичик ҳажми ва субсидияланган бюджет бўлиб, малакали кадрлар етишмаслиги, молия секторининг ривожланмаганлиги, қурилиш материаллари нархларининг ошиши кабилардир. Айниқса Сирдарё вилоятида солиқ йиғишнинг пастлиги ва солиқ маъмуриятининг эътиборсизлиги, ялпи ички маҳсулотнинг нисбатан кичик ҳажми бюджетни субсидиялашнинг асосий сабаби бўлиб қолмоқда.

Ҳозирги кунда Сирдарё иқтисодиётининг деярли бутун реал сектори малакали техник мутахассислар ва тажрибали менежерларнинг кескин танқислигини бошдан кечирмоқда. Мазкур муаммо энг асосийси маҳсулот сифати ҳамда меҳнат унумдорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Мазкур юзага келган муаммо орқали ишсизликнинг юқори даражаси намоён бўлмоқда, бу эса бу даромаднинг муқобил шаклини топиш учун ҳудуддан бошқа ҳудудларга, айниқса чет элларга малакали мутахассисларнинг чиқиб кетишига олиб келади. Энг асосий муаммолардан бири ҳозирги кунга қадар малакали кадрларни сақлаб қолиш ва уларни иш билан таъминлаш бўйича чора-тадбирлар ҳали ҳам аниқ ишлаб чиқилмаган.

Сирдарёнинг пул-кредит ва банк тизимларининг ривожланмаганлиги, шу билан бирга банк инфратузилмасининг етарли даражада тараққий этмаганлиги молия тизимида капитал етишмовчилигини келтириб чиқаради, бу эса биринчи галда инвестиция ва инновацион лойиҳаларни амалга оширишга тўсқинлик қилади.

Таҳлиллар шуни намоён қилдики, Сирдарё вилоятининг иқтисодий хавфсизлигига таъсир этувчи омиллар муаммолар мавжудлигини кўрсатди. Мавжуд бўлган ресурслардан самарали фойдаланиш учун кўп сонли асосий муаммоларни аниқлаш, ҳамда уларни ҳал қилишга ҳаракат қилиш керак.

Биз тадқиқот ишимизда Сирдарёда иқтисодий хавфсизликни яхшилашга тўсқинлик қиладиган асосий муаммоларни кўрсатиб ўтдик. Буларга қуйидагилар қиради:

- хусусийлаштириш масалаларига оид муаммоларнинг тўлик ҳал этилмаганлиги;
- бюджетдан молиялаштиришни таъминлайдиган ҳудудни ривожлантириш ва тиклаш бўйича асосий давлат дастурларини амалга ошириш бўйича мавжуд муаммоларни ҳал этишнинг сустиги;
- янги саноат объектларини ишга туширишга имкон бермайдиган ўз ишлаб чиқариш қувватларининг етишмаслиги.

Бу муаммолар иш ўринларини яратиш суръати республика аҳолисининг ўсиш суръатларидан анча орқада қолаётгани билан янада оғирлашмоқда. Аммо Сирдарё вилоятининг иқтисодий хавфсизлиги даражасини баҳолашни таҳлил қилишда шуни таъкидлаш керакки, ҳудудда ижобий ҳолатлар салбий ҳолатларга нисбатан анча юқори, энг асосийси ривожланиш кундан-кунга сезиларли даражада яхшиланмоқда.

Мамлакатда иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг асосий шarti ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқариш, бозор иқтисодиётини давлат томонидан тартибга солишнинг самарадорлигини ошириш муҳим ҳисобланади.

Ижтимоий соҳани тартибга солишда республика, ҳудудий ва маҳаллий бошқариш даражалари мавжуд. Ҳудудларнинг ижтимоий ривожланишини давлат томонидан тартибга солиш территориал Давлат дастурлари орқали амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. “Иқтисодий хавфсизлик” фанидан ўқув-услубий мажмуа. - Тошкент, 2018.
2. Абулқосимов Ҳ.П. Шақлланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. – Т.: ТМИ нашриёти, 2005. 8-б.
3. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/6235/>.

УЎК 331.101.262

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ҲУДУДЛАРИДАГИ ИНСОН КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ

Х.З.Зарипов, ўқитувчи, Урганч давлат университети, Урганч

Аннотация. Ушбу мақолада инсон капиталини баҳолаш борасидаги ёндашувлари ҳақида сўз боради. Халқаро тадқиқот тажрибаси, баҳолашнинг стандарт халқаро методологияси, шунингдек, минтақавий кесимда Ўзбекистон Республикасининг инсон капиталини минтақавий даражада баҳолаш методологияси таклиф этилади. Муаллифлик методологияси асосида Ўзбекистон Республикаси ҳудудларидаги инсон капитали баҳоланди.

Калит сўзлар: инсон капитали, инсон капитали индекси, таълим, соғлиқни сақлаш, турмуш даражаси

Аннотация. В статье представлен обзор подходов к оценке человеческого капитала. С учетом международного исследовательского опыта, единой международной методологии оценки, а также в региональном разрезе предложена методика оценки человеческого капитала Республики Узбекистана на региональном уровне. На основе авторской методологии проведена оценка человеческого капитала регионов Республики Узбекистан.

Ключевые слова: человеческий капитал, индекс человеческого капитала, образование, здравоохранение, уровень жизни

Abstract. The article presents an overview of approaches to assessing human capital. Taking into account international research experience, a unified international assessment methodology, as well as the availability of statistical indicators of the Republic of Uzbekistan in the regional context, a methodology for assessing the human capital of the Republic of Uzbekistan at the regional level is proposed. Based on the author's methodology, an assessment of the human capital of the regions of the Republic of Uzbekistan was carried out.

Keywords: human capital, human capital index, education, healthcare, standard of living

Минтақанинг рақобатбардошлиги бир қатор омилларга боғлиқ, жумладан иқтисодий ва географик жойлашуви, инфратузилманинг ривожланиши, минтақада яшовчи инсон капиталининг ривожланиш даражаси каби омиллар шулар жумласидандир. Инсон капиталининг ривожланиш даражаси минтақанинг илмий, техник ва инновацион ривожланишига таъсир қилади. Инсон капитални ривожлантириш даражаси юқори бўлган минтақаларда мақбул институционал тизим барпо этилмоқда, бу эса меҳнат ресурсларининг юқори сифати ва асосий капиталдан самарали фойдаланиш билан биргаликда минтақанинг жадал иқтисодий ўсишига олиб келмоқда.

XX асрнинг 60-йилларида инсон капитали назарияси Гарри Беккер ва Теодор Шульц томонидан ривожланиш назариясининг мустақил иқтисодий оқими сифатида ривожлантирилди. Иқтисодий назария тамойилларини соғлиқни сақлаш, таълим ва миграция муаммоларига қўллаш назариянинг манбаси бўлди.

Теодор Шульц ўз тадқиқотларида иқтисодиётнинг (уруш ёки инқироздан кейин) тикланиш тезлиги аҳоли саломатлиги ва таълими билан боғлиқлигини таъкидлади. Мисол тариқасида у иккинчи жаҳон урушидан кейин ГФР ва Япония иқтисодиётининг жадал тикланиши ва Буюк Британия иқтисодиётининг секин тикланишини кўриб чиққан. Шульц ўз асарларида таълим, яъни маълумотли бўлиш одамлар меҳнатини янада унумли қилишини, соғлиқни сақлашнинг юқори даражада бўлиши эса таълимга инвестицияларни ҳимоя қилиши ва ишлаб чиқариш имкониятини оширишини кўрсатди. Унинг фикрига кўра, инсон капитали маҳсулдорлик, унумлилик характерининг шарурий хислатларига эга: тўпланиши ва такрор ишлаб чиқарилиши мумкин.[1] Гари Беккер ўз асарларида инсон хатти-ҳаракатларини тушуниш учун яхлит асос яратади. Унинг ҳисоб-китобларига кўра, АҚШ да инсон капиталига инвестициялар қимматли қоғозларга инвестицияларга қараганда юқори фоиз меъёрини келтириб чиқаради.[2] Инсон капитали деганда Беккер ҳар бир кишида бўлган билимлар, кўникмалар ва мотивациялар захирасини назарда тутди. Таълим, профессионал тажриба тўплаш, соғлиқни сақлаш, географик ҳаракатчанлик ва ахборот излашга инвестициялар бўлиши мумкин.[3]

Инсон капитали самарадорлик индикаторлари сифатида қийматни баҳолаш, қараш, ривожлантириш ва сақлаш харажатларининг ўсиши, инвестициялар самарадорлик коэффициенти, қийматни баҳолашнинг ўсиш бирлигига «инсон капитали» ишлаб чиқариш омили ҳисобига ишлаб чиқарилган маҳсулотни сотишдан олинган тушумнинг ўсиши, молиявий натижанинг ўсиш суръати, инсон капиталига инвестициялардан соф дисконтланган даромад қиймати, дисконтланган қийматни баҳолашдан фойдаланишни таклиф қилади.[4]

Шунингдек, микродаражада инсон капитални алоҳида шахс даражасида ҳам баҳолаш ва таҳлил қилиш мумкин. Бу ҳолатда баҳолаш предмети, юқорида айтиб ўтилганлардан ташқари, базавий ва ривожланган инсон капитали [5], шунингдек, номоддий актив сифатида инсон капитали [6] ҳисобланади.

Ўзбекистонда инсон капитални ривожлантириш бўйича тадқиқотлар олиб борган иқтисодчилар орасида иқтисодиёт фанлари доктори К. Х. Абдурахмонов инсон капитали кўрсаткичларининг макро ва микро даражадаги ўзгаришини таҳлил қилган. Ўзбекистоннинг самарали ривожланиши учун илмий-ишлаб чиқариш сиёсатининг устувор йўналишлари, стратегияси ва уни амалга ошириш механизмлари тўғри белгиланганлигини асослаб берди.[7]

Инсон капиталининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг инновацион омили сифатида ўзаро боғлиқлигини тавсифловчи ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг ривожланишини аниқлашга бағишланган иқтисодиёт фанлари номзоди Г.З.Убайдуллаевнинг тадқиқотида Ўзбекистонни инсон капитални ривожлантиришга қаратилган ижтимоий-иқтисодий ривожланиш тушунчалари ва стратегияларига эътибор қаратилган.[8]

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Макроиқтисодий ва ҳудудий тадқиқотлар институти тадқиқотчиси Султонов Ф.Р. инсон салоҳиятини шакллантиришда давлат томонидан тартибга солиш муҳимлигини тасдиқлайди ва Ўзбекистонда инсон капитали даражасини ошириш учун олий таълимнинг фундаментал асослари ва универсаллигини сақлаб қолган ҳолда олий таълим муассасаларида ўқитиш усуллари такомиллаштириш

муҳимлигини таъкидлайди. Бундан ташқари, инсон капитални шакллантиришга республиканинг давлат дастурларида олий таълимни ривожлантиришнинг танлов асосида амалий ва фундаментал тадқиқотларни молиялаштиришни кўпайтириш ва университетлар таркибини ўзгартириш каби жиҳатларини ҳисобга олиш орқали ёрдам берилади.[9]

Бутун мамлакат бўйлаб инсон капитални баҳолашнинг ягона методологияси 1950-йиллардан бошлаб Бирлашган Миллатлар ташкилоти ташкил этилиши билан ишлаб чиқиладиган бўлди. Миллий ҳисобларнинг стандарт тизими дунёнинг турли мамлакатларидаги индивидуал кўрсаткичларни таққослашга имкон берди. 1990-йилларда Жаҳон банки миллий бойликни баҳолаш методологиясини шакллантирди. Инсон капитали унинг таркибий қисмларидан бири сифатида белгиланди [1].

Бугунги кунда барқарор ривожланиш концепцияси доирасида Бирлашган Миллатлар ташкилоти ва Жаҳон банки инсон тараққиёти индексидан дунё минтақалари ва мамлакатларининг турмуш даражасини баҳолаш воситаси сифатида фойдаланмоқда. 2010 йилда баҳолаш методологияси сезиларли ўзгаришлар бўлди. Бунга кўшимча равишда кўшимча кўрсаткичлар аниқланди [1]:

- кўп ўлчовли қашшоқлик индекси;
- гендер тенгсизлиги индекси.

Халқаро тадқиқот тажрибаси, ягона халқаро баҳолаш методологияси, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг статистик кўрсаткичлари мавжудлигини ҳисобга олган ҳолда минтақавий кесимда Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг инсон капитални баҳолаш учун қуйидаги методик воситалардан фойдаланиш таклиф этилади.

Турмуш даражаси, демография, меҳнат бозори, таълим, соғлиқни сақлаш, ахборотлаштиришни тавсифловчи бир қатор кўрсаткичлардан фойдаланишга асосланган муаллифнинг баҳолаш методологияси ҳар бир минтақанинг инсон капитали ривожланишининг шартлари ва кўрсаткичларини аниқлашга, шунингдек уларни бир-бири билан таққослашга ва айрим минтақаларнинг муаммолари ва заиф томонларини аниқлашга имкон беради.

Кўрсаткичларни танлаш мезонларидан бири уларнинг жамоатчилик учун очиқ ҳолатдалиги, шунингдек кўрсаткичларни қийматларини танлашда Ўзбекистон Республикасининг расмий статистика маълумотларида ҳудудлар бўйича тақдим этилиши ҳисобга олинади.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйлаб инсон капитални баҳолаш кўрсаткичлари

№	Кўрсаткичлар	Характерли
1.	Вилоят аҳолисининг умумий даромадлари, минг сўм	Мутлақ кўрсаткич. Ижтимоий фондлар ҳисобидан аҳолига кўрсатиладиган бепул ёки имтиёзли хизматлар нархини ҳисобга олган ҳолда, минтақа аҳолисининг барча даромад манбалари бўйича пул ва табиий даромадларининг умумий миқдорини тавсифлайди
2.	Минтақанинг ҳар 1000 та нисбатан аҳолига туғилиш даражаси, ппм	Нисбий кўрсаткич. Минтақанинг ҳар 1000 аҳолига туғри келадиган йиллик туғилиш сони сифатида ҳисобланади
3.	Минтақанинг 1000 аҳолига ўлим даражаси, ппм	Нисбий кўрсаткич. Минтақадаги ҳар 1000 кишига туғри келадиган ўлимларнинг йиллик сони сифатида ҳисобланади
4.	Бир йилда аҳолининг умумий сонидан кўчиб келганларнинг улуши, киши	Нисбий кўрсаткич. Бу минтақага йилига келган кишилар сонининг минтақа аҳолига нисбати сифатида ҳисобланади
5.	Бир йилда аҳолининг умумий сонидан чиқиб кетганларнинг улуши, киши	Нисбий кўрсаткич. Бир йилда минтақадан кетган кишилар сонининг минтақа аҳолига нисбати сифатида ҳисобланади
6.	Минтақа аҳолисининг зичлиги, киши	Нисбий кўрсаткич. Минтақанинг 1 км ² ҳудудига туғри келадиган аҳоли сонини тавсифлайди
7.	Ҳудудда бандлик даражаси, %	Нисбий кўрсаткич. Иш билан банд бўлган аҳоли сонининг меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сонига нисбати сифатида ҳисобланади
8.	Ҳудудда ишсизлик даражаси, %	Нисбий кўрсаткич. Ишсизлар сонининг минтақадаги иқтисодий фаол аҳоли сонига нисбати сифатида ҳисобланади
9.	Иқтисодий фаол аҳолининг йил	Нисбий кўрсаткич. У маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар

Йил	2021		2021		2021		2021		2021	
Қорақалпоғистон Республикаси	20,8	13	4,5	7	11826	4	18588	4	11,5	13
Андижон	26,3	7	5,1	3	6965	12	9796	13	741,4	2
Бухоро	22	12	4,7	6	6672	13	10991	11	48,4	12
Жиззах	29	2	4,2	9	8993	10	11484	9	66,5	11
Қашқадарё	28,8	3	4,4	8	11580	5	20726	3	116,7	10
Навобий	26	8	4,7	6	9524	9	11026	10	9,1	14
Наманган	27,6	5	4,7	6	3142	14	5953	14	385,4	4
Самарқанд	27,7	4	4,7	6	9591	8	17636	6	235,4	6
Самарқанд	29,9	1	4,7	6	11911	3	17699	5	133,4	9
Сирдарё	26,7	6	4,8	5	8714	11	10117	12	201,1	7
Тошкент в	24,9	10	6,2	2	35265	2	40333	2	195,1	8
Фарғона	25,7	9	4,8	5	10857	6	14868	7	565,1	3
Хоразм	22,3	11	5	4	9855	7	12202	8	312,9	5
Тошкент шаҳри	22,3	11	6,7	1	111919	1	73660	1	7554,4	1

"Аҳоли жон бошига жами даромадлар" кўрсаткичи бўйича мутлақ етакчи Тошкент шаҳри бўлиб, унинг қиймати Ўзбекистон Республикаси бўйича ўртача кўрсаткичдан 2 баравар юқори. Хоразм вилояти минтақалар орасида кўрсаткич қиймати бўйича бешинчи ўринни егаллайди (Республика бўйича ўртача кўрсаткичдан юқори). Сурхондарё, Наманган, Фарғона вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикасида аҳоли жон бошига энг кам дарома кўрадиган ҳудудлар ҳисобланади.

4-жадвал

2021-йилда Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида аҳоли бандлиги кўрсаткичлари [4]

	Минтақадаги бандлик даражаси, %	Даража	Минтақадаги ишсизлик даражаси, %	Даража	Минтақанинг иқтисодий фаол аҳоли сони, минг кишига нисбатан	Даража	Минтақа аҳолисининг иқтисодий фаоллиги	Даража	Минтақадаги меҳнат ресурслари сони, минг кишига нисбатан	Даража
Қорақалпоғистон Республикаси	61,1	13	10,1	2	781,5	11	67,9	14	1066,1	10
Андижон	68,2	4	9,9	4	1403,1	4	75,7	3	1745,3	5
Бухоро	67,2	6	9,8	5	862,2	9	74,5	6	1072,3	9
Жиззах	67,5	5	10,1	2	612,6	12	75,1	4	782,6	12
Қашқадарё	62,2	12	10,2	1	1339,5	6	69,2	13	1811	4
Навобий	68,3	3	8,8	8	450,2	13	74,9	5	564,5	13
Навобий	65,5	8	9,7	6	1224,1	7	72,6	8	1586,1	7
Самарқанд	63,7	11	9,9	4	1599,7	2	70,7	12	2122	1
Сурхондарё	64,5	9	10,2	1	1115,8	8	71,8	10	1464,6	8
Сирдарё	64,5	9	10,2	1	372,1	14	71,9	9	489,4	14
Тошкент	72,4	2	9,4	7	1348,6	5	79,8	2	1622,5	6
Фарғона	66,2	7	10	3	1648,8	1	73,6	7	2083,9	2
Хоразм	64	10	9,9	4	806,4	10	71,1	11	1047,1	11
Тошкент шаҳри	81,3	1	7	9	1416,1	3	87,4	1	1877,5	3

Тошкент шаҳри ўлим даражаси, бир йилда келган ва кетган аҳоли сони ва аҳоли зичлиги бўйича мутлақ етакчи ҳисобланади. Тошкент вилоятида ўлим даражаси, бир йилда кўчиб келган ва кетганлар сони бўйича юқори ўринларда туради. Туғилиш коэффициенти бўйича

йетакчилар Сурхондарё, Жиззах, Қашқадарё вилоятлари ҳисобланади. Аҳолининг Ўзбекистон Республикаси минтақалари бўйича жойлашиши тарихий, иқлим ва иқтисодий омиллар билан белгиланади.

Аҳоли бандлиги ва иқтисодий фаоллиги даражаси бўйича Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти йетакчи ҳисобланади. Шунингдек, Навоий, Андижон, Жиззах шаҳарларида бандлик даражаси юқори кўрсаткичга эга. Бандлик даражаси бўйича минтақалар ўртасидаги фарқ сезиларли ва 20% ни ташкил қилади. Хоразм вилояти аҳоли бандлиги ва иқтисодий фаоллиги паст бўлган ва минтақа меҳнат ресурслари кам бўлган минтақалар сирасига киради.

Ишсизлик даражаси энг юқори ҳудудларга Қашқадарё, Сурхондарё, Сирдарё, Жиззах, Фарғона вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикаси каби ҳудудлар киради (10% дан ортиқ). Республикада ҳудудлардаги қийматлар ўртасидаги фарқ деярли катта фарқ қилмайди ва 3% гача бўлган қийматни ташкил қилади.

Самарқанд ва Қашқадарё вилоятларида сон жиҳатидан энг кўп таълим муассасалари мавжуд, аммо аҳоли жон бошига ҳисоблаганда, Жиззах, Сирдарё, Навоий вилоятлари, Қорақалпоғистон Республикаси таълим муассасалари сони бўйича минтақалар йетакчилари ҳисобланади (10 000 кишига 3,5 дан ортиқ таълим муассасалари). Бундан ташқари, Республика бўйича ўртача қиймат 10 000 кишига 2, 98 та таълим муассасаси тўғри келади.

3 ёшдан 6 ёшгача бўлган болалар учун Мактабгача таълим муассасалари раҳбарлари Қорақалпоғистон Республикаси, Навоий вилоятлари, Фарғона ва Сирдарё вилоятлари (кўрсаткичларнинг қиймати 70% дан ортиқ) ҳисобланади.

Тошкент шаҳри аҳоли жон бошига ҳам мутлақ маънода, ҳам ҳисоб-китоб бўйича минтақадаги амбулатория-поликлиника муассасалари сони бўйича йетакчи ҳисобланади. Энг кам сонлилари Сурхондарё, Наманган ва Қашқадарё вилоятларидадир.

Тошкент шаҳри, Фарғона ва Навоий вилоятлари Интернет тармоғига уланган абонентлар сони бўйича (ҳар 100 киши ҳисобида) йетакчи ҳисобланади.

5-жадвал

2021/2022 Ўқув йилида Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг таълим кўрсаткичлари [5]

	Минтақадаги таълим муассасалари сони, дона.	10 000 аҳолига мўлжалланган муассасалар сони	Даража	3 ёшдан 6 ёшгача бўлган болаларни мактабгача таълим муассасалари билан камраб олиш, %	Даража
Қорақалпоғистон Республикаси	734	3,82	2	74,2	1
Андижон	789	2,47	13	68,8	6
Бухоро	563	2,89	10	70,6	4
Жиззах	563	3,99	1	67,2	9
Қашқадарё	1175	3,52	5	42,9	14
Навоий	372	3,67	4	73,4	2
Наманган	730	2,55	12	68,4	7
Самарқанд	1285	3,26	7	58,3	11
Сурхондарё	938	3,50	6	45,1	13
Сирдарё	321	3,73	3	70,1	5
Тошкент	897	3,01	8	52,4	12
Фарғона	987	2,58	11	71,5	3
Хоразм	567	2,99	9	67,4	8
Тошкент шаҳри	368	1,37	14	66,3	10

6-жадвал

2021 йилда соғлиқни сақлаш ва ахборотлаштириш кўрсаткичлари [6,7]

	Минтақадаги амбулатория-поликлиника муассасалари сони	Минтақадаги амбулатория-поликлиника муассасалари сони (минтақа аҳолисининг 10 000 кишига)	Даража	Минтақадаги Интернетга уланган абонентлар сони (йил охирида; минтақа аҳолисининг 100 кишига)	Даража
Қорақалпоғистон Республикаси	387	2,01	6	63,7	4
Андижон	531	1,67	8	55,6	8
Бухоро	549	2,82	3	61,4	6
Жиззах	228	1,62	9	55,6	8

Қашқадарё	497	1,49	12	50,3	11
Навоий	321	3,17	2	74,4	2
Наманган	387	1,35	13	56,5	7
Самарқанд	636	1,61	10	53,5	9
Сурхандарё	292	1,09	14	48,8	12
Сирдарё	180	2,09	5	68,5	3
Тошкент	547	1,84	7	50,9	10
Фарғона	600	1,57	11	74,4	2
Хоразм	419	2,21	4	62,1	5
Тошкент шаҳри	1038	3,85	1	151,5	1

Ўзбекистон Республикаси минтақаларининг ривожланиш даражаси ва инсон капиталидан самарали фойдаланиш бўйича минтақалар рейтингини тузиш учун инсон капиталининг ривожланишига ижобий ва салбий таъсир кўрсатадиган кўрсаткичларни (шу жумладан "минтақа аҳолисининг 1000 нафарига ўлим коэффициенти, ппм", "бир йилда минтақадан чиқиб кетганлар сони, киши", "минтақадаги ишсизлик, %"). Рейтингда биз ижобий таъсир кўрсатадиган кўрсаткичларда даража қийматидан ва салбий таъсир кўрсатадиган кўрсаткичларда тескари даража қийматидан фойдаланамиз (7-жадвал).

Инсон капиталининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатадиган кўрсаткичларни максимал қиймат бўйича нормаллаштирамиз (н-минтақадаги кўрсаткич қийматининг минтақалар орасидаги кўрсаткичнинг максимал қийматига нисбати) ва инсон капиталининг ривожланишига салбий таъсир кўрсатадиган кўрсаткичларни нормаллаштирамиз (минтақалар орасидаги минимал қийматнинг н-минтақадаги кўрсаткичга нисбати). Ҳар бир минтақа учун кўрсаткичлар қийматлари йиғиндисини ҳисоблаймиз. Кўрсаткичлар қийматлари йиғиндисига қараб рейтинг тузамиз (жадвал. 10).

10-жадвал

Инсон капиталини ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Республикаси минтақалари кўрсаткичларининг меъёрлаштирилган қийматлари

Кўрсаткич рақами	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Қорақалпоғистон Республикаси	0,37	0,70	0,67	0,15	0,21	0,00	0,75	0,69	0,77	0,78	0,80	0,96	1,00	0,49	0,42
Андижон	0,42	0,88	0,76	0,05	0,68	0,10	0,84	0,71	0,84	0,87	0,79	0,62	0,93	0,28	0,37
Бухоро	0,59	0,74	0,70	0,08	0,37	0,01	0,83	0,71	0,84	0,85	0,79	0,72	0,95	0,46	0,41
Жиззах	0,43	0,97	0,63	0,15	0,25	0,01	0,83	0,69	0,83	0,86	0,80	1,00	0,91	0,60	0,37
Қашқадарё	0,40	0,96	0,66	0,08	0,33	0,02	0,77	0,69	0,76	0,79	0,78	0,88	0,58	0,17	0,33
Навоий	0,81	0,87	0,70	0,23	0,19	0,00	0,84	0,80	0,85	0,86	0,80	0,92	0,99	0,91	0,49
Наманган	0,37	0,92	0,70	0,03	1,00	0,05	0,81	0,72	0,81	0,83	0,79	0,64	0,92	0,30	0,37
Самарқанд	0,42	0,93	0,70	0,06	0,46	0,03	0,78	0,71	0,77	0,81	0,77	0,82	0,79	0,19	0,35
Сурхандарё	0,39	1,00	0,70	0,11	0,31	0,02	0,79	0,69	0,79	0,82	0,78	0,88	0,61	0,21	0,32
Сирдарё	0,42	0,89	0,72	0,24	0,18	0,03	0,79	0,69	0,82	0,82	0,82	0,93	0,94	1,00	0,45
Тошкент	0,53	0,83	0,93	0,29	0,15	0,03	0,89	0,74	0,86	0,91	0,78	0,76	0,71	0,23	0,34
Фарғона	0,37	0,86	0,72	0,07	0,53	0,07	0,81	0,70	0,82	0,84	0,78	0,65	0,96	0,24	0,49
Хоразм	0,52	0,75	0,75	0,13	0,32	0,04	0,79	0,71	0,81	0,81	0,79	0,75	0,91	0,45	0,41
Тошкент шаҳри	1,00	0,75	1,00	1,00	0,08	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	0,34	0,89	0,25	1,00

Манба: Муаллиф ҳисоб китоблари асосида тузилди

Шу тарзда, инсон капиталининг ривожланишини тавсифловчи ва бюджет, турмуш даражаси, демография, меҳнат бозори, таълим, соғлиқни сақлаш, минтақани ахборотлаштириш харажатларини бирлаштирган кўрсаткичлар бўйича Ўзбекистон Республикасининг бошқа минтақалари орасида минтақанинг ўрнини белгилайдиган рейтинг шакллантирилади (жадвал. 11).

Инсон капитални ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Республикаси минтақалари рейтинг

Худуд	Жойлар сони	Кўрсаткичларнинг меъёрлаштирилган қийматлари йиғиндиси
Тошкент шаҳри	1	12,31
Навоий	2	10,26
Сирдарё	3	9,74
Жиззах вилояти	4	9,33
Наманган вилояти	5	9,26
Андижон вилояти	6	9,14
Бухоро вилояти	7	9,05
Тошкент вилояти	8	8,98
Хоразм вилояти	9	8,94
Фарғона вилояти	10	8,91
Қорақалпоғистон Республикаси	11	8,76
Самарқанд вилояти	12	8,59
Сурхандарё вилояти	13	8,42
Қашқадарё вилояти	14	8,2

Манба: Муаллиф ҳисоб китоблари асосида тузилди

Тошкент шаҳри инсон капитални ривожлантириш бўйича етакчи худуд ҳисобланади. Навоий вилояти ўртачадан юқори, Сирдарё, Жиззах ва Наманган вилоятлари ўртача даражада, Андижон, Бухоро, Тошкент ва Хоразм вилоятлари ўртача даражадан паст, Фарғона, Самарқанд, Сурхандарё вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикаси куйи ҳамда рейтингда энг куйи даражани Қашқадарё вилояти эгаллаганлиги 11-жадвал маълумотларидан кўриниб турибди. Таҳлиллар асосида инсон капитални кам ривожланган ҳамда ривожлантиришга муҳтож вилоятларда йўл хариталари ишлаб чиқилиши, ривожланган мамлакатлар тажрибаларига таянган ҳолда инсон капиталига инвестициялар киритилишини янги босқичга кўтариш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимиз тараққиёти ва ривожланган мамлакатлар қаторига қўшилиши бевосита худудларда инсон капитални жадал ривожлантиришга боғлиқ эканлиги ҳамда ушбу соҳада чуқур таркибий ислохотлар ўтказилиши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. About the HCP. - URL: <https://www.vseмирnyjbank.org/ru/publication/human-capital>
2. Информация о доходах населения. Уровень жизни населения. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/national-accounts>
3. Демография. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography>
4. Рынок труда. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/labor-market>
5. Социальная сфера, минимальные показатели гарантии прав детей. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>
6. Социальная сфера, минимальные показатели гарантии прав детей. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>
7. Цифровая экономика. Открытые данные. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/tsifrovaya-ekonomika>

УЎК: 331.108

МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ ВА САМАРАДОРЛИК

О.С.Казаков, проф., Наманган муҳандислик-технология институти, Наманган
Л.Ф.Узоқов, докторант, Наманган муҳандислик-технология институти, Наманган

Аннотация. Мехнат ресурслари корхона ва ташилотлар самарадорлигини оширишда асосий омил ҳисобланади. Мақолада мехнат ресурслари ва уларни бошқариш масалалари тадқиқ этилган. Мехнат ресурсларини бошқариш ва самарадорлик бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: мехнат, мехнат ресурслари, глобаллашув, мехнат унумдорлиги, бошқарув, мехнат ресурсларини бошқариш.

Аннотация. Трудовые ресурсы являются основным фактором повышения эффективности предприятий и организаций. В статье рассматриваются вопросы трудовых ресурсов и управления ими. Даны предложения по управлению и эффективности трудовых ресурсов.

Ключевые слова: труд, трудовые ресурсы, глобализация, производительность труда, менеджмент, управление трудовыми ресурсами.

Abstract. Labor resources are the main factor in increasing the efficiency of enterprises and organizations. The article discusses issues of labor resources and their management. Proposals for the management and efficiency of labor resources are given.

Key words: labor, labor resources, globalization, labor productivity, management, labor resources management.

Кириш. Иқтисодиётнинг глобаллашуви ҳамда бу жараёнда рақобат курашининг кескинлашуви натижасида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар ҳам ўзгариб бормоқда, ривожланиш жараёнлари амалга ошмоқда. Бу ўзгаришлар меҳнат муносабатларига ҳамда инсонлар ўртасидаги муносабатларга ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Бундай шароитда корхоналарнинг самарадорлиги кўпроқ меҳнат муносабатларига, шу жумладан меҳнат ресурсларидан фойдаланиш даражасига боғлиқ бўлиб бормоқда. Бу муносабатларнинг ривожланиши меҳнат жараёнини ташкил этишга ҳамда бу жараёнда мавжуд меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишга кўп жихатдан боғлиқдир. Бозор муносабатларига ўта бошлаган даврдан бошлаб то ҳозирги вақтгача бу йўналишларда олиб борилган ишлар, тўпланган тажриба ва ижтимоий-иқтисодий жараёнларни чуқур илмий таҳлил қилиш асосида меҳнат ресурсларидан фойдаланишнинг объектив қонуниятларини тадқиқ қилиш ва таҳлил натижаларидан келиб чиққан ҳолда аниқ хулосалар чиқариш ҳамда таклифлар ишлаб чиқиш, меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўналишларини аниқлаш ва бу йўналишда самарали механизмни яратиш бугунги кунда муваффақиятга эришишнинг асосий йўли бўлиб қолди. Меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва бунинг натижасида миллий иқтисодиёт тараққиётини таъминлаш ҳамда аҳолининг турмуш тарзини янада яхшилаб боришга эришилади.

2023 йил бошида Ўзбекистонда меҳнат ресурслари сони жами 19,4 млн. кишини ташкил этган. Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, бу рақам ўтган йил мос даврига нисбатан таққосланганда 0,8 фоизга ошган. Бу меҳнат ресурсларини иш ўринлари билан таъминлаш масаланинг бир томони бўлса, иккинчи муҳим томони – ушбу меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишни ташкил этишдан иборатдир.

Асосий қисм. Ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёни биринчи навбатда меҳнат жараёнидан иборатдир. Меҳнат жараёни меҳнат ресурсларининг меҳнатини, меҳнат буюмларини ва меҳнат воситаларини ўз ичига олади. Меҳнат – кишиларнинг маълум бир мақсадга қаратилган онгли фаолияти бўлиб, бу фаолият натижасида улар табиатдаги мавжуд нарсаларни ўзгартириш, ўз эҳтиёжларига мослаштириш орқали моддий неъматлар ва маданий бойликлар яратадилар. Корхона ва ташкилотлар ўзларидаги ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш жараёнини ташкил қилиш мақсадида ўзгалар меҳнатидан фойдаланадилар. Корхоналар меҳнатдан қандайдир самарага эришиш мумкинлиги учун уни сотиб оладилар ва фойдаланадилар. Улар меҳнат ресурсларини ташкил этадилар. Меҳнат ресурсларини тавсифлашда турлича қарашлар мавжуд. Биринчи навбатда аҳолининг маълум ёшини назарда тутилади, яъни турли мамлакатларда турли ёш белгиланган. Меҳнат қилиш ёшига етган ва нафақага чиқиш ёшигача бўлган ораликдаги аҳоли меҳнат ресурслари деб қаралади. Айрим ҳолларда нафақа ёшига чиқиб ҳам ишлаётган ҳамда меҳнат қобилияти ёшига етмаган ҳолда ишлаётган аҳолини ҳам меҳнат ресурсларига киритилади. Меҳнат ресурслари масалалари билан кўплаб тадқиқотлар ўтказган олим С.Г.Струмилин “Меҳнат ресурслари – ижтимоий фойдали фаолият соҳасида ишлаш учун жисмонан ривожланган, билимларга, маданиятга, қобилиятларга, малакавий кўникмаларга эга бўлган мамлакат аҳолисининг бир қисми”[1] деб таърифлайди.

Меҳнат ресурслари муаммолари билан шуғулланган иқтисодчи олим Қ.Х.Абдурахмонов меҳнат ресурслари, уларнинг шаклланиши ва ўзига хос хусусиятлари, улардан оқилона ва самарали фойдаланишнинг назарий жиҳатларини кенг асослаб берган. Қ.Х.Абдурахмонов меҳнат ресурслари мамлакат аҳолисининг ўз рухий-физиологик ва ақлий сифатлари билан моддий неъматлар ишлаб чиқаришга (хизмат кўрсатишга) қодир меҳнатга лаёқатли қисмидир деб ҳисоблайди. Улар таркибига фақат иқтисодий фаол аҳолигина эмас, шу билан бирга ҳозирги пайтда ишламаётган ва иш қидираётган меҳнатга лаёқатли шахслар, шу жумладан, ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таълим олаётганлар ҳам киритилади.[2] Бу таърифдан кўришиб турибдики, меҳнат ресурслари иқтисодиётда меҳнат билан банд бўлган, банд бўлмаसा ҳам меҳнат қилишлари мумкин бўлган барча аҳолини қамраб олади. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексининг 20-моддасида Ходимнинг меҳнатга оид ҳуқуқ лаёқати ва муомала лаёқати тўғрисида маълумот берилган. Ходимнинг меҳнатга оид ҳуқуқ лаёқати ва муомала лаёқати у ўн олти ёшга тўлган пайтидан эътиборан бир вақтнинг ўзиде вужудга келади.[3]

Натижалар ва муҳокама. Меҳнат ресурслари – бу иқтисодиётнинг турли соҳалари ва тармоқларида фаолият кўрсатаётган меҳнатга лаёқатли бўлган барча инсонлардир. Вақтинчалик иш билан банд бўлмаган, аммо меҳнат қилиш лаёқатига эга бўлган инсонларни захирадаги меҳнат ресурслари деб айтиш ўринлидир. Улар иш билан банд бўлган вақтдан бошлаб меҳнат ресурслари сафига қўшиладилар. Менежмент меҳнат ресурсларини бошқаришни амалга оширади ва улар самарасини орттиришга ҳамма вақт ҳаракат қилади. Захирадаги меҳнат ресурсларини эса меҳнат ресурслари сафига қўшишга ҳаракат тинимсиз амалга оширилади. Меҳнат ресурсларининг аҳамияти иқтисодий тараққиётнинг ҳозирги даврида янада ортиб кетди, фақатгина меҳнат ресурсларининг самарали фаолияти натижасида турли рисклардан оқилона чиқиб кетиш мумкин, рақобат курашида енгиб чиқиш имкониятини яратиш мумкин. Ҳар қандай замонавий техника ва технология меҳнат ресурсларисиз рақобатбардош фаолиятни амалга ошириб бера олмайди.

Инсоният тараққиётининг турли босқичларида, иқтисодий ўсишнинг ҳар хил босқичларида меҳнатни бошқариш турлича аҳамият касб этган. Иқтисодий ўсишнинг sanoatlashganchа қадар бўлган даврида мануфактура ишлаб чиқариши мавжуд бўлган даврда меҳнатни бошқаришда хунармандчилик тури мавжуд бўлган. Иқтисодий ўсишнинг sanoatlashgan даврида яъни йирик машинали ишлаб чиқариш даврида меҳнатни бошқаришнинг технократик тури бўлган. Иқтисодий ўсишнинг илмий-техник турида янгилик киритишга асосланган мослашувчан ишлаб чиқаришлар даврида меҳнатни бошқаришнинг инновацион тури мавжуд бўлади. М.М.Дадажонова меҳнат ресурсларини бошқаришда асосий эътиборни таълимга қаратишни таъкидлайди. У томонидан қуйидагича фикр билдирилган: “Инсон капиталини шакллантириш ва ривожлантиришда таълимга эътибор қаратиш орқали юқори иқтисодий тараққиётга эришаётган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва уларнинг энг илғорларини мамлакатимиз таълим тизимига мослаштирган ҳолда фойдаланиш мамлакатимиз миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим омилидан ҳисобланади.”[4] Бу фикр тўғри, аммо меҳнат ресурсини ўқитишдан олдин уни тўплаш ва танлаш муҳимдир. Корхона фаолиятдан келиб чиқиб, касбларга қўйиладиган талабларга жавоб бера оладиган ходимларни шакллантириш ва тайёрлаш меҳнат ресурсларини бошқаришда асосий вазифа ҳисобланади.

Хулоса. Меҳнат ресурсларининг таркибидаги иқтисодий фаол аҳоли иқтисодиёт ривожига ҳисса қўшиши мумкин бўлган қисм ҳисобланади. Улар фаолиятини самарали равишда режалаштириш, ташкил этиш ва назорат қилиб бориш талаб этилади. Уларнинг меҳнат салоҳиятларини юксалтириш ва бу салоҳиятдан максимал даражада самарали фойдаланиш учун улар меҳнатини ташкил этиш билан бир қаторда таҳлил қилиш ва янада жадалроқ ҳаракатга келтириш учун рағбатлантиришни ташкил этиш зарурдир. Бу вазифалар меҳнат ресурсларини бошқариш жараёнида амалга оширилади. Иқтисодиёт ва унинг субъектларининг ривожини меҳнат ресурсларига боғлиқ экан, уларнинг самарали фаолияти учун оқилона бошқарувни ташкил этиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Р.П.Колосова, Г.Г.Меликьян. Занятость, рынок труда и социально трудовые отношения/ М.Экономический факультет МГУ, ТЕИС. 458 с. 2008 г.
2. “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил № 6, 2017 www.iqtisodiyot.uz 3
3. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат Кодекси. Тошкент, “Ўзбекистон” 2022 й.
4. Дадажоновна М.М. Инсон ривожланишининг умумжаҳон амалиёти. “Янги Ўзбекистон миллий иқтисодитиётини жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлашда тадбиркорлик фаолиятини самарали ташкил этишнинг аҳамияти” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2023 йил 4-5 октябр). Н.: НамМТИ, 2023
5. Olimjon Sabirovich Kazakov, Lutfillojon Uzoqov Issues to increase the efficiency of family entrepreneurship. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR) <https://tarj.in>. Vol 10, Issue 4, April 2021
6. Kazakov Olim Sabirovich Management of the economic power of business activities and its impact on its efficiency Journal of Pharmaceutical Negative Results, Volume 13 Special Issue 6, 2022
7. Olim Kazakov, Shaxboz Valijanov, Bobur Nabiyeov, Abdullo Mirzababayev . Economic power of entrepreneurship and its impact on its efficiency Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan Central European Management Journal, Vol. 30 Iss. 3 (2022) ISSN:2336-2693 | E-ISSN:2336-4890,
8. Казаков О.С. Управление результативностью производственных предприятий. Журнал "Экономика и социум" №1(104) 2023
9. Kazakov Olim Sabirovich. Issues improvement management of production enterprises. International journal on economics, finance and sustainable development E-ISSN: 2620-6269.

УДК: 385:656.13

КОМБИНИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ ИНДИКАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ
ЭКОНОМИКОЙ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ

*А.С.Камалов, заместитель председателя правления, АО "Ўзбекистон темир йуллари",
Тошкент*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada transport tizimlari iqtisodiyotini indikativ boshqarishning kombinatsiyalangan usullari ko'rsatilgan. Zamonaviy sharoitda transport tizimlarini boshqarish modellarini ishlab chiqishning o'ta murakkabligini hisobga olgan holda, samarali logistika uskunalarini ishlab chiqish uchun yondashuvlar va usullarning kombinatsiyasini - o'zgartirilgan maqsadli dasturlar va usullarni qo'llash taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *transport tizimi, indekativ boshqarish, ehtimollik, matritsa, model.*

Аннотация. *В данной статье показаны комбинированные методы индикативного управления экономикой транспортных систем. Учитывая чрезвычайную сложность разработки моделей управления транспортными системами в современных условиях, предлагается использовать комбинацию подходов и методов разработки эффективного логистического оборудования - модифицированные целевые программы и методы.*

Ключевые слова: *транспортные системы, индикативное управление, вероятность, матрица, модель.*

Abstract. *This article shows the combined methods of indicative management of the economy of transport systems. Given the extreme complexity of developing transport systems management models in modern conditions, it is proposed to use a combination of approaches and methods for developing effective logistics equipment - modified target programs and methods.*

Key words: *Transport systems, indicative control, probability, matrix, model.*

Введение. На современном этапе развития высокотехнологичного логистического оборудования особое внимание уделяется широкому применению теоретико-игровых подходов к решению ряда экономических вопросов.

В то же время сложность проблемы состоит в том, что классические методы принятия стратегических решений (метод линейного программирования, экспертный метод и др.) плохо работают в крайне противоречивой, неорганизованной среде, вызванной экономическими отношениями и геоэкономическими тенденциями, высокой конкуренцией и интеграционные процессы на мировых рынках и национальных рынках. Глобализация мировой экономики накладывает свой отпечаток на внешнеэкономическую политику, проводимую

национальными государствами. Функции и стратегии современных международных отношений обусловлены целями и задачами геоэкономического и геополитического развития. Акцент сделан на первую из них, а именно на геоэкономическую модель мирового развития, согласно которой международные экономические отношения рассматриваются не как идеологические и силовые факторы, а прежде всего, как система взглядов (понятий), определяемых экономическими факторами. Во внеэкономическом пространстве предпринимаются попытки реализации различных усилий (с использованием высоких логистических и геоэкономических технологий), направленных на интеграцию национальных экономик и связанных с ними хозяйствующих субъектов в международные производственные процессы с целью облегчения распределения и использования мировых доходов.

Обзор литературы. Для разработки хорошего логистического инструмента необходима целевая комбинация подходов и методов, которая может включать модифицированный программно-целевой метод, логико-эвристический метод, метод экспертного анализа и другие. В связи с этим исследователи в нашей стране и за рубежом, в частности, американский экономист - лауреат Нобелевской премии по экономике (1995) Дж. Особого внимания заслуживают конкурентные рыночные стратегии, основанные на работе Нэша [1,6]. Конкурентные рыночные стратегии в современных логистических моделях Г. Используемые совместно со стратегией управляемого рынка Штакельберга, они образуют вертикально управляемую иерархическую структуру с системными целями развития на основе Национальной концепции социально-экономического развития, управляемой Координационным центром (КЦ) с использованием экономических стимулов (налоги, рента, акцизы и т.д.) на ее высшем уровне и на низшем - цели экономических агентов, которые сами реализуют рыночные отношения [2]. Понятно, что в общем случае эти цели не только взаимно согласованы, но и переплетены.

Основными задачами антимонопольного логистического управления транспортной экономикой являются формирование товарных рынков и иных рынков, обеспечение конкурентоспособности товаров и услуг, производимых транснациональными хозяйствующими субъектами. Что касается решения этих проблем, то следует отметить появление новых форм отношений собственности, управления и управления хозяйствующими субъектами (с учетом сложного многопланового взаимодействия участников), создание индикативной системы управления транспортным хозяйством. , функциональное управление отраслями, создание межгосударственного механизма антимонопольного управления.

Одним из важнейших этапов реализации концептуальных задач является принятие межгосударственных программ антимонопольного регулирования и реструктуризации транспортного хозяйства. По мнению автора, эти программы должны включать [3]:

- реструктуризация и демополизация транспортного хозяйства;
- приватизация, продажа государственных акций (эмиссии);
- создание новых хозяйствующих субъектов, передача им в управление государственной доли (траста);
- Поддержка предпринимательства.

Все это требует развития и преобразования рынков транспортных средств и транспортных услуг, систематического контроля за деятельностью хозяйствующих субъектов, являющихся приоритетными на этих рынках. Нельзя недооценивать естественные монополии, государственные монополии, временные монополии, роль и место управленческих структур государственного сектора (производственно-хозяйственный аудит, маркетинговая информационная система, разработка государственных стандартов и др.) [4].

В сфере международных перевозок были времена, когда последствия хозяйственных решений были непредсказуемы, недостаточно учитывались негативные последствия тех или иных нарушений производственного процесса, то есть неизбежные факторы, сопровождающие экономические риски. Управление рисками позволяет обезопасить себя от таких происшествий с помощью определенного комплекса предупреждающих действий,

предотвращающих дальнейшее увеличение размера наблюдаемого ущерба. Подход к управлению рисками предлагает два типа действий: распределение убытков между предпринимателями с одинаковым риском (самосохранение) или обращение за помощью в страховую фирму.

Методология исследования. Риски особенно сложны при разработке комплексных программ развития транспортной сети. Используемый в прошлом классический программно-целевой метод создавал достаточные возможности для ошибок, так как позволял учитывать только начальное и конечное значения рыночного фактора. Модифицированный программно-ориентированный подход основан на теоретико-игровом инструментарии и рыночном принципе в форме конкурентных рыночных стратегий Нэша, поэтому он имеет рыночную топологию, специфичную для конкурентных рыночных стратегий.

Для раскрытия сущности модифицированного программно-целевого метода представим некоторый экономический фактор $K(t)$ в виде некоторого временного интервала $[0, T]$, где все компоненты. Кроме того, фактор имеет конкурентно-рыночную природу, и его имеет две содержательные тенденции - известно, что они подвержены постоянному увеличению или уменьшению. Также известны начальные условия, заданные фактору: могут быть также заданы терминальные значения (но не обязательно): Никакой другой информации о $K(t)$ нет.

С одной стороны, чтобы не нарушать его рыночный характер, а с другой стороны - при наличии координационного центра (КМ), действующего по систематическому ориентиру (программе) в отношении $K(t)$, этот рыночный фактор и K (В каком виде могут быть представлены (аппроксимированы) составляющие t) - рыночные факторы, придающие рыночный характер $K(t)$? Очевидно, что основная трудность заключается в предсказании промежуточной траектории между $t = 0$ и $t = T$.

Само собой разумеется, что если применить простую математическую или квадратичную аппроксимацию, то можно разрушить рыночную структуру $K(t)$. Известно, что в социально-экономической среде действуют два разных принципа разрешения конфликтов: принцип Парето (или принцип социальной справедливости), в котором улучшение положения одного участника связано с ухудшением положения другого других и принцип Нэша (принцип рыночных отношений) дисбаланс может как улучшить, так и ухудшить свое положение и положение других.

4. Результаты исследования и анализ

Для наших целей было бы целесообразно применить принцип Штакельберга-Нэша, с помощью которого формируются стратегии, называемые конкурентными рыночными стратегиями, которые формируются при решении некоторого уравнения дифференциальной игры, представляющей тренд фактора. Есть ряд особенностей, которые позволяют Нэшу отличать его дифференциальные игры от игр других типов. Что касается поставленной нами задачи, то подход Штакельберга-Нэша [6] означает, что дифференциальное уравнение тенденции фактора $K(t)$ должно быть сформулировано таким образом, что если эта тенденция сталкивается с каким-либо управляющим или ответственным органом, Компонентами (t) считаются некие рыночные факторы, которые контролируются рыночными агентами, действующими по своим целевым функциям, не подчиненным и даже не противопоставленным системной функции целевого объекта.

В реализации этой идеи $[0, T]$ было известно в начальной точке контрольного интервала и стандартизировано как $\sum W_i(0) = 1$, $W_i(t) = K_i(t)/K(t)$, выводим в стратегию.. Если $K(t)$ **что касается тенденции роста, то ее можно резюмировать следующим образом:**

$$dK/dt = a K \sum W_i^N(t) \quad (1)$$

Здесь где $a > 0$ - ниже определяется параметр, описывающий скорость изменения тренда (он называется параметром Штакельберга по имени немецкого экономиста Г. Штакельберга, впервые предложившего такие уравнения трендов), $W_i^N(t)$ в то время как стратегии совместимы только со стратегиями, W_i введенными выше на некотором начальном

графике $[0, T]$, с какого-то момента по закону равновесия Нэша $W_i^N(t)$ становятся конкурентными рыночными стратегиями.

В простейшем случае задача моделирования рыночного тренда фактора $K_i(T)$ упрощается, так как только в интервале между $t=0$ и $t=T$ требуется самоопределение подчиненного $K(t)$. $K_i(T)$ работа значительно усложняется, если тренды фактора $K(t)$, которые заранее не известны, «сталкиваются» с центром. В отличие от предыдущего здесь необходима систематическая целевая функция, по которой можно определить $K_i(T)$ и далее перейти к первому варианту.


Таким образом, уравнение тренда роста рыночного фактора $K(t)$ запишем в общем виде следующим образом:

$$dK/dt = a K \sum W_i(t), K(0) = K_0, W_i(0) = W_{i0}, \sum W_i(0) = 1 \quad (2)$$

В условиях конкурентной рыночной экономики, а также в соответствии с логикой сопротивления инновациям агенты, отвечающие за поведение нижнего уровня дерева $K_i(T)$, сопротивляются реализации тенденции, их I_i пытается достичь целевых функций и, следовательно, $I_i = \int K a(1-W_i) dt$ ($i = 1, 2, \dots$) функционалы стремятся принимать как можно большие значения в интервале $[0, T]$. Можно показать, что реализация этих целей противоречит уравнению тренда. Действительно, из структуры функционалов видно, что в $[0, T]$ необходимо иметь наименьшие возможные значения W_i , чтобы реализовать максимально возможные значения функционалов I_i , и наибольшие значения W_i .

$$dK/dt = a K \sum W_i(t) \quad (3)$$

в уравнении, а система $I_i = \int K a(1-W_i) dt \rightarrow \max(i = 1, 2, \dots)$ функционалов в $[0, T]$ представляет собой дифференциальную игру Штакельберга-Нэша, которую Л.С. При решении с использованием принципа максимума Понтрягина [5] возможно, что в равновесии, по Нэшу, тенденция роста фактора $K(t)$ имеет место при всех рыночных атрибутах, если принять конкурирующие рыночные стратегии $W_i^N(t)$, как показано на рисунке. (рисунок-1)



Фигура 1. Конфигурация конкурентных рыночных стратегий для растущего тренда фактора

Предлагаемый в Штакельберг-Нэш подход к программированию, ориентированный на достижение цели, позволяет гибко управлять целями и действиями. С помощью этой модели мы можем найти как бюджетные ассигнования, так и общие ассигнования из функций траектории. Могут быть и другие варианты. Преимуществом предлагаемого метода перед классическим вариантом является ограниченность миссии экспертов. Здесь роль экспертов заканчивается на этапе принципиальных финансовых ассигнований, остальное автоматически выводится из технологии метода, тогда как в классическом варианте метода все действия определяются деятельностью экспертов от начала до конца [6,7,8].

Этот метод входит в дерево инструментов логистики. Главным и самым важным в управлении является принятие решений, которые могут трактоваться органом управления (лицом) как процесс обработки информации, поступающей от подчиненных подразделений, инстанций и внешней среды. Количество информации, обрабатываемой при решении управленческих задач, как правило, является квадратичной функцией размера основной задачи [9]. Поскольку размер вопроса управления определяется в первую очередь количеством подчиненных единиц, а возможность обработки информации - эффективностью органа управления, возникает естественная потребность в иерархических организационных структурах [10,11].

Вывод. Логистические подходы показывают, что они достаточно эффективны в управлении транспортными предприятиями. Концепция риска включает в себя два важных элемента - оценку риска и управление риском. Оценка риска, как правило, носит вероятностно-экспертный характер в силу неоднозначности многих негативных последствий как объективных факторов, так и принимаемых экономических решений.

Управление рисками предполагает предвидение возможных чрезвычайных (критических) социально-экономических ситуаций, предвосхищение которых может их предотвратить, смягчить и смягчить их последствия. Поэтому, кроме оценки вероятности возникновения той или иной критической ситуации, целесообразно было бы оценить потери в случае возникновения кризиса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Боков В.В. Методология стратегического управления внешнеэкономической деятельностью: Автореферат диссертации доктор экон.наук.-М.-2000.
2. Вайсборд Э.М., Жуковский В.И. Введение в дифференциальные игры нескольких лиц и их приложения.- М. Сов. радио, 1984.
3. Торбенко А. Модель линейного города с экзогенной конкуренцией по Штакельбергу // Математическая теория игр и ее приложения. 2013. No 5(2). С.64–81.
4. D'Amato E., Mallozzi L., Pardalos P.M. Sequential Entry in Hotelling Model with Location Costs: A Three-Firm Case // Spatial Interaction Models: Facility Location Using Game Theory, Springer. 2017. P.261–272.
5. Штакельберга-Нэша в модели линейного города. Available from: https://www.researchgate.net/publication/329281677_Ravnovesie_Stakelberga-Nesa_v_modeli_linejnogo_goroda#fullTextFileContent [accessed Mar 08 2022].
6. Juraev Muxiddin, Yusufkhanov Zokirkhon, & Akhmedov Dilmurod (2022). Modeling the system of vehicle and driver activity. Universum: технические науки, (1-3 (94)), 71-73.
7. Zokirkhan Yusufkhanov, Malik Ravshanov, Akmal Kamolov, and Elmira Kamalova. Improving the position of the logistics performance index of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 264, 05028 (2021), *CONMECHYDRO – 2021*. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405028>
8. Qodirov, T. U. U., Yusufxonov, Z. Sharapova, S. R. (2021). O'zbekistonda transport-logistika klasterlari faoliyatini takomillashtirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 305-312.
9. Кодиров, Т. У., Юсуфхонов, З. Ю., & Ахмедов, Д. Т. (2021). Анализ факторов, влияющих на рейтинг индекса эффективности логистики Республики Узбекистан. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 245-252.
10. Yusufkhanov, Zokirkhan Yusufkhan Ugli, Ahmedov, Dilmurod Toshpulat Ugli, Khusanov, Laziz Erkinovich, & Masodiqov, Shokhjakhon Ulugbekovich (2021). Topical issues of improving the quality of road transport in the Republic Of Uzbekistan. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (7), 108-117.
11. Atajanov, Maxmud Kenjabayevich, & Yusufxonov, Zokirxon Yusufxon o'g'li (2021). Innovatsion infratuzilmalarni multimodal shahar jamoat transportiga jalb qilish orqali ko'cha-yo'l tarmoqlari yuklanishini bartaraf etish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (8), 74-86.

УЎК 338.45

САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ЁНДАШУВЛАРИ

*О.Д.Мирзаев, катта ўқитувчи, Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти,
Андижон*

Аннотация. Ушбу мақолада саноат корхоналарини трансформациялашнинг назарий жиҳатлари ва ёндашувлари кўриб чиқилган. Хусусан, трансформациялаш жараёнлари оид хорижий ва маҳаллий олимларнинг қарашлари ва ёндашувлари ўрганиб чиқилган, ва ушбу ёндашувлар асосида “саноат корхонасини трансформациялаш” тушунчасига муаллиф таърифи шакллантирилган.

Калит сўзлар: саноат корхонаси, трансформация, ўзгартириш, ислоҳ қилиш, трансформация жараёнлари, назарий асослар.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты и подходы к трансформации промышленных предприятий. В частности, изучены взгляды и подходы зарубежных и местных ученых к процессам трансформации, и на основе этих подходов, сформулировано авторское определение термину «трансформация промышленных предприятий».

Ключевые слова: промышленное предприятие, трансформация, изменение, реформирование, трансформационные процессы, теоретические основы.

Abstract. This article reviews the theoretical aspects and approaches of transformation of industrial enterprises. In particular, there studied the views and approaches of foreign and local scientists on the processes of transformation, and on this basis, formulated the author's definition to the term "transformation of industrial enterprise".

Key words: industrial enterprise, transformation, change, reforming, transformation processes, theoretical bases.

Бугунги кунда Ўзбекистонда сўнги йилларда саноат корхоналарини трансформациялаш, шу тарика иқтисодиёт тармоқларини ислоҳ қилиш, тадбиркорликни жадал ривожлантириш, корхоналарни молиявий соғломлаштириш борасида кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, муайян ижобий жараёнларга қарамадан, бу соҳада айрим муаммолар тўпланиб қолмоқдаки, уларни ҳал этмасдан туриб, иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш жараёнлари сустлашиши мумкин. Бундан ташқари, саноат корхоналарини "трансформациялаш" тушунчаси фаол қўлланилаётганига қарамадан, ушбу жараённинг илмий-услубий асослари ҳам ишлаб чиқилмаган. Шунга кўра, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида [1] «Саноатнинг етакчи тармоқлари ва иқтисодиётни янада либераллаштириш ҳамда трансформация жараёнларини яқунлаш» миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш бўйича устувор йўналишининг асосий вазифаларидан бири сифатида белгиланган. Ушбу вазифанинг самарали ҳал этилиши бу борада муҳим изланишларни олиб бориш ва саноат корхоналарини трансформациялаш жараёнларини ҳам назарий, ҳам услубий жиҳатдан такомиллаштиришни тақозо этади.

Фикримизча, саноат корхоналарини трансформациялашнинг назарий жиҳатларини кўриб ўтишдан олдин, ушбу тушунчанинг луғавий маъносини аниқлаб олиш зарур. Турли луғат ва энциклопедияларда "трансформация" тушунчасига турлича талқинлар берилган. Жумладан, Б.Райзбергнинг замонавий иқтисодий луғатида трансформация (лот. *transformatio* – ўзгартириш) – бу иқтисодий фаолиятнинг тузилмалари, шакллари ва усуллари қайта таркиблаш, унинг мақсадли йўналишини ўзгартириш, деб таъриф берилган [2]. Социологик энциклопедик луғатга кўра, трансформация – бу ижтимоий институтлар ва уларнинг функцияларининг ўзгаришидир [3]. Машҳур Кембридж луғатининг талқинига кўра, трансформация бирор нарса яхшилаш учун унинг характерини ёки кўринишини бутунлай ўзгартириш жараёни сифатида таърифланган [4]. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида "трансформацияламоқ" тушунчаси трансформация қилмоқ, ўзгартирмоқ маъноларида талқин қилинади [5]. Демак, "трансформация" иборасининг луғавий маъноси аксарият манбаларда ўзгартириш, қайта тузиш маъноларида ишлатилган.

Бугунги кунда "трансформация" ибораси умумий илмий атама бўлиб, турли билим соҳаларида, жумладан техника, табиий ва гуманитар фанлар каби соҳаларда қўлланилмоқда. Шу билан бирга, "трансформация" ибораси иқтисодиёт соҳасида ҳам кенг қўлланилиб келинмоқда. Аксарият манбаларни ўрганиб чиқиш шуни кўрсатяптики, "трансформация" тушунчаси иқтисодиёт, жамият, саноат каби соҳаларни ўзгартириш, ислоҳ қилиш мазмунида келади. Қуйида хорижий ва маҳаллий олимларнинг иқтисодиётдаги трансформация жараёнларига оид ўз фикрлари ва ёндашувларини кўриб чиқамиз.

"Трансформация тушунчасини таърифлашда турли хил ёндашувларга қарамай, маъно бир хил бўлиб қолади: у ҳар доим бирор нарса воситачилигида бир ҳолатдан иккинчисига сифатли тарзда ўтишни ифодалайди. Ушбу ўтиш тезлигига келсак, бу жуда тез ўзгариш ҳисобланади. "Трансформация" тушунчаси тезда пайдо бўлмаган, балки маълум бир босқичда вужудга келган ва жамиятда содир бўлаётган ўзгаришларнинг моҳиятини ўзида акс эттирган. Трансформация нисбатан ёш тушунча бўлиб, олимлар уни тараққиёт, эволюция, инқилоб, модернизация, ижтимоий ҳаракат каби ўзаро боғлиқ атамалар призмасидан ўрганишга

киришган. Буларнинг барчаси ижтимоий ўзгаришлар ёки ижтимоий жараёнлар деган битта умумий тоифага киради [6].

Россиялик олим Н. Багрецовнинг [7] фикрига кўра, трансформация тизимнинг асосий таркибий қисмларига, яъни тузилма, ташкилий шакл, харажатлар, ходимлар сони ва сифати, активларнинг техник даражаси ва бошқаларга муайян таъсир кўрсатиши мумкин бўлган янги жараёнлар, активлар ва функцияларни сотиб олишни ёки эскисини алмаштиришни ўз ичига олади. Ижтимоий-техник тизимларнинг трансформация жараёнига икки турдаги жараёнларни киритиш мумкин: фирма ичидаги консолидация ва фирмалараро интеграция. Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий-хўжалик фаолияти жараёнларини амалга ошириш ривожланишнинг муайян институтлари ва принциплари шароитида амалга оширилади. Ташқи ва ички муҳит таъсири остида “Корхона” тизимини трансформация қилишнинг чуқур инновацион жараёни содир бўлади.

Муаллифлар С.Орехова ва О.Романовалар [8] ўз илмий ишларида саноат корхоналарининг бизнес моделларидаги структуравий элементлар ва ўзаро таъсир механизмларининг ўзига хос хусусиятларини ҳаёт циклининг турли босқичларида саноат корхоналари бизнес моделларини трансформация қилиш нуқтаи назаридан ўрганганлар. Уларнинг фикрича, бозорнинг доимий ўзгаришларидан ташқари корхоналар ҳам трансформация қилинади. Корхонани ўсиши ва унинг ичидаги ўзгаришларни таҳлил қилиш учун ҳаёт цикли концепцияси (life cycle theory) қўлланилади, унга кўра корхоналар барпо этилади, ўсади, кексади ва умри тугайди. Ҳаёт циклининг турли босқичларида корхонани трансформация қилишнинг классик таҳлили унинг асосий муаммолари, ёши, ўсиш суръатлари, ташкилий тузилма тури, расмийлаштириш даражаси ва ривожланиш стратегиясини таққослашга асосланади.

Д.Шербаков [9] трансформация жараёнларини стратегик менежмент объекти сифатида кўриб чиққан. У корхонада стратегик вазифаларга умумий тизимли ўзгаришларни, яъни трансформациялаш жараёнини ҳамда ички тизимли ўзгаришларни киритган, бундан ўзгаришларга ишлаб чиқаришни рационаллаштириш, ресурсларни тежаш бўйича тадбирларни киритган. Унинг фикрича, стратегик трансформация жараёнларини ишлаб чиқишда бутун ташкилий динамикани қамраб оладиган тизимли инжиниринг ёндашувидан фойдаланиш керак. Трансформация жараёнларини бошқаришнинг энг жиддий вазифаларини ҳал қилишда тизимли таҳлил асосий роль ўйнайди. Инновацион корхонани стратегик трансформация қилиш – бу инновацион корхонани структуравий ва функционал турдаги корхонага босқичма-босқич ўзгартириш бўйича лойиҳалар тўпламидир. Тузилмавий трансформация интеграцион характердаги инвестиция ва ташкилий лойиҳалар билан боғлиқ. Функционал трансформациялар эса маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда ташкилий- бошқарув лойиҳаларга тегишли.

Яна бир россиялик муаллиф И.Фёдоров [10] жараёнли бошқарув давомида корхонани комплекс трансформация қилиш масалаларини кўриб ўтган. Унинг фикрича, корхонанинг ташкилий тузилмаси шундай трансформация қилиниши керакки, унда у ишлаб чиқариш тизими доирасида ривожланаётган бошқарув муносабатларини объектив акс эттирадиган бўлиши керак.

Л.Стеблякованинг [11] илмий ишида трансформация иқтисодий тизимларни ривожлантириш усули сифатида кўриб чиқилган. Унинг фикрича, иқтисодий тизимнинг функционал ривожланиши (нисбатан барқарор ҳолатни, барқарорликни ва тизимли сифатни, тизимнинг тартибини сақлаш билан боғлиқ) трансформацион ривожланишга ўтади, бу эса ўз ичига тизимнинг миқдор-сифат ўзгаришлари босқичини ҳамда тизимнинг қайта туғилиш босқичини олади.

Е.Лукашева[12] фикрича, трансформация – бу давлат, ҳуқуқий, иқтисодий, сиёсий ва бошқа тузилмаларни тизимли тарзда тубдан ўзгартиришдир. Ушбу жараёнда ички ва халқаро муносабатлардаги ўзгаришларни институционал қўллаб-қувватлаш муҳим роль ўйнайди. Жамиятни бир бутун сифатида ўзаро боғланган институтлардан ташкил топган йирик тизим сифатида ифодалаш мумкин. Ижтимоий-маданий тизимнинг элементлари сифатида

институтлар турли функцияларни бажарадилар: ижтимоий ўзаро муносабатларни тартибга солиш, тартибни сақлаш, ахборот ва ижтимоий тажрибани узатиш ва ҳ.к. К.Гринюк [13] Россия минтақаларининг замонавий шароитида саноат комплексини трансформация қилишни шундай тушунтирганки, унда ҳозирги вақтда ишлаб чиқариш ва илмий-ишлаб чиқариш тармоқларини саноат комплексининг ташкилий шакли сифатида тубдан ўзгартириш, деб талқин қилган.

Муаллиф П.Штомпканинг [14] таъкидлашича, трансформация – бу миқдорий ўзгаришлардан ташқари, асосий сифат ўзгаришларининг ҳам кузатилишидир. Ушбу контекстдаги сифат ўзгаришлари - бу ижтимоий тизимдаги элементларнинг ўзгариши билан тузилманинг ўзгариши ва ҳаракатлардаги ўзгаришлар билан функцияларнинг ўзгаришидир. Унинг фикрича, трансформация жараёнлари ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига кириб боради, бунинг натижасида ҳаётий тажриба йўқолади, пойдевор бузилади, ижтимоий ҳақиқат ўзгаради, ижтимоий капитал йўқолади. И.Батановнинг [15] таърифига кўра, трансформация – бу ўзгариш объектида морфологик, таркибий, функционал ва бошқа фундаментал, асосий, муҳим характердаги ўзгаришларни келтириб чиқарадиган аниқ ифодаланган ижодий ёки деградация йўналишининг чуқур, сифатли ўзгаришидир.

Япониялик муаллиф Акио Ҳосоно ўзининг “SDGs, Transformation, and Quality Growth” [16] деб номланган китобида “трансформация” тушунчасига кенгроқ тўхталиб ўтган. Унинг фикрича, “трансформация” контекстга қараб ўзгариб турадиган бир нечта ўлчамларга эга. Бу тушунча кўпинча саноат трансформацияси ёки саноат тузилмасини трансформация қилишни ифодалайди. У шунингдек иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришларнинг кенгроқ ўлчовларини ифодалайди. Осиё тараққиёт банки “трансформация” тушунчасига бешта асосий компонент нуқтаи назаридан таърифлаган. Биринчи ўқта компонент саноат (тузилма) трансформацияси билан боғлиқ: 1) ишлаб чиқариш омилларини қайта тақсимлаш; 2) ишлаб чиқариш ва экспорт саватларини диверсификация қилиш, янгилаш ва чуқурлаштириш; 3) янги ишлаб чиқариш усуллари ва жараёнлари ҳамда турли хил хомашёлардан фойдаланиш. Бошқа иккита компонент, урбанизация ва ижтимоий ўзгаришлар, кенгроқ трансформациялар билан боғлиқ. Саноат трансформацияси, урбанизация ва ижтимоий ўзгаришлар ўзаро узвий боғлиқдир. Саноат трансформацияси урбанизация ва ижтимоий ўзгаришларни тезлаштиради, ва аксинча.

Маҳаллий олимлардан А.Валижонов [17] “трансформация” тушунчасига ўз қарашлари ва ёндашувларини беришга уринган. Жумладан, у давлат иштирокидаги хўжалик жамиятини трансформация қилиш тушунчасини қуйидагича таърифлаган: “давлат иштирокидаги хўжалик жамиятини трансформация қилиш – бу уни бозор тамойиллари ва механизмлари асосида фаолият юритишига ўтказиш, унинг самарали ташкилий тузилмаси ва бошқарув тизимини яратиш, корхонанинг ички ҳамда ташқи бозорларда рақобатбардошлигини таъминлаш бўйича амалга ошириладиган чора-тадбирлар йиғиндиси”. Шунингдек, унинг фикрича, давлат иштирокидаги хўжалик жамиятини трансформация қилишнинг мақсади уларни рақобатбардошлигини ошириш, самарали бошқарув тизимини жорий этиш, ишлаб чиқариш таннархини қисқартириш ва молиявий-иқтисодий кўрсаткичларни яхшилашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш ҳисобланади.

Яна бир ўзбекистонлик олим Ғ.Ибрагимовнинг [18] фикрича, озиқ-овқат саноатини трансформациялаш, юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини, энг аввало, маҳаллий хом ашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришга қаратилган сифат жиҳатидан янги босқичга ўтказиш орқали тармоқни янада модернизация ва диверсификация қилиш, озиқ-овқат саноати тармоқларининг иқтисодий самарадорлигини ошириш ҳамда маҳсулот ва хизматлар бозорида монополияни босқичма-босқич камайтириш, янги маҳсулот ва технологияларни ўзлаштириш, ички ва ташқи бозорда миллий озиқ-овқат маҳсулотлари рақобатбардошлигини ошириш ислохотларнинг муҳим устувор вазифалари ҳисобланади.

Юқорида кўриб ўтилган саноат корхоналарини трансформациялашнинг назарий ёндашувларини монографик тадқиқот асосида ўрганиш бизга “саноат корхонасини трансформациялаш” тушунчасига қуйидаги муаллифлик таърифини шакллантиришга имкон

берди:

Саноат корхонасини трансформациялаш – бу шиддат билан давом этаётган ҳозирги бозор иқтисодиёти даврида ишлаб чиқарилаётган тайёр маҳсулотлар ёки кўрсатилаётган хизматларнинг рақобатбардошлигини ошириш, ҳалқаро сифат даражаси талабларига тўлиқ жавоб бера оладиган ва ҳалқаро даражада ўз ўрнига эга бўлган маҳсулот яратиш шунингдек атроф муҳитга экологияга ҳамда кадрлар ҳаёт хавфсизлигига салбий таъсир кўрсатмайдиган, уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширадиган, қулай меҳнат шароитларини яратиш берадиган фаолият мажмуидир.

Шундай қилиб, саноат корхоналарини трансформациялаш бу замон талаби миллий иқтисодиётда саноат тармоқларининг улуши доимо юқори бўлиб келган шунинг учун саноат тармоқларда доимий равишда трансформациялаш жараёнларини амалга ошириб зарур. Бу эса саноат тармоқларида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ва кўрсатилаётган хизматларининг ҳалқаро даражада юқори сифатда, шунингдек рақобатдош бўлиши билан биргаликда фаолият олиб бораётган мутахассис кадрларнинг ҳаёт хавфсизлигини сақлаш, уларни интеллектуал салоҳиятларини ошириш, қўл меҳнатини аксарият қисмини техника ўтказишдан иборат бўлади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б.. Современный экономический словарь. — 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М. 479 с.. 1999.
3. Социологический энциклопедический русско-английский словарь: более 10000 единиц / С. А. Кравченко. – М. : АСТ, 2004. – 512 с.
4. Cambridge Dictionary. Cambridge: Cambridge University Press. 2020.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010.
6. Станевич А.Ю. Процесс трансформации в российском обществе: теоретические подходы отечественных социологов // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Общественные науки. 2016. №1 (764).
7. Багрецов Н.Д. Трансформация, эволюция и развитие системы “предприятие”. // Аграрный вестник урала. – 2011. - №6 (85). – С. 57-59.
8. Орехова С.В., Романова О.А. Трансформация бизнес-модели промышленного предприятия на разных стадиях жизненного цикла // Управленец. 2016. №5 (63). – С. 2-15.
9. Щербаков Д.С. Стратегическая трансформация инновационного предприятия в условиях кризиса. // СРРМ. 2011. - №4. – С. 58-67.
10. Фёдоров И.Г. Комплексная трансформация предприятия при переходе к процессному управлению. // Открытое образование. - 2015. - №6. – С. 52-59.
11. Стеблякова Л.П. Трансформация экономических систем: теория и практика. Автореферат диссертации на соискании уч. степ. д.э.н. – Москва, 2010. – 54 с.
12. Лукашева Е.А. Трансформационные процессы XXI века: институциональный контекст. // Proceedings of the Institute of State and Law of the RAS. 2018. Volume 13. No. 5
13. Гринюк К.П. Трансформация промышленного комплекса региона в условиях смены технологических укладов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Санкт-Петербург 2019.
14. Штомпка П. Социология социальных изменений / пер. с англ. под ред. В. А. Ядова. – М. : Аспект Пресс, 1996. – 416 с.
15. Батанов И. А. Основы теории социально-экономических трансформаций. – СПб. : Изд-во С.-Петербургского гос. ун-та экономики и финансов, 2000. – 132 с.
16. Hosono A. SDGs, Transformation, and Quality Growth. Insights from International Cooperation. JICA Ogata Sadako Research Institute for Peace and Development 2022.
17. Валижонов А. Давлат ишгиرويдаги хўжалик жамиятларини трансформация қилиш тушунчаси ва моҳияти. // Журнал «Eurasian journal of law, finance and applied sciences». – Тошкент, 2023. - №7. - Б. 71-74.
18. Ибрагимов Ғ. Озиқ-овқат саноатини трансформациялаш асосида иқтисодий самарадорликни ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022.

ЭФФЕКТИВНОЕ РАЗВИТИЕ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Д.Н.Мирхамидова, и.о. доц., Ташкентский государственный технический университет, Ташкент

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotda yaratilgan "innovatsion tadqiqot mexanizmlari" ning to'liq siklini ta'minlaydigan samarali innovatsion mexanizmlarni yaratish masalalari ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Innovatsiya mexanizmi, innovatsion jarayon, innovatsion siyosat, innovatsion xavf, noaniqlik, potentsial natija, faoliyat, davlat boshqaruvi, globallashuv, istiqbolli yo'nalish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с созданием в национальной экономике эффективных инновационных механизмов, обеспечивающих полный цикл «исследование-производство».

Ключевые слова: Инновационный механизм, инновационный цикл, инновационная политика, инновационный риск, неопределенность, потенциальный результат, деятельность, государственное управление, глобализация, перспективная ориентация.

Abstract. In this article consider issues related with creating effective innovational mechanisms support full cycle "researching-production" in national Economic.

Key words: innovation mechanism, innovation cycle, innovation policy, organizational development, innovation risk, uncertainty, potential result, activity, public administration, achievements, globalization, perspective orientation.

Инновационный механизм может быть определен как высокоорганизованная совокупность бизнес-процессов, обеспечивающих полный цикл «исследование-производство». Для эффективного развития и функционирования инновационных механизмов требуется особая среда, порождающая инновации и делающая их не только возможными, но и необходимыми. Она включает в себя научно-исследовательские учреждения, конструкторские бюро и различного рода венчурные фирмы, генерирующие инновации и имеющие устойчивые отношения с промышленными предприятиями, а также развивающую или поддерживающую систему, создающую благоприятный инновационное- инвестиционный климат.

В экономически развитых государствах инновационные механизмы органично «встроены» в производственно-организационную структуру экономики. Так, практически все крупные компании в обрабатывающей промышленности с численностью свыше 10 тыс. человек имеют научно-исследовательские подразделения, в то время как в компаниях с численностью менее 1000 человек такие подразделения в большинстве случаев отсутствуют. Тем не менее, как в США, так и в Западные - Европейских государствах на долю малых и средних предприятий приходится до 30% инноваций, что в 10 раз превышает их удельный вес в общем объеме выполняемых НИОКР. Это соотношение является устойчивым и закономерным. Крупный бизнес, представленный автомобильными, электронными, электротехническими, химическими и биотехнологическими транснациональными корпорациями играет роль отраслевых центров вокруг которых группируются компании меньших размеров, которые, отличаясь адаптивностью и высоким потенциалом развития, осуществляют внедрение новых разработок в производственные процессы.

В таких организационных структурах, исключительно благоприятных для протекания инновационных процессов, конкуренция в ее традиционном понимании оказывается сильно подавленной уступая место сотрудничеству. Особенно это прослеживается на рынках метатехнологий, где контроль над рынком остается за разработчиком технологических принципов или ключевого компонента в широкой линейке производимых высокотехнологичных изделий. Эффективность отраслевых министерств, перспективных с точки зрения организации и поддержания инновационных задач общегосударственного

масштаба, и в первую очередь, задач, связанных с обеспечением обороноспособности страны. Плановый характер НИОКР и отсутствие рынка исключали формирование полного инновационного цикла (рис. 1). В условиях рынка эта задача оказывается не менее сложной, так как для эффективного инновационного процесса необходимо наличие поддерживающей системы, включающей в себя такие элементы, как:

1. Инновационный климат, обеспечивающий поток автономных инвестиций. Поскольку частный сектор не склонен финансировать научно-исследовательские проекты с неясным в ближайшей перспективе финансовым результатом, ключевым субъектом его создания в рыночной экономике выступает государство, сосредоточивая усилия в рамках инновационной политики по трем направлениям;

- Поддержание сферы НИОКР как источника предложения научно-технологических принципов, которые можно довести до новых технологий и продуктов;

- Содействие возникновению инновационных фирм, использующих новые разработки в области продуктов и технологий;

- Содействие распространению новых технологий по всему экономическому пространству при помощи таких средств, как современные системы коммуникации, создание демонстрационных центров и т. д.

2. Инновационная среда, образуемая интегрирующими структурами, действующими на стыке промышленности, науки и образования. В качестве таких структур в экономически развитых государствах выступают венчурные фирмы, транснациональные корпорации и университеты, имеющие тесные связи с промышленностью. Формирование интегрирующих структур связывается в основном с развитием венчурного бизнеса и созданием инновационной инфраструктуры: наукоградов, технополисов, зон высоких технологий, научных парков, инкубаторов бизнеса и т.д.

При таком, по отношению к развивающейся экономике, экзогенном регуляторе наличие развитой национальной системы, поддерживающей инновации, не является достаточным условием для обеспечения качества последних, необходимого для решения задач долгосрочного развития.



Рис.1 Полный инновационный цикл

Переход к новому технологическому укладу ввиду низкой экономической эффективности начального участка траектории развития не может быть пройден посредством исключительно рыночных механизмов с опорой преимущественно на честный бизнес. Вторая причина сложности прихода - понижение производительности капитала, где частный бизнес склонен к двум типам решений: экстенсивному расширению, компенсирующему снижение производительности капитала, и частичным инновациям, направленным на поддержание производительности капитала в пределах краткосрочного периода. Таким образом, в экономике переходного типа должны присутствовать инновационные механизмы двух типов: первый – обеспечивает прохождение первоначального участка в движении к новому технологическому

укладу, второй – интенсивное коммерческое внедрение новых технологий. Дополняя и поддерживая друг друга, оба типа инновационных механизмов должны создавать завершённый инновационный цикл «наука–венчуры - промышленность».

Однако результатом возникновения закрытых рынков и контроля над ними со стороны корпорации- разработчиков новых технологий является непропорционально высокий рост цен на новую технику по отношению к заработной плате, что особенно характерно для экономик переходного типа, в том числе российской. А это, в свою очередь, порождает ситуацию, в которой эффективность бизнеса достигается путем замены дорогостоящей техники относительно дешевым трудом, т.е. в экономике переходного типа, возможна инверсия научно-технического прогресса, приводящая к упрощению технологий. Явления подобного типа не являются уникальными, поскольку возникали в условиях кризиса в большинстве индустриальных стран, но ввиду несопоставимости масштабов кризисных явлений при переходе российской экономики к рынку, траектория технологического регресса российской экономики может быть достаточно устойчивой.

В связи с этим инновационные механизмы в условиях переходной экономики должны выстраиваться с учетом возможности развития технологического регресса, возникающего на основе диспропорциональности в рыночных ценах «живого» труда и капитала, без устранения которой переход к новому технологическому укладу становится маловероятным. Поэтому, оставаясь основополагающим, инновационный финансовый механизм, связывающий науку с предпринимательством, должен включать либеральную и экзогенно управляемую (государственное регулирование и управление) составляющие (рис.2).

Первая составляющая– либеральный инновационный механизм,- предполагает независимое функционирование субъектов цикла «исследование – разработка-производство» и основан на их самоорганизации и самостоятельном привлечении инвестиций; основу второй составляет государственное регулирование и управление инновационным процессом.

Реализация государственной инновационной политики достигается через отвечающее современным требованиям отраслевое управление, имеющее форму партнерства, в функции которого входят аккумулирование и анализ проблем, оперативное принятие важнейших решений, стратегическое планирование, целевая поддержка крупных проектов и подрядов, а также координация участников инновационного цикла.

Отсутствие на рынке «длинных» кредитов ставит перед отраслевым управлением дополнительные задачи чисто финансового характера, к числу которых могут быть отнесены поддержка перспективных крупномасштабных проектов, предоставление налоговых льгот инновационным предприятиям, выделение государственных дотаций на проведение НИОКР и осуществление научно–исследовательских программ, в том числе международных.




Рис.2. Основные инновационные механизмы

Основу либерального инновационного механизма составляет инновационное предпринимательство или венчур, характерная особенность функционирования которого – повышенный риск. В связи с этим в мировой практике агентам инновационного процесса

государством создаются особые условия – благоприятные инновационные климат и среда. Но необходимым условием развития венчурного бизнеса является наличие в экономике инвесторов, готовых финансировать венчурные проекты. Как правило, венчурные капиталовложения составляют незначительную часть общих инвестиций в экономику (2% ВВП в среднем по ЕС и 2,8-2,9 % в США и Японии), но именно они определяют динамику ее развития. В свою очередь, для инвестора аргументом в пользу таких вложений, связанных с повышенным риском, выступает высокая технологическая рента.

В развитых экономиках механизм венчурного финансирования может быть реализован по различным схемам. Так, в Великобритании и в инновационный сектор привлекаются частные сбережения; в США финансирование происходит через фондовый рынок (NASDAQ). В России перспектива развития и эффективного функционирования венчурного механизма ввиду низкого уровня накоплений у населения, неразвитости фондового рынка, отсутствия доверия к финансовым институтам на настоящем этапе представляется маловероятной. В 2000 г. был создан Венчурный инновационный фонд, предназначенный для формирования отраслевых и региональных венчурных фондов, но, как показал опыт последующих пяти лет, эффективность его не была высокой – образовано всего два фонда. Еще один вариант привлечения венчурного финансирования для поддержки перспективных инновационных проектов – проведение венчурных ярмарок, однако итоги пяти таких ярмарок показали, что менее 15 компаний – участников смогли найти инвесторов и около 6 % компаний находятся в стадии переговоров. Третий тип инновационного механизма – корпоративный, в котором сочетаются два начала: централизация управления циклом «исследование – разработка – производство» и его полная дезинтеграция, принимающая самые различные организационные формы, в том числе такие, как аутсорсинг. Становления инновационных механизмов, усиливаться по двум направлениям:

- Создание собственных исследовательских подразделений или институтов;
- Финансирование научно-исследовательских проектов, выполняемых в организациях государственного сектора науки и визах.

С учетом формирующейся государственной инновационной политики, а также интереса к НИОКР со стороны бизнеса, становлении инновационного механизма, как частно-государственное партнерство (ЧГП), под которым понимается стимулирование разнообразными методами (финансовыми, организационными и т.д.) частного бизнеса в инновационной деятельности. Практика применения ЧГП в ряде Западно-Европейских стран показывает его высокую эффективность в тех областях, где государство и бизнес имеют взаимодополняющие интересы, но не способны эффективно действовать самостоятельно и независимо друг от друга. Значительный опыт использования ЧГП накоплен в странах Юго-Восточной Азии. По существу, это был наряду построением материальной инфраструктуры инновационной деятельности и лицензированием патентов на зарубежные технологии, один из инновационных механизмов, обеспечивших «инновационный рывок».

ЧГП – достаточно гибкий инновационный механизм, способный принимать разнообразные формы. В научно-технологической и инновационной сферах встречаются такие решения, как софинансирование научно-исследовательских проектов на доконкурентной стадии, софинансирование ранних стадий коммерциализации, создание совместных исследовательских центров в областях которые традиционного находятся в зоне ответственности государства, например, здравоохранение, охрана окружающей среды оборона. Что касается финансового аспекта, то опыт стран ЮВА показывает эффективные пропорции софинансирования проектов государством и частным бизнесом, составляющие соответственно от 1:1,5 (Сингапур, Малайзия) до 1:3 (Корея, Тайвань).

Подводя итог, можно говорить, что инновационная сфера экономики должна представлять собой единство иерархической, функциональной и обеспечивающей структур а решение сложной задачи инновационного развития должно носить комплексный и систематический характер.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Дежина И., Салтыкова Б. Механизмы стимулирования коммерциализации исследований и разработок. Научные труды № 72-3. М.: ИЭПП, 2014.
2. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия-2050: Стратегия инновационного прорыва. М.: «Экономика» 2015.
3. На пороге экономики знаний (мировая практика научно-инновационного развития) / А.А.Дынкин, А.А.Дагаев. -М.: ИМЭМО РАН, 2010.
4. Материалы Всероссийской конференции «Пути преобразования и развития отечественного машиностроения». Стенограмма. М.: Международный союз машиностроителей и Лига содействия оборонным предприятиям, 2021.
5. Цыганов В.В., Бородин В.А., Шишкин Г.Б. Интеллектуальное предприятие; механизмы овладения капиталом и властью. М.: Университетская книга, 2014.

УДК 33:004+001.89(075.8)

ТРАНСФОРМАЦИЯ РОЗНИЧНОЙ И ОПТОВОЙ ТОРГОВЛИ В ЦИФРОВОЙ СФЕРЕ
В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Г.Н.Орипова, докторант, Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан, Институт подготовки кадров и статистических исследований, Ташкент

Annotatsiya. Maqolaning maqsadi – Markaziy Osiyo mintaqasidagi elektron tijorat holatini holis baholash, shu asosda O'zbekistonda raqamli tizimdagi transformatsiya sharoitida onlayn tijoratni kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan dolzarb muammolarni aniqlash. Savdoning zamonaviy yuqori samarali shakllari va usullari tarmoqlarining rivojlanishi uni zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasiga aylantirishga olib keladi. Xususan, bu savdoning kichik shakllari quyidagilar: qulay do'konlar yoki yoqilg'i quyish shaxobchalaridagi chakana savdo nuqtalari, diskontlar.

Kalit so'zlar: ulgurji va chakana savdo, B2B, B2C, SWOT-tahlil, elektron tijorat, elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.

Аннотация. Цель статьи – объективная оценка состояния электронной коммерции в Центрально-азиатском регионе, на основе которой выявление актуальных проблем, препятствующих расширению онлайн-торговли в Узбекистане в условиях серьезной трансформации в цифровой сфере. Развитие сетей современных высокоэффективных форм и методов торговли приводит к ее трансформации в современную сферу услуг. В частности, это малые формы торговли: магазины шаговой доступности или торговые точки при заправках, дискаунтеры.

Ключевые слова: оптовая и розничная торговля, B2B, B2C, SWOT-анализ электронной коммерции, этапы развития электронной коммерции.

Abstract. The purpose of the article is an objective assessment of the state of electronic commerce in the Central Asian region, on the basis of which the identification of urgent problems that impede the expansion of online commerce in Uzbekistan in the context of a serious transformation in the digital space. The development of networks of modern highly efficient forms and methods of trade leads to its transformation into a modern service industry. In particular, these are small forms of trade: convenience stores or retail outlets at gas stations, discounters.

Keywords: wholesale and retail trade, B2B, B2C, SWOT analysis of E-commerce, development stages of e-commerce.

Введение. Авторы этого исследования рекомендовали пересмотреть математическую модель, которая в настоящее время используется для определения того, как распределяется банковский капитал, на основе того, что они обнаружили в ходе этого исследования. Таков был ответ на вопрос, заданный в начале дискуссии Коппола, Д. (2020). Модель состоит из группы обыкновенных дифференциальных уравнений первого порядка, основанных на методе «хищник-молитва». Признаки присутствуют на рынке, на котором различные цены конкурируют друг с другом. Чтобы «реализовать» модель как набор чисел и принять во внимание три отдельные группы значений стартовых параметров, модель должна быть «реализована» Грибанов, Ю. И. (2019). Это исследование показывает, как можно построить четкую динамику банковского капитала, исходя из множества разных мест его исхода.

Кобиллов, А. и др. (2020). Поскольку решение по одному из трех вариантов уже принято, два других больше не являются жизнеспособным выбором. Модель становится более общей за счет учета дробных производных показателей банка по времени, которые показывают, насколько быстро они изменяются. С помощью математических расчетов показано, что при изменении порядка производных от единиц динамика банковского капитала движется медленнее. Показано, что задержка в динамике показателей увеличивается по мере удаления порядка производных от единицы. В каждом рассмотренном случае индикаторы имеют тенденцию приближаться к уровням равновесия.

Оборот розничной торговли в Узбекистане в 2022 году составил \$24,1 млрд (для сравнения: в России - \$553 млрд, в Казахстане - \$31,4 млрд, в Белоруссии - \$23,6 млрд). Розничный товарооборот на душу населения в месяц по итогам 2022 года в Узбекистане составил \$68,4.

До 2019 года средние темпы роста розничной и оптовой торговли находились на уровне до 10%, в условиях пандемии коронавируса, полного локдауна экономики страны темпы роста упали до 2,4%. Несомненно, этот период открыл возможности для онлайн-торговли, что впоследствии привело к значительному темпу роста - более 10%. Совокупное воздействие развития традиционной и прорыва электронной коммерции ускоряют процессы как розничной, так и оптовой торговли с ростом на 24-33% ежегодно. Этому способствуют не только государственное регулирование торговли, льготы и преференции для предпринимательства, но и повышение уровня доходов населения, ускорение развития высоких технологий онлайн-торговли, рост уровня охвата Интернетом и использования мобильных смартфонов, приложений, развитие почтовых и логистических услуг в торговле.

Методология. Торговые организации выполняют функции триггера, который за счет современных технологических возможностей и растущих доходов населения стимулирует развитие новых форм розничной торговли, реализуемой торговыми сетями.



Рис. 1. Динамика внутренней торговли Узбекистана

Источник: Подготовлено автором (2023 г.)

В настоящее время в Узбекистане наблюдаются следующие тенденции развития современной торговли:

1. Развитие сетей современных высокоэффективных форм и методов торговли приводит к ее трансформации в современную сферу услуг. В частности, это малые формы торговли: магазины шаговой доступности или торговые точки при заправках, дискаунтеры.

2. Рост доли потребительского кредитования в кредитном портфеле, который составил 6,8% на сумму 2 млрд долларов. США в Узбекистане в начале 2022 года, что привело к увеличению розничного товарооборота и, как следствие, прибыльности электронной

коммерции за счет улучшения онлайн-платежей через приложения мобильного банкинга. Однако среди стран Содружества доля потребительского кредитования самая низкая в стране, что свидетельствует о различии в структуре кредитования домохозяйств, отдающих предпочтение ипотечному кредитованию.

3. Повышение конкурентоспособности привело к слияниям и поглощениям торговых предприятий, внедрению кластерной формы управления в организованной торговле с участием иностранного капитала. На начало 2023 года оборот крупных предприятий составил 58 668,9 млрд сум (темп роста – 131,8 %), малого бизнеса и частного предпринимательства – 217 163,0 млрд сум (темп роста – 107,5 %), в том числе неорганизованная торговля составила 22 741,1 млрд сум (темп роста – 111,9%).

Электронная коммерция в Узбекистане в 2020 году принесла доход в размере \$481,3 млн и составила 68% от общего цифрового дохода в стране, а остальные 32% пришлось на цифровые медиа, электронные услуги и электронные путешествия. Согласно исследованию Statista, проведенному Департаментом международной торговли Министерства торговли США, доходы от электронной коммерции в Узбекистане будут расти на 6,3% ежегодно к 2025 году. Однако расходы на цифровые технологии в Узбекистане невелики и составили 1,2% потребительского спроса. расходы на душу населения в 2020 году по сравнению с 3,1% в среднем по Азии.

Люди в основном покупают онлайн модную одежду (32%) и электронику (31%), за ними следуют продукты питания и средства личной гигиены (14%), игрушки, товары для хобби и товары для дома (11,5%), а также мебель и бытовая техника (11%). В республике появились онлайн-платформы, которые создают сайты для местных торговых организаций для продажи товаров и услуг. Электронная коммерция по модели быстро растет как на национальных, так и на международных маркетплейсах, последние, в свою очередь, более популярны и успешны как в мире, так и в республике. Продвижение услуг электронной коммерции осуществляется через социальные сети (Facebook, Telegram и другие). Цифровизация многих банковских услуг по погашению долгов и кредитов, платежей стимулировала рост электронной коммерции по модели B2B.




Рис.2. Доля потребительского кредитования в СНГ

Источник: Подготовлено автором (2023 г.)

Таблица 1.

SWOT-анализ развития электронной коммерции в Узбекистане

Сильные стороны:	Слабые стороны
Отсутствие барьеров для онлайн-предпринимательства, низкие	Уровень цифровизации низкий. Лишь 26% частных

<p>транзакционные издержки, что повышает конкурентоспособность торговых организаций;</p> <p>Налоговые льготы и преференции при ведении электронной коммерции;</p> <p>Совершенствование нормативно-правовых документов, регулирующих онлайн-торговлю; Умение применять клиентоориентированный подход при осуществлении операций;</p> <p>Постоянный рост потребителей, совершающих покупки через Интернет; Улучшение платежных услуг, рост платежей через банковские карты;</p>	<p>фирм, официально работающих в Узбекистане, имеют собственные веб-сайты, что значительно ниже среднего показателя по региону (63%); Отсутствие показателей и статистики электронной коммерции со стороны официальных статистических органов; Низкий уровень конкурентоспособности отечественной электронной коммерции, что приводит к оттоку средств в пользу приграничной торговли.</p>
<p>Возможности:</p> <p>Развитие многоканальной и омниканальной электронной коммерции;</p> <p>Концепция развития зеленой экономики позволит менее развитым регионам страны более активно участвовать в электронной коммерции при условии государственной поддержки; Высокий уровень заработка в сфере электронной коммерции стимулирует молодых людей к саморазвитию и овладению навыками в сфере ИКТ и SMM;</p> <p>Снижение безработицы и развитие инновационной занятости, сокращение социальной дифференциации.</p> <p>На фоне политической нестабильности в странах-соседах интерес потенциальных потребителей сделать закупки растут, замещая продукцию, ушедшую с рынка западных производителей посредством электронной коммерции.</p>	<p>Угрозы:</p> <p>А высокий уровень приграничной торговли приводит к уходу с рынка отечественных торговых организаций;</p> <p>Нечестная торговая практика;</p> <p>Уклонение от налогообложения и других социальных выплат стимулирует открытие субъектов электронной коммерции-однодневок, направленных на воровство и обман.</p> <p>Отсутствие этических норм ведения электронной коммерции приводит к безответственному отношению участников биржи.</p>

*информация составлена автором самостоятельно по результатам исследования

Источник: Подготовлено автором (2023 г.)

На сегодняшний день Узбекистан занимает второе место по доле фирм (51,2%, без учета микропредприятий), которые внедрили или расширили использование цифровых платформ в ответ на пандемию. Несмотря на это, степень цифровизации бизнес-процессов по-прежнему низка, 26% официально действующих частных фирм в Узбекистане имеют собственные веб-сайты, что значительно ниже среднего показателя по региону (63%), что свидетельствует о замедлении проникновения частного сектора в цифровое пространство, что приводит к отставанию внутренней электронной коммерции от трансграничной.

Несмотря на недостаточный уровень и качество предложения на рынке электронной коммерции в республике, наблюдается стремительный рост спроса на товары, услуги интернет-магазинов, улучшение инфраструктуры, доступный мобильный интернет. Объем электронной коммерции по итогам 2022 года в стране составил 264 млн долларов США. 1/3 (9,6 млн человек) интернет-пользователей активно участвуют в покупке товаров и услуг маркетплейсов.

Таблица 2.

Доля электронной коммерции в розничном товарообороте Узбекистана

Индикаторы	2017	2018	2019	2020	2021	2022 Январь-ноябрь
Объем розничной торговли, млрд сум	88071,6	105229,9	133195,2	199518,8	252056,6	275 831,8
Темп роста, %	100,0	119,4	126,5	147,7	126,3	109,4
Объем оптовой торговли, млрд сум	42185,9	63185,9	93322,8	120451,1	172790,1	212 524,0
Темп роста, %	100,0	149,7	147,6	129,0	143,4	122,9
Темп роста, %	130275,5	164415,8	226518	319969,9	424846,7	488355,8
Темп роста, %	100,0	126,2	137,7	141,2	132,7	114,9
Объем торговли, млрд сум	14,6	40,8	275,3	481300	168000	264000
Темп роста, %	100,0	2,8 раз	6,7 раз	1750раз	34,9	157,1
Объем электронной коммерции, тыс. долларов США	8100	8339	9507	10477	10838	11225
Темп роста, %	100,0	102,9	114,0	109,8	103,4	103,5
	0,009	0,002	0,01	0,011	0,016	0,60

*Составлено автором на основе данных Государственного агентства по статистике Республики Узбекистан.

Источник: Подготовлено автором (2023 г.)

В настоящее время существует множество источников информации, механизмов прогнозирования, методов и компьютерных программ, которые используются при прогнозировании. Методы прогнозирования развития социально-экономических событий можно разделить на три группы. К первой группе относятся те, которые экстраполируют и моделируют закономерности на основе изменений изучаемого объекта; вторая группа

основана на рассмотрении анализируемого явления; к третьей группе относятся комбинированные методы.

В первую группу входят методы прямой экстраполяции, методы кривой экстраполяции, методы корреляции и регрессии, альтернативные методы прогнозирования и т. д.

К методам второй группы относятся различные модификации методов индивидуального и коллективного обследования.

Методы прямой экстраполяции основаны на изучении изменения экономических событий в течение прогнозируемого периода и дальнейшей реализации обнаруженных закономерностей.

Преимуществом метода экстраполяции является широкая универсальность схемы расчета, нетребовательность алгоритма расчета, наличие компьютерной программы, позволяющей автоматизировать обработку исходной информации.

Недостатком метода является необходимость длительного использования базы данных; невозможность применения принципа инерции (при сохранении обычного движения) при предсказании будущего; снижение его точности при прогнозировании на долгосрочную перспективу.

Анализируя временные ряды, многие исследователи пытались строить различные прогнозы, экстраполируя ряды (расширяя ряды) и предсказывая их будущее состояние на основе изучения природы прошлых событий.

При реализации прогноза объема розничной торговли в Республике Узбекистан проанализировала статистические данные республики за 2017-2021 годы с использованием линейно-функциональной аналитической формы моделей прогнозирования.

$$\begin{cases} n * a_0 + a_1 \sum x = \sum y \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 = \sum x * y \end{cases}$$

где n – количество лет, x – влияющий фактор (в нашем примере годы), y – показатель эффективности (в нашем примере экономический показатель), a0 и a1 – коэффициенты функции соответственно.

Путем экстраполяции временных рядов данных за десять лет была построена модель показателей $y = a_0 + a_1 * x$ и сделал следующий прогноз.

Таблица 3.

Объем розничной торговли, млрд сум

Индикаторы	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Розничная торговля	88071,6	105229,9	133195,2	199518,8	252056,6	282292,1	324518	366743,9

Источник: Подготовлено автором (2023 г.)

Линейная функция математической модели изменения этого показателя по годам определялась путем экстраполяции с использованием табличных данных. По ее словам $y=28936,7+42225,9*n$ - где n – количество лет (для построения модели использовались данные за 5 лет – с 2017 по 2021 год, подставляя в n 6 и более лет и можно определить результирующий показатель в соответствующем году) и y – объем услуг на душу населения.

Установлена корреляция показателя объема услуг, оказываемых регионом, с объемом услуг на душу населения, и она оказалась очень высокой, равной $r=0,973$.

Доля электронной коммерции в общем объеме торговли республики имеет тенденцию к росту. За последние 6 лет в условиях фундаментальной трансформации в сфере электронной коммерции доля электронной коммерции выросла до 0,6%, тогда как в 2017 году она едва достигла 0,01%. Максимальный оборот электронной коммерции наблюдался в периоды пандемии, когда торговля B2C достигла рекордного уровня во всех странах.

Результаты: Это положительно влияет на ряд параметров, включая уровень инфляции, долю населения, доходы которого ниже уровня, необходимого для существования, динамику валового регионального продукта, рост приграничной торговли, среди других вещей.

Все это приводит к быстрому оттоку потребителей от традиционной торговли к онлайн-торговле и перерастанию в трансграничное пространство экспорта и импорта товаров и услуг. Ежегодный рост доли электронной коммерции в ВВП страны оценивается в 30%. При этом общая емкость рынка электронной коммерции в Узбекистане оценивается экспертами в 12–15

миллиардов долларов США. Правительство активно разрабатывает специализированные стратегии и программы развития электронной коммерции, частично учитывая специфику нового типа взаимоотношений между участниками процесса электронной коммерции, принимая во внимание горизонтальные меры, способствующие формированию систем, которые влияют на всю цепочку создания стоимости, включая связанные с ней процессы, обеспечивающие электронную коммерцию.

Внедрение новых бизнес-моделей привело к появлению более сложных операций и создает новые вызовы и задачи, которые необходимо решать быстро и эффективно. Прежде всего, речь идет о размытии границ между товарами и услугами и, как следствие, неопределенности в применении правил торговли. В самом производственном процессе растет доля услуг – услуги проектирования, проектирования, исследования и другие услуги, часто координируемые в электронном виде, становятся неотъемлемой частью «умных товаров». Предприятия смещают свое внимание, стирая границы между некогда разными отраслями.

Вывод: Когда доля электронной коммерции в валовом внутреннем продукте (ВВП) страны и региона растет, показатели социально-экономического развития улучшаются. На данном этапе стоит задача построить собственную среду электронной коммерции и интегрироваться с глобальными системами на основе долгосрочных стратегий, определить архитектуру электронной коммерции, которая может быть централизованной (единая наднациональная структура), децентрализованной (совокупность национальные структуры) или гибридные.

В центре электронной среды находится потребитель, который активно участвует в процессе производства и торговли своей информацией, самостоятельно создает контент в виде отзывов, комментариев и жалоб. В конечном итоге именно потребитель определяет, какие модели взаимодействия участников развиваются в цифровой среде. Меняется и сам потребитель, возникают поколенческие типы потребителей. Специализированное регулирование фрагментировано и непрозрачно. Национальные торговые площадки сталкиваются с неблагоприятными конкурентными условиями по отношению к участникам глобальной торговли с точки зрения налогообложения, требований безопасности и т. д. Элементы цифровых инфраструктур находятся на разных уровнях зрелости, что не позволяет обеспечить синхронность и отлаженность процессов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Arabov, N., Nasimov, D., Khuzhayorov, H., Ananth, C., & Kumar, T. A. (2022). Modelling of Commercial Banks Capitals Competition Dynamics. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(5). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.476
2. Kobilov, A. E., Kurbonov, O. A., Amirov, A. M., & Usmanova, D. K. (2020). The impact of investment on the economic development of Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(7 Special Issue), 2008- 2015. DOI:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202317
3. Porto, R. B. ., Watanabe, E. A. de M., Barrozo, M. M. A. ., & Souza Júnior, E. X. de. (2021). Electronic Word-of-Mouth Advertising Versus Brand Strength: Effects On Consumers' Purchasing Decision. *International Journal of Professional Business Review*, 7(1), e0250. <https://doi.org/10.26668/businessreview/2022.v7i1.250>
4. Яковенко, Алексей Алексеевич. "К вопросу о гражданско-правовом регулировании электронной коммерции в Республике Узбекистан,(On the issue of civil law regulation of e-commerce in the Republic of Uzbekistan)." *Журнал юридических исследований* 6, no. 2 (2021): 181-192.

УЎК 330.101

СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА ТИББИЙ СУҒУРТАНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

М.Н.Умурзакова, PhD, Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

Аннотация. Мақолада соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришда тиббий суғуртани ташкил этишининг концептуал асослари таҳлил қилиниб соғлиқни сақлаш соҳасини молиявий қўллаб-қувватлашининг мақбул ташкилий тузилмаси ва моделини яратиши ҳамда тиббий суғурта ривожланишининг ижобий ва салбий тенденцияларини аниқланган.

Калим сўзлар: аҳоли саломатлиги, тиббий суғурта, соғлиқни сақлаш, соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш, тиббий ёрдам, пуллик тиббий хизмат.

Аннотация. В статье анализируются концептуальные основы организации медицинского страхования при финансировании сферы здравоохранения, создается оптимальная организационная структура и модель финансового обеспечения сферы здравоохранения, а также выявляются положительные и отрицательные тенденции в развитии медицинского страхования.

Ключевые слова: здравоохранение, медицинское страхование, здравоохранение, финансирование здравоохранения, медицинская помощь, платная медицинская услуга.

Abstract. The article analyzes the conceptual foundations of organizing health insurance when financing the healthcare sector, creating an optimal organizational structure and model of financial support for the healthcare sector, and also identifying positive and negative trends in the development of health insurance.

Key words: healthcare, medical insurance, healthcare, healthcare financing, medical care, paid medical service.

Кириш. Соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш имкониятларини кенгайтириш, шунингдек, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш даражасини ошириш мақсадида тиббий суғуртани ривожлантириш суғуртанинг замонавий фаолиятининг муҳим босқичи ҳисобланади. Тиббий суғуртани такомиллаштириш муаммоси дунёнинг кўплаб ривожланган мамлакатлари учун долзарбдир, чунки бу соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришнинг самарали механизмини шакллантириш омили бўлиб, ўз навбатида, бутун давлат иқтисодиётининг ривожланишига таъсир қилади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштириш ва тиббий хизматлар бозорини шакллантиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари А.Ш.Бекмуродов, А.В.Вахабов, Т.С.Маликов, Н.Х.Хайдаров, Н.Х.Жумаев, Х.И.Баев, П.З.Хошимов, Ш.Е.Абдуллаева, Д.Б.Бахрамова, Д.А.Рахмонов, О.Р.Райимбердиева, Г.А.Қосимова, Ў.Д.Ражабовларнинг илмий асарларида тадқиқ этилган.

Иқтисодий адабиётда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимида мажбурий тиббий суғурталашни ўрни, тиббий суғурталашни ривожлантиришнинг хориж тажрибасидан Ўзбекистон амалиётида ижодий қўллаш имкониятлари комплекс равишда мустақил тадқиқот объекти сифатида ўрганилмаган.

Тадқиқот методологияси. Илмий мақолани ёзиш жараёнида илмий тадқиқотни амалга оширишнинг тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, монографик таҳлил ва гуруҳлаш усуллари қўлланилган

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси. Соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришнинг учта асосий ташкилий-иқтисодий моделини ажратиш мумкин (1-жадвал). Соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришнинг давлат модели (Бевериж модели) бюджет манбаларидан (90% гача) молиялаштирилади ва иқтисодиёти ривожланган, барқарор солиқ тизими, бандлик даражаси юқори ва демографияси мувозанатлашган мамлакатларда муваффақиятли фаолият юритади. Мазкур модел Буюк Британияда ишлаб чиқилган бўлиб, суғурта мукофотлари орқали ижтимоий таъминотни яхшилашга қаратилган бўлиб, уларнинг тўловчилари:

Буюк Британияда соғлиқни сақлаш соҳасини бюджетдан молиялаштириш тизими қўлланилади ва 1912 йилда мажбурий тиббий суғурта тамойилларини назарда тутувчи "Суғурта тўғрисида"ги қонун қабул қилинган. Англия, Шотландия ва Ирландия аҳолисининг учдан бир қисмини мажбурий тиббий суғурта билан қамраб олди. Миллий соғлиқни сақлаш тизими солиқ тўловчилар томонидан киритилган маблағлар (соғлиқни сақлаш соҳаси бюджетининг 90%) ҳисобидан мавжуд бўлиб, ҳукумат томонидан соғлиқни сақлашга ижтимоий харажатлардан ажратилади; Бюджетнинг 7,5 % ни иш берувчиларнинг бадаллари ҳисобидан шакллантирилади. Барча ходимлар мажбурий тиббий суғуртага тортиладилар,

турмуш қурган ишсиз аёллар эса бундан мустасно. Ушбу маблағлар ҳисобидан вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик ва касаллик муносабати билан моддий ёрдам кўрсатилади. Беморлар даволаниш нархининг 10 % ини тўлайдилар.

Германияда марказлаштирилмаган тиббий суғурта тизими (Бисмарк модели) мавжуд бўлиб, у 1200 дан ортиқ профессионал тиббий суғурта фондларини (суғурта фондлари), худудий асосда қурилган ва федерал даражада фаолият юритувчи суғурта фондларини ўз ичига олади. Худудий тиббий суғурта компаниялари корхоналарда суғурта қилинмаган фуқаролар тоифаларини суғурта қилиш билан шуғулланади. Суғурта фондларининг санаб ўтилган турлари давлат тиббий суғуртаси тизимига киритилган. Бу мамлакат биринчилардан бўлиб тиббий суғуртани жорий қилди ва "меҳнат қонунчилиги даври" ни бошлади. Германияда тиббий суғурта фондлари автоном ташкилотлар бўлиб, уларга суғурта бадали миқдорини унинг базавий даражасидан сезиларли даражада юқорироқ белгилаш, шунингдек, тиббий хизматлар қўламини асосий дастурдан ташқари кенгайтириш, ўзаро суғурта шакллари танлаш, тиббий-профилактик муассасалари билан ҳисоб-китоблар шакллари танлаш ҳуқуқлари берилган. Уларнинг давлатдан тўлиқ молиявий мустақиллиги шунда акс этади.

Францияда тиббий суғурта 1910 йилда ўзаро ёрдам фондлари шаклида фаолият кўрсата бошлади. 1928 йилдан буён бу фондлар суғурта компанияларига айлантирилди. Бугунги кунда Францияда вертикал тиббий суғурта тизими мавжуд бўлиб, унга қуйидагилар кирилади: Ижтимоий хавфсизлик ва меҳнат вазирлиги томонидан назорат қилинадиган Миллий суғурта ташкилоти ва 129 та маҳаллий бўлимлар (суғурта жамғармалари), уларнинг ҳар бири алоҳида минтақада суғурта учун жавобгардир ва бир-бири билан рақобатлашмайди. Маҳаллий филиаллар маълум миқдордаги мустақилликга эга, аммо марказдан маъмурий назоратга ўтиб туради. Франция тиббий суғурта тизими аҳолининг 78% ини қамраб олган.

1-жадвал


Соғлиқни сақлаш соҳасини ташкил этиш ва молиялаштириш моделлари

Белгилари	Давлат ёки бюджет	Суғурта тиббиёти ёки бюджет суғуртаси	Аралашган
Молиялаштиришнинг асосий манбалари	Давлат бюджети	Давлат бюджети, иш берувчи ҳиссаси, ходим ҳиссаси	Бемор маблағлари, ихтиёрий суғурта бадаллари
Соғлиқни сақлашни бошқариш	Давлат, ижро этувчи ҳокимият органлари	Давлат, ижро этувчи ҳокимият органлари	Давлат, автоном
Молиялаштириш ни марказлаштириш даражаси	ЯИМ (Ялпи ички маҳсулот) ни бюджетда марказлаштиришнинг ўртача даражаси 35-45% гача бўлган мамлакатларга хосдир.	У ЯИМ (ялпи ички маҳсулот) нинг давлат марказлашуви юқори бўлган мамлакатларда қўлланилади, яъни 50-60%.	У ЯИМ (ялпи ички маҳсулот) нинг марказлашуви унчалик катта бўлмаган - тахминан 25-30% бўлган мамлакатларда қўлланилади, бу ерда жисмоний шахсларнинг маблағлари устунлик қилади.

Суғурталанган шахслар шифокорларни ўзлари танлашлари мумкин ва даволаниш харажатлари деярли тўлиқ ижтимоий суғурта томонидан қопланади. Бошқа (қопланмаган) қисми жамоавий меҳнат шартномаларида назарда тутилган ижтимоий кафолатлар туфайли тўланади. Ижтимоий тиббий суғурта бадаллар ва махсус солиқлар ҳисобидан молиялаштирилади. Ходимнинг умумий иш ҳақининг 13,55% ижтимоий суғурта жамғармасига ушлаб қолинади (12,80% ушлаб қолиш иш берувчи ҳисобидан, 0,75% - ходим ҳисобидан амалга оширилади).

ХІХ аср бошларида **АҚШ**да биринчи нодавлат ижтимоий фондлар пайдо бўлди, уларнинг асосий тамойиллари корпоратив капитални бошқариш эди. Нодавлат ижтимоий суғуртанинг асосини суғурталанган шахснинг шахсий бадаллари ташкил этади, уларнинг миқдори даромад даражасига, муайян шахснинг соғлиғига таъсир қилувчи омилларга (ёши, касби, турмуш тарзи) ва демографик омилларга (ўртача умр кўриш давомийлиги, нафақага чиққандан кейинг яшаш даври ва ҳоказо.) боғлиқ. АҚШда соғлиқни сақлашга сарфланган ҳар

бир долларнинг 42 % стационар ёрдамни молиялаштиришга кетади; 28 % шифокор ва бошқа клиник хизматлар учун; 13% фармацевтика харажатларига; 8% умрбод парваришlash учун уй харажатлари учун; 5% - стоматологик харажатлар; 4% - соғлиқни сақлаш соҳасидаги давлат фаолиятини молиялаштиришга сарфланган маблағлардир (1-расм).



1-расм. АҚШ да 1 АҚШ долларига тўғри келадиган соғлиқни сақлаш харажатлари таркиби

Шундай қилиб, соғлиқни сақлаш суғурта тамойилларига асосланган Германияда бюджет маблағларининг улуғлиги унчалик катта эмас ва умумий харажатларнинг 10,2 % ни ташкил қилади. Ушбу соҳада бюджет харажатларининг энг катта роли Буюк Британияга тегишли умумий миқдорнинг 85%, чунки бу тизим бюджетдан молиялаштиришга асосланган. АҚШ ни ҳисобга олмаганда, бошқа давлатларда хусусий молиялашнинг улуғлиги умумий харажатларнинг 30% ни ташкил қилади, жуда сезиларсиз ва соҳа бюджетининг 5-13% ни ташкил қилади.

Соғлиқни сақлаш бюджетида етакчи ўринни суғурта тамойиллари бўйича тўпланган маблағлар эгаллайди: уларнинг умумий миқдори Германияда 77,5%, Нидерландияда – 80%, бу тиббий ёрдамни молиялаштиришнинг муҳим манбаларидан бири суғурта механизмлари орқали маблағларни жалб қилиш эканлигини кўрсатади (2-жадвал).

2-жадвал

Германия, Голландия, Буюк Британия, АҚШда соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш манбалари, %.

Молиялаштириш манбалари	Мамлакат			
	Германия	Голландия	Буюк Британия	АҚШ
Бюджет	10.2	45,0	85,0	44,0
Ижтимоий суғурта	67.3	35,0	0	0
Хусусий суғурта	9.8	13.0	5.0	30.0
Бемор томонидан хизматлар учун тўлов	12.7	7.0	10.0	26.0
Барча тўловлар	100	100	100	100

Шуни таъкидлаш керакки, АҚШ, Англия, Швейцария каби катта миллий даромадга эга бўлган давлатлар, Ҳиндистон, Миср ва Мексика каби кам ривожланаётган давлатларга нисбатан аҳоли жон бошига тиббий хизматлар учун юқори харажатларга эга. Иқтисодий ривожланган мамлакатларда соғлиқни сақлаш соҳаси ҳар йили аҳоли жон бошига ўртача 74 доллар сарфлайди, ривожланаётган мамлакатларда эса бу маблағ 2 долларни ташкил қилади.

Баъзи Европа мамлакатларида суғурта тизими 100 йилдан ортиқ вақт давомида, шу жумладан соғлиқни сақлаш харажатларини молиялаштириш орқали шаклланган. Европа мамлакатларида тиббий суғурта шакллариининг роли ва ўрни 3-жадвалда кўриб чиқилади.

3-жадвал

Европа мамлакатларида тиббий суғуртаниннг ўрни

Мамлакат	Мажбурий суғурталаниш	Ихтиёрий суғурталаниш	Суғурталанмаганлик
Франция	98 %	Мавжуд эмас	0,2-0,5 %
Германия	74 %	14 %	2 %
АҚШ	75 %, ҳар бир киши ўзини суғурта қилишга мажбурдир	маълумот йўқ	8-20 %

Кўпгина хорижий мамлакатларда мажбурий тиббий суғурта қуйидаги тамойилларга асосланади:

умумийлик - жинси, ёши, соғлиғи ҳолати, яшаш жойи, шахсий даромад даражасидан катъий назар, барча фуқаролар тиббий хизматлардан фойдаланиш ҳуқуқига эга;

давлатчилик - давлат мажбурий давлат ижтимоий тиббий суғурта тизимининг барқарорлигини таъминлайди ва аҳолининг ишламайдиган қисмини бевосита суғурталовчи ҳисобланади;

норентабеллик - мажбурий давлат ижтимоий тиббий суғуртасини амалга оширишдан олинган фойда бундай суғурта тизимининг молиявий захираларини тўлдириш манбаи бўлиб, бойитиш воситаси бўла олмайди. Хорижий мамлакатлар тажрибасини ҳисобга олган ҳолда, соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш моделларининг асосий афзалликлари ва камчиликларини ажратиб кўрсатиш керак (5-жадвал).

Хорижий мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, иқтисодиётни ўзгартиришнинг дастлабки босқичларида самарали тиббий ёрдамга, биринчи навбатда, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламлари муҳтож. Меҳнатга лаёқатли аҳолига келсак, молия тизимининг бозор элементлари шаклланган шароитда бундай аҳоли ўз саъй-ҳаракатлари билан ўз ҳаёти фаровонлиги ва ижтимоий таъминотини таъминлаши керак.

Хулоса. Юқорида айтилганлардан келиб чиққан ҳолда, бепул тиббиёт соҳаси ва уни суғурта жамғармалари ҳамда давлат бюджети маблағлари шаклида молиялаштиришнинг турли манбаларидан фойдаланишга йўл қўймаслик зарур.

Дунёнинг аксарият давлатлари аҳолини тиббий қўллаб-қувватлаш ва соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш моделларини мамлакат бюджети ҳажмига, соғлиқни сақлашга мумкин бўлган харажатларга, тиббиёт саноатида тегишли инфратузилма мавжудлигига, тиббиётнинг ҳозирги ҳолатига, аҳолининг касалланиши, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг умумий тизими, давлат томонидан тартибга солишнинг тарихий келиб чиқиши ва хусусиятларига қараб модернизация қилинмоқда.

Юқоридагиларнинг барчаси аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш элементи сифатида тиббий суғуртани ривожлантириш орқали соғлиқни сақлаш соҳасини қўшимча молиялаштириш манбаларини шакллантириш зарурлигини тасдиқлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Медицинское страхование: учимся в США и Европе.: <http://www.panorama.pl.ua/doc.php?id=3535>.
2. Бучкевич, М.М. Опыт медицинского страхования в зарубежных странах/М.М. Бучкевич // Сборник научно-технических трудов. – 2011. – Вып.21.10. – С. 178-184.
3. Демьянишин, В.Г. Модель системы финансирования здравоохранения: концептуальные принципы и альтернативы / В.Г. Демьянишин, Т.Д. Ситаш // Финансы. – 2011. – №6. – С. 45-53.
4. Система здравоохранения и социальной страховки в Германии. – <http://forinsurer.com/public/03/04/17/1047>.
5. Богуславский, С.И. Медицинское страхование: проблемы и перспективы/С.И. Богуславский, Ю.С. Шибалкина // Внешняя торговля, право и экономика. – 2008. – №4. – С. 83-86.
6. Сверхточный, Б. Социальное страхование в контексте истории / Б. Сверхточный // Социальная защита. – 2003. – № 3. – С. 20-24.
7. Демьянишин, В.Г. Модель системы финансирования здравоохранения: концептуальные принципы и альтернативы / В.Г. Демьянишин, Т.Д. Ситаш // Финансы. – 2011. – №6. – С. 45-53.
8. Криклий, А.С. Рынок страхования жизни: тенденции и европейский опыт / А.С. Криклий, Р.В. Пикус // Экономика и правительство. – 2008. – №5. – С. 14-27.

УДК 330

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ЛОКАЛИЗАЦИИ В ФАРМАЦЕВТИКЕ

С.С.Усманова, преподаватель, Ташкентский университет информационных технологий, Alfraganus university, Ташкент

Аннотация. Мақоллада О'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoatining yanada rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish strategiyasining muhim qismi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlaridir.

Калит со'злар: farmatsevtika sanoati, mahalliyashtirish, raqobatbardoshlik, milliy iqtisodiyot, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, GMP standartlari.

Аннотация. В статье рассматривается дальнейшее развития фармацевтической промышленности Республики Узбекистан. На сегодняшний день важной частью стратегии развития фармацевтической отрасли являются процессы локализации производства.

Ключевые слова: фармацевтическая промышленность, локализация, конкурентоспособность, национальная экономика, модернизация производства, стандарты GMP.

Abstract. The article discusses the further development of the pharmaceutical industry of the Republic of Uzbekistan. Today, localization processes are an important part of the pharmaceutical industry development strategy.

Keywords: pharmaceutical industry, localization, competitiveness, national economy, modernization of production, GMP standards.

Введение. Глобализация, изменение структуры конкуренции и повышение конкурентоспособности, государственное регулирование отрасли (регистрация лекарственных средств, защита интеллектуальной собственности), развитие новых направлений и технологий (биотехнологии, фармакогеномики), старение мирового населения и появления новых заболеваний являются основными тенденциями развития фармацевтической промышленности. За последние годы мировой фармацевтический рынок претерпел быстрые, беспрецедентные, огромные и сложные изменения. Фармацевтическая промышленность сегодня это – один из самых изобретательных, инновационных и прибыльных «высокотехнологичных» отраслей экономики. За счет глобализации в отрасли происходят период больших и глубоких изменений. Фармацевтическая промышленность все больше адаптируется к рыночным тенденциям и требованиям рынка. Данная отрасль сегодня, вероятно, объединяет самый большой потенциал человечества. Однако, это очень сложная, комплексная и высокорискованная отрасль, в которой нет гарантии того, что новое лекарственное средство может добиться успеха на рынке и принести прибыль. Для развития и удержания позиций на рынке фармацевтическим предприятиям необходимо инвестировать значительные средства в маркетинг и продажи. Фундаментальные исследования и разработки (НИОКР), наряду с маркетинговой и коммерческой деятельностью, являются двумя наиболее важными видами деятельности мировой фармацевтической промышленности. Именно сюда инвестируются огромные средства фармацевтических предприятий. Успех фармацевтических предприятий во многом определяется с учетом многих критериев. На сегодняшний день локализация фармацевтической продукции становится приоритетной задачей. В последние годы в республике уделяется особое внимание на локализацию фармацевтической промышленности. Это в первую очередь связано с тем, что республика имеет огромный сырьевой потенциал для развития фармацевтической отрасли.

Основная часть. В современных условиях острой конкуренции основным фактором обеспечения стабильности национальной экономики становятся расширение производства и занятия прочных позиций на международной арене. Эффективное и оптимальное использование имеющихся возможностей, достижение устойчивого экономического развития, обеспечение занятости, рациональное использование имеющихся ресурсов являются основой процессов локализации. Запуск новых производств, а также, обеспечение эффективного функционирования существующих мощностей промышленных предприятий возможно путём внедрения локализации производства. Рациональное применение локализации производства считается важным детерминантом экономического роста и структурного преобразования экономики. С помощью локализации происходит дальнейшее развитие индустриального потенциала страны за счёт внедрении новых технологий в процессы производства, модернизации и технологического перевооружения действующих мощностей, а также на этой основе занятости и доходов.

Локализация как экономическое явление существует давно, обеспечивая адаптацию продуктов и услуг под местный рынок и конкретный регион. В разных источниках дается разное определение понятию локализации, в частности, локализация — отнесение чего-либо к

определенному месту; ограничение места действия, распространения какого-либо явления, процесса.

Основным направлением современной локализации в фармацевтической отрасли является развитие высокотехнологичных производств, ориентированных не на сырье, а на глубокую переработку сырья, в том числе, производство субстанций. Основным инструментом в этом плане является повышение конкурентоспособности страны, улучшение экономической среды, повышение привлекательности Узбекистана в ведении бизнеса по сравнению с другими странами.

Фармацевтическая промышленность является приоритетным в структуре национальной экономики. Особое внимание уделяется модернизации предприятий отрасли, локализации готовой продукции, расширению экспортного потенциала за счет локализации, освоению высокотехнологичных и эффективных лекарственных средств исходя из природного, кадрового и ресурсного потенциала страны.

В силу своей высокой социальной значимости производства процессы локализации сопровождаются жестким государственным регулированием и большими объемами капиталовложений. Инструменты воздействия формирования и реализации процессов локализации могут быть различными.

Государство может воздействовать на совершенствования процессов локализации путем налоговых льгот, предоставления широкого спектра различных преференций как отечественным, так и зарубежным компаниям. Также это может выражаться в поддержке наукоемких стартапов, защиты прав интеллектуальной собственности и предоставления дополнительных льгот предприятиям производимые продукции на экспорт. Привлечение инвестиций для ускоренного развития промышленности, участие в этом процессе государственных органов для создания благоприятных условий, а также выпуск продуктов с высокой добавленной стоимостью, обеспечивающий как внутренний, так и внешние рынки выступают важнейшими факторами влияющие на формирования и реализации процессов локализации в фармацевтическом производстве. Безусловно дальнейшее развитие фармацевтической промышленности напрямую связано с инновациями. Успешное применение локализации и производство препаратов с высокой добавленной стоимостью на территории страны с участием иностранного капитала в фармацевтическую отрасль является приоритетной задачей республики. Наличие природно-сырьевой базы, трудового потенциала, благоприятный инвестиционный климат страны создают условия для дальнейшего совершенствования процессов локализации. Несомненно, данная отрасль сложная и трудоемкая, которая требует огромных капитальных затрат. Также обязательное условие присутствие высококвалифицированных специалистов. Локализация производство фармацевтической отрасли играет важную роль в устойчивом развитие национальной системы здравоохранения, особенно важным здесь является снижение себестоимости лекарственных препаратов для потребителей, и для государства в экономическом контексте – создание цепочки производство.

Обзор литературы. Согласно проведенным исследованиям таких учёных как Acs Z J, Audretsch D P, Feldman M P[1], локализация играет важную роль в инновационной деятельности промышленных предприятий. Согласно исследованиям Hayes и Abernathy[2] для достижения поставленных результатов предприятиям необходимо конкурировать на технологической основе, улучшая качество производимой продукции. Это в свою очередь способствует получению прибыли на долгосрочной перспективе. В своём исследовании Эриксон и Джейкобсон[3] подтвердили, что инновации обеспечивают высокую конкурентоспособность предприятиям. Именно внедрения инноваций определяет преимущества над другими предприятиями, также обеспечивает устойчивость бизнеса.

В своей исследовательской работе Эхи и Олибе[4] объясняют свою точку зрения о том, что инвестиции в инновации положительно влияют на производительность предприятия. Исследования Ван (2011) подтвердили, что уровень производительности предприятия будет зависеть от ресурсов для деятельности в области НИОКР.

Кафуров и Форсанс[5] в своём исследовании объясняют, что приобретение знаний из других стран приводит к более высокой производительности и помогает предприятиям раскрывать свой инновационный потенциал. Совершенствования процессов локализации в фармацевтической промышленности актуальная тема для исследования. Многие зарубежные ученые проводили исследования над этой темой. Согласно исследованиям М. Диксон и Дж. П. Гагнон[6] процесс локализации выступает главным фактором в снижении себестоимости лекарственных средств, академическое сотрудничество учебных, исследовательских центров повышает объем производство и снижает производственные затраты.

Дж. Рантанен и Дж. Хинаст[7] в своих исследованиях для развития фармацевтической отрасли особое внимание уделяют таким вопросам как риск менеджмент, стратегии контроля производством, процессу проведения испытаний.

Методология исследования включает в себя количественную и качественную оценку уровня локализации фармацевтической отрасли, выявление и анализ факторов, оказывающих влияние на научно-исследовательскую деятельность в фармацевтической отрасли республики.

Анализ и результаты. Анализ структуры импорта лекарственных средств Республики Узбекистан показывает, что 98% высокотехнологичных лекарственных средств импортируется. Основной приоритетной задачей остается производство и экспорт инновационных лекарственных средств с высокой добавленной стоимостью. Для выполнения этих задач необходимо совершенствовать механизм формирования и реализации процессов локализации. Совершенствование механизма позволит осуществлять меры по дальнейшему развитию и модернизации системы здравоохранения, являющегося главным потребителем лекарственных препаратов и изделий медицинского назначения. Совершенствование процессов локализации в отрасли требует разработки организационно-экономического механизма.

Концепция развития фармацевтической отрасли Республики Узбекистан предусматривает инновационное развитие фармацевтики Нового Узбекистана. В соответствие с этой концепцией автором был разработан организационно-экономический механизм инновационного развития фармацевтической отрасли (рис. 1).




Рис.1. Организационно-экономический механизм инновационного развития фармацевтической отрасли[8]

Данный механизм включает в себя три компонента. Первый компонент – процесс производство, включает в себя все элементы, связанные с производственным процессом. В эту категорию мы занесли производство продуктов для здоровья, производство медицинских

изделий и оборудования, производство субстанции, диагностические средства и производства высокотехнологичных лекарственных средств.

Становление собственной эффективной фармацевтической промышленности является в достаточной мере длительным, трудоемким и дорогостоящим процессом. Создание условий для локализации фармацевтической и медицинской продукции на базе современных технологий в соответствии с международными стандартами GMP является одной из основных задач по развитию фармацевтической промышленности Республики Узбекистан.

В условиях глобализации и развитие мирового рынка ставят новые задачи перед предприятиями, а именно обязывает повышения эффективности производство промышленных предприятий, активно наращивая экспортные поставки готовой продукции с высокой добавленной стоимостью.

Совершенствование процессов локализации в фармацевтической промышленности играет важную роль в дальнейшем ускоренном и устойчивом развитии национальной экономики, снижении ее зависимости от внешних факторов, внедрения новых, эффективных технологий в процессы производства.

Использование местного сырья и факторов производства для увеличения объемов конкурентоспособной продукции является основой процессов локализации направленной на развития промышленности в Республике Узбекистан. В республике созданы все условия для формирования и реализации процессов локализации производства продукции с высокой добавленной стоимостью, в частности существует нормативно-правовая база.

Выводы и предложения. Для дальнейшего совершенствования механизмов формирования и развития процессов локализации в фармацевтической промышленности необходимо создание благоприятных условий для крупных фармацевтических ТНК (транснациональные компании). Размещая свои производственные мощности в стране ТНК должны осуществлять производство лекарственных средств на территории республики, это способствует максимальной передачи технологий и научно-технических достижений в рамках производственного процесса.

Дальнейшее развитие механизмов формирования и реализации процессов локализации требует принятия дополнительных мер стимулирования и создания благоприятных условий для производства лекарственных средств с высокой добавленной стоимостью и экспортоориентированной продукции.

Основные задачи совершенствования механизмов локализации на ближайшую перспективу являются следующие:

модернизация и технологическое перевооружения фармацевтических предприятий, производства высокотехнологичных инновационных лекарственных средств;

путем привлечения иностранных компаний, создание на территории республики производства в свободно-экономических зонах страны;

совершенствования конкуренции и создание благоприятных рыночных условий для производителей;

внедрение в производственный процесс международных стандартов, устранения избыточных административных барьеров по регистрации отечественных лекарств;

повышение квалификации специалистов, внедрение инноваций в производственный процесс.

Как показывает анализ современного состояния фармацевтической промышленности республики совершенствование процессов локализации в фармацевтической промышленности играет важную роль в дальнейшем ускоренном и устойчивом развитии национальной экономики, снижении ее зависимости от внешних факторов, внедрения новых, эффективных технологий в процессы производства.

На современном этапе развития экономики Республики Узбекистан ключевую роль структурных преобразований экономики определяют территориальные факторы, обеспечивающие динамику и темпы модернизации и роста. Локализация производства в фармацевтической отрасли прежде всего базируется на огромном ресурсном потенциале

страны. Процесс локализации в фармацевтике направлено на обеспечение населения качественными лекарственными средствами отечественного производства, занятости и роста благосостояния населения, развитие территориальной инфраструктуры путём перемещения производственных мощностей в регионы, наращивания экспортного потенциала.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Acs Z.J., Audretsch D.P., Feldman M.P., 1994, "R&D spillovers and innovative activity" *Managerial and Decision Economics* 15 131-138
2. Hayes R.H. and Abernathy W.J. (1980) *Managing our way to economic decline*. Harvard Business Review 58, 67–77
3. Erickson G. and Jacobson R. (1992) *Gaining Comparative Advantage through Discretionary Expenditures: The Returns to R&D and Advertising*.
4. Ehie I. and Olibe K. (2010) *The effects of R&D investment on firm value: an examination of US manufacturing and service industries*. *International Journal of Production Economics* 128, 127–135.
5. Kafouros M.I. and Forsans N. (2012) *The role of open innovation in emerging economies: do companies profit from the scientific knowledge of others?* *Journal of World Business* 47, 362–370.
6. M. Dicson J.P. Gagnon 2004 *Key factors in the rising cost of new drug discovery and development* *Nat. Rev. Drug Disc.* 3 (5), 417–429.
7. J. Rantanen, J. Khinast. *The future of pharmaceutical manufacturing sciences*. Wiley Online Library
8. Авторская разработка

УЎК 339

ЎЗБЕКИСТОННИНГ САЙЁҲЛИК САЛОҲИЯТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

*О.Р.Файзиев, PhD, доц., Алфраганус университети нодавлат олий таълим ташкилоти,
мустақил изланувчи, Тошкент кимё халқаро университети, Тошкент*

*С.А.Халиков, ўқитувчи, Алфраганус университети нодавлат олий таълим ташкилоти,
Тошкент*

Аннотация. *Мазкур ишда Ўзбекистон Республикасининг мавжуд сайёҳлик салоҳияти таҳлил қилиниб, уни ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган муаммолар қисман ўрганилган ҳамда уларнинг ечимлари бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *сайёҳлик салоҳияти, туризмдаги муаммолар, сервис ва ҳизмат кўрсатиш объектлари, виза режими, сайёҳлар оқими, Концепция, жаҳон туризм бозори, “Ўзбекистон ташириф қозони”, “Ўзбекистон туризм бренди”, имплементация қилиши.*

Аннотация. *В данной работе анализируется существующий туристический потенциал Республики Узбекистан, частично изучаются проблемы, препятствующие его развитию, а также даются предложения и рекомендации по их решению.*

Ключевые слова: *туристический потенциал, проблемы в сфере туризма, услуги и сервис, визовый режим, поток туристов, Концепция, мировой туристический рынок, «Визитная карточка Узбекистана», «Туристический бренд Узбекистана», имплементация.*

Abstract. *This work analyzes the existing tourism potential of the Republic of Uzbekistan, partially studies the problems that impede its development, and also provides proposals and recommendations for solving them.*

Key words: *tourism potential, problems in the field of tourism, services and facilities, visa regime, flow of tourists, Concept, global tourism market, “Business card of Uzbekistan”, “Tourist brand of Uzbekistan”, implementation.*

Ўзбекистон ўзининг бой тарихи, кўхна обидалари, қадимий ва тарихий осори акидалари ва ажойиб табиати нафақат хорижликларни балки юртдошларимизни ҳам доимо ўзига мафтун қилиб келган. Ана шу жиҳатларнинг ўзи мамлакатимиздаги сайёҳлик-туризм йўналишида улкан имконият, катта иқтисодий салоҳиятнинг мавжудлигини кўрсатади. Шундан келиб чиққан ҳолда Президентимиз ташаббуси билан мамлакатимизнинг миллий иқтисодиётида туризм соҳасини девирсификация қилиш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ошириш орқали турмуш даражаси янада яхшилаш, мамлакатимизда туризмнинг

инвестициявий жозибадорлигини оширишни таъминлаш, стратегик тармоқлардан бири сифатида ривожлантиришнинг муҳим йўналиши деб эътироф этилмоқда.

Мазкур йўналишда олиб борилаётган чора-тадбирларнинг ижросини таъминлаши натижасида хорижий сайёҳларга виза режимлари бирмунча эркинлаштирилди, соҳада фаолият олиб боровчи тадбиркорларга кўплаб имтиёз ва преференциялар ажратилди, бу эса ўз ўрнида мамлакатимизда туризм тараққиётига кенг йўл очмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, бутун дунёда бўлгани каби мамлакатимизда ҳам пандемия туфайли туристлар оқими маълум бир муддат тўхтатилди ва уларга чекловлар ўрнатилди.

Жахон ҳамжамияти томонидан пандемия оқибатларини юмшатишга қаратилган кенг кўламли амалий ҳаракатлар туфайли соғлом мувозанат аста-секинлик билан тикланмоқда. Мамлакатимизда ҳам соҳа тараққиёти йўлидаги саъй-ҳаракатлар тизимли равишда давом эттирилмоқда. Шундай экан, бугун ички имкониятларни тўлиқ ишга солиш ҳамда мутлақо янгича ёндашувни ҳаётга тадбиқ этишни даврнинг ўзи тақазо этмоқда. Бу борада мамлакатимиздаги ҳар бир туман ва қишлоқларнинг туристик имкониятлари ва салоҳиятлари танқидий таҳлил қилиниб, тегишли ҳулосалар шакллантирилган. Энг мақбул ресурслардан ҳам максимал фойдаланиш ва бунинг учун зарур шароитлар яратиш муҳимлиги янада яққолроқ кўзга ташланмоқда.

Бу борада, давлатимиз раҳбари шу каби долзарб вазифаларнинг аҳамиятига алоҳида тўхталиб, "... туризм ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий-маданий аҳамиятга эга кенг қамровли соҳа. У даромадлиги бўйича дунёда учинчи ўринда туради. Яна бир муҳим томони, кам харажат билан кўп иш ўринлари яратиш имконини беради [1] деб таъкидлаб ўтди.

Давлатимиз раҳбарининг юқорида таъкидлаб ўтган сўзларидан шуни англаш мумкинки, сайёҳлик туризми – бугун дунёда жадал ривожланаётган ва энг даромадли соҳалардан бири бўлибгина қолмасдан, ижтимоий-иқтисодий, маъданий ва маънавий алоқаларни ҳам мустаҳкамланишига катта хисса қўшаётган соҳалардан бири эканлигини қайд этиш мумкин.

Шундай экан, мамлакатимизнинг иқтисодий ўсишининг калити – ички ва ташқи сайёҳлар оқимининг сезиларли даражада оширишга эришишда эканлигини алоҳида эътироф этиш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2019 йил 5 январда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5611-сон Фармони билан тасдиқланган «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ»да Ўзбекистонга ташриф буюрадиган сайёҳлар сонини 2018 йилдаги 5346,0 минг кишидан 2025 йилда 11810,0 минг кишигача етказиш белгиланган. Буни қуйидаги 1-жадвал маълумотларида ҳам кузатиш мумкин.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасига ташриф буюрган хорижлик сайёҳлар оқими динамикаси

Т/р	Кўрсаткичлар номи	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	
1.	*Ўзбекистонга ташриф буюрадиган хорижий туристлар сони (минг киши)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	
2.	**Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижий туристлар сони (минг киши)	5 346	6 749	1 504	1 881	5 233	
2022 йилда 2018 йилга нисбатан ўзгариши							
		+/- ҳисобида	0	708	-5 506	-6 529	-4 777
		% ҳисобида	100,0	89,51	466,09	447,10	191,29

Изоҳ:

*Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5611-сон Фармони билан тасдиқланган «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси» асосида муаллифлар томонидан шакллантирилган.

**Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари асосида муаллифлар томонидан шакллантирилган. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>

Юқоридаги жадвал маълумотларидан ҳам кўриниб турибдики, 2018 йилда Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижлик туристлар сони 5346 минг тани ташкил этган бўлиб, белгиланган

режа кўрсаткичлари тўлиқ бажарилишига эришилган. Сайёҳлик оқими ортиши бундан юқори бўлиши кутилаётган бир вақтда, 2019 йилга келиб бу кўрсаткичлар янада юқори бўлган. Режа эса, қарийиб 11 фоиз ортиги билан бажарилганлигини кузатиш мумкин. Бироқ, 2020-2022 йиллар давомида пандемия оқибатлари натижасида белгиланган режанинг ярми ҳам амалга ошмаганлигини яққол кўриш мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, "... бугунги кунда жаҳон туризм бозори ҳажми қарийиб 9 триллион долларни ташкил этмоқда. Дунёда иш билан банд аҳолининг ҳар ўнинчиси ушбу соҳада фаолият юритмоқда [2]. Бироқ, "... Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотига туризм соҳаси улуши бор-йўғи 2,3 фоиз. Хорижий давлатларда ушбу кўрсаткич 10 фоизгача етади" [3].

Бундан шуни англаш мумкинки, мамлакатимизда мазкур йўналишда ечимини кутиб турган ҳали кўплаб амалий ишларнинг бажарилиши лозим эканлиги яққол кўриниб турибди. Жумладан, туризмни янада ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган қуйидаги қатор муаммоларни санаб ўтишимиз мумкин:

Биринчидан, туризм хизматларини кўрсатишда малакали гид хизматларининг етишмаслиги;

Иккинчидан, меҳмонхоналарда сервис хизматларининг етарли даражада яхши ривожланмаганлиги (масалан ҳудудлардаги меҳмонхоналар ва хостелларда электр энергияси таъминотидаги узилишлар, қиш-куз мавсумида иситиш ва совутиш тизими билан боғлиқ муаммолар, интернет ва мобил алоқа хизматлари билан боғлиқ муаммолар, сайёҳлар учун уларнинг автомобилларига малакали техник хизматларини кўрсатишдаги оқсоқланишлар, банк хизматларининг тўлақонли эмаслиги (узқард, хумо ва виза карта тизимларида ўзаро интеграциялашув мавжуд эмаслиги));

Учунчидан, сифатли ва ҳалқаро андозаларга мос реклама ва маркетинг хизматларининг талаб даражасида эмаслиги;

Тўртинчидан, сайёҳлик туризмга ихтисослаштирилган ҳудудларда режали транспорт хизматларининг йўлга қўйилмаганлиги;

Бешинчидан, ихтисослаштирилган туризм ҳудудларида маҳаллий аҳоли қатламларининг миллий анъаналаримизни ўзида мужассамлаштирган ҳар хил маросимларни тарғиб этишга хизмат қилувчи билим ва тажрибаларининг етарлича шаклланмаганлиги;

Олтинчидан, туризм соҳасида навигация тизимининг ахборот белгилари яхши ривожланмаганлиги;

Еттинчидан, авиа ва темирйўл транспорт воситаларидан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг мавжудлиги;

Саккизинчидан, туризм ҳудудларида савдо-сотик хизматлари тизимли равишда йўлга қўйилмаганлиги;

Тўққизинчидан, туроператор, меҳмонхона, транспорт корхоналари, олийгоҳларнинг вакиллари ўртасидаги олиб борилаётган ишлар тизимли равишда уйғунлашмаганлиги каби муаммолар мавжуддир.

Юқоридаги таҳлилий фикр ва мулоҳазаларимиздан келиб чиқиб, республикамизнинг туризм салоҳиятини тобора жадал ривожлантириш ҳамда маҳаллий ва хорижий туристлар сонини янада ошириш йўлида қуйидаги таклифларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- Мамлакатимизни тарғиб қилувчи махсус медиаконтентлар нашр қилиш;
- Республикаимизнинг туристик салоҳиятига бағишланган ўзбек ва хорижий тиллардаги сифатли видеороликларни доимий равишда тайёрлаб бориш ва тарғиб этиш;
- қишлоқ жойлардаги барча турдаги йўлларни электр энергия инфратузилмалари билан мутганосиб равишда жаҳон андозаларига мослаштириш;
- мавсумий спорт туризми билан боғлиқ сервис хизматларини ривожлантириш, экологик туризм, кўриқхона, табиат масканлари ва табиат ёдгорликлари имкониятидан фойдаланиш;
- "Ўзбекистон ташриф қоғози"ни ишлаб чиқиш;

➤ “Ўзбекистон туризм бренди” ҳақидаги маълумотларни ижтимоий тармоқларда ҳамда маҳаллий ва халқаро оммавий ахборот воситаларида доимий равишда тарғиб этиб бориш;

➤ Мамлакатимиздаги туризм соҳасида ишлаб чиқилган тартиб-қоидаларни халқаро меъёр ва стандартларга имплементация қилиш;

Хулоса қилиб шунини айтиш мумкинки, юқорида санаб ўтилган муаммоларнинг ечимига бағишланган амалий ҳаркатларни олиб бориш ва бунда соҳа яхши ривожланган давлатларнинг халқаро тажрибаларини мамлакатимиз сайёҳлик йўналишида тарғиб қилиш ва кенг жорий этиш мамлакатимизда сайёҳлик соҳасининг тараққий этишига олиб келади ҳамда валюта тушумларини ошириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6095>
2. <https://gujum.uz/turizm/turizm-va-sportni-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi/>
3. <https://kun.uz/79188325>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сон Фармони билан тасдиқланган «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси».
5. Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари (<https://uzbektourism.uz/research/statistics>).

УЎК 338.242

ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИКНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ХОРИЖ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

С.Х.Хасанов, доц., Қарши Муҳандис иқтисодиёт институти, Қарши

Аннотация. Мақолада иқтисодий хавфсизликнинг институционал асосларини шакллантиришнинг хорижий ёндашувлар эволюциясининг уч камералистик, кейнсчилик ва институционал босқичлар тадқиқ этилган. Ушбу мактаблар тажрибасини ўрганиш асосида миллий иқтисодий хавфсизликни муваффақиятли хорижий моделларини аниқлаш ва уларни Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиёти эҳтиёжларига мослаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: миллий иқтисодий хавфсизлик, камералистик, кейнсчилик ва институционал концепция, миллий иқтисодиёт, модель, трансформация, интеллектуал мулк, технологик етакчилик, стратегия, лойиҳалаш, экспорт, импорт.

Аннотация. В статье рассматриваются три камералистских, кейнсианских и институциональных этапа эволюции внешнеэкономических подходов к формированию институциональных основ экономической безопасности. На основе изучения опыта этих школ были разработаны предложения и рекомендации по выявлению успешных зарубежных моделей национальной экономической безопасности и их адаптации к потребностям народного хозяйства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: национальная экономическая безопасность, камералистическая, кейнсианская и институциональная концепция, национальная экономика, модель, трансформация, интеллектуальная собственность, технологическое лидерство, стратегия, проектирование, экспорт, импорт.

Abstract. The article discusses three chamberist, Keynesian and institutional stages in the evolution of foreign economic approaches to the formation of the institutional foundations of economic security. Based on the study of the experience of these schools, proposals and recommendations were developed to identify successful foreign models of national economic security and adapt them to the needs of the national economy of the Republic of Uzbekistan.

Key words: national economic security, cameralistic, Keynesian and institutional concept, national economy, model, transformation, intellectual property, technological leadership, strategy, design, export, import.

Кириш. Мамлакатимизда 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиётнинг институционал асосларини трансформациялаш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Маъмурий ислохотларнинг иккинчи босқичи сифатида келгуси йилда ҳудудлардаги бошқарув тизими ҳам ислох қилинади. Барча маъмурий ислохотлар доирасидаги янги ташаббуслар Конституциямизда албатта белгилаб қўйилиши лозим [1]. Миллий иқтисодий хавфсизлик бизга давлатнинг миллий рақобатдош устунликларини ҳимоя қилиш ва миллий манфаатларга эришиш учун улардан энг самарали фойдаланишни таъминлашга имкон яратади. Шу сабабли, дунёда миллий иқтисодий хавфсизлик таъминлаш соҳасида жуда кўп амалий тажриба тўплаган. Бундан ташқари, тизимнинг институционал асослари билан боғлиқ кўплаб назарий ишланмалар мавжуд. Ушбу тажрибани ўрганиш мамлакатимиз учун жуда муҳим, чунки бу бизга миллий иқтисодий хавфсизликни муваффақиятли хорижий моделларини аниқлаш ва уларни Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиёти эҳтиёжларига мослаштириш имконини беради. Бу эса иқтисодий хавфсизликнинг институционал асосларини такомиллаштиришнинг хориж давлатлар тажрибасини тадқиқ этишга бағишланган мазкур тадқиқот мавзусининг долзарблигидан далолат беради.

Илмий муаммонинг қўйилиши. Иқтисодий хавфсизликнинг институционал асосларини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятларини ва уни трансформация қилиш механизмлари ва моделларини тадқиқ этган хорижлик олимлар қаторида Т.Кун, Ф.Лист, К.Перес, М.С.Роко, В.С.Бейнбридж, Т.Жотсана, Э.Себастиан, Д.Белл, Й.Шумпетер, С.Кларк, П.Арнолд, Г.Доси кабиларни келтириш мумкин.

Россиялик олимлардан Василевский Э., Иноземцев В.Л., Букреев В. В., Красильников О.Ю., Вертакова Ю. В., Плотников В. А. Комарова О. В. Кежун Л. А., Латова Ю.В., Сухарев О.С. ва бошқалар ушбу мавзуга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини олиб борган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан С.С.Гулямов, А.В.Вахабов, А.В.Вахабов, А.Ўлмасов, С.В.Чепель, Х.П.Абулқосимов, Т.С.Расулов, Т.Т.Жўраев, А.А.Маматов, Д.Х.Хасанова ва бошқаларнинг илмий изланишларида иқтисодиётнинг институционал асосларини такомиллаштиришнинг назарий жиҳатлари, саноат инқилоби натижасида шаклланаётган янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқариш таркибий тузилмасини шакллантириш масалалари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

Д.Норт ва Л.Девисларнинг фикрига кўра, институционал муҳит – бу асосий сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий қоидалар мажмуи бўлиб улар ишлаб чиқариш, айрбошлаш ва тақсимот учун баъзис яратади [2]. Дж.Р. Коммонс институтларни тарихий ривожланишидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларни қўллаб-қувватлаб унга кўра "эволюцион" тушунчаси "институционал" тушунчаси билан мазмун ва маъноси бир хил бўлади деб таъкидлайди [3].

Рус олими В.В.Букреев, Э. Н. Рудыкнинг фикрига кўра, "давлатлар ўзларининг ресурс базаси, иқтисодий муносабатлар тизими ва миллий иқтисодий манфаатлар шунингдек, институционал тузилманинг ўзига хос хусусиятлари асосида миллий иқтисодий хавфсизликни шакллантиришнинг турли хил вариантларини комбинациялаштирадilar [4]. Ю.В.Латов ҳулосасига кўра миллий иқтисодий хавфсизликнинг мақсади миллий иқтисодиётнинг самарали ишлаши учун институционал асосни яратишдир (мулк ҳуқуқи кафолатини таъминлаш, қонун устуворлиги, битимларнинг шаффофлиги ва бошқалар) [5] деб баҳо беради.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан профессор Маматов А.А., Жўраев Т.Т. “Индустриал жамиятдан постиндустриал жамиятга ўтиш, жамият ҳаётида туб ўзгаришлар билан боғлиқ бўлиб, унда инновацияларни кенг яратиш ва жорий этишга асосланган янги иқтисодий тизим моделига ўтиш билан амалга ошмоқда. Табиийки, ушбу даврда кластер моделида чуқур ўзгаришлар юз беради” [6]. Б.Маъмуровнинг фикрича, “Рақамли иқтисодиёт – иқтисодиётнинг таркибий қисмлари сифатида сунъий ақл(онг)дан фойдаланиш, иш жараёнларини роботлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнида турмуш меҳнат харажатларини камайтириш, махсус компьютер

дастурлари ёрдамида иқтисодий тизимларни моделлаштириш ва дастурий қобилиятини оширишдир” [7] деб хулоса қиладилар .

Бироқ янги саноат инқилобини шаклланиши шароитида миллий иқтисодий хавфсизлик муносабатларининг институционал асослари, унинг халқаро назария ва амалиётни таҳлил қилиш, маълум ёндашувларни тизимлаштириш ва Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш манфаатларига хорижий тажрибани жорий этиш бўйича таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқишга қаратилган илмий изланишларни олиб боришни тақозо этилмоқда. Ушбу жиҳатлар илмий мақола мавзусининг долзарблиги ва муҳимлигини белгилаб беради ҳамда тадқиқот мавзусини танлаш учун асос бўлди.

Тадқиқот методологияси.Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, киёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларида фойдаланилади

Асосий таҳлил ва натижалар.Миллий иқтисодий хавфсизликни (МИХ) таъминлаш зарурлигини аксарият давлатларнинг ҳукумат раҳбарияти ва илмий-экспертлар ҳамжамияти яхши тушунади. МИХ бизга давлатнинг миллий рақобатдош устунликларини ҳимоя қилиш ва миллий манфаатларга эришиш учун улардан энг самарали фойдаланишни таъминлашга имкон яратади. Шу сабабли, дунёда МИХ таъминлаш соҳасида жуда кўп амалий тажриба тўплаган. Бундан ташқари, МИХ тизимининг институционал асослари билан боғлиқ кўплаб назарий ишланмалар мавжуд. Ушбу тажрибани ўрганиш мамлакатимиз учун жуда муҳим, чунки бу бизга МИХни муваффақиятли хорижий моделларини аниқлаш ва уларни Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиёти эҳтиёжларига мослаштириш имконини беради.

Ушбу мақолада биз миллий иқтисодий хавфсизлик тушунчасининг шаклланиши ҳақида қисқача тарихий маълумот берамиз, ушбу МИХнинг институционал асослари, унинг халқаро назария ва амалиётни таҳлил қиламиз, маълум ёндашувларни тизимлаштириш ва Ўзбекистон Республикаси МИХни таъминлаш манфаатларига хорижий тажрибани жорий этиш бўйича таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқамиз.

Рус олими Ю.В.Латова хулосаларига кўра, хорижий иқтисодий тафаккурда миллий иқтисодий хавфсизликнинг моҳиятини тушунишга ёндашувлар эволюциясининг уч босқичини ажратиш мумкин:

1. Камералистик босқич, келиб чиқишига кўра XIX аснинг ўрталарига тегишли бўлиб, унинг асосчиси таниқли немис иқтисодчиси Фридрих Лист [8] ҳисобланади. Ушбу босқичнинг ўзига хос хусусияти унда ташқи иқтисодий таҳдидлар устуворлигидир. Ушбу тушунча доирасида миллий иқтисодий хавфсизликнинг моҳияти шундан иборатки унда миллий иқтисодиётни чет эл давлатлари томонидан бостирилишининг олдини олиш ва жаҳон бозорида саноатга асосланган самарали ва рақобатбардош миллий иқтисодиётни шакллантириш учун шарт-шароит яратишдир.

2. Кейнчилик босқичи, XX аснинг 30-йилларига тўғри келади. Ушбу концепциянинг муаллифи Ж.М.Кейнсга ҳисобланади. Бу босқичга ўтишга етакчи ривожланган мамлакатларда ташқи таҳдидлар туфайли эмас, балки ички иқтисодий муаммолар туфайли юзага келган "буюк депрессия" инқирози сабаб бўлди. МИХ учун таҳдидлар манбалари бўлиб бозордаги муваффақиятсизликлар "(иқтисодий ўсишнинг беқарорлиги, ишсизлик, инфляция) ҳисобланади. Ушбу концепцияга мувофиқ МИХнинг мақсади иқтисодий ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш, ишсизликнинг олдини олиш ва пул муомаласи барқарорлигига эришишдир. МИХ инструменти бўлиб иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш (ишлаб чиқаришни рағбатлантириш, бандликни қўллаб-қувватлаш чоралари, юмшоқ пул-кредит сиёсати) ҳисобланади.

3. Институционал босқич Перулик иқтисодчи Эрнандо де Сото томонидан "Бошқа йўл" китобининг нашр этилиши билан бошланган [9]. Ушбу китобда илгари сурилган хулосалардаги туб фарқ қиладиган тушунчалар шундан иборатки, самарасиз институтлар ёки бошқача қилиб айтганда, юқори маъмурий тўсиқлар ушбу ёндашув доирасида МИХ учун асосий таҳдид ҳисобланади:" ёмон "қонунлар ва/ёки" яхши " қонунларнинг ёмон ижроси иқтисодий фаолиятнинг виждонли иштирокчилари фаолиятига тўсқинлик қилади, уларни

яъни ушбу иқтисодий агентларни норасмий, яширин иқтисодиёт секторига суриб чиқаради ва шу билан миллий иқтисодий хавфсизликка путур етказди. Биз иқтисодий фаолиятни ҳаддан ташқари қаттиқ қўллик билан тартибга солиш, тадбиркорлик (ва айниқса инновацион) фаолликни чеклайди, назорат қилувчи давлат органлар вакиллари ва бошқаларда юқори даромадли рентага йўналтирилган (яъни коррупцион) хатти-ҳаракатларни шакллантиради.

Бу ҳолда МИХнинг мақсади миллий иқтисодиётнинг самарали ишлаши учун институционал асосни яратишдир (мулк ҳуқуқи кафолатини таъминлаш, қонун устуворлиги, битимларнинг шаффофлиги ва бошқалар.). Ушбу мақсадга эришиш инструменти бўлиб маъмурий тўсиқларни минималлаштиришдир: мажбурий солиқлар ва тўловларни камайтириш ва соддалаштириш (ҳеч кимга сир эмаски, тадбиркорлар нафақат юқори солиқлар туфайли, балки уларни бошқаришнинг мураккаблиги туфайли ҳам иқтисодиётнинг кулранг секторига сурилади), бизнесга маъмурий босимни камайтириш, бюрократия ва коррупцияга қарши кураш. Яширин иқтисодиётга келсак, биз уни куч ишлатиш йўли билан бостирмаслигимиз керак, балки унга олиб келадиган сабабларни йўқ қилишимиз керак.

Ю.В.Латов хулосасига кўра, бу концепциялар ўзаро бир-бирини инкор этувчи эмас – улар бир-бирини тўлдиради ва бир томондан, МИХ таҳдидларининг моҳиятини яхши тушунишга ва унинг мазмунини ижтимоий-иқтисодий жараён сифатида тушунишга, бошқа томондан, улар мамлакатнинг МИХни таъминлаш инструментлар спектри доирасини кенгайтиради. МИХ таъминлаш соҳасида олиб борилган давлатнинг самарали сиёсати ушбу ушбу концепциялар томонидан тавсия этилган ҳар бир инструментларнинг комбинацияси бўлиши керак.

Таъкидлаб ўтиш мумкинки ушбу босқичларни МИХ табиати ҳақидаги ғояларнинг изчил ўрин алмашуви ва ривожланиши деб ҳисобламаслик керак. Аксинча, биз МИХнинг моҳияти тўғрисида турли хил доминант қарашларнинг пайдо бўлишининг хронологик кетма-кетлиги ҳақида гапиришимиз мумкин, бугунги кунда учта концепция ҳам илмий адабиётларда, ҳамда турли мамлакатларнинг МИХни таъминлаш бўйича амалий фаолиятига жорий этилган.

МИХнинг Англия модели, унинг мустақил шакли сифатида Америка Қўшма Штатлари (АҚШ) МИХ стратегияси амал қилади, ҳамда у иқтисодий глобал устунлик инструменти сифатида долларлашган молия тизимига таянади. Англия мактабида МИХ учун асосий таҳдидларни технологик етакчиликка тажовуз қилиш (саноат жосуслиги, интеллектуал мулкдан рухсатсиз фойдаланиш, нусха олиш, технологияларни мажбурий узатиш, глобал иқтисодиётдан ташқарида фаол миллий инновацион сиёсат ва бошқалар) деб ҳисоблаш мумкин.).

Биринчи турдаги таҳдиднинг характерли намунаси сифатида Хитой мисол бўлади ва у инновацион иқтисодиётни мустақил равишда ривожлантираётган, янги жаҳон иқтисодий укладида технологик етакчиликни талаб қилмоқда. Иккинчи турдаги таҳдид 1973 йилда ОПЕК томонидан нефт эмбаргоси амалга оширилди. Ушбу эмбарго АҚШ учун иқтисодий, ҳам психологик нуктаи назардан жуда оғриқли бўлиб чиқди ва шунинг учун уларнинг МИХ моделида энергетика хавфсизлиги муҳим ўрин тутади [10].

МИХ таъминлаш иқтисодий суверенитет сифатида қаралиши (Хитойнинг МИХ таъминлашнинг устувор вазифаси) сифатида тушуниш бу мактабга хосдир ва давлатларнинг барқарорлиги асосий ресурсларни етказиб бериш (бу мамлакатлар ташқи озиқ-овқат ва энергия манбаларини етказиб беришга боғлиқлиги). Англия моделидан фаркли ўлароқ, устуворлик иқтисодий доминатликга эмас, балки ташқи иқтисодий устунликдан ҳимоя қилишга устуворлик берилади. Шунга кўра, МИХга таҳдидлар трансмиллий корпорациялар томонидан миллий иқтисодиёт устидан гегемонлик хавфи ва ресурсларни етказиб беришни чеклашдир.

МИХ таъминлашнинг ютуқлари инструментларига, етказиб берувчиларни диверсификация қилиш ва логистика таъминоти тизимларини ўрнатиш орқали ресурсларни етказиб беришни кафолатлаш, шунингдек, хорижий компанияларнинг миллий бозорларга кириб келиши устидан қатъий назорат ўрнатиш орқали эришилади. Англия моделида бўлгани каби, Осиё МИХ мактабида, бизнинг фикримизча, ўзига хос Хитой вариантыни ажратиб

кўрсатиш мумкин. Унда миллий иқтисодий суверенитетни таъминлашга қаратилган, глобал етакчиларнинг ички бозорга киришни чеклаш орқали ва маҳаллий компанияларни ушбу етакчилар ишлайдиган соҳаларда (кейинчалик ушбу компанияларни экспорт бозорида олиб чиқиш билан) ўсиб боришини таъминлаш. Аслида, биз камералистик протекционистик моделнинг миллий Хитойча варианты ҳақида гапиришимиз мумкин. Хитой бозорининг катта ҳажми бу вазифани бажаришга имкон беради. Бу Хитойнинг интернетга киришни глобал чеклаши сабабли Алибаба каби компаниялар ва лойиҳаларнинг пайдо бўлишига имкон берганлигини эслаш етарлидир.

Миллий иқтисодиёт устидан ташқи назоратнинг олдини олишнинг яна бир инструменти бу хорижий компанияларни қўшма корхоналар ташкил этиш ва технологиялар трансфертини яратишга мажбур қилмоқда. Хитой учун бу қадам ривожланган мамлакатларнинг технологик доминантлигидан ўзини ҳимоя қилиш ва ўзларини етакчи давлатлар билан тенг ҳуқуқли қилиш имкониятини англатади. Бу ўз навбатида ривожланган мамлакатларнинг қаршилиги сабаб бўлмоқда.

1-жадвал

Миллий иқтисодий хавфсизликни институционал лойиҳалаш моделлари[12]

Таснифлаш мезонлари	МИХни институционал лойиҳалаш моделлари	Тавсифи
МИХни таъминлаш йўналишлари	Камералистик	Протекционизм ва эркин савдо баланси асосида миллий иқтисодиётнинг халқаро рақобатбардошлигини таъминлаш
	Кейнсчилик	Саноат, бандлик ва пул муомаласини давлат томонидан тартибга солиш орқали миллий иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлаш
	Институционал	Иқтисодиётни ривожлантиришга ҳисса қўшадиган самарали институтларни яратиш
Ташқи таъсирдан фойдаланиш	Глобал	Миллий иқтисодий қудрат асоси сифатида глобал иқтисодий етакчиликни таъминлаш
	Доминант	Ўзининг иқтисодий таъсир доирасини яратиш орқали маҳсулотларни кафолатланган сотиш ва ресурсларни етказиб беришни яратиш.
	Автаном	Ташқи иқтисодий доминантликнинг мавжуд эмаслиги (хам ўзиники хам ташқи)
	Ихтисослашган	Иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш инструменти сифатида учинчи томон иқтисодий таъсир доирасига қўшилиш
Иқтисодий база	Универсал	Ташқи ва ички бозорга асосланган кучли диверсификацияланган иқтисодиёт
	Улушли	Чекланган юқори технологияли маҳсулотлар тўпламини ишлаб чиқаришга ихтисослашган мамлакат
	Моноресурели	Қуйи даражада қайта ишланадиган товарларнинг чекланган тўпламини сотишга (одатда экспортга) ишониш
	Меҳнат	Меҳнат миграциясидан меҳнат бозоридаги босимни юмшатиш инструменти ва валюта тушумининг манбаи сифатида фойдаланиш
Ҳамкорлик муносабатларининг мавжудлиги	Индивидуал	МИХни ўзининг ресурслари асосида таъминлаш
	Жамоавий	Иқтисодий хавфсизликнинг коллектив тизимини яратиш учун бошқа давлатлар билан интеграция қилиш.
Иқтисодиётнинг очиклиги	Очиқ	Иқтисодиётнинг ташқи савдо очиклиги ресурслардан фойдаланиш ва миллий маҳсулотларни сотиш инструменти сифатида
	Ёпиқ	Иқтисодиётнинг ёпиқлиги хорижий контрагентларга қарамликни олдини олиш ва иқтисодий суверенитетни сақлаш инструменти сифатида

Хитойнинг иқтисодий ривожланиши ва янги жаҳон иқтисодий тартибида глобал технологик етакчиликка бўлган даъволари Осиё МИХ мактабининг Хитойча шаклининг янада эволюциясига олиб келади ва ташқи ҳукмронликдан ҳимоядан ўзининг иқтисодий доминантлигига босқичма-босқич ўтишга олиб келиши мумкин. Бироқ, ҳозиргача МИХнинг

бундай трансформацияси хитойлик тадқиқотчилар томонидан аниқ эълон қилинган эмас. Хитойнинг доимий равишда ўсиб бораётган иқтисодий қудрати шароитида бундай декларацияларнинг йўқлигини иккита сабаб билан изоҳлаш мумкин. Улардан биринчиси, Хитойнинг ўзига нисбатан ҳаддан ташқари юқори эҳтиборни қўзғатишни истамаслиги (айниқса, АҚШ билан савдо уруши шароитида хавфли) ва натижада унга нисбатан миллий иқтисодий манфаатлар қарши чора-тадбирлар кўрилишини истамаслиги. Иккинчиси, Хитой глобал етакчилик харажатларини ўз зиммасига олишни истамаслиги ҳам сабаб бўлиши мумкин.

МИХ моделини шакллантиришда муҳим омил иқтисодиётнинг очиқлиги ва ёпиқлиги ўтасидаги танловдир. Иқтисодиётнинг очиқлиги (бу мамлакатда мавжуд бўлмаган) ташқи ресурслар таъминоти ва ташқи бозорларга чиқиш имкониятини яратади, бу эса экспорт даромадларини олиш имкониятларини яратади [11]. Очиқлик туфайли миллий иқтисодиёт рақобатбардош устунликларга эга бўлган фаолият турларига ихтисослашган меҳнат тақсимоти ва кооперациясининг глобал тизимида самарали иштирок этиши мумкин. Бироқ, бу иқтисодиётнинг ҳаддан ташқари ихтисослашуви ва унинг ташқи контрагентларга боғлиқлиги хавфини туғдиради, яъни. иқтисодий суверенитетнинг қисман йўқолишига олиб келади.

Миллий иқтисодиётнинг ёпиқлиги ушбу таҳдидлардан сақланиш имкониятларини яратади бироқ жаҳон меҳнат тақсимоти ва кооперациясидан воз кечиш миллий иқтисодиётнинг ишлаб чиқариш самарадорлигини пасайишига ва унинг натижасида технологик орқада қолишга ва нисбатан паст турмуш даражасига тушиб қолишга олиб келиши мумкин. Ёпиқлик тўлиқ бўлиши мумкин, бунда ташқи иқтисодий ҳамкорлик бутунлай ва қисман рад этилади, қачон айрим соҳаларда, муайян миқдордаги битимлар учун, айрим давлатлар билан ва ҳоказоларда ҳамкорликка чекловлар қўйилади.

Шуни таъкидлаш қизиқки, ёпиқлик мажбурий бўлиши мумкин – бу хорижий давлатларнинг ҳамкорлик қилишдан бош тортиши (қоида тариқасида, сиёсий мажбурлаш воситаси сифатида). Шунга қарамай, МИХ шаклланиш модели нуқтаи назаридан, мажбурий ёпиқлик ихтиёрий ёпиқликдан фарқ қилмайди (қарор давлат томонидан мустақил равишда қабул қилинган), мамлакат халқаро меҳнат тақсимоти асосланмаган ҳолда, миллий манфаатларига эришиш учун, ўзининг миллий чегараларида тўлақонли иқтисодий тизимни шакллантиришга мажбур бўлади.

Биз томондан амалга оширилган таҳлилга асосан 1-жадвалда келтирилган МИХ институционал лойиҳалаш ёндашувини тизимлаштиришга имкон беради. Жадвалда келтирилган МИХ моделларининг турлари маълум даражада абстракт эканлигини кўрамиз, чунки уларнинг соф шаклида улар амалиётда учрамайди. Аслида, давлатлар ўзларининг ресурс базаси, иқтисодий муносабатлар тизими ва миллий иқтисодий манфаатлар шунингдек, институционал тузилманинг ўзига хос хусусиятлари асосида МИХни шакллантиришнинг турли хил вариантларини комбинациялаштирадилар [13].

Олиб борилган таҳлил натижаларига кўра биз Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти учун қуйидаги умумлаштирувчи таклиф ва тавсияларни тавсия этишимиз мумкин:

- глобал сиёсий ва иқтисодий мулоқотларда тенг ҳуқуқли ва адолатли иқтисодий ҳамкорлик ғоялари ҳукмрон бўлишига қарамай, амалда бир қатор давлатлар, шу жумладан ҳозирги замоннинг етакчи давлатлари ўз МИХларини иқтисодий доминантлик асосида қурмоқдалар. Ушбу шароитда Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг асосий вазифаси миллий иқтисодий суверенитетига нисбатан таҳдидларга қарши туришдир (яъни. ўз миллий иқтисодиётининг бошқа давлат ёки давлатлар блокининг иқтисодий тизимига қарам бўлишини олдини олиш ва асосий муҳим корхоналар устидан назоратни ушлаб туришдир ;

- МИХ институционал лойиҳалашнинг жаҳон моделларини таҳлил қилишда Ўзбекистонлик тадқиқотчилар ва ҳукумат вакиллари диққат марказида институционал ёндашувнинг тўлиқ имкониятларидан фойдаланмаган ҳолда асосан анъанавий ёндашувлар (Камералистик ва Кейнсчилик) ёндашувлардан фойдаланишади;

Бизнинг фикримизча, Камералистик ва Кейнсчилик моделлари доирасида миллий иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш чоралари доирасида тадбиркорлик фаолияти учун қулай бўлган институтларни мақсадли яратиш билан бирга юз бериши керак. Нисбатан бизнесга фискал ёндашувдан воз кечиш ва маъмурий тўсиқларнинг таъсирини юмшатиш муҳимдир. Акс ҳолда, иқтисодиётнинг фақат давлат томонидан қўллаб-қувватланадиган тармоқлари ривожланади, мамлакатимиз миллий иқтисодиётининг технологик қолоқлиги ва халқ хўжалигини самарасизлигини узоқ муддат консервацияланиб сақланиб қолади;

- Жаҳон амалиётида институционал лойиҳалаш давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги ва алоҳида шахснинг иқтисодий хавфсизлиги ўртасидаги барқарорлик муносабатлари турли йўللар билан шаклланади. Бизнинг фикримизча, бугунги кунда Ўзбекистонда асосий эътибор аҳолининг иқтисодий хавфсизлигини оширишга қаратилиши керак, чунки унинг етарли эмаслиги иқтисодий ўсишни секинлаштиради ва тадбиркорлик фаоллигини пасайтиради;

- Хом ашё рентабини трансформациясини миллий иқтисодиётнинг ривожланиши манбага айлантириш соҳасида табиий ресурсларни экспорт қилувчи ривожланган мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш зарур. Хусусан, Ўзбекистон саноати учун зарур бўлган ресурсларни оддий харид қилишдан воз кечиш ва уларни мамлакатимизда, шу жумладан қўшма корхоналар орқали ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришга ўтиш керак;

- Глобаллашувнинг таъсири натижасида Ўзбекистон бозори ҳамда мамлакатимизда ўз ресурсларининг чекланганлиги сабабли бугунги кунда универсал диверсификацияланган миллий иқтисодиётни шакллантириш мураккаб жараёндир. Шундай бўлсада, мамлакатимиз рақобатдош устунликларга эга бўлган драйвер тармоқларига асосланиб (тўқимачилик саноат, хизмат кўрсатиш ва қазиб олиш саноати ва бошқалар.) МИХ баъзис моделини яратиш мумкин;

- Миллий иқтисодиётнинг ҳаддан ташқари ёпиқлигини олдини олиш керак. Глобаллашувнинг салбий таъсири туфайли мамлакатимиз учун анъанавий бозорларга чиқишда янги шериклар билан муносабатларни узоқ муддатли, Ўзбекистон компанияларининг фаол иштирокида технологияларни узатиш ва янги ишлаб чиқариш занжирларини яратиш бўйича ҳамкорлик асосда куриш имкониятидан фойдаланиш сифатида ишлатилиши керак.

- Хуфъёна иқтисодий жараёнларга қарши курашишга кўпроқ эътибор қаратиш лозим чунки улар МИХ асосига катта салбий таъсир этади. Шу билан бирга, ушбу жараёнларни бартараф этиш учун куч ва маъмурий инструментлар билан бир қаторда, институционал тартибга солиш чоралари ҳам қўлланилиши керак, бу эса яширин иқтисодий фаолиятни қонуний формат фаолиятга ўтказишга ёрдам беради. Хуфъёна иқтисодий фаолиятнинг (пул ювиш, гиёҳванд моддалар савдоси, молиявий фирибгарлик) каби ноқонуний шакллари нисбатан куч босими қўлланилиши керак. Институционал тартибга солишдан, юқори маъмурий тўсиқлар туфайли кулранг секторга кириб борган (масалан, ўз-ўзини иш билан таъминлаш) мазмун жиҳатдан ноқонуний бўлмаган фаолият шакллари ва соҳаларида фойдаланиш керак. Бундан ташқари, давлат ва алоҳида шахсларнинг иқтисодий фаровонлигига таҳдид соладиган иқтисодий фаолиятнинг расмий ҳуқуқий соҳалари устидан назоратни кучайтириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 21.12. 2022 йил.
2. Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. - 2-е изд. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
4. Букреев В. В., Рудык Э. Н. Противодействие внешнему управлению стратегическими промышленными предприятиями России // Альтернативы. – 2019. – № 2. – С. 92-101;
5. Латов Ю. В. Российская теневая экономика в контексте национальной экономической безопасности // Экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2007. – Т. 5. – № 1. – С. 16-27.

6. Маматов А.А., Жўраев Т.Т. Кластерларни ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йўлга қўйишнинг хориж тажрибаси. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” электрон журнали. №1, 2020. –Б.12.
7. Маъмуров Б.Х. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг концептуал асослари ва хориж тажрибаси. Иқтисодиёт ва таълим журнали. 2020 йил № 4. –Б.44.
8. Лист Ф. Национальная система политической экономии. Челябинск: Социум, 2017. – 451 с.
9. Эрнандо де Сото. Иной путь: Экономический ответ терроризму. Челябинск: Социум, 2007. – 408 с.
10. Economic security: Neglected dimension of national security. Ed. by Sheila R. Ronis. Washington, DC: National Defense University Press, 2011. – 130 p.; Losman D. Economic Security. A National Security Folly? // Policy Analysis. – 2001. – No. 409. – P. 1-12.
11. Комарова О. В. Как богатые страны стали богатыми, и почему бедные страны остаются бедными. М.: Изд. дом Гос. ун-та – Высшей школы экономики, 2011. – 384 с.
12. Муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган
13. Букреев В. В., Рудык Э. Н. Противодействие внешнему управлению стратегическими промышленными предприятиями России // Альтернативы. – 2019. – № 2. – С. 92-101;

УЎК 349

СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИ САМАРАЛИ ИШЛАШ МЕХАНИЗМИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙУЛЛАРИ

Н.Э.Эрназаров, PhD., доц., Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Самарқанд

Аннотация. Ушбу мақолада солиқ имтиёзларини самарали ишлаш механизмини таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлигини ошириш йўналиши тадқиқ этилган ҳамда солиқ имтиёзларидан самарали фойдаланиш орқали иқтисодиётни мустаҳкамлаш бўйича муҳим таклифлар баён этилган.

Калит сўзлар: бюджет, солиқ, даромад, рағбатлантириш, бюджет барқарорлиги, бюджет тушумлари, импорт товар, солиқ амалиёти.

Аннотация. В данной статье исследуется направление повышения эффективности налогообложения в обеспечении механизма эффективного функционирования налоговых кредитов, а также представлены важные предложения по укреплению экономики за счет эффективного использования налоговых кредитов.

Ключевые слова: бюджет, налог, доходы, льготы, бюджетная устойчивость, доходы бюджета, импортные товары, налоговая практика.

Abstract. This article explores the direction of increasing the efficiency of taxation in providing a mechanism for the effective functioning of tax credits, and also presents important proposals for strengthening the economy through the effective use of tax credits.

Keywords: budget, tax, revenues, benefits, budgetary stability, budget revenues, imported goods, tax practice.

Кириш. Бозор муносабатларини янада эркинлаштириш шароитида солиқларнинг рағбатлантирувчилик функциясига кўпроқ эътибор қаратилаётганлиги бежиз эмас, сабаби бу функциянинг бажарилиши оқибатида иқтисодиётнинг устувор тармоқлари ривожлантирилиши, ишлаб чиқариш ва тадбиркорликнинг қўллаб-қувватланиши, жамиятдаги айрим ижтимоий масалалар ҳал этилиши мумкин.

Солиқларнинг рағбатлантирувчилик функциясининг амал қилиши эса- ўз навбатида, солиқлардан берилаётган имтиёзлардан самарали фойдаланишга боғлиқ. Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг бу борадаги қуйидаги фикрлари диққатга сазовордир: “Солиқчи – кўмакчи” тамойили асосида тадбиркорлар учун уларнинг бизнес ҳамкорининг солиқ қарздорлиги ҳақидаги маълумотларни олиш имконияти яратилади[2]. Мамлакатимиз солиқ сиёсати борасида билдирилган ушбу фикрлардан келиб чиқадиган бўлсак, солиқ сиёсати олдида турган бу икки вазифанинг ҳамма вақт бар авар бажарилиши назарда тутилаяпти. Бозор иқтисодиётини ривожлантиришда бугунги кунда энг самарали воситалардан бири корхоналарда солиқ юқини пасайтиришга йўналтирилган солиқ имтиёзлари тизими бўлиб, бунинг учун солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш, унга таъсир этадиган салбий ички ва ташқи омилларни минималлаштириш зарур.

Бугунги кунда мамлакатимиз солиқ тизимида муҳим ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, кучга киритилган янги таҳрирдаги, Солиқ кодекси “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси” бу соҳада қилинган назарий ва амалий ишларнинг натижаси бўлди деб қабул қилинса бўлади. Ушбу Кодекс солиқ қонунчилигига доир меъёрий ҳужжатлар ва йўриқномаларни тартибга солишга ҳамда солиқ тизимининг яхлит ҳуқуқий негизини яратишга хизмат қилган бўлса, унда солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепциясини қабул қилиниши [1] мамлакатимиз солиқ тизимини дунё андозалари қаторига кўтарилишига замин яратиб берди. Унда солиқ имтиёзларига алоҳида ўринга берилган бўлсада ҳам бу борада катта ишларни амалга ошириш зарурияти долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Шу боис ҳам асосий масалалардан бири бу солиқ имтиёзларини ишлатиш механизмининг амалий жиҳатдан асолаш бўлиб қолмоқда. Чунки солиқ имтиёзлари берилиб келинаётган корхоналарни аксариятида боқимандалик ҳолати юзага келмоқда. Солиқ имтиёзларига эга бўлдим қолгани бир гап бўлар деб юрганлар сони саноқсиз. Хуллас мамлакатимизда солиқ тизими мураккаб иқтисодий шароитларда амалга оширилиб келинаётганлиги қуйидаги сабабларга ҳам боғлиқ бўлмоқда, яъни:

-иқтисодиётнинг асосий тармоқларида рақобатбардош ва импорт товарлар ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи корхоналарни қувватини тўлиқ ишга туширилмаслиги;

-турли мулк шаклидаги корхоналарни хориж тажрибаларни ўрганган ҳолда ижобий томонларини амалиётга жорий этилмаганлиги;

-солиқ имтиёзларини тартибга солиш механизмининг хорижий тажрибалар даражасига кўтарилмаганлиги.

Шу боисдан ҳам, солиқ имтиёзлари бўйича мавжуд ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда, биринчи навбатда, ишлаб чиқаришни сифат жиҳатдан ривожлантириш, инвестицион салоҳиятни ошириш рақобат муҳитини шаклланишини тартибга солиш яъни ғоя ва ихтироларни ишлаб чиқаришга жорий этишни имтиёзлар орқали рағбатлантириш механизмининг ишлаб чиқиш талаб этилади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Айтиш жоизки, солиқ механизмининг асосий элементларидан бири – бу солиқ имтиёзларидир. Иқтисодчи олимлар томонидан солиқ имтиёзлари механизми тушунчасига турли қарашлар шакланган бўлсада, аммо солиқ имтиёзлари механизмининг таъминлаш истиқболда эришиш мумкин бўлган қарашлар ўрганилмаган. В. Г.Пансков фикрича “Солиқ имтиёзлари” тушунчасининг баъзи назарий жиҳатлари” номли мақоласида солиқ имтиёзлари тўғрисида “солиқ имтиёзлари солиқ соҳасидаги адолат назариясида солиқни тўлаш қобилияти паст бўлган субъектларга нисбатан қўлланиладиган солиқ солиш услубидир” деб, таъкидлайди [3].

И.М.Александровнинг фикрича: “Солиқ имтиёзи-бу солиққа тортиш миқдорини камайтириш ёки солиқнинг субъектига бошқа солиқ тўловчига нисбатан афзаллик тақдим этишдир” [4]. В.Н.Незамайкин ва И.Л.Юрзинова “солиқ имтиёзи - бошқа тўловчиларга нисбатан солиқ тўловчиларга, солиқ тўловчиларнинг алоҳида тоифаларига солиқ қонунчилигида кўзда тутилган афзалликларнинг, жумладан, солиқ ёки йиғимини тўламаслик ёки кичикроқ ҳажмда тўлаш имкониятининг берилиши” деб эътироф этишган [5].

Ф.И.Исаев солиқ имтиёзига қуйидагича таъриф берилди: Солиқ имтиёзлари – солиқ тўловчиларнинг айрим тоифаларини солиқлар тўлашдан қисман ёки тўлиқ озод қилиш ёки солиқларни камроқ миқдорда тўлаш учун берилган имкониятларди [6].

Оқилона ишлаб чиқилган солиқ тизимида истеъмолга йўналтирилган маблағларни солиққа тортиш муҳимдир, бунда ишлаб чиқаришнинг ривожлантирилишига йўналтирилган маблағлар тўлиқ (ёки қисман) солиқдан озод қилиниши мумкин. Шу боис, солиқ сиёсатининг асосий вазифаси бўлиб истеъмолчилар талабининг ўсишига салбий таъсир қилмаган ҳолда, солиққа тортиш базасини кенгайтириш ва унга асосан солиқ юкни ишлаб чиқаришдан истеъмолга кўчиришга қаратилган бўлиши лозим.

Таҳлил ва натижалар. Юқорида зикр этилган олимларни фикрини имкон қадар солиқ солиқ ставкаларини ўзгартириш орқали иқтисодиётга самарали таъсир кўрсатиш

мумкинлигига қаратилиб келинмоқда. Солиқ ставкаларини ўзгартириш ҳисобидан молиявий оқимлар ва товар оқимларининг айрим соҳалари учун қўшимча рағбатлар яратилади, шунингдек, импорт товарларга солиқ ставкаларининг оширилиши эса маҳаллий товарлар ишлаб чиқарувчиларга товарларни экспорт қилиш учун ҳам кенг имкониятлар яратилиши мумкинлигини алоҳида изоҳлаб утилмоқда.

Солиқ имтиёзлари тизими давлат иқтисодий сиёсатининг мақсадлари ва ўзгарувчан иқтисодий тизим талабларига мувофиқ ишлаб чиқилиши керак. Солиқ имтиёзларининг ягона рўйхатини қонунлаштириш, шунингдек, солиқ имтиёзларидан бозор иқтисодиёти ва унинг субъектлари эҳтиёжларига жавоб берадиган восита сифатида фаолроқ фойдаланиш зарур.

2-жадвал

2017-2022 йилларда солиқ турлари бўйича фойдаланилган солиқ имтиёзлари таҳлили (млрд. сўм)[7]


№		2017 й	2018 й	2019 й	2020 й	2021 й	2022й
1	Солиқ имтиёзлари. млрд. сўм	5411,3	6400,8	29136	31065,6	34 092	9000,0
1.1	Қўшилган қиймат солиғи	8 450,4	14 989,5	25 318	25902,1	27637,9	8289,0
1.2	Айланмадан олинадиган солиқ	1 216,8	1325,7	164,8	146,8	111,1	2700,0
1.3	Фойда солиғи	496,1	1700,4	2012,2	2102,1	1117,4	14400,0
1.4	Ер солиғи	99,8	1154,0	439,2	1340,8	3221,5	117,0
1.5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	1512,4	798	541,8	699,6	836,2	810,0
1.6	Мол-мулк солиғи	2781,9	897,3	382,4	477,6	678,6	54,0
1.7	Ягона ер солиғи	198,9	29,6	129,1	-	-	
1.8	Ижтимоий солиқ ва бошқа	322,2	495,8	148,5	396,6	489,3	900,0

2-жадвал маълумотлари асосида айтиш жоизки 2017 йилда тақдим этилган солиқ имтиёзлари ҳажми 5411,3 млрд. сўмни ташкил этган бўлса, 2018 йилда 6400,8 млрд. сўм, 2019 йилда 29 136 млрд. сўм, 2020 йилда 31 065,6 сўм, 2021 йилда 34 092 млрд. сўмни ташкил этган. 2022 йил 9 триллион сўмлик солиқ имтиёзлари тақдим этилган. Солиқ турлари бўйича тақдим этилган солиқ имтиёзлари таркибида энг юқори кўрсаткич қўшилган қиймат солиғи ва ер солиғи бўйича берилган имтиёзлар хиссасига тўғри келмоқда.

Ушбу тақдим этилаётган умумий солиқ имтиёзларидан кўзланган мақсад фойданинг кўпроқ қисмини корхоналарга қолдириш ва иқтисодий имкониятларини, солиққа тортиладиган базани кенгайтириш бўлиб ҳисобланади. Шу сабабли, кейинги йилларда солиғи ставкасининг пасайтирилиб борилишига ҳам маълум бир имтиёз сифатида қараш мумкин(1-расм).

1- диаграмма

2017-2022 йилларда солиқ турлари бўйича фойдаланилган солиқ имтиёзлари таҳлили (фоизда) [8]



Манба: Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.

Ушбу иқтисодий кўрсаткични таҳлил қилишда кўриш мумкинки солиқ имтиёзлари 2017 йилга нисбатан 2022 йил 6.3 баробарга ўсган бўлса, 2018 йилга нисбатан 2019 йилга 4.6 баробарга ўсган. Ушбу графикдан кўриш мумкинки 2017 йил ва 2018 йилларда бироз ўсиш камроқ кўзатилган бўлса, 2018 йилга нисбатан 2019 йилда солиқ имтиёзлари миқдори кескин ортиб кетганлигини кўриш мумкин.

Солиқ имтиёзлар солиқ тўловчига солиқ юқини камайтиришнинг умумий мақсадига ва бунинг натижасида фаолиятнинг айрим турларини ривожлантиришни рағбатлантиради.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда солиқ имтиёзларини самарали ишлаш механизмини таъминлаш борасида қуйидаги илмий таклиф ва амалий тавсияларни амалиётга жорий этиш лозим:

– тадбиркорларни ҳуқуқий ва солиқ саводхонлигини ошириш мақсадида ўқув курсларини ташкил этиш зарур;

- тадбиркорлик субъектларга солиқ турлари бўйича қайси норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида солиқ имтиёзлари берилиши тўғрисида солиқ қўмитаси расмий сайтида маълумотлар очик такдим этиб борилса мақсадга мувофиқ бўлар эди;

-солиқ имтиёзларининг қайси мақсадда, қачон ва қай тартибда берилгани ҳамда корхоналарнинг маълумотлар ҳам очик такдим этилиши;

-солиқ механизмини бошқаришда сақланиб қолинаётган усуллардан фойдаланиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиб ижобий томонларини амалиётга жорий этиш;

-молия йили давомида корхоналар томонидан фойдаланилган ва ҳукумат томонидан такдим этилган солиқ имтиёзлари самарадорлигини таҳлил қилиш ва бунинг натижасида самарасиз фойдаланилган солиқ имтиёзларини йил охирида бекор қилиш, аксинча давом этиришга рухсат бериш механизминини жорий этиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.06.2018 йилдаги «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги ПФ-5468-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/3802378>

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

3. Пансков В. Г. О некоторых теоретических аспектах содержания понятия «налоговая льгота» // Финансы и кредит. 2014. № 4 (580). С. 48–52.

4. Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. — 10-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско- торговая корпорация «Дашков и К°», 2009 — 228 с.

5. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. Налогообложение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, 2004. С.44.

6. Исаев Фахриддин Икромович Солиқ имтиёзларининг солиқ юки кўрсаткичига таъсири таҳлили. “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил. www.iqtisodiyot.uz

7. <https://soliq.uz/regulations/land-property-tax?lang=latn> -Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби

УЎК 332.05

ДАВЛАТНИНГ ҲУДУДИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТИДА БАРҚАРОР ҲУДУДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ МАЗМУНИ ВА КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ

Т.Ш.Қазақов, ўқитувчи, Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети, Тошкент

Аннотация. Ушбу мақолада давлатнинг ҳудудий иқтисодий сиёсатида барқарор ҳудудий ривожланишнинг мазмуни ва концептуал асослари, “Ҳудуд” тушунчасини аниқлашга концептуал ёндашувлар, ҳудудларнинг барқарор ривожланиш компонентлари, ҳудудларнинг барқарор ривожланиш концепциясини амалга ошириш тамойиллари ҳақида фикир ва мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: давлат бошқаруви, ҳудудий ривожланиш, инновация, бошқарув, самарадорлик.

Аннотация. В статье представлены содержание и концептуальные основы устойчивого регионального развития в региональной экономической политике государства, концептуальные подходы к определению понятия «Территория», компоненты устойчивого развития регионов, а также принципы реализации концепции устойчивого развития регионов. развитие регионов.

Ключевые слова: государственное управление, региональное развитие, инновации, управление, эффективность.

Abstract. This article presents the content and conceptual bases of sustainable regional development in the regional economic policy of the state, conceptual approaches to defining the

concept of "Territory", components of sustainable development of regions, and the principles of implementing the concept of sustainable development of regions.

Key words: *public administration, regional development, innovation, management, efficiency.*

Кириш. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ва экологик ривожланиши ҳудудларда рўй бераётган тубдан ижобий ўзгаришларга асосланади. Минтақавий ривожланиш жараёнлари ва ҳодисалари давлатнинг ҳудудий сиёсати доирасида илмий асосланган механизмлар ёрдамида тартибга солинади. Баркамол минтақавий тараққиёт йўлида тўсик бўлаётган объектив муаммолар натижасида давлатнинг ҳудудий сиёсатининг назарий ва услубий асосларини замонавий тенденцияларга мувофиқ қайта кўриб чиқиш зарур. Шундай қилиб, ҳудудий жараёнлар, ҳодисалар ва улар ўртасидаги боғлиқликларнинг доимий ўзгариши давлатнинг минтақавий сиёсатининг назарий асосини ташкил этувчи ҳудудий ривожланишга оид мавжуд қарашлар тизимини такомиллаштириш заруратини белгилаб беради.

Ҳудудларнинг барқарор ривожланишини таъминлашдан иборат бўлган ҳудудий сиёсат мақсадини амалга оширишнинг услубий асосини ташкил этувчи ҳудудий жараёнларни тартибга солиш тамойиллари ва усуллари қайта кўриб чиқишни талаб қилади. Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ҳудудларни ривожлантиришни тартибга солишга эътибор қаратди. Ушбу даврларда қабул қилинган Меҳнат Кодекси, Солиқ Кодекси, Фуқаролик Кодекси, Фуқаролик Процессуал Кодекси, хўжалик Процессуал Кодекси, Банклар фаолияти тўғрисидаги Қонун, Божхона Кодекси, қишлоқ хўжалигида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришга қаратилган Ер кодекси, “Қишлоқ хўжалиги кооперативи (ширкат хўжалиги) тўғрисида”ги, “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги, “Дехқон хўжалиги тўғрисида”ги, “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги, шунингдек “Чет эл инвестициялари тўғрисида” ги, “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги, “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шарзномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги Қонунлар ва бошқа қатор қонун ҳужжатлари шулар жумласидандир.


Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, статистик кузатиш, статистик жамлаш ва гуруҳлаш, танланма, корреляцион ва регрессион таҳлил, эконометрик моделлаштириш ҳамда прогнозлаш каби усуллар қўлланилган.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси (асосий қисм). Шу маънода, “Ҳудуд” атамасининг асосий таърифини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бу борада баъзи олимлар минтақани маъмурий-ҳудудий бирлик сифатида тушунишни тор деб ҳисоблашади. Хусусан, О.Ю.Оболенский ҳудудни “бир давлат ёки давлатлар гуруҳи таркибидаги, маълум мезонлар (иқтисодий, демографик, экологик, этник, ижтимоий, маданий ва бошқалар) бўйича бир хил бўлган ҳудуд” деб талқин қилишни таклиф қилган[1]. Унга кўра, ушбу мезонларга бўйича бу ҳудуд бошқа ҳудудлардан фарқ қилади. Шунингдек, бу таъриф районлаштириш жараёнида ижтимоий-иқтисодий жараёнларни таҳлил қилиш ва самарали ҳудудий тартибга солишни амалга ошириш учун ҳудудий маъмурий бирликларга тўғри келмайдиган танланган хусусиятга кўра ҳудудлар (туманлар) аниқланишига асосланади.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, бу таърифдан кўпроқ минтақа тушунчаси ифода этилган бўлиб, унга кўра, маълум бир минтақа бир нечта ҳудудларни қамраб олади ва ижтимоий-иқтисодий дастурларни амалга ошириш учун ёки ўз-ўзидан трансформацион жараёнлар содир бўлган ҳудудий марказлар атрофида шаклланади. Шунга ўхшаш талқин ҳудуд табиий-географик, ижтимоий, иқтисодий комплекслар билан ажралиб турадиган мамлакат ҳудудининг бир қисми сифатида экологик ва унга хос бўлган бошқа хусусиятлар билан белгиланган эди[2]. Аслини олиб қараганда, ҳудуд маъмурий-ҳудудий бирлик чегарасига тўғри келиши ва бир нечта шундай бирликларни бирлаштириши мумкин. Ушбу фикр-мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда “Ҳудуд” тушунчасини уч гуруҳга ажратган ҳолда концептуал ёндашувни таклиф этиш мумкин (1-расм).

“Ҳудуд” тушунчасини аниқлашга концептуал ёндашувлардан келиб чиққан ҳолда ҳудуднинг муҳим белгилари сифатида қонун ҳужжатларида белгиланган субмиллий

даражадаги ҳудудий шаклланиш бўлиб, унинг асосида тегишли ижро ҳокимияти органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари тизими бўйича шаклланишини таъкидлаш мумкин. Шундай қилиб, Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига [3] мувофиқ 5-моддада Ўзбекистон Республикаси маъмурий-ҳудудий тузилишининг таркибий қисмлари сифатида Ўзбекистон Республикаси вилоятлар, туманлар, шаҳарлар, шаҳарчалар, қишлоқлар, овуллардан, шунингдек Қорақалпоғистон Республикасидан иборат қилиб келтирилган.



1-расм “Ҳудуд” тушунчасини аниқлашга концептуал ёндашувлар

Шу муносабат билан ҳудудий тартибга солишни ахборотлаштириш парадигмаси ва минтақалар ривожланишининг ахборот йўналиши контекстида “ҳудуд” тушунчасининг таърифини асослаш масаласи туғилади. Ахборот жамиятининг асосий хусусиятлари глобаллик, шериклик ва ахборот билимларни асосий иқтисодий маҳсулот ва айна пайтда ресурс сифатида тан олишдир[4]. Шунингдек, иноватга олган ҳолда, бизнинг фикримизча, жамиятнинг янги ахборот модели шароитида давлат ҳудудий сиёсатини амалга оширишнинг ҳудудий-ташкилий шакллари электрон ва виртуал ҳудудлар бўлиши мумкин.

Келтирилган фикр-мулоҳазаларга асосан, “Электрон ҳудуд” - бу мавжуд ахборот инфратузилмасига эга бўлган ҳудудий шаклланиш, унинг ёрдамида ушбу шаклланишнинг таркибий элементларининг электрон ўзаро таъсири амалга оширилишини таъкидлаш мумкин. У давлат ижроия ҳокимияти ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари тизимига эга бўлиши ёки вазиятга боғлиқ бўлиши мумкин. Бироқ глобал ахборот тармоғига уланган “электрон ҳудуд”нинг асосий хусусияти унинг маълум бир ҳудудга тегишлилигидир.

Бизнингча, умумий муаммоларни ҳал қилиш учун электрон маконда шаклланган ва фаолият юритаётган бундай трансчегаравий тармоқ виртуал ҳудуд ҳисобланади. Шундай қилиб, бир давлатнинг, қитъанинг, умуман сайёранинг қўшни бўлмаган, ўхшаш ижтимоий, иқтисодий ва экологик муаммоларга эга бўлган ҳудудлари фақат виртуал муҳитда ўз ечимлари атрофида самарали бирлашиши мумкин. Ҳудуди аниқ белгиланган электрон ҳудуддан фарқли ўлароқ, виртуал ҳудуд янги ҳудудларда маълум бир муаммонинг янги ўчоқлари пайдо бўлишига қараб ўзгариб турадиган виртуал бирлашиш учун умумий хусусиятларни олган ёки йўқотган ҳудудлар таркибга эга.

Албатта, бу жараён доимий равишда давом этади. Шундай қилиб, юқорида қайд этилган ҳудудий ёндашув электрон ҳудудда, характерли (муаммоли) эса виртуал ҳудудда амалга

оширилади. Иккинчиси глобал ёки миллий барқарор ривожланишни тартибга солишни таъминлашда самарали. Чекланган ҳудуддаги муаммонинг маҳаллий ечими унинг йўқ қилинишини англамайди ва “фокал даволаш” барқарор ривожланиш белгиси бўла олмайди[5]. Аксинча, муаммо атрофида унинг турли ҳудудлардаги турли кўринишларида бирлашиш уни ҳал қилиш самарадорлигини оширади. Ҳозирги ахборот иқтисодиётида давлат ҳудудий сиёсатини амалга оширишнинг ҳам ҳудудий, ҳам ташкилий шакллари электрон ва виртуал ҳудудларнинг барқарор ривожланишига хизмат қилмоқда.

Иқтисодий ривожланишнинг замонавий босқичининг хусусиятлари инсоннинг табиий муҳитга таъсирининг фаоллашиши ва кучайиши туфайли экологик муаммоларнинг сезиларли даражада кескинлашиши ҳамда кучайишидир[6]. Жамият ва табиат ўртасидаги глобал миқёсда - озон қатламининг бузилиши, иқлим ўзгариши, биохилма-хилликнинг бузилиши, чўлланиш, кислотали ёмғирлар, ўрмонларнинг кесилиши; маҳаллий - ифлосланган ҳаво, сифатсиз сув, чиқиндиларни йўқ қилиш билан боғлиқ муаммолар, йўллардаги ахлоқсизлик, аҳоли саломатлигининг ёмонлашиши, сифатсиз озиқ-овқат маҳсулотлари асосида кескин муносабатларни юзага келишига сабаб бўлади.

Ҳозирги кунда экологик муаммолар замонавий жамият учун устувор вазифага айланди. Табиий ресурслардан нораціонал фойдаланиш, атроф-муҳитнинг ифлосланиши - буларнинг барчаси экологик инкирозга олиб келади. Бу орқали маҳаллий даражадаги ҳокимият зудлик билан ҳал қилишни талаб қиладиган мураккаб ва таҳдидли муаммоларга дуч келмоқда:

- экстремал иқтисодий қийинчиликлар ва ривожланмаган инфратузилма;
- одамларда хавфсизлик ҳисси ва ҳудудий тенгсизлик;
- қашшоқлик ва ишсизликнинг кучайиши ҳамда биологик хилма-хилликка таҳдид;
- сув ресурсларининг етишмаслиги ва уларнинг ифлосланиши;
- тупроқ деградацияси ва эрозияси ҳамда ҳавонинг ифлосланиши;
- қаттиқ, хавфли ва заҳарли чиқиндиларни йўқ қилишнинг қониқарсиз воситалари;
- хавфсиз энергия манбаларидан фойдаланишнинг чекланганлиги[7].

Юқорида қайд этилган муаммо ва муаммоларнинг аксарияти бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу маҳаллий ривожланишга яхлит барқарор ривожланишга яхлит стратегик ёндашувни қўллаш заруратини кучайтиради.

Иқтисодий - ҳудудий тизимнинг маълум параметрлар билан узоқ вақт давомида маълум шароитларда ишлашни таъминлаш жараёни, унинг натижаси ишлаб чиқариш атроф-муҳитнинг яхлитлигини сақлаш ва босқичма-босқич тиклаш шартлари омилларини уйғунлаштириш ҳозирги ва келажак авлодларнинг ҳаёт сифатини яхшилашдир. Ижтимоий - бу, биринчи навбатда, иқтисодий ўсиш ва экологик хавфсизликни таъминлаш вазифаларини амалга ошириш имконини берадиган турмуш даражасини, ижтимоий таъминотни яхшилаш зарурати[8].

Шу боис мамлакат ёки унинг алоҳида минтақаси, ҳудуди, унинг барқарор ривожланиши йўлида ушбу тараққиётини белгилаб берувчи таркибий қисмлар муҳим ўрин тутади. Барқарор ривожланиш таркибий қисмлари, хусусан, ҳудудий ҳамжамиятларнинг классик триадасини тасвирлаб, унинг асоси ҳудудий тизимнинг ижтимоий-экологик ва иқтисодий мувозанатини таъминлаш эканлигини таъкидлаш лозим (2-расм).

Ҳудудларнинг барқарор ривожланиш компонентларининг асосини ижтимоий-экологик ва иқтисодий таъминлаш ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси ҳудудий ҳамжамиятларининг ривожланиш хавфи, шунингдек, ягона моделда иқтисодий ва ижтимоий соҳаларни ҳисобга олмасдан, фақат иқтисодий тараққиётга устунлик бериш осонроқ эканлигидадир. Барқарор ривожланиш концепциясини ҳаётга татбиқ этиш эса халқ фаровонлигининг жадал ўсишини кафолатламайди, балки сиёсатчилар, раҳбарлар ва оддий фуқароларнинг машаққатли меҳнати ва бирлашган саъй-ҳаракатларини талаб қилади.

Маҳаллий ўзини ўзи бошқаришни ислоҳ қилмасдан, марказсизлаштириш жараёнларини амалга оширмасдан туриб, ҳудудий жамоалар ва ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳамда маданий ривожланишидаги салбий жараёнларни бартараф этиш, кўпчилик фуқароларнинг ҳаёт даражаси ва сифатини сезиларли даражада оширишни таъминлаш мумкин эмас[9].

Худудий ҳамжамиятлар тўловга лаёқатли маҳаллий бюджетларга эга бўлиб, аҳоли пунктлари, хусусан, экологик масалаларни мустақил ҳал қилиш имкониятига эга. Маҳаллий даражада ҳокимиятни марказсизлаштириш ва унинг турли даражалари ва тармоқлари ўртасидаги ҳамкорлик, шунингдек, хусусий ва нодавлат секторлар билан ҳамкорликка эътибор қаратилади.



2-расм. Худудларнинг барқарор ривожланиш компонентлари



3-расм. Худудларнинг барқарор ривожланиш концепциясини амалга ошириш тамойиллари

Янги Ўзбекистон воқеликлари худудларда, маъмурий-худудий тузилмаларда бошқарув фаолиятининг мавжуд моделларини тубдан такомиллаштириш йўлларини излашга ундайди. Янги Ўзбекистонда узоқ қутилган маҳаллий ўзини ўзи бошқариш ислоҳоти, унинг ривожланиши учун реал имкониятларни таъминлаши керак бўлган ислоҳот ҳақиқатга айланди. Миллий экологик сиёсатни амалга ошириш ва барқарор ривожланишнинг асосий концепцияларини амалга оширишнинг асосий воситалари экологик сиёсат стратегиясида тўлиқ ифодаланган бўлиб, улардан асосийлари:

- атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш;

- атроф-муҳит ҳолати ва экологик хавфсизликни таъминлаш мониторинги; экологик экспертиза ўтказиш; стратегиялар, дастурлар, режаларнинг табиий муҳит ҳолатига таъсирини баҳолаш;

- тармоқлараро ҳамкорлик ва манфаатдор шахсларни жалб этиш; атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида халқаро ҳамкорлик;

- атроф-муҳит аудити, атроф-муҳитни бошқариш тизимлари, атроф-муҳитни ёрликлаш; экологик суғурта, экологик таълимдан иборат. Худудий ҳамжамиятларнинг барқарор ривожланиши концепцияси давлат, минтақавий ва маҳаллий даражаларни ўз ичига олиши керак бўлган мақсадли стратегия ёрдамида таъминланиши керак. Барқарор ривожланиш концепциясини амалга оширишда стратегик ёндашув бир қатор замонавий тамойиллардан фойдаланишни назарда тутди (3-расм).

3-расмда худудларнинг барқарор ривожланиш концепциясини амалга ошириш тамойилларига кўра, миллий манфаатлар, шунингдек, барқарор ривожланишни амалга ошириш миллий хавфсизликнинг асоси эканлиги, бу ерда минтақалар катта рол ўйнаши, чунки улар миллий иқтисодий мустаҳкамлаш, ижтимоий сиёсат, ва атроф-муҳит муҳофазасидан иборатлигини кўриш мумкин. Барқарор ривожланишни амалга ошириш маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органларининг ўзгаришларга мослашишига ва ҳаракатни белгиланган мақсадга эришишга йўналтиришга ёрдам беради.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, келтирилган жараённинг барча асосий иштирокчилари: давлат органлари, тадбиркорлик тузилмалари, худудий ҳамжамият учун ушбу усулнинг афзалликлари, хусусан: ижтимоий-иқтисодий ва ташкилий чоратадбирларнинг илмий ва амалий асослиги, бошқарув қарорларининг самарадорлиги билан боғлиқ. Режалаштириш жараёнида иштирокчилар доираси сезиларли даражада кенгайтирилди, уларнинг қизиқишлари ва эҳтиёжлари ҳар томонлама ҳисобга олинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Оболенский О.Ю. Организационный механизм регулирования экономики: автореф. дис. на соискание науч. степени к-та. наук по гос. упр.: спец. 08.02.03 «Организация регулирования, планирования и управления экономикой» / О.Ю. Оболенский. – Донецк, 2001. – 26 с.

2. Нужина И. Концептуальная модель региональной экологоэкономической системы / И. Нужина, О. Юдахина // Вестник Томского государственного университета. – 2008. – № 1(2). – С. 54 -67.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-худудий тузилиши тўғрисида” 2020 йил 28 августдаги ЎРҚ-635-сон қонуни. <https://lex.uz/acts/4973063>

4. Сторошук Б.Д. Экономические интересы региона в условиях трансформационной экономики: автореф. дис. на соискание науч. степени к-та. экон. наук: спец. 08.01.01 «Экономическая теория»/Б.Д. Сторошук. – Киев, 2004. –13 с.

5. Mintzberg H. Structuring organizations: (text) [Electronic resource] / Mintsberg G. - Access mode: <http://academy-document.narod.ru/orgproekt-met-mat/Mintsberg.htm>

6. Lelechenko A.P., Vasylieva O.I., Kuybida V.S., Tkachuk A.F. Local self-government in conditions of decentralization of powers: training. manual Kyiv: Council of Europe, 2017. 110 p.

7. Bondar, O. I. et al. Ekolohichna osvita dlia staloho rozvytku u zapytanniakh ta vidpovidiakh [Environmental Education for Sustainable Development in Questions and Answers]. Kherson: Hrin D. S., 2015

8. Melnyk, L. G. Fundamentals of the development of fundamentals of Sustainable Development. Sumy: University. Book, 2006.

9. Лелеченко А. П., Васильева О. И., Куйбида В. С., Ткачук А. Ф. Местное самоуправление в условиях децентрализации полномочий: учеб. пособие. Киев: Совет Европы, 2017. 110 с

UO'K 72.007

O'Z DAVRINING ENG BUYUK ME'MORLARIDAN OSKAR RIBEYRO DE ALMEYDA NIEMEYER SOARES FILHO IJODI*S.R.Xalikov, kafedra mudiri, PhD, Jizzax politexnika instituti, Jizzax*

Annotasiya. Ushbu maqolada braziliyalik arxitektor, zamonaviy arxitekturaning rivojiga hissa qo'shgan, o'z davrining eng buyuk me'morlaridan biri sifatida e'tirof etilgan, Le Korbyuze bilan birga zamonaviy arxitekturaning timsollaridan biri bo'lib, me'morning temir-betonning konstruktiv va plastik imkoniyatlarini o'rganishda muhim kashfiyot bo'lib, u o'z asarlarini haqiqiy haykaltaroshlik asariga aylantirganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Arxitektor, zamonaviy, Rio-de-Janeyro, me'mor, zamonaviy arxitektura, Le Korbyuze, temir-beton.

Аннотация. В данной статье бразильский архитектор, внесший вклад в развитие современной архитектуры, признанный одним из величайших архитекторов своего времени, является одним из символов современной архитектуры наряду с Ле Корбюзье. Утверждается, что архитектор был важным пионером в изучении конструктивных и пластических возможностей железобетона, а свои произведения превратил в настоящие скульптурные произведения.

Ключевые слова: Архитектор, модерн, Рио-де-Жанейро, архитектор, современная архитектура, Ле Корбюзье, железобетон.

Abstract. In this article, the Brazilian architect, who contributed to the development of modern architecture, is recognized as one of the greatest architects of his time, is one of the symbols of modern architecture along with Le Corbusier, and the architect's study of the structural and plastic possibilities of reinforced concrete. is an important discovery, and it is stated that he turned his works into real sculptural works.

Keywords: Architect, modern, Rio de Janeiro, architect, modern architecture, Le Corbusier, reinforced concrete

Kirish: Oskar Ribeyro de Almeyda Niemeyer Soares Filho (1907 yil 15 dekabr - 2012 yil 5 dekabr), Oskar Niemeyer braziliyalik arxitektor, zamonaviy arxitekturaning rivojiga hissa qo'shgan asosiy shaxslardan biri hisoblanadi. Niemeyer 1960-yilda Braziliya poytaxtiga aylanishi rejalashtirilgan shaharga fuqarolik binolari loyihalari va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasini boshqa me'morlar bilan hamkorlikda loyihaladi. Uning temir-betonni estetik imkoniyatlarini o'rganishga 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida katta ta'sir ko'rsatdi.

Niemeyer tarafdorlari tomonidan buyuk rassom va o'z davrining eng buyuk me'morlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [1]. U o'zining arxitekturasiga Le Korbusier kuchli ta'sir ko'rsatganini aytdi, ammo u o'z intervyuda bu "uning arxitekturaning boshqa yo'nalishda ketishiga to'sqinlik qilmaganligini" aytib o'tgan [2]. Niemeyer mavhum shakllar va egri chiziqlardan oqilona foydalanib bu yo'nalishda mashhurlikka erishdi va u o'z xotiralarida shunda yozadi: Meni to'g'ri burchaklar yoki inson tomonidan yaratilgan qattiq va egiluvchan to'g'ri chiziq o'ziga tortmaydi. Meni erkin oqimli, egri chiziqlar o'ziga jalb qiladi. Men o'z mamlakatim tog'larida, daryolarining qiyshiqligida, okean to'lqinlarida va inson tanasidagi suyuklarda topadigan egri chiziqlar butun Olamni olamini tashkil qiladi [3; 62, 169, 170-6.].

Uning katta bobosi portugaliyalik muhojir bo'lib, u o'z navbatida Portugaliyada qo'nim topgan nemis askarining nabirasi edi [4]. Niemeyer bu haqda shunday dedi: "Mening ismim Oskar Ribeyro de Almeyda de Niemeyer Soares yoki oddiygina Oskar de Almeyda Soares bo'lishi kerak edi, lekin chet ellik familya ustunlik qildi va meni oddiygina Oskar Niemeyer deb bilishadi" [5]. U o'zining yoshligini o'sha paytdagi oddiy yosh Karioka sifatida o'tkazdi [6]. 1928 yilda 21 yoshida Niemeyer maktabni (Santo-Antonio Mariya Zakkariya maktabi) tark etdi va Paduadan kelgan italiyalik muhojirlarning qizi [7]. Annita Baldoga uylandi.

Niemeyer Rio-de-Janeyro Federal universiteti qoshidagi Escola Nacional de Belas Artesda tahsil olgan va uni tugatgach, otasining tipografiyasi hamda mahalliy arxitektura firmalarida chizma ishlarini bajaruvchi sifatida ishlagan. 1930-yillarda u Lusio Kosta bilan stajirovka o'tadi va bu juftlik Rio-de-Janeyrodagi Palasio Gustavo Kapanemani loyihalashda hamkorlik qildi. 1934 yilda arxitektura bo'yicha bakalavr darajasini oldi [7].

Niemeyerning birinchi yirik loyihasi Belo Horizonte shimolida rejalashtirilgan Pampulha uchun bir qator binolar edi. Uning ishlari ichida ajralib turuvchi Assisi Avliyo Frensis cherkovi bo'lib ushbu loyiha, tanqidchilar olqishiga sazovor bo'ldi va joihon e'tiborni oziga tortdi. 1940 va 1950 yillar davomida Niemeyer Braziliyaning eng samarali arxitektorlaridan biriga aylandi, u ham mamlakat ichida, ham chet elda ishlaydi. Ushbu davrda Bunga Edifikio Copan (San-Pauludagi katta turar-joy binosi) loyihasi va Le Korbuser bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohida hamkorlikda ishladi, bu esa Yel universiteti va Garvard Oliy dizayn maktabida dars berish uchun taklif qilinishiga sabab bo'ldi.

1956 yilda Niemeyer Braziliyaning yangi prezidenti Juselino Kubitschek tomonidan Braziliyaning yangi poytaxti Braziliya uchun fuqarolik binolarini loyihalash uchun taklif qilindi. Uning Braziliya Milliy Kongressi, Braziliya sobori, Palasio da Alvorada, Palasio do Planalto va Oliy Federal sud uchun 1960 yilda ishlab chiqilgan loyihalari eksperimental edi. Ushbu loyiha uning Braziliya universitetida arxitektura bo'limi boshlig'i etib tayinlanishiga va Amerika arxitektura institutining faxriy a'ziligini olib keldi. Braziliya Kommunistik partiyasi (PCB) bilan aloqasi tufayli Niemeyer 1964 yilgi harbiy to'ntarishdan keyin mamlakatni tark etdi va Parijda ofis ochdi. U 1985 yilda Braziliyaga qaytib keldi va 1988 yilda Pritzker arxitektura bo'yicha nufuzli mukofotiga sazovor bo'ldi. Yoshligidan sotsialist va ateist bo'lgan Niemeyer surgun paytida Kubada va Sovet Ittifoqida ham vaqt o'tkazgan va qaytib kelganida PCB bo'yicha ishlagan. Niteroi zamonaviy san'at muzeyi (1996) va Oskar Niemeyer muzeyi (2002) loyahasini ishlab chiqdi. 78 yillik faoliyati davomida u 600 ga yaqin loyihalarni yaratdi [8]. 2012 yilda Niemeyer o'limidan sal oldin rassom Sara Morris Niemeyerni o'zining ofisida 2012 yilda "Rio" filmi uchun suratga oldi [11].

Niemeyer "Urbanized" filmida o'zining dizayn jarayoni va me'morchilik falsafasini muhokama qiladi. Niemeyer 2012-yil 5-dekabrda Rio-de-Janeyrodagi Samaritano kasalxonasida 104 yoshida vafot etdi [9]. O'limidan oldin u nafas yo'llari infeksiyasi bilan kasalxonaga yotqizilgan edi [10]. U Braziliyadagi Palasio do Planaltoda dafn qilindi.

Xulosa: Niemeyer qarashlari arxitekturani Valter Gropiusnikidan farq qilib, u jamiyatni yangi sanoat davriga moslashtirishga qodir bo'lgan oqilona va sanoat arxitekturasi himoya qilgan. Arxitekturaning "adolatsiz jamiyatni" o'zgartirish qobiliyatiga shubha bilan qaragan Niemeyer bunday faollikni siyosiy yo'l bilan amalga oshirish kerakligini himoya qilgan. Bunday maqsadlarda arxitekturadan foydalanish zamonaviylikka qarshi bo'ladi (chunki bu konstruktiv texnologiyani cheklaydi). [12] Niemeyer shunday deydi: "Bizning tashvishimiz ham siyosiy - dunyoni o'zgartirish ... Arxitektura - mening ishim va men butun umrimni chizmachilik taxtasida o'tkazdim, lekin hayot arxitekturadan muhimroq".

Mukofotlar

- Amerika san'at va fanlar akademiyasining a'zosi (1949)
- "Mehnat xizmatlari uchun" medali (Braziliya, 1959)
- Tinchlik uchun xalqaro Lenin mukofoti (1963)
- Venetsiya Biennalesining Oltin sher (Italiya, 1963)
- Amerika arxitektorlar institutining faxriy a'zosi (1963)
- Milliy san'at va adabiyot institutining faxriy a'zosi (AQSh, 1964)
- Shveysariya avangard bastakori Hermann Meyerning torlar, guruch va pianinolar uchun Niemeyerga bag'ishlangan asari (1967)
- Faxriy legion ordeni (Chevalier de la Légion d'Honneur) (Frantsiya, 1970)
- Shahzoda Genri ordeni qo'mondoni (Portugaliya, 1975 yil 3 mart)
- San'at va adabiyot ordeni qo'mondoni (Ordre des Arts et des Lettres) (Frantsiya, 1982)
- SSSR Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi (1983)
- Arxitektura bo'yicha Pritsker mukofoti (1988) (Gordon Bunshaft bilan)

- Asturiya shahzodasi mukofoti (1989)
- Chiko Mendes qarshilik medali (1989)
- Colegio de Arquitectos de Barselona oltin medali (1990)
- Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan berilgan Buyuk Grigoriy ordeni ritsar qo'mondoni (1990)
- Avliyo Jeyms Qilich ordenining Buyuk xochi (Portugaliya, 1994 yil 26 noyabr)
- San-Paulu universitetining faxriy doktori (1995)
- Minas-Jerais Federal universiteti doktori Honoris Causa (1995)
- Sauri ordeni, 1-darajali (Dominikan Respublikasi, 1996)
- "Oltin sher" Venetsiya biennalesida, VI Xalqaro arxitektura ko'rgazmasi (Italiya, 1996)
- Britaniya arxitektorlari Qirollik institutining Qirollik oltin medali (1998)
- Birdamlik ordeni (Kuba, 2001)
- Darsi Ribeyro "Buyuk xizmatlari uchun" medali (Rio-de-Janeyro shtatining Davlat ta'lim kengashi, 2001)
- Madaniyat yo'nalishi bo'yicha YuNESKO mukofoti (2001)
- O'qituvchilik va madaniyat sohasida xizmatlari uchun ordeni bilan taqdirlangan Gabriela Mistral (Chili Ta'lim vazirligi, 2001)
- "XX asr me'mori" (Braziliya arxitektorlar instituti oliy kengashi, 2001)
- Konex mukofoti (Argentina, 2002)
- Madaniy xizmatlari uchun ordeni (Braziliya, 2007)
- Faxriy Legion ordeni qo'mondoni (Commandeur de la Légion d'Honneur) (Frantsiya, 2007)
- Do'stlik ordeni (Rossiya, 2007)
- Oskar Nimeyer Kommunistik partiyasi marksistik-leninchi medali (2007)
- ALBA san'at mukofoti (Venesuela, 2008), Kuba, Boliviya, Nikaragua [78]
- Ispaniyaning san'at va adabiyot ordeni (2009 yil 6 noyabr)
- Lissabon Texnik Universitetining Doktor Faxriy Kausa (2009)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Niemeyer, Gullar, F. Archived February 28, 2009, at the Wayback Machine (in Portuguese)
2. Salvaing, Matthieu (2002) Oscar Niemeyer. Assouline Publishing. ISBN 2-84323-344-5
3. Niemeyer 2000, pp. 62, 169, 170
4. "Oscar Niemeyer". *geni_family_tree*. December 15, 1907.
5. Botey, Joseph M. (1996) Oscar Niemeyer. Gustavo Gili. ISBN 84-252-1576-5
6. Young, Ana. (December 11, 2014) Life Is More Important Than Architecture: A Celebration of Oscar Niemeyer Archived April 29, 2015, at the Wayback Machine. Soundsandcolours.com. Retrieved on June 30, 2015.
7. Salvaing, Matthieu (2002) Oscar Niemeyer. Assouline Publishing. ISBN 2-84323-344-5
8. William J. R. Curtis in "Oscar Niemeyer: architects and critics pay tribute", in *The Guardian*, December 7, 2012
9. Oscar Niemeyer, Brazilian architect, dies at 104. BBC. Published December 6, 2012. Retrieved December 6, 2012.
10. Ouroussoff, Nicolai (2012). Oscar Niemeyer, Architect Who Gave Brasília Its Flair, Dies at 104. *The New York Times*. Published December 5, 2012. Retrieved December 6, 2012.
11. Sarah Morris Bye Bye Brazil Archived August 7, 2021, at the Wayback Machine. White Cube (September 29, 2013). Retrieved on June 30, 2015
12. Markos Sa Korrea. Oscar Nimeyer. Edouro 2005 yil
13. Godfrey, Peter (April 18, 2010). "Swerve with verve: Oscar Niemeyer, the architect who eradicated the straight line". *The Independent* (London). Archived from the original on May 24, 2022. Retrieved July 13, 2012.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ

№2/2 (111)
2024 й., февраль

Ўзбекча матн муҳаррири:

Русча матн муҳаррири:

Инглизча матн муҳаррири:

Мусахҳиҳ:

Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод

Ҳасанов Шодлик

Ҳамраев Нурбек, Ламерс Жон

Ўрозбоев Абдулла

Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.02.2024
Босишга рухсат этилди: 15.02.2024.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 8,6 б.т. Буюртма: № 2-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18